

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**"IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR,
JIMONIY MADANIYAT VA SPORT" KAFEDRASI**



"FALSAFA"

FANI BO'YICHA

O'QUV USLUBIY MAJMUUA

- Bilim sohasi:** 700000 – Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta'lim sohasi: 710000 – Muhandislik ishi
Ta'lim 60710200 – Biotexnologiya (tarmoqlar bo'yicha)
yo'nalishlari: 60710400 – Ekologiya va atrof muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida)

Samarqand – 2025

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi tasdiqlangan o'quv reja, ishchi o'quv reja, o'quv dasturi va sillabusi (ishchi o'quv dasturi)ga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Jamolov L.O'. - "Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport"
kafedrası dotsenti

Haydarov O.E. - "Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport"
kafedrası katta o'qituvchisi

"FALSAFA" FANINING O'QUV-USLUBIY MAJMUASI:

"Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport" kafedrasining 2025 yil "26" avgustdagi "1" - son yig'ilishida muhokamadan o'tgan hamda o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan (1- bayonnoma).

Kafedra mudiri, p.f.f.d.(PhD), dotsent  **N.N.Narziyeva**

Kelishildi:

O'quv-uslubiy boshqarma
boshlig'i, v.f.n., dotsent  **Sh.X.Qurbanov**

M U N D A R I J A

№	Ma'lumotlar	bet
I	Fanning o'quv dasturi	4
II	Fanning ishchi o'quv dasturi	15
III	Fanning asosiy o'quv materiallari:	20
3.1	Ma'ruza mashg'ulotlari uchun o'quv materiallari	21
3.2	Amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv materiallari	164
3.3	Laboratoriya mashg'ulotlari uchun o'quv materiallari	
3.4	Mustaqil ta'lim bo'yicha o'quv materiallari	178
3.5	Fan bo'yicha glossariy (o'zbek, rus, ingliz tillarida)	181
IV	Fan bo'yicha o'tkaziladigan attestatsiyalar uchun savollar:	197
4.1	1 OB uchun og'zaki savollar-150 ta (<i>auditoriya darslari bo'yicha -75 ta, mustaqil ta'lim bo'yicha-75 ta</i>)	198
4.2	2 OB uchun og'zaki savollar-150 ta (<i>auditoriya darslari bo'yicha -75 ta, mustaqil ta'lim bo'yicha-75 ta</i>)	202
4.3	YaB uchun og'zaki savollar-300 ta (<i>auditoriya darslari bo'yicha -150 ta, mustaqil ta'lim bo'yicha-150 ta</i>)	207
4.4	1 OB uchun yozma ish savollari-150 ta (<i>auditoriya darslari bo'yicha -75 ta, mustaqil ta'lim bo'yicha-75 ta</i>)	215
4.5	2 OB uchun yozma ish savollari-150 ta (<i>auditoriya darslari bo'yicha -75 ta, mustaqil ta'lim bo'yicha-75 ta</i>)	219
4.6	YaB uchun yozma ish savollari-300 ta (<i>auditoriya darslari bo'yicha -150 ta, mustaqil ta'lim bo'yicha-150 ta</i>)	223
4.7	1 OB uchun test savollari-150 ta (<i>auditoriya darslari bo'yicha -75 ta, mustaqil ta'lim bo'yicha-75 ta</i>)	231
4.8	2 OB uchun test savollari-150 ta (<i>auditoriya darslari bo'yicha -75 ta, mustaqil ta'lim bo'yicha-75 ta</i>)	250
4.9	YaB uchun test savollari-300 ta (<i>auditoriya darslari bo'yicha -150 ta, mustaqil ta'lim bo'yicha-150 ta</i>)	272
V	Fan bo'yicha baholash mezonlari	311
VI	Fan bo'yicha tarqatma materiallar	313
VII	O'UMning elektron varianti	341

I. FANNING

O'QUV

DASTURI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**



**"FALSAFA"
FANINING
O'QUV DASTURI**

Ta'lim

yo'nalishi:

Barcha nomutaxassis yo'nalishlar talabalari uchun

Toshkent – 2024

Fan/modul kodi FA1104		O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Falsafa	60		60	120
2.	I. Fanning mazmuni. Falsafa fan sifatida olamdagi voqea-hodisalarning mohiyatini tushunish va ularga munosabat bildirish, insonning o'z hayoti ma'nosi va maqsadini bilish va tanqidiy fikrlash mahoratini shakllantiradi. Falsafa dunyoqarash sifatida “so'zlar, so'zlar va yana so'zlar” orqali inson ongiga ta'sir etadi, unga fikrlash va yo'l tanlash mahoratini o'rgatadi. Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarning oliy ta'lim tizimida egallagan dunyoviy, falsafiy, ilmiy va axloqiy bilimlardan ijtimoiy – ma'naviy hayotda maqsadli foydalanish malakalarini shakllantirishdan iborat. Fanning vazifalari – talaba yoshlarda falsafiy, ilmiy va axloqiy bilimlarni shakllantirish, falsafiy, tabiiy-ilmiy bilimlarning ijtimoiy ahamiyatini, texnika va texnologiyalarning inson pragmatik ehtiyojlariga javob sifatidagi evolyusiyasi, milliy qadriyatlar, madaniyat va ommaviy madaniyatning o'zaro aloqasi va farqi, dunyoni bilish, haqiqatni anglashda amaliyot va faoliyat uyg'unligini ta'minlashning ahamiyati, tog'ri fikrning ijobiy maqsadlarga erishishdagi o'rni, global korrupsiyaning sabablari va shakllarini bilish, ularga qarshi kurashish, dunyoviy bilim va malakalarni yangilanayotgan O'zbekistondagi islohotlar jarayonida to'liq namoyon qilish, ijtimoiy va professional mas'uliyatni va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish tuyg'usini shakllantirishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-MODUL. FALSAFA 1-mavzu. Falsafaning mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli Falsafaning fan va dunyoqarashga doir mohiyati. Falsafaning predmeti va asosiy masalalari. Falsafiy bilimning strukturasi. Falsafaning asosiy funksiyalari. Falsafaning jamiyatdagi ahamiyati yoki amaliy falsafa. Dunyoqarashning mohiyati, tuzilishi va funksiyalari. Dunyoqarashning tarixiy shakllari: mifologik dunyoqarashning mohiyati va funksiyalari. Diniy dunyoqarashning mohiyati, funksiyalari va tarixiy ildizlari. Diniy e'tiqodning tarixiy shakllari. Falsafiy dunyoqarashning mohiyati. Ilmiy dunyoqarash va unig rivojlanish bosqichlari. Falsafa va fanning mutanosibligi va farqi. Raqamli sivilizatsiya davrida falsafaning yoshlar ongida to'g'ri fikrlash mahorati va mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi ahamiyati. 2-mavzu. Sharq falsafasining mohiyati va ijtimoiy taraqqiyotdagi roli Qadimgi Sharq va G'arb falsafasi vujudga kelishi, rivojlanishining umumiy qonuniyatlari va farqlari. Qadimgi janubiy Sharq (Hindiston) va Shimoliy sharq (Xitoy) falsafasining mohiyati, axloqiy g'oyalarining yoshlar tarbiyasidagi o'rni. Avesto				

muqaddas manbasida olamning tuzilishi, shaxs tarbiyasiga oid g'oyalarning hozirgi davrdagi ahamiyati. O'rta asrlarda Sharq va G'arb falsafasi rivojlanishining umumiy belgilari. Al-Farg'oniy, Al Xorazmiy, Al-Beruniyning tabiiy-ilmiy, axloqiy, siyosiy qarashlarining mohiyati va hozirgi davrdagi ahamiyati. Al-Forobiy, Ibn Sinoning inson tarbiyasiga oid g'oyalari va ularning hozirda davdagi ahamiyati. Sharq mutafakkirlari J.Rumi, G'azzoliy, Nizomulmulk, ar-Roziy, N.Ganjaviy, A.Jomiy, A.Navoiy, M.Ulug'bek, Mashrab, Gulxaniy, Ogahiy, Furqat, Muqumiy, Maxtumlulquli, A. Donish axloqiy qarashlarining yangi O'zbekiston yoshlari tarbiyasidagi o'rni. Tasavvuf falsafasida olam va odam haqidagi qarashlarning mohiyati. Yu. Hamadoniy, A.Yassaviy, B. Haqshbandiy axloqiy ta'limotining shaxsning ma'naviy kamolotga erishishdagi o'rni. XIX-XX asrda jadidizmning rivojlanishidagi ijtimoiy tarixiy sharoitlar. I. Gaspirali, M. Abdurashidxonov, A. Avloniy, M. Behbudiy, A.Fitrat, Cho'lpon, A.Qodiriy, U.Nosir ma'rifatparvarlik g'oyalarining yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi roli. XX-XXI asr o'zbek falsafasining barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi ijtimoiy ahamiyati.

3-mavzu. G'arb falsafasining ustuvor yo'nalishlari va ularning fan taraqqiyotiga ta'siri

Qadimgi Yunon falsafa maktablarining fan taraqqiyotiga ta'siri. Geraklitning dunyo o'zgaruvchanligi haqidagi g'oyalarining mohiyati. Sokrat qarashlarining ijtimoiy ahamiyati. Demokritning atomlar haqidagi ta'limotining olam haqidagi qarashlar transformatsiyasidagi o'rni. Platonning davlat boshqaruvi haqidagi g'oyalari. Aristotelning axloq haqidagi qarashlarining hozirgi davrda shaxs tarbiyasidagi ahamiyati. Ilk O'rta asrlarda Yevropa falsafiy tafakkuri rivojlanishining asosiy shakllari: apologetika va patristika. Avgustin ta'limotining olam va odamni tushunishdagi ahamiyati. Sxolastika maktabi g'oyalarining jamiyat taraqqiyotidagi roli. U.Okam va Foma Akvinskiy ta'limotining jismlar mohiyatini tushunishdagi ahamiyati. Uyg'onish davri Yevropa falsafasida panteizm, antroposentrizm va dialektikaning rivojlantirilishi. Yangi davr G'arb falsafasida borliq va jamiyatni bilish haqidagi qarashlar talqini. XVIII asr Yevropa ma'rifatparvarlari g'oyalarining axloqiy tarbiyadagi roli. Nemis klassik falsafasining inson mohiyatini tushunishdagi ahamiyati. XIX-XX asr G'arb falsafasining mohiyati va uning shaxslararo munosabatlarga ta'siri. XXI asr G'arb falsafasining yo'nalishlari va uning iste'mol jamiyatini shakllantirishdagi o'rni. G'arb falsafasida madaniyat industriyasining tanqidi va psixoanaliz ta'limotining zamonaviy shaxs tarbiyasidagi roli.

4-mavzu. Borliq falsafasi (Ontologiya)

Borliq tushunchasining mohiyatiga oid falsafiy va tabiiy ilmiy konsepsiyalar. Borliq va yo'qlik dialektikasi. Sof borliq g'oyasi. Falsafa tarixida borliq haqidagi qarashlar dialektikasi. Borliq shakllarining tasnifi. Biosfera va noosfera haqidagi ta'limotlar, Koevolyutsiya-(ekotizimda o'zaro ta'sir qiluvchi biologik turlarning birgalikdagi moslashish evolyutsiyasi,) va environmentalizm (ekologiya nazariyalarida borliqni asrash g'oyasi). O'zbekistonda "Yashil makon" umummilliy dasturining tabiatni asrashdagi ahamiyati. Borliqda substrat, substansiya va materiyaning o'zaro aloqasi. Materiya o'ld konsepsiyalar tasnifi. Borliqda materiya harakatining mohiyati, tiplari va shakllari. Borliqda makon va vaqtning substansional, relatsion, dinamik va statik konsepsiyalari. Makon va vaqtning topologik va metrik xossalari. Ijtimoiy makon

va ijtimoiy vaqt dialektikasi.

5-mavzu. Rivojlanish falsafasi

Borliqda narsa va hodisalarning paydo bo'lishi, shakllanishi, o'zgarishi, rivojlanishi va taraqqiyotining o'zaro aloqadorligi. Rivojlanish qonunlarining mohiyati, ularning tabiiy va ijtimoiy jarayonlardagi o'rni. Falsafa kategoriyalarining tasnifi va ularning rivojlanish jarayonlaridagi roli. Rivojlanishda borliqning chekliligi va cheksizligi, potensial va aktual cheksizlik. Borliqning birligi va rang barangligi. Borliqning rivojlanishida geotsentrik va nogeotsentrik moddiy tizimlar, kengayuvchi olam, universal kosmik gologramma, torsion maydonlar haqidagi ilmiy dalillar. Qizil siljish nazariyasining rivojlanish va o'zgarish jarayonlariga ta'siri. In'ikos nazariyasi va uning rivojlanish jarayonidagi o'rni. R.Anoxin in'ikos nazariyasining mohiyati.

6-mavzu. Bilish falsafasi

Bilish jarayonining mohiyati va mezonlari. Bilish va bilimga oid yondashuvlar tasnifi: sensualizm, empirizm, ratsionalizm, otpimizm, skeptitsizm va agnostitsizm. Bilimning asosiy turlari va shakllari. Bilishda sub'yekt va ob'yektning o'zaro aloqasi. Bilishning faoliyat turi sifatida o'zgaruvchanligi. Bilishdagi qarama-qarshiliklar. Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy, intuitiv bilish darajalari. Haqiqat bilishning mezon. Isbotlash va rad etish, yolg'on va yanglishishning haqiqatni bilishdagi roli. Bilish natijalarini baholashning ahamiyati. Bilishning ma'naviy qadriyatlari. Amaliyot haqiqatning mezon. Metod, metodika metodologiyaning o'zaro aloqasi va farqi. Bilish metodlarining tasnifi, o'zaro aloqasi va farqi. Ijtimoiy gumanitar fanlar metodlari. Hozirgi zamon metodologiyasi.(Kumatoid, keys stadi, abduksiya). Bilish jarayonida tushunish va tushuntirishning roli. Simvol va semiotik belgilarning ma'noni ahqlashdagi ahamiyati.

7-mavzu. Mantiq

Mantiqning mohiyati. Formal, noformal, dialektik, matematik mantiqning o'zaro aloqasi. Mantiqiy semantikaning fikr ravonligini ta'minlashdagi roli. Mantiq va ritorika, til va mantiq dialektikasi. Tafakkur qonunlari va shakllari. Tafakkur va til mutanosibligi. Tushuncha tafakkur shakli. Tushunchaning turlari va ular orasidagi aloqalar. Hukmning mohiyati va qoidalari. Bo'linishning mohiyati, turlari va qoidalari. Oddiy hukmlarning turlari va tarkibi. Qat'iy hukmlarning tasnifi. Murakkab hukmlar. Deduktiv xulosa chiqarishning fikr ravonligini ta'minlashdagi roli. Bo'linuvchi kategorik xulosa, shartli ajratuvchi xulosa. Sillogizm nazariyasi. Murakkab va murakkab qisqartirilgan sillogizm. Induktiv xulosa. Ommabop induksiya. Ilmiy induksiya. Analogiya bo'yicha xulosa. Analogiya turlari. Argumentatsiya (mantiqiy asoslar)ning tarkibi, sub'yektlari, tuzilishi. Bahslashish usullari, asoslash va tanqid qilish. Isbotlash va rad qilishda dalillarning o'rni. Tanqidiy tafakkurning mantiqiy xulosa chiqarishdagi roli. Gipotezaning mohiyati, turlari, gipotezani tekshirish. Savollar va javoblar mantig'i. Savollar va javoblar turlari.

8-mavzu. Jamiyat falsafasi

Jamiyat tushunchasining mohiyati va uning rivojlanish bosqichlari. Jamiyatning paydo bo'lishiga oid qarashlar dinamikasi. Jamiyat rivojlanishining iqtisodiy asoslari, mulk, moddiy ishlab chiqarishning mohiyati. Xususiy tadbirkorlik va ishbilarmonlikning iqtisodiy barqarorlikga erishishdagi roli. Jamiyat rivojining siyosiy

asoslari. Davlat boshqaruvi shakllari. Fuqarolik jamiyati, davlat boshqaruvi va demokratiya. Jamiyat rivojining ma'naviy asoslari. Ma'naviy hayot mezonlari. Ma'naviy kamolot omillari. Jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy asoslari. Ijtimoiy birliklar va guruhlar, etnik birliklar, tabaqalar, sinflar, hududiy guruhlar. O'zbekistonda fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishning asosiy yo'nalishlari. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va yangilangan konstitutsiyaning ijtimoiy ong transformatsiyasiga ta'siri. O'zbekistonda "Yangi ma'naviy muhit yaratish" va "Ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi.

9 - mavzu. Tarix falsafasi, sivilizatsiya va madaniyat

Tarix falsafasining tuzilishi, funksiyalari va tarixiy jarayon mazmunini belgilashga oid yondashuvlar. Sivilizatsiya tushunchasi va uning tiplari. Sivilizatsiya va madaniyat mutanosibligi. Madaniyat tushunchasi, uning tuzilishi va ijtimoiy funksiyalari. Madaniyatning ichki tuzilishi. Madaniyatning sub'ekti. Madaniy faoliyat dinamikasi. Madaniy predmetlilik va madaniy kommunikatsiyaning ahamiyati. O'zbek madaniyati va etnomadaniyat dialektikasi. Madaniyatlararo kommunikatsiyaning axloqiy tarbiyaga ta'siri. Dunyo xalqlari madaniyatidagi umumiylik va farqlar. Ommaviy madaniyatning shakllanish tarixi va uning turlari: aksilmadaniyat, submadaniyat, populyar madaniyat, ekran madaniyati. XXI asrda an'anaviy va zamonaviy madaniyat uyg'ung'unligini ta'minlashning ahamiyati va ularning axloqiy tarbiyadagi o'rni.

10 - mavzu. Inson falsafasi (Falsafiy antropologiya)

Falsafada insonning mohiyatiga oid qarashlar tasnifi. Insonni tushunishga dualizm, monizm va fan nuqtai-nazaridan yondashuv. Insonning ko'p o'lchovligi. Insonning bioijtimoiy, madaniy mohiyati. Passionarlik, subpassionarlik va muvofiq odamlar nazariyasining mohiyati. Ijtimoiy ongning strukturasi va funksiyalari. Ijtimoiy ong shakllari. Ijtimoiy psixologiya. Inson faoliyatida onglilik va ongsizlik dialektikasi. Ong, til va tafakkur dialektikasi. Texnologik taraqqiyotning klipli tafakkur shakllanishiga ta'siri. Falsafiy antropologiya mohiyati, predmeti va vazifalari. Hayotning ma'nosi va unda insonning vazifasi. Iztirob, qo'rquv, agressiyaning tabiati. O'limning tabiiyligi va muqarrarliligi (tabiiy o'lim, suitsid, parasuitsid, evtanaziya, esxatologiya). Antrop tamoyilning mohiyati. Inson faoliyatining tuzilishi va atributlari. Inson faoliyatida onglilik va maqsadga muvofiqlikning ahamiyati. Muloqot faoliyat sifatida. Mehnat, o'yin, ijodning faoliyat turi sifatida inson kamolotiga ta'siri. Inson faoliyatini tartibga solishning ahamiyati.

11-mavzu. Qadriyatlar falsafasi

Qadriyat tushunchasining ma'nosi va uning umumiy tasnifi. Qadriyat kategoriyasining mazmuni. Qadriyatlarning turlari: moddiy va ma'naviy, umuminsoniy, milliy, shaxsiy, axloqiy qadriyatlar. Jamiyat va inson hayotida qadriyatlarining roli. Oilaning qadriyatga doir jihatlari. Oila sha'nini saqlashda avlodlararo vorisiylikning o'rni. Oiladagi ajralishlar va uning inson psixologiyasiga salbiy ta'siri. Oilaviy qadriyatlarga nisbatan an'anaviy va noan'anaviy yondashuvlar. Davlatning oila farovonligi va barqarorligini ta'minlashdagi o'rni. Muhabbat va nafrat, baxt va baxtsizlikning qadriyatli jihatlari. Gender tengligini ta'minlashning iqtisodiy-ijtimoiy omillari. Qariyalarni qadrlashning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati va yoshlar

tarbiyasidagi o'rnini. Mahalla – o'zbek milliy qadriyati sifatida. Sog'likning qadriyat sifatidagi ahamiyati. Uchinchi ming yillikda qadriyatlarning transformasiyasi. Qadriyatlar va baholar dinamikasi. Qadriyatlarni baholashning ahamiyati. Sog'lom turmush tarzining qadriyatli jihatlari. Jamiyatda qadrlanish va qadrsizlanish jarayonlari.

12-mavzu. Etika

Etikaning mohiyati va ahamiyati. Zamonaviy axloqning asosiy sohalari: metaetika, normal etika, amaliy etika. Etikaning asosiy kategoriyalari. Etikada ijtimoiy adolat tamoyili. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov. Sharq va G'arb mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. Axloqning shakllanishiga oid genetik va diniy yondashuvlar tasnifi. Gedonizm va evdomonizm ta'limotlarining axloqiy tarbiyaga ta'siri. Zamonaviy axloqiy tarbiyada kosmopolitizmga moyillik. Kasbiy axloq va mehnat etikasi: komp'yuterdan foydalanish etikasi, blogger etikasi, xaker etikasi, kiberetika, tibbiy etika, yuridik etika, kutubxona etikasi, ijtimoiy hayot etikasi. Siyosat va axloq o'rtasidagi munosabat. Siyosatda professional etika va yangi axloq siyosati. Ekologik etika. Ishbilarmonlik etikasi. Davlat tashkilotlari va davlat xizmati tizimidagi kasbiy etika.

13-mavzu. Estetika

Dunyoni estetik idrok etishning mohiyati. Estetik ong va uning strukturasi. Estetikaning asosiy kategoriyalari: ulug'vorlik, tubanlik, fojiaiviylik, kulgililik, mo'jizaviylik, xayoliylik va qiziqarlilik. Sharq va G'arb mutafakkirlarining estetik qarashlari. Estetikaning zamonaviy yondashuvlari. Estetik did va olamni estetik idrok etishning shaxs kamolotiga ta'siri. Olamni virtual va vizual estetik idrok etishning farqlari. Badiiy asarni estetik idrok etishning darajalari. Estetik dizayn va landshaft dizaynda milliylik va zamonaviylik dialektikasi. San'at dunyoni estetik idrok etish shakli. San'atning turlari va funksiyalari. Xalq amaliy san'atining estetik jihatlari. San'atdagi inqiroz (degumanizatsiya). Tushkunlik san'ati va undan chiqish mahorati. Yoshlarda estetik didni tarbiyalashning ahamiyati.

2-MODUL. GLOBAL JARAYONLAR DIALEKTIKASI

14-mavzu. Global jarayonlar va barqaror taraqqiyot falsafasi

Globallashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot jarayonlarining mohiyati. Global jarayonlarning shakllanish tarixi. Global muammolarning mezonlari va darajalari. Globallashuvning fundamental asoslari va xususiy jihatlari. Global muammolarning tasnifi: urush va tinchlik, demografiya, migratsiya, ta'lim, energetika, ekologiya, oziq-ovqat, urbanizatsiya. Global jinoyatchilik va uning oldini olishda xalqaro hamkorlikning zarurati. Sportning globallashuvi va uning sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rnini. Global etika muammolari. Global makonda texnika, axborot texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va virtual reallikning mutanosibligi. Nanotexnologiyalar va biometrik identifikatsiya qilish texnologiyalarining jamiyat taraqqiyotiga ta'siri. Global muammolarni bartaraf etishda xalqaro kuchlar birlashuvining ahamiyati. Global muammolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar mutanoosibligi.

15-mavzu. Korrupsiyaning mohiyati, oqibatlari va unga qarshi kurash mexanizmlari

Korrupsiya tushunchasining mohiyati, tarixiy ildizlari va jamiyatda namoyon bo'lishiga oid qarashlar tasnifi. Korrupsiyaning sabablari. Korrupsiyaning ijtimoiy

hayotdagi ko‘rinishlari va uning axloqiy tarbiyaga salbiy ta’siri. Siyosiy, g‘oyaviy va iqtisodiy korrupsiya – xavfsizlikka tahdid. Kadrlar korrupsiyasi va uni bartaraf etish mexanizmlari. Xalqaro korrupsiya iqtisodiy-siyosiy manfaatlar to‘qnashuvi oqibati sifatida. O‘zbekistonda korrupsiyaning turlari: favoritizm, nepotizm, kronizm va mahalliychilikni bartaraf etishda jamoatchilik nazorati va shaxsiy mas’uliyatning o‘rni. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning yo‘nalishlari va huquqiy asoslari. Korrupsion jinoyatlarning oldini olish shakllari va asosiy yo‘nalishlari. Korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro tajriba. O‘zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro hamkorligining maqsadlari va yo‘nalishlari. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashda OAVning o‘rni va axloqiy ahamiyati.

III. Seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Falsafaning mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli
2. Sharq falsafasi va uning ijtimoiy taraqqiyotdagi roli
3. G‘arb falsafasining ustuvor yo‘nalishlari va ularning fan taraqqiyotiga ta’siri
4. Borliq falsafasi
5. Rivojlanish falsafasi
6. Bilish falsafasi
7. Mantiq
8. Jamiyat falsafasi
9. Tarix falsafasi, sivilizatsiya va madaniyat
10. Inson falsafasi
11. Qadriyatlar falsafasi
12. Etika
13. Estetika
14. Global jarayonlar va barqaror taraqqiyot falsafasi
15. Korrupsiyaning mohiyati, oqibatlari va unga qarshi kurash mexanizmlari

Seminar mashg‘ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyalardan bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Falsafaning mohiyatiga oid Sharq va G‘arb mutafakkirlari ta’riflarini tasniflash va ular bo‘yicha prezentatsiya tayyorlash.
2. Senekaning “Lutsiliyga axloqiy xatlari” asarini o‘qish va shu xatlar asosida talabalarning o‘z hayoti va faoliyatiga baho berilgan esse tayyorlash
3. Abu Nasr Forobiy va G‘azzoliyning falsafa ilmiga oid qarashlarini qiyosiy tahlil etish (Forobiyning “Siyosat falsafasi” va G‘azzoliyning “Kimyoi saodat” asarlari asosida).
4. Noklassik ontologiyaning yo‘nalishlari va mohiyati bo‘yicha esse tayyorlash (M.Xaydeggerning Borliq va vaqt asari asosida)
5. “Aristotel, Forobiy va Kant ontologiyasida kategoriyalarning tasnifi” mavzusida esse tayyorlash, (krossvord tayyorlash).

	6. A.Fitratning “Oila asari”dagi oila qurish tartiblari va farzand tarbiyasiga oid g’oyalari bo’yicha esse tayyorlash. 7. A.Fitratning “Rahbari najot” risolasidagi “Baxtsiz odamlarning ikki toifasi”ga oid qarashlari bo’yicha esse tayyorlash, videorolik tanlovini o’tkazish. 8. Avloniyning “Madaniyat to’lqinlari” maqolasi va E.To’fflarning “Uchinchi to’lqin” asarini qiyosiy tahlil etish, prezentatsiya tayyorlash. 9. “Axborotlashgan jamiyat va uning istiqbollari” mavzusida esse tayyorlash (A.Toynbi, E.To’ffler asarlarining qiyosiy tahlili asosida). 10. “Dunyoni estetik idrok etishda badiiy asarlarning ahamiyati” mavzusida esse tayyorlash. 11. “Dunyo xalqlari madaniyatidagi umumiylik va farqlar” mavzusida videorolik tayyorlash. 12. “Dunyo xalqlari miflari” haqida krossvord tayyorlash. 13. J.Rumiyniing “Ovchi va lochin” rivoyatining mohiyati va uning tarbiyaviy ahamiyatini tahlil etish (Ichindagi ichindadir asari asosida). 14. “Zamonaviy axloqiy tarbiyaning yutuqlari va kamchiliklari” mavzusida esse tayyorlash. 15. “Koevolyutsiya va environmentalizm dialektikasi” mavzusida esse tayyorlash (O’zbekistonga qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o’simliklar haqida ma’lumotlarni aniqlash) O’zbekiston tabiati mavzusida krossvord tayyorlash. 16. M.Behbudiyniing “Yoshlarga murojaat” va “Muhtaram yoshlarga murojaat” maqolalarini tahlil etish va esse tayyorlash. 17. 17. Makiavelliniing “Xukmdor” asari bo’yicha taqdimot tayyorlash. 18. G’azzoliyniing “Tavba” asarini tahlil etish va talabalarning o’z faoliyatida mavjud ofatlarni aniqlash va o’ziga baho beruvchi esse tayyorlash. 19. Ibn Tufayl va Ibn Sinoniing “Xay ibn Yakzon o’g’li” risolasini qiyosiy tahlil etish va esse tayyorlash. 20. “Korrupsiyaning mohiyati va uning oqibatlari” mavzusida viktorina o’tkazish, videoroliklar tanlovini tashkil etish. 21. “O’zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari” mavzusida esse tayyorlash. 22. Nizomulmulkniing “Siyosatnoma” asari bo’yicha jamiyat boshqaruviga oid g’oyalarni tahlil etish va esse tayyorlash 23. S.Xantingtonniing “Sivilizatsiyalar to’qnashuvi” asarini o’qish va mohiyati bo’yicha esse tayyorlash. <i>Mustaqil o’zlashtiriladigan mavzular bo’yicha talabalar tomonidan esselar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</i>
3.	V. Fan o’qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o’zlashtirish natijasida talaba: dunyo haqidagi qadimgi va zamonaviy falsafiy bilimlarni o’rganish asosida professional faoliyatni to’g’ri tashkil etish, ijtimoiy mas’uliyatni oshirish, davlat siyosatiga dahldorlik tuyg’usini shakllantirish, ijtimoiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilish, Qadimgi, O’rta asrlar, Yangi va eng Yangi davr Sharq va G’arb falsafasining asosiy g’oyalari, G’arb renessansi shakllanishiga O’rta asr Sharq falsafasining ta’siri, Yangi va eng yangi davr falsafasining muhim xususiyatlari bo’yicha tasavvurga ega

	bo'lishi; • ontologiyaning yo'nalishlari, gen ontologiyasi, bioontologiya, tibbiyot ontologiyasining ijtimoiy ahamiyati, fizik va falsafiy ontologiyaning o'zaro aloqasi va farqlari, axborotlashgan jamiyatda texnologiyalardan foydalanishda inson va jamiyat manfaatlarini himoya qilish, tabiat ontologiyasida biosfera va noosferaning o'rni, ong ontologiyasining transformasiyasi, ijtimoiy ekologiya, ekologik ta'lim va tarbiya haqida bilishi va ulardan foydalana olishi; • Internet ijtimoiy tarmoqlarida axborotni tanlash va ulardan foydalanish usullarini egallash; o'zining kasbiy faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qilish, bakalavriatning mos yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lish, kiberterrorizm, kiberzo'ravonlik (cyberbullying)ga qarshi mafkuraviy immuniteti shakllangan bo'lishi, globallashuv va barqaror taraqqiyotning omillari, korrupsiyaning global ma'naviy inqiroz oqibati sifatida barqaror taraqqiyotga salbiy ta'sirini bilish, unga qarshi kurashda dahldorlik tuyg'usi shakllantirish, ijtimoiy jarayonlarni prognozlashtirish, jismoniy va ruhiy sog'lik, tafakkur xavfsizligini ta'minlash, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, tanqidiy tafakkur imkoniyatlaridan jamiyat barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy nazorat va shaxsiy mas'uliyatni oshirish maqsadlarida foydalanish b'oyicha malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlarda (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javob) • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021.667-b. 2. Davronov Z., Shermuhamedova N, Qahharova M, Nurmatova M, Husanov B, Sultonova A. Falsafa, o'quv qo'llanmasi – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b 3. Saifnazarov I., Muxtorov A., Ernazarov D, Usmonov F. Falsafa, o'quv qo'llanmasi – Toshkent: Innovation rivojlanish nashriyot –matbaa uyi, 2021. – 424 b. 4. Madaeva Sh., Shermuhamedova N.va boshqalar Falsafa, o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: 2019 5. Чумаков А.Н. Философия, учебник.– М.: INFRA. 2018.– 320 с. Qo'shimcha adabiyotlar 6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 416 b. 7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik davlatini birgalikda quramiz. –

	Toshkent: O'zbekiston, 2021 8. Muxammadjonova L.A. Davlat xizmatchisi etikasi va imidji. – Toshkent: Universitet, 2017. 9. Ўзбекистоннинг коррупцияга қарши кураш стратегияси/Алиев Б, Мухтаров А., Норов Т., / ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДИУ, 2022. –320 б. 10. Nishonova O.Dj. O'zbek etnomadaniyatining estetik xususiyatlari. – Toshkent: Universitet, 2023 11. Раматов Ж. Лойко А., Жоголь Н., Кушаков Ф. Основные проблемы философии. –Ташкент: 2022 12. Саифназаров И. Мухтаров А., Абдуллаханова Г, Алиматова Н., Эрназаров Д, Философия. Учебник (для вузов экономических специальностей). – Ташкент: Innovation rivojlanish nashriyoti – matbaa uyi. 2021. – 424 с. 13. Hakimov N.X. Amriddinova D. Jadidchilik ta'limotida komil inson konsepsiyasining falsafiy mohiyati.–Toshkent: Iqtisodiyot, 2023. 14. Sharipov M. Mantiq. – Toshkent: Universitet, 2003 15. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish –Toshkent: Innovasiya –Ziyo, 2024.
7.	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti O'quv jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etish boshqarmasining 2024 yil ____dagi ____sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: Shermuxamedova N.A. – O'zMU “Falsafa va ma'naviyat asoslari” kafedrasini mudiri, falsafa fanlari doktori, professor Djalilov B.X. – O'zMU “Falsafa va ma'naviyat asoslari” kafedrasini dotsenti, falsafa fanlari nomzodi Qahharova M. – O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori, f.f.d. Muhammadjonova L.A. – O'zMU “Etika va estetika” kafedrasini professori, falsafa fanlari nomzodi. Sulaymonov J. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Falsafa” kafedra mudiri, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
9.	Taqrizchilar: To'rayev Sh. N. – Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent Saifnazarov I.S. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, falsafa fanlari doktori Abdullaeva N.B. – O'zMU “Falsafa va ma'naviyat asoslari” kafedrasining professori, falsafa fanlari doktori

II. FANNING ISHCHI O‘QUV DASTURI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI



FALSAFA

FANI BO'YICHA

SILLABUSI

Kunduzgi ta'lim shakli uchun

Bilim sohasi:	700000	-	Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta'lim sohasi:	710000	-	Muhandislik ishi
Ta'lim yo'nalishlari:	60710200	-	Biotexnologiya (tarmoqlar bo'yicha)
	60710400	-	Ekologiya va atrof muhit muhofazasi (tarmoqlar bo'yicha)
	60711400	-	Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida)



Modul / FAN SILLABUSI

Biotehnologiya fakulteti

60710200 – Biotehnologiya (tarmoqlar bo'yicha),

60710400 – Ekologiya va atrof muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha),

60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishlari



Fan nomi:	Falsafa
Fan turi:	Majburiy
Fan kodi:	FAL.B1604, FAL.B1504
Yil:	2025-2026
Semestr:	5, 6
Ta'lim shakli:	Kunduzgi
Mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlari:	120
Ma'ruza	30
Amaliy mashg'ulotlar	–
Laboratoriya mashg'ulotlari	–
Seminar	30
Mustaqil ta'lim	60
Kredit miqdori:	4
Baholash shakli:	Imtihon
Fan tili:	O'zbek

Fan maqsadi (FM)

FM1	Talabalarining oliy ta'lim tizimida egallagan dunyoviy, falsafiy, ilmiy va axloqiy bilimlardan ijtimoiy-ma'naviy hayotda maqsadli foydalanish malakalarini shakllantirishdan iborat
-----	---

1.	Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar Ijtimoiy-gumanitar fanlar
----	--

Ta'lim natijalari (TN)

TN1	Bilimlar ilmiy dunyo haqidagi qadimgi va zamonaviy falsafiy bilimlarni o'rganish asosida professional faoliyatini to'g'ri tashkil etib olish;
TN2	Ijtimoiy mas'uliyatni oshirish, davlat siyosatiga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish, ijtimoiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilish;
TN3	Qadimgi, O'rta asrlar, Yangi va Eng yangi davr Sharq va G'arb

- qo'ysa:
- bayon qilish ravon bo'lmasa;
 - fan bo'yicha savollarga chalkash javoblar bersa;
 - fan bo'yicha ma'n puxtas shakllantirilmagan bo'lsa;
 - q) quyidagi holatlar talabning bilim darajasi qoniqsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:
 - fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rilgan bo'lsa;
 - fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;
 - fan bo'yicha ma'lumotlarni boshqalardan ko'chirib olinganligi sezilib tursa;
 - fan bo'yicha ma'nada jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;
 - fan bo'yicha berilgan savollarga javob olinmаса;
 - fanni bilmasa.

Fan o'qituvchilari haqida ma'lumot

Muallif:	O.E.Haydarov – SamDV/MCHBU, "Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport" kafedrasi katta o'qituvchisi
E-mail:	obidhaydarov@mail.ru
Tashkilot:	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotehnologiyalar universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport" kafedrasi
Taqdirlash:	I.S.Safinazarov – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, falsafa fanlari doktori O.J.Nisomova – O'ZMU "Falsafa va ma'naviyat asoslari" kafedrasining professori, falsafa fanlari doktori D.I.Fayzxo'jaeva – O'ZMU "Falsafa va mantiq" kafedrasining dotsenti, falsafa fanlari doktori (Dsc)

Mazkur Sillabus universitet o'quv-uslubiy Kengashining 2025 yil "25" dagi 6 sonli yig'ili shi bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur Sillabus "Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport" kafedrasining 2025 yil "25" dagi 05 sonli yig'ili shi bayoni bilan ma'qullangan.

O'quv-uslubiy boshqaruv boshlig'i:

Kafedra mudiri:

Tuzuvchilar:

Sh.Qurbonov

N.Narziyeva

O.Haydarov

L.Jamolov

6.	Мухтаров А., Норов Т., / ўқув кўлидима. – Тошкент: ТДИУ, 2022. – 320 б.
10.	Nishonova O.Dj. O'zbek etimodaniyatining estetik xususiyatlari. – Toshkent: Universitet, 2023
11.	Раматов Ж. Лойко А., Жоголь Н., Кушаков Ф. Основные проблемы философии. – Тошкент: 2022
12.	Саифназаров И. Мухтаров А., Абдуллаханова Г., Алиматова Н., Эрнатаров Д. Философия. Учебник (для вузов экономических специальностей). – Тошкент: Innovasion t'vorajlash nashriyoti – matbaa uyi. 2021. – 424 с.
13.	Xakimov N.X. Amriddinova D. Jadidchilik ta'limotida komil inson konsepsiyasining falsafiy mohiyati. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.
14.	Sharipov M. Mantiq. – Toshkent: Universitet, 2003
15.	Shermukhamedova N.A. Falsafaga kirish – Toshkent: Innovasiya – Zivo, 2024.

Talabning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

5 baho olish uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- faning mohiyati va mazmunini to'liq yoritib olish;
- fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'yinmas;
- fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;
- fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olish;
- berilgan savollarga aniq va to'rtinchi javob bera olish;
- konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;
- mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;
- fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ilmiy maqola chop ettirgan bo'lsa;
- tartibiy jarayonlarni shartlay bilsa;
- b) 4 baho olish uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:**
- faning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'yinmas;
- faning mazmunini amaliy ahamiyatini tushingan bo'lsa;
- fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'qov dasturi doirasida bajarsa;
- fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olish;
- fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa;
- fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni o'zlashtirgan bo'lsa;
- v) 3 baho olish uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:**
- fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;
- fandagi mavzularni to'rtinchi yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l

TN4	falsafaning asosiy g'oyalari, G'arb renessansi shakllanishiga O'ta asr Shaq falsafasining ta'siri, Yangi va eng yangi davr falsafasining muhim xususiyatlari bo'yicha tasavvurga ega bo'lish;
TN5	Ontologiyasining yo'nalishlari, gen ontologiyasi, bioontologiya, tibbiyot ontologiyasining ilmiy ahamiyati, fizik va falsafiy ontologiyasining o'zaro aloqasi va farqlari, axborotlashgan jamiyatta texnologiyalardan foydalanishda inson va jamiyat manfaatlarini himoya qilish, tabiat ontologiyasida biosfera va noosferaning o'rni, ong ontologiyasining transformatsiyasi, ilmiy ekologiya, ekologik ta'lim va tartibga solish haqida bilishi va ulardan foydalana olishi lozim
TN6	Ko'nikmalar jihatidan: Internet ilmiy tarmoqlarda axborotni tanlash va ulardan foydalanish usullarini egallash;
TN7	O'zining kasbiy faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qilish, bakalavriatning mos yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lish;
TN8	Kiberterrorizm, kibernetika (cyberbullying)ga qarshi ma'kura'y immuniteti shakllangan bo'lishi, globallashuv va barqaror taraqqiyotning omillari, korruptsiyaning global ma'naviy inqiroz oqibati sifatida barqaror taraqqiyotga salbiy ta'siri bilish, unga qarshi kurashda dahlkorlik tuyg'usini shakllantirish;
	Ilmiy jarayonlarni prognozlash, jismoniy va ruhiy sog'lik, tafa'kur xavfsizligini ta'minlash, sog'lom tumshuk tarzga ro'ya qilish, tanqidiy tafakkur imkoniyatlaridan jamiyat barqarorligini ta'minlash, ilmiy nazorat va shaxsiy mas'uliyatni oshirish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak

Fan mazmuni	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	Falsafaning mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli
M2	Sharq falsafasining mohiyati va ilmiy taraqqiyotidagi roli
M3	G'arb falsafasining ustuvor yo'nalishlari va ularning fan taraqqiyotiga ta'siri
M4	Borliq falsafasi (Ontologiya)
M5	Rivojlanish falsafasi
M6	Bilish falsafasi
M7	Mantiq
M8	Jamiyat falsafasi
M9	Tarix falsafasi, sivilizatsiya va madaniyat
M10	Inson falsafasi (Falsafiy antropologiya)
M11	Qadriyatlar falsafasi
M12	Etika
M13	Estetika
M14	Global jarayonlar va barqaror taraqqiyot falsafasi
M15	Korruptsiyaning mohiyati, oqibatlari va unga qarshi kurash mexanizmlari

Mas'ulotlar shakli: seminar mas'ulotlari (S)	
S1	Falsafaning mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli
S2	Sharq falsafasining mohiyati va ijtimoiy taraqqiyotidagi roli
S3	G'arb falsafasining ustuvor yo'nalishlari va ularning fan taraqqiyotiga ta'siri
S4	Borliq falsafasi
S5	Rivojlanish falsafasi
S6	Bitish falsafasi
S7	Mantiq
S8	Jamiyat falsafasi
S9	Tarix falsafasi, sivilizatsiya va madaniyat
S10	Inson falsafasi (Falsafiy antropologiya)
S11	Qadriyalar falsafasi
S12	Etika
S13	Estetika
S14	Gloбал jarayonlar va bargaqor taraqqiyot falsafasi
S15	Korrupsiyaning mohiyati, oqibatlari va unga qarshi kurash mexanizmlari

Mas'ulotlar shakli: Mustaqil ta'lim (MT)	
MT1	Falsafaning mohiyatiga oid Sharq va G'arb mutafakkirlari ta'riflarini tasniflash va ular bo'yicha taqdimot tayyorlash
MT2	Senekaning "Laisiliyga axloqiy xalari" asarini o'qish va shu xalalar asosida talabalarining o'z hayot va faoliyatiga bahol berilgan esse tayyorlash
MT3	Abu Nasr Forobiy va G'azzoliyning falsafa ilmiiga oid qarashlarini qiyosiy tahlil etish (Forobiyning "Siyosat falsafasi" va G'azzoliyning "Kimyo'i soodat" asarlari asosida)
MT4	Noklassik ontologiyaning yo'nalishlari va mohiyati bo'yicha esse tayyorlash (M.Xavdegemning "Borliq va vaq" asari asosida)
MT5	Aristotel, Forobiy va Kant ontologiyasida kategoriyalar tasnifi mavzusida esse tayyorlash. (krossvord tayyorlash)
MT6	A.Fitratning "Oila asari"da Oila qo'rih tartiblari va Farzand tabiyasiga oid g'oyalar bo'yicha esse tayyorlash
MT7	A.Fitratning "Raxbari najot" risolasidagi "Baxtsiz odamlarning ikki toifasiga" oid qarashlari bo'yicha esse tayyorlash, videorolik tanlovini o'tkazish
MT8	Avloniyning "Madaniyat to'liqlari" maqolasi va E.Toflarning "Uchinchi to'liqi" asarini qiyosiy tahlil etish, taqdimot tayyorlash
MT9	"Axborotlashgan jamiyat va uning istiqbolari" mavzusida esse tayyorlash (A.Toyub, E.Tofl asarlarining qiyosiy tahlili asosida)
MT10	"Dunyoni estetik idrok etishda badiiy asarlarining ahamiyati" mavzusida esse tayyorlash
MT11	"Dunyo xalqlari madaniyatidagi umumiylik va farqlar" mavzusida videorolik tayyorlash
MT12	"Dunyo xalqlari millari" haqida krossvord tayyorlash

MT13	1.Rumiyning "Ovchi va lochin" rivoyatining mohiyati va uning tabiiyaviy ahamiyatini tahlil etish ("Ichindagi ichindadir" asari asosida)	2
MT14	"Zamonaviy axloqiy tarbiyaning yutuqlari va kamchiliklari" mavzusida esse tayyorlash	2
MT15	Koevolyusiy va environmentalizm dialektikasi" mavzusida esse tayyorlash (O'zbekistonda qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o'simliklar haqida ma'lumotlarni aniqlash) "O'zbekiston tabiati" mavzusida krossvord tayyorlash	2
MT16	M.Behbudiyning "Yoshlarga murojaat" va "Muharam yoshlarga murojaat" maqolalarini tahlil etish va esse tayyorlash	2
MT17	Makivellning "Hukmdor" asari bo'yicha taqdimot tayyorlash	4
MT18	G'azzoliyning "Tavba" asarini tahlil etish va talabalarining o'z faoliyatida mavjud ofatlarni aniqlash va o'ziga bahol beruvchi esse tayyorlash	2
MT19	Ibn Tufayl va Ibn Sinoning "Hay' ibn Yaqzon o'g'li" risolasini qiyosiy tahlil etish va esse tayyorlash	2
MT20	"Korrupsiyaning mohiyati va uning oqibatlari" mavzusida viktorina o'tkazish, videoroliklar tanlovini tashkil etish	4
MT21	"O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari" mavzusida esse tayyorlash	2
MT22	Nizomulmulkning "Siyosatinoma" asari bo'yicha jamiyat boshqaruviga oid g'oyalarini tahlil etish va esse tayyorlash	4
MT23	S.Xantimonging "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" asarini o'qish va mohiyati bo'yicha esse tayyorlash	4
Jami		60

Asosiy adabiyotlar	
1.	Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauif nashr, 2021, 667-b.
2.	Davronov Z., Sherimuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultanova A. Falsafa, o'quv qo'llamasi – Toshkent: TMU, 2019, – 375 b.
3.	Saifnazarov I., Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovalision rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021, -424 b.
4.	Madaeva Sh. Sherimuhamedova N. va boshqalar. Falsafa, o'quv qo'llamasi. – Toshkent: 2019
5.	Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA, 2018. – 320 с.
Qo'shimcha adabiyotlar	
6.	Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil 416 bet.
7.	Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik davlatini birgalikda quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2021
8.	Muxammadijonova L.A. Davlat xizmatchisi etikasi va imidi. – Toshkent: Universitet, 2017.
9.	Узбекистоннинг коррупцияга карши кураш стратегияси/ Алиев Б.

III. FANNING

ASOSIY O‘QUV

MATERIALLARI

3.1.MA'RUZA
MASHG'ULOTLAR
I UCHUN O'QUV
MATERIALLARI

1-Mavzu: FALSAFANING MOHIYATI VA JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI ROLI

REJA:

- 1.Falsafaning fan va dunyoqarashga doir mohiyati
- 2.Falsafaning predmeti va asosiy masalalari
- 3.Dunyoqarashning tarixiy shakllari

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR:

Falsafa, faylasuf, donishmandlik, falsafiy muammolar, ontologiya, gnoseologiya, dialektika, dunyoqarash, mifologik dunyoqarash, diniy dunyoqarash, falsafiy dunyoqarash, fan, fanning rivojlanish bosqichlari

1.Falsafa atamasi qadimgi yunon tilidagi «filosofiya» so‘zidan olingan bo‘lib, «donishmandlikni sevish» («filo» - sevaman, «sofiya» - donolik) degan ma‘noni anglatadi. Bu - ushbu so‘zning, atamaning lug‘aviy ma‘nosi bo‘lib hisoblanadi. Asrlar davomida filosofiya so‘zining ma‘no-mazmuniga xilma-xil qarashlar, uning jamiyat, inson va fanlar tizimidagi o‘rniga nisbatan turlicha munosabat va yondashuvlar bo‘lgan, bu atamaning mohiyat-mazmuni ham o‘zgarib borgan.

Qadimgi Yunonistonda «filosofiya» atamasini dastlab, matematika fani orqali barchamizga yaxshi ma‘lum bo‘lgan, buyuk alloma Pifagor ishlatgan. Yevropa madaniyatiga esa, u buyuk yunon faylasufi Aflotun asarlari orqali kirib kelgan. Shu tariqa, u avvalo, qadimgi Yunonistonda alohida bilim sohasiga, to‘g‘rirog‘i, «fanlarning otasi», ya‘ni asosiy fanga aylangan.

Endi faylasuf kim?, degan savolga javob beraylik. Filosof so‘zini, yuqorida aytganimizdek, ilk bor buyuk matematik va mutafakkir Pifagor qo‘llagan. Bu tushunchaning ma‘nosini u Olimpiya o‘yinlari misolida quyidagicha tushuntirib bergan: anjumanga keladigan bir guruh kishilar bellashish, kuch sinashish, ya‘ni o‘zi va o‘zligini namoyon etish uchun, ikkinchi bir guruh – savdo-sotiq qilish, boyligini ko‘paytirish uchun, uchinchi esa, o‘yindan ma‘naviy oziq olish, haqiqatni bilish va aniqlashni maqsad qilib oladi. Ana shu uchinchi guruhga mansub kishilar, Pifagor talqiniga ko‘ra, faylasuflar edi.

Qadimgi Sharq va Yunonistonda har tomonlama chuqur bilim va katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan, inson ma‘naviyatini boyitish va haqiqatni bilishga intiluvchi kishilarni faylasuf deb ataganlar. Fozil va komil insonlarga falsafa bilan shug‘ullanganlar. Aslida, o‘sha davrlarda falsafani o‘rganish deyilganda, ilmning asoslarini egallash ko‘zda tutilgan. Grek mutafakkiri Geraklit (eramizdan avvalgi 520-460 yillarda yashagan) shogirdlariga murojaat qilib, «Do‘stim, sen hali yoshsan, umringni bekor o‘tkazmay desang, falsafani o‘rgan», deganida aynan ana shu haqiqatni nazarda tutgan.

Falsafa, avvalo, muayyan ilmiy bilimlar tizimidir. U, bir tomondan, insonning voqelikni aql vositasida idrok etishi, ikkinchi tomondan, ongning afsona

va rivoyatlar asosidagi shakllardan uzil-kesil ajralish jarayoni natijasidir. Bu ikki jihat bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Chunki, behuda xayolparastlik, havoyi va afsonaviy fikrlash tarzidan xalos bo‘lish ilmiy bilimlarni egallash orqali ro‘y beradi. Eng muhimi, falsafa kundalik turmushda uchrab turadigan eskilik asoratlari, bid‘at va cheklanishlarga muxolif bo‘lgan hurfiylikdir. Falsafa aynan ana shunday yangi dunyoqarashning shakllanishi uchun asos bo‘ldi.

«Falsafa» tushunchasi tor ma’noda madaniyat, san’at, aqliy yoki hissiy bilish usuli, vositasi tarzida ta’riflanadi. Falsafaga bo‘lgan munosabatning xilma-xillikka asoslangani holda, unga yaxlit, umumlashgan ta’riflar ham berilgan. Falsafaga ijtimoiy ong shakli bo‘lgan madaniyat, san’at, qadriyat nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, uning milliylikni aks ettirish imkoniyati tug‘iladi. Ammo ontologiya, gnoseologiya, naturfilosofiya, antropologiya kabi fan sohalari nuqtai nazaridan qaralsa, ushbu ta’rifda umuminsoniylik va universallik falsafaning asosiy xususiyati ekanini ta’kidlash lozim bo‘ladi.

Falsafa, sirasini aytganda, ijtimoiy tafakkur rivoji yutuqi va insoniyat ma’naviy taraqqiyoti mahsulidir. U kishilarning olamni bilish, o‘zlashtirish, farovon hayot kechirish va o‘z insoniy salohiyatlarini namoyon etish ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liqdir. Falsafiy ta’limotlar hamma davrlarda ham insoniyatning ilg‘or tajribalarini o‘zida mujassamlashtirgan va insoniyat madaniyatini yanada yuksakroq bosqichga ko‘tarishga xizmat qilgan.

Falsafa va *aniq fanlar* o‘zining dastlabki qadamlaridanoq bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan. Qadimgi jamiyatlarda diniy-mifologik (afsonaviy) tasavvurlar, falsafiy g‘oyalar va empirik ilmiy bilimlar bir biridan ajratilmagan, sinkret (qorishgan holda) yagona, birini boshqasidan ajratib bo‘lmaydigan darajada edi. Keyinchalik rivojlanish mobaynida falsafa va fan hali talaygina umumiylikni saqlagan holda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘la boshlaydi.

Fan o‘zining yetuk shakliga sanoat revolyusiyasi davridan erisha boshlaydi, ba’zi ilmiy fanlar esa faqat XIX-XX asrlardangina shakllana boshladi. Shu sababli ko‘pgina zamonaviy ilmiy g‘oyalar o‘zining dastlabki shaklida falsafiy qarashlar ta’sirida ishlab chiqilgan. Bu, masalan, atom, Quyosh tizimining tabiiy kelib chiqishi, sinergetika va boshqalar to‘g‘risidagi g‘oyalarga tegishli.

Falsafa doirasida ilmiy bilishda qo‘llaniladigan mantiqiy-metodologik vosita ishlab chiqildi. *Arastu, Forobiy, Ibn Sino, Bekon, Dekart, Leybnits, Gegel* kabilar mantiq qonunlari, induktiv, deduktiv, dialektik va boshqa metodlarni bevosita ishlab chiqqan faylasuflardir. Xususan, dialektik metod eng ilg‘or zamonaviy ilmiy fanlardan biri - *sinergetikaning* ko‘pgina qoidalarida o‘z aksini topdi.

Falsafa fanga nisbatan munosabatda faqat metodologik funksiyani bajarib qolmaydi. U dunyoqarash bo‘lgani holda u yoki bu ilmiy g‘oyaning shakllanishi (yoki to‘xtatish)ga ta’sir ko‘rsatgan. Masalan, Yevropa o‘rta asr davrida falsafa ilohiyotga bo‘ysungani holda, har qanday fikrga arastu-xristian talqini nuqtai nazaridan qarab, ilmiy fikrning erkin rivojlanishini to‘siq qo‘ygan.

O‘z navbatida falsafa ham aniq fanlarning kuchli ta’siriga uchragan va uchramoqda. Agar ilgari atrof muhit to‘g‘risidagi ko‘pgina g‘oyalar, odatda, mushohada-spekulyativ (quruq mulohazaga asoslangan) shaklda naturfalsafa

asosida vujudga kelgan bo'lsa, fanning rivojlanishi davomida empirik ma'lumotlar va tabiiy ilmiy nazariy xulosalarning to'planishi tufayli fan mushohidaviy mulohazalar va quruq mulohazalardan qutulibgina qolmay, balki o'zi ham falsafaga ta'sir o'tkaza boshladi. Falsafa fan doirasida olingan dalillarni inobatga olmasligi mumkin emas. Bundan tashqari falsafaning o'zi u yoki bu davrda tabiatshunoslikning u yoki bu ideallarini ko'zda tutadi. Masalan, XVII-XVIII asrlarda mexanikaning yetakchi ilmiy fan sifatida shakllanishi mazkur davrda yevropa falsafasining *mexanistik shakliga* sabab bo'ldi. Deyarli barcha, hattoki inson va jamiyatda yuz berayotgan jarayonlar ham mexanika qonunlari asosida sharhlendi. Bugungi kunda falsafa o'z g'oyalarini tabiat va jamiyat to'g'risidagi fanlarda kechayotgan jarayonlarsiz rivojlantira olmaydi.

Falsafa va fanning o'zaro munosabatlaridagi yana bir jihat falsafa ilmiy bilishdagi turli soha yutuqlarini muvofiqlashtiradi, umumlashtiradi va ularni imkon qadar umumlashtirgan falsafiy kategoriyalarda aks ettiradi.

Fanni dunyo to'g'risidagi, shu jumladan odamning o'zi to'g'risidagi, ob'ektiv bilimlarni ishlab chiqarish bo'yicha yuksak darajada tashkil etilgan va ixtisoslashtirilgan faoliyatdir, deb ta'riflash qabul qilingan. Sharqda bilim hamisha yuksak darajada qadrlangan. XII asrda yashab ijod etgan shoir va mutafakkir olim Ahmad Yugnakiy fan va bilim haqida bunday degan: « ... Olim odamlarga yaqinroq bo'l. Bilim senga keng yo'l ochib beradi. Bilimlarga intil, baxt yo'lini izla. Endi o'zing sinab ko'r: hisoblab, o'ylab ko'r, bilimlardan ham foydaliroq bo'lgan biron bir narsa bormi. Bilishlik olimni ko'klarga ko'taradi, bilmaslik odamni yerga uradi»¹.

Falsafa kishilarga olam to'g'risida yaxlit tasavvur beradi, boshqa fanlar esa, uning ayrim jihatlarini o'rganadi. Masalan, biologiya o'simlik va hayvonot dunyosini, turlarining kelib chiqishi, o'zgarishi va takomillashib borishi kabi masalalarni o'rganadi. Bu sohaga oid fanlar ushbu yo'nalishdagi jarayonlarning ba'zi xususiyat va jihatlarini chuqurroq tadqiq etishga harakat qiladi. Binobarin, biolog har qanday rivojlanish jarayoni bilan emas, balki faqat jonli tanadagi rivojlanish jarayoni bilan qiziqadi. Umuman, rivojlanish jarayonining o'zi nima, uning mohiyati qanday? Masalaning aynan shu taxlitda qo'yilishi ilmiy muammolarni falsafiy masalaga aylantiradi. Ya'ni, shu tariqa muayyan mavzu oddiy ilm sohasidagi yo'nalishdan falsafiy muammo tusini oladi.

2. Qadimgi dunyoda fanlarning barchasini, ular qanday ilmiy masalalar bilan shug'ullanishidan qat'iy nazar, filosofiya deb ataganlar. U ham ijtimoiy borliq, ham tabiat to'g'risidagi ilm hisoblanar edi. Shu ma'noda, dastlabki filosofiya olam va unda insonning tutgan o'rni haqidagi qarashlar tizimi bo'lib, dunyoni ilmiy bilish zaruratidan vujudga kelgan edi. Bundan tashqari, qadimgi Yunonistonda yuz bergan buyuk uyg'onish davri o'ziga xos falsafiy mafkurani ham yaratganligi shubhasiz. Uning eng asosiy qadriyati erkinlik tushunchasi ekanini, ana shu erkin hayot to'g'risidagi qarashlar buyuk madaniy yuksalishga asos bo'lganini aksariyat olimlar alohida ta'kidlaydi.

¹ Каралсин: Антология педагогической мысли Узбекистана, 103-6.

Sharqda «Ikkinchi Arastu», «Ikkinchi muallim» deya e'tirof etilgan buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy falsofiya so'zini «hikmatni qadrlash» deb talqin etgan. Falsafa Sharq xalqlari ijtimoiy tafakkurida «donishmandlikni sevish» degan mazmun bilan birga, olam sirlarini bilish, hayot va insonni qadrlash, umr mazmuni haqidagi qarash va hikmatlarni e'zozlash ma'nosida ishlatilgan.

«Falsafa» atamasi «filosofiya»ning Sharq ijtimoiy tafakkuridagi shaklidir. Odatda u tushuncha sifatida tor va keng ma'nolarda qo'llanadi. Xususan, keng ma'noda uni antik-qadimiy falsafada «donishmandlikni sevish» deb tushunilganini aytib o'tdik. Ayrim faylasuflar va falsafiy oqimlar, chunonchi, ingliz faylasufi T.Gobbs (1588-1679) uni «to'g'ri fikrlash orqali bilishga erishish», nemis faylasufi Hegel «umuman predmetlarga fikriy yondashish», Lyudvik Feyerbax «bor narsani bilish», pragmatizm ta'limoti namoyandalari esa, «foydali narsalarni bilish jarayoni» deya talqin etgan.

Falsafa fanining muammolari, o'z xususiyatlariga ko'ra, azaliy va yoki o'tkinchi bo'lishi mumkin. Azaliy muammolar insoniyat paydo bo'lgan davridayoq vujudga kelgan bo'lib, toki odamzod mavjud ekani, yashayveradi. Chunki, insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichida ushbu muammolar yangidan kun tartibiga qo'yilaveradi. Ularni o'rganish jarayonida ilm-fan taraqqiy etib boradi.

Olam va odam munosabatlari, dunyoning mavjudligi, borliqning voqeligi, undagi o'zaro aloqadorlik va taraqqiy etish, insoniyat hayotidagi adolat va haqiqat, yaxshilik va yomonlik, urush va tinchlik, umrning mazmuni, tabiat va jamiyat taraqqiyotining asosiy tamoyillari bilan bog'liq ko'pdan-ko'p masalalar falsafa va falsafiy bilim sohalarining azaliy muammolari sirasiga kiradi.

Falsafaning umumbashariy fan ekani, uning bahs mavzulari va asosiy muammolarini belgilab beradi. Shu ma'noda odam va olam, ularning ibtidosi va intihosi, hayoti va o'zaro munosabatlari, inson tafakkuri, tabiat va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari falsafa uchun azaliy muammolardir. Shu bilan birga, muayyan davrda tuqiladigan va hal etiladigan o'tkinchi muammolar ham bo'ladi. Ular abadiy muammolar darajasiga ko'tarilmasada, o'z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqani uchun, muhim ahamiyat kasb etadi.

Falsafa - borliq, uning turli shakllari orasidagi o'zaro aloqadorlikni ifodalovchi nazariy qarashlar sistemasidir. U dunyo, borliq, materiya, inson, insonning ongi va tafakkuri, uning dunyoga munosabati, insoning dunyoni nazariy bilishining eng umumiy qonuniyatlari, prinsiplari va kategoriyalari haqidagi fandir. Falsafa dunyo va unda insonning tutgan o'rni haqida, insonning dunyoga bo'lgan munosabatlari haqida, dunyoning eng umumiy qonuniyatlari haqida umumlashgan qarashlar sistemasini ishlab chiqadi. U fan sifatida dunyo, borliq, materiya, tabiat, jamiyat, inson ongi va tafakkuri taraqqiyotining eng umumiy qonunlari va asosiy harakatlantiruvchi kuchlarini o'rganadi.

Hozirgi zamon falsafasi doirasida ko'pincha quyidagi mustaqil sohalarni ajratishadi: *falsafa tarixi*, *ontologiya* - borliq to'g'risidagi ta'limot, *gnoseologiya* (epistemologiya) - bilish to'g'risidagi ta'limot, *aksiologiya* - qadriyatlar to'g'risidagi ta'limot, *falsafiy antropologiya* - inson to'g'risidagi ta'limot, *ijtimoiy falsafa* - jamiyat to'g'risidagi ta'limot, *mantiq* - tafakkur qonunlari va shakllari to'g'risidagi ta'limot, *etika* - axloq to'g'risidagi ta'limot, *estetika* - go'zallik

to'g'risidagi ta'limot. Shuningdek tabiatshunoslik falsafasi, din falsafasi, huquq falsafasi, fan falsafasi, texnika falsafasi, tarix falsafasi, madaniyat falsafasi, siyosat falsafasi, global muammolar falsafasi kabi bugungi kunda mustaqil fan maqomini olish bilan birbutun yo'nalishlarga ajralgan. Ulaning har birining o'z tushunish apparati hamda muammoni hal qilishning o'ziga xos usullari bor.

U yoki bu falsafiy fanning rivojlanish darajasi turlichadir. Ulardan ba'zilari (masalan, ontologiya) falsafa ibtidosida vujudga kelgan bo'lsa, boshqalari (global muammolar falsafasi yoki texnika falsafasi) XX asr mahsulidir.

3. Har bir kishining dunyoga nisbatan o'z qarashi, o'zi va o'zgalar, hayot va olam to'g'risidagi tasavvurlari, xulosalari bo'ladi. Ana shu tasavvurlar, tushunchalar, qarash va xulosalar muayyan kishining boshqa odamlarga munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi. Shu ma'noda, *dunyoqarash* - insonning tevarak atrofini qurshab turgan voqelik to'g'risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o'zining undagi o'zni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir. Dunyoqarash - olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir.

Dunyoqarashning bir kishiga yoki alohida shaxsga xos shakli individual dunyoqarash deyiladi. Guruh, partiya, millat yoki butun jamiyatga xos dunyoqarashlar majmuasi esa, ijtimoiy dunyoqarash deb yuritiladi. Ijtimoiy dunyoqarash individual dunyoqarashlar yig'indisidan dunyoga keladi, deyish mumkin. Bunda ijtimoiy dunyoqarashning umumiy va xususiy shakllarini hisobga olish lozim.

Dunyoqarashning 3 ta asosiy turi ya'ni tarixiy shakllari bor:

- 1) mifologik dunyoqarash;
- 2) diniy dunyoqarash;
- 3) falsafiy dunyoqarash.

Dunyoqarashning dastlabki tarixiy shakli mifologik dunyoqarashdir. Mifologik dunyoqarash (mifologiya-yunoncha: mitos-naql, rivoyat; lagos-fikr, ta'limot degani) ijtimoiy taraqqiyot-ning eng boshlang'ich bosqichlariga xos bo'lgan insonning dunyoni tushunishining o'ziga xos usuli sifatida paydo bo'lgan dunyoqarashning dastlabki shaklidir. Mifologik dunyoqarash odatda o'z ifodasini o'sha qadimgi davr kishilari tomonidan yaratilgan, to'qilgan naqlarda, rivoyat va afsonalarda topgandir.

Har bir xalqda o'zining uzoq tarixiy o'tmishiga xos rivoyatlar va afsonalar mavjud. Ularda bu xalqlarning ijtimoiy hayoti, turmush va fikr tarzlari, ijtimoiy-iqti-sodiy va madaniy munosabatlari hayoliy tarzda xudolar, ilohiy kuchlar va afsonaviy qahramonlar obrazlarida g'ayritabiiy, yovuz kuchlarga qarshi kurash olib boradilar. Oqibatda, bu kurashlarda doimo adolat va haqiqat tantana qiladi. Bunday rivoyat va afsonalar dastlabki paytlarda xalq og'zaki ijodi namunalarida, keyinchalik yozuvning paydo bo'lishi bilan taraqqiy topgan xalqlarda o'ziga xos adabiy asarlarda o'z ifodasini topadi. Bunga misol sifatida biz qadimgi yunon eposlari «Iliada» va «Odessiya»ni, hind eposi «Ramayana»ni, qirg'iz xalqining eposi «Manas»ni, o'zbek xalqi eposi «Alpomish» va shu kabilarni keltirishimiz mumkin. Bu eposlarda o'sha xalqlarning o'tmishdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayoti, ularning madaniyati, urfodatlari, an'analari, axloqiy, diniy, estetik, huquqiy, siyosiy qarashlari va tasavvurlari o'z ifodasini topgandir.

Mifologik dunyoqarashning birinchi xillari asosan olamning paydo bo'lishi, uning tuzilishi, tabiat, jamiyat hodisalarining yuz berishi, dunyoning boshqarilishi, dunyodagi predmet va hodisalarning o'zaro bog'lanishlari va munosabatlari, dunyoning halokati masalalari va muammolariga bag'ishlangandir.

Afsona va rivoyatlarning ikkinchi xillari esa insonning paydo bo'lishi, uning yashashi, insonning dunyodagi o'rni, uning ishlari, tabiat kuchlari bilan olib borgan kurashi, uning ma'naviy kamoloti sari intilishlari, nihoyat, insonning o'limi va shu kabi muammolarga bag'ishlangan.

Umuman, rivoyat va afsonalar o'z tematikasi jihatdan xilma-xil va rang-barangdir. Lekin bu rivoyat va afsonalar, baribir qanday mavzuga, qanday sohaga oid bo'lmasin, ular mifologik ong darajasidagi qadimgi dunyoqarashning asosiy shakli-mifologik dunyoqarashni ifodalagan. Bu dunyoqarash qadimgi dunyo kishilarining o'zlaricha o'sha davrga xos dunyoni tushunish, idrok qilish va uni izohlashi sifatida turli vazifalarni bajargan. Birinchidan, bu dunyoqarash ma'lum xalqning, ma'lum ijtimoiy jamoaning umumiy qarashlarining shakllanishi bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, bu dunyoqarash o'zida jamiyatning ma'lum ma'naviy, madaniy qadriyatlarini (axloqiy, estetik, diniy, badiiy, ilmiy, falsafiy va boshqalar) mujassamlashtirgan edi. Uchinchidan, bu dunyoqarashda tabiat va jamiyatning, olam va odamning bir butun borlig'ini umumiy birligi, ichki va tashqi aloqadorligi, insonning ichki ma'naviy dunyosining manzarasi, garchi hali chuqur bo'lmasa ham, o'zining dastlabki ifodasini topadi.

Dunyoqarashning ikkinchi tarixiy shakli diniy dunyoqarashdir.

Diniy dunyoqarashning asosiy va hal qiluvchi belgisi ilohiy kuchlarga ishonish, butun olam, barcha mavjudot, insoniyat dunyosining Xudo tomonidan yaratilganligini va boshqarilishini e'tirof etish, Xudoga, ruhlarga sig'inishdan iboratdir.

Diniy dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati shundaki, u tabiiy va ijtimoiy hodisalar mohiyatini ularning o'zidan emas, balki tabiatdan tashqari sabablar, xudoning qudrati bilan tushuntiradi. U hamma narsada va har qayerda ilohiy kuchlarning ta'siri, mo'jizaviy kuch bor, deb pisanda qiladi.

Umuman din o'ziga xos dunyoqarash bo'lishi bilan birga, u murakkab ma'naviy tuzilma sifatidagi ijtimoiy-tarixiy hodisa hamdir.

Din ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatda muayyan ijtimoiy vazifalarni ham bajaradi. Dinning ijtimoiy vazifalarini aniqlash va tushunish, birinchidan, uni xayoliy mushohaza sifatida gnoseologik baholashga, ikkinchidan, diniy e'tiqodlarni zaruriy ravishda keltirib chiqargan ijtimoiy ehtiyojlarni aniqlashga yordam beradi. Bu shuni ko'rsatadiki, biron jamiyatning dinga ehtiyoji, eng avvalo, kishilarning o'zlarining amaliy ojizligi, chorasizligini xayolan qondirishga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqadi. Shunga muvofiq, dinning kishilarni xayoliy taskin toptirish vazifasi kelib chiqadi. Uning kishilar ko'ngliga dalda berishi, ularni sabrli, qanoatli qilishi, ularni azob-uqubatlardan qutqarishi, qiyinchiliklarni bartaraf etishda ruhiy madad bo'lish vazifasi ham bor. Bu dinning xayoliy-kompensatorlik vazifasi deyiladi.

Xullas, din ko'p vazifali, ko'p rejali, ko'p tomonli hodisadir. U jamiyat taraqqiyotining o'ziga xos qonuniyatlari asosida paydo bo'lgan, shuning uchun uning mohiyati va taqdirini ham ayni paytda ijtimoiy jarayonlar belgilaydi.

Hozirgi kunda fan va texnika yuksak rivojlangan bir sharoitda, g'ayritabiiy kuchlarning mavjudligi g'oyalari tobora zaiflashayotgan bir sharoitda, dinning, diniy dunyoqarashning, diniy g'oyalarning butun dunyodagi turli mamlakatlar va regiondagi xalqlarning ijtimoiy ongiga o'tkazayotgan ta'siri hamon yuqoridir.

Umuman, din dunyoqarash sifatida falsafaga yaqin turadi, diniy dunyoqarash falsafiy dunyoqarash bilan chambarchas bog'liqdir. Ular dunyoqarashning shakllari sifatida o'zaro umumiy birlikka ega bo'lib, uning turli ijtimoiy-tarixiy tiplari sifatida bir-birlaridan tubdan farq ham qiladi. O'zining insoniy tash-vishlarga, ishonch va umidlarga, faqatgina e'tiqodga ustun darajada e'tiborini qaratuvchi diniy dunyoqarashdan farqli ravishda, falsafiy dunyoqarash insonning dunyoni aql va bilim asosida tushuntiruvchi intellektual tomonlariga ko'proq e'tibor beradi.

Dunyoqarashning uchinchi tarixiy shakli falsafiy dunyoqarashdir. Falsafiy dunyoqarash mifologik va diniy dunyoqarashlardan farqli o'laroq, dunyoni sof ilmiy tushuntiruvchi nazariy qarashlar sistemasidir.

Falsafiy dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u kishilarga tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivojlanishning umumiy qonuniyatlari haqida bir butun, yaxlit ma'lumot beradi. Shu bilan birga u insonni qurshab turgan moddiy olamning hech kim tomonidan yaratilmaganligini, abadiyligini uqtiradi. Falsafiy dunyoqarash dunyoni va uning taraqqiyot qonunlarini bilish mumkinligini, bilish murakkab, ziddiyatli jarayondan iboratligini ta'kidlaydi.

Mifologik va diniy dunyoqarashlardan farqli ravishda falsafiy dunyoqarash tabiat va insoniyat jamiyati taraqqiyotining sabablari va mohiyatini, o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini to'g'ri, ilmiy asosda tushuntirib beradi. Falsafiy dunyoqarash butun mavjudot – organik va noorganik dunyo ham, insoniyat dunyosi ham, o'simliklar va hayvonot dunyosi ham, doimo harakatda, o'sish, o'zgarish va rivojlanishdadir deb tushuntiradi. Falsafiy dunyoqarash asosida kishilar ob'ektiv olamdagi hamma narsa va hodisalar, jarayonlar o'zidan boshqa narsalar bilan ichki, zaruriy, muhim aloqadorlikda, ta'sir va aks ta'sirda ekanligini chuqur anglab oladilar.

Falsafiy dunyoqarash qotib qolgan emas, balki doimiy ravishda o'zgarib, rivojlanib, boyib va takomillashib boradigan dunyoqarashdir. Tabiatda, jamiyatda bo'ladigan o'zgarishlar tufayli, birinchi navbatda, tabiiy, texnik va ijtimoiy fanlardagi kashfiyotlar, ijtimoiy hayotda to'xtovsiz ro'y berib turadigan muhim o'zgarishlar natijasida kishi-larning ob'ektiv olam haqidagi ilmiy bilim va tasavvurlari, xususan falsafiy dunyoqarashlari oldingiga nisbatan ancha rivojlanadi, boyiydi va chuqurlashadi. Hozirgi zamon ilmiy-texnika inqilobi tufayli inson bilimlari doirasi behad kengayib, mazmunan chuqurlashib va murakkablashib borayotganligi bunga yaqqol misoldir. Binobarin falsafiy dunyoqarash faqat nazariy bilish jihatdangina emas, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga egadir.

Falsafiy dunyoqarashni bir butun qilib ushlab turgan ikki qutb mavjud: olam va odam (yoki ob'ektivlik va sub'ektivlik, moddiylik va ma'naviylik, katta olam va kichik olam va hokazo). Shuni nazarda tutgan holda hamyurtimiz, buyuk faylasuf Shayx Aziziddin Nasafiy butun olamning o'zi ulug' olam (olami kubro)

bo'lsa. Insonning o'zi kichik olamdir (insoni kubro), deb ta'kidlaydi. Bunda odam olamning bir bo'lagi sifatdagina emas, borliqning o'ziga xos shakli sifatida idrok etiladi. Boshqa narsalardan farqi shundaki, u o'ylash va bilish, sevishtirish va nafratlanish, quvonish va qayg'urish, orzu qilish va baxtli bo'lish imkoniga ega. Ushbu qarama-qarshi qutblar orasidagi turli munosabatlar falsafaning bahs mavzuini tashkil etadi.

«Olam - odam» munosabatlarini uch asosiy tipga bo'lish mumkin: gnoseologik (bilishga doir), aksiologik (qadriyatlarga doir), prakseologik (amaliyotga doir). O'z vaqtida buyuk nemis mutafakkiri Immanuel Kant falsafa uchun prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan uch savolni aytib o'tgan edi. Ular quyidagilar: «Nimani bilishim mumkin?», «Nima qilishim kerak?», «Nimaga umid qilishim mumkin?». Savollar mohiyatiga chuqurroq nazar tashlasak, ular odamning olamga bo'lgan munosabatlarining uch tipiga mos tushishiga ishonch hosil qilamiz.

Falsafiy dunyoqarashning shakllanishida bilim g'oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bilimda dunyoqarashning barcha belgilari mavjud. Lekin, bilim va dunyoqarash aynan bir narsa emas. Olamni tushunish bilimlar paydo bo'lishi uchun asosdir. Bilim inson ongida hissiy va aqliy bilish jarayonida hosil bo'ladi, u dunyoqarashning asosi, uning uzviy qismidir.

Nazariy falsafiy bilimning boshqa vazifalari ham bor. Bunday bilim yordamida kishilarda o'z dunyoqarashlarini muttasil kengaytirib borishga ehtiyoj vujudga keladi. Falsafiy tafakkur atrof-muhitni o'rganish bilan cheklanib qolmay, makon va zamonning benazir tomonlariga nazar tashlashga ham harakat qiladi. Buni faylasuflar intellektning tajribasiz bilim yig'ishga bo'lgan qobiliyati deb ataydilar. Haqiqatan ham, olamni makonda tubsiz zamonda cheksiz yaxlitlik sifatida bilish uchun hech qanday tajribaga tayanib bo'lmaydi. Tajriba bunday bilimlarni dunyoga keltira olmaydi, falsafa esa buning uddasidan chiqishga majbur.

Xullas, falsafiy dunyoqarash nazariy sistemalashtirilgan, izchil, asoslangan qarashlar yig'indisidir. Unda ikki qutb mavjud: olam va odam. Falsafaning asosiy masalasi ana shu ikki qutb orasidagi o'zaro aloqadorlik munosabatni tadqiq etishdan iborat.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. «Falsafa» tushunchasining mohiyatini siz qanday tushunasiz?
2. Falsafaning bahs mavzusi nima?
3. Dunyoqarash nima?
4. Falsafiy dunyoqarashning mohiyati nimada?
5. Falsafa milliy bo'lishi mumkinmi?
6. Falsafaning umuminsoniyligi deganda nimani tushunasiz?
7. Fan va falsafaning umumiyligi va farqini ayting.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021.

667-b.

2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

2-MAVZU: SHARQ FALSAFASINING MOHIYATI VA IJTIMOIIY TARAQQIYOTDAGI ROLI

REJA:

1. Qadimgi janubiy Sharq (Hindiston) va Shimoliy sharq (Xitoy) falsafasining mohiyati. “Avesto” muqaddas manbasida olamning tuzilishi, shaxs tarbiyasiga oid g‘oyalarning hozirgi davrdagi ahamiyati
2. Al-Forobiy, Ibn Sinoning inson tarbiyasiga oid g‘oyalari va ularning hozirgi davrdagi ahamiyati.
3. Sharq mutafakkirlari J.Rumiy, G‘azzoliy, Nizomulmuluk, A.Navoiy, Mashrab, A.Donish axloqiy qarashlarining yangi O‘zbekiston yoshlari tarbiyasidagi o‘rni. Tasavvuf falsafasida olam va odam haqidagi qarashlarning mohiyati.
4. XIX-XX asrda jadidizmning rivojlanishidagi tarixiy sharoitlar. XX-XXI asr o‘zbek falsafasining barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi ahamiyati

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR:

Diniy-falsafiy bilimlar, Avesto, zardushtiylilik, astika, nastika, konfutsiychilik, daosizm, vojibul vujud, mumkinul vujud, tasavvuf, sufizm, Kalom, moturudiya, ma’rifatparvarlik, jadidchilik, o‘zbek falsafasi

1.Eramizdan avvalgi to‘rtinchi ming yillikning oxiri va uchinchi ming yillik boshlarida qadimgi Misr va Bobil hududida dastlabki diniy-falsafiy fikrlar, olam haqidagi fanlar, ya’ni astronomiya, kosmologiya, matematika, mifologiyaga oid qarashlar birmuncha rivoj topgan. Bu davrda hali odamning mavjudlik xossalarini va olam qonuniyatlarini ilmiy tushunish ko‘nikmasi hali shakllanib ulgurmagan o‘sha qadim zamonlarda, afsona hamda rivoyatlarga asoslanib fikr yuritmaslikning imkoni ham yo‘q edi. Bu – o‘sha davrlardan qolgan yozma manbalarda, xususan, «Xo‘jayinning o‘z quli bilan hayotning mazmuni haqida suhbat», «Arfachi qo‘shig‘i», «O‘z hayotidan hafsalasi pir bo‘lgan kishining o‘z joni bilan suhbat» kabi bitiklarda yaqqol namoyon bo‘lgan. Ularda hayotning, umrning mazmuni, o‘sha davrdagi odamlarga xos tuyg‘ular bayon qilingan.

Qadimgi Hindiston ham insoniyat madaniyatining beshiklaridan biridir. Unga xos dastlabki ta’limotlar yozma manba – «Veda»larda o‘z aksini topgan.

«Veda»lar eramizdan bir yarim ming yil oldin yozilgan bo'lib, mutaassib dindor hind uchun oliy muqaddas ilm va bashorat kitobidir. Hindlar «Veda»ni oliy tangri Braxma tomonidan aytilgan so'zlar deb biladilar. «Veda»da hindlarning qadimgi tarixi, iqtisodiyoti, dini, falsafasi, axloq va nafosatiga oid fikrlari aks etgan. Hind falsafasi asoslari «Upanishadalar» nomi bilan mashhur bo'lgan manbalarda ham o'z aksini topgan. «Upanishadalar» sirli bilim degan ma'noni anglatib, «Veda»larning falsafiy qismini tashkil etadi. «Upanishadalar» yaxlit kitob yoki falsafiy risola bo'lmay, balki turli vaqtda turli mavzuda ijod etgan noma'lum mualliflarning matnlaridan iboratdir. Qadimgi Hind falsafiy maktablari ikki guruhga bo'linadi. Hindistonlik faylasuflar bu guruhlarni astika va nastika deb ataydi. Vedanta, sankhya, yoga, vaysheshika, n'yaya va mimansa – **astika** guruhiga kiruvchi falsafiy maktablar. Ushbu maktablarning tarafdorlari «Veda»ning muqaddasligini tan olib, birdan-bir haqiqat undagina ifodalangan, deyishadi. Chorvaka-lokayata, buddizm va jayнизм – **nastika** guruhiga kiradi.

Chorvaka-lokayata tarafdorlari materialistik ta'limotni ilgari surganlari uchun «Veda»ning muqaddasligini tan olishmaydi hamda olam ilohiy kuch tomonidan yaratilmagan, «Veda» haqiqiy bilim bermaydi, deb ta'kidlashadi. Buddizm va Jayнизм diniy-falsafiy maktablar bo'lishiga qaramay, ular ham «Veda»ning muqaddasligini tan olmagan. Sankhya Qadimgi Hindistondagi dualistik falsafiy maktab bo'lib, olam asosida moddiy unsur (prakriti) modda va ruh (puro'sha) yotadi, deb hisoblaydi. Bu yo'nalishga, asosan, olamdagi barcha narsalar ikki unurning turli teng miqdorda (proporsiyada) birikishidan yuzaga keladi, olam sababiyat orqali rivojlanadi, olamda uchta sabab mavjud, deyiladi. Ular quyidagilardir: moddiy sabab, yaratuvchi sabab, aloqador bo'lmagan sabab. Bu falsafiy maktab haqida buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy «Hindiston» asarida atroflicha fikr yuritgan.

Qadimgi Xitoyda fan va madaniyat o'ziga xos shaklda rivojlangan. Bu vaqtda diniy mifologik dunyoqarash hukmronlik qilgan. U olam va tabiatning paydo bo'lishini o'ziga xos tarzda tushuntirgan va dunyoviy bilimlar rivojiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Bunday ruhdagi falsafiy g'oyalar ayniqsa qadimgi Xitoy donishmandi **Konfutsiy** (m.a. 551-479) ijodida yaqqol aks etgan. Uning «Hikmatlar»i, ya'ni aforizmlari juda mashhur.

Konfutsiy fikricha, olamni osmon boshqaradi. Osmon irodasi - taqdirdir. Biz yashab turgan olam, undagi tartib osmon hukmdori tomonidan yuborilgan. Jamiyat hayotidagi tartibga qattiq amal qilish talab etiladi. Tartib, Konfutsiy nuqtai nazariga ko'ra, ilohiy mazmunga ega va uning mohiyatini «Li» tushunchasi belgilaydi. U, ya'ni tartib dunyoning mohiyatini aks ettiradi. Binobarin, jamiyatdagi barcha harakatlar unga binoan amalga oshishi lozim. Tartib - insoniyat jamoasining eng oliy hayotiy qadriyatlaridan biridir. Konfusiyning ta'kidlashicha, shaxs faqat o'zi uchun emas balki jamiyat uchun ham yashashi kerak.

Konfusiyning qarashlari keyinchalik jahon falsafasida axloqiy tamoyillar rivojida, adolat, birodarlik, erkinlik g'oyalari takomilida muhim o'rin tutgan. Bu ta'limot Xitoyda ikki ming yil davomida davlat dini darajasiga ko'tarilgan va xalq hayotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Qadimgi Xitoyning ko'zga ko'ringan faylasuflaridan biri **Lao Szidir** (m.a. VI-V asrlar). Uning ta'limotiga ko'ra, olam, jamiyat va inson hayoti Dao qonuniga buysunmog'i lozim. Daosizm ta'limoti ana shu tariqa shakllangan. Dao qonuni - tabiatning yashash qonunidir, undagi rang-baranglik kurashi va uyg'unligi abadiyligining e'tirof etilishidir. Bu qonunga ko'ra, olamning asosini tashkil etuvchi «Si», ya'ni beshta unsur - olov, suv, havo, yer va yog'och yoki metall olamdagi barcha jismlar asosini tashkil etadi hamda ularning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Lao Szining ta'kidlashicha, olamda hech bir narsa doimiy va o'zgarmas, harakatsiz holda bo'lishi mumkin emas.

Daosizmga binoan, dunyodagi hamma narsa bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turadi. Qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi kurash, ya'ni In va Yan orasidagi munosabat – bizni o'rab turgan olamni harakatga keltiruvchi kuchlar manbaidir. In va Yan o'rtasidagi kurash daoni anglatadi. Odamzod bu kurash jarayonida doimo yaxshilik tomonida turishi, o'zini qurshab turgan tabiat va atrofdagi olamga mehr ko'rsatishi lozim. Bo'lmasa, dao qonuni buziladi va bunday joyda baxtsizlik, fojia yuz beradi. Lao Szi bu o'rinda ekologik falokatni nazarda tutgan.

Eramizdan avvalgi X asrdan eramizning VII asrlarigacha bo'lgan davr mahsuli bo'lgan diniy-falsafiy ta'limotlardan biri **zardushtiylikdir**. Bu ta'limotga Zardusht asos solgan bo'lib, Sharq va G'arbda Zaratushtra, Zaroastr nomlari bilan mashhurdir. Manbalarga ko'ra, Zardusht eramizdan avvalgi VI asrning birinchi yarmida yashagan.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdagi, bu ta'limot Vatanimiz hududida, xususan, Xorazm zaminida paydo bo'lgan. U o'z davrida xalqni ezgulik va adolat g'oyalariga da'vat etish, hayotbaxsh an'analarni shakllantirish, dehqonchilik va shahar madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, uning g'oyalari bilan bog'liq qadriyatlar bugungi kungacha yashab kelmoqda va xalqimiz turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlarini belgilashda ulkan qimmat kasb etmoqda.

Zardushtiylikning bosh kitobi «**Avesto**»dir. Unda qadimgi xalqlarning dunyo to'grisidagi tasavvurlari, o'ziga xos qadriyat va urf-odatlar aks etgan. Unda olamning azaliy qarama-qarshi kuchlari – yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat, issiqlik va sovuqlik, hayot va o'lim borasidagi qarashlar o'z ifodasini topgan. «Avesto»da, shuningdek, tabiat falsafasi, tarix, etika, tibbiyotga oid ma'lumotlar ham berilgan.

Falsafa tarixida makedoniyalik Aleksandr (eski uzbek tilida Iskandar deyilgan) istilosi va Grek-Baqtriya davri falsafasi ham xalqimizning taraqqiyot tarixida muhim o'rin tutgan. Manbalarda Aleksandr qo'shini mahalliy xalqlarning qattiq qarshiligiga uchragani, u «Avesto»ning ko'pgina qismini yondirib yuborgani haqida ma'lumotlar bor. U «Avesto»ni o'tda kuydirgan bo'lishi mumkin. Lekin buni kitobning qadrini tushunmagani uchun emas, balki yerli xalqlarni birlashishga da'vat etib turuvchi, ular e'tiqod qo'ygan milliy g'oyalar timsoli bo'lgan va o'z saltanatiga qarshi muttasil kurash olib boruvchi vatanparvarlarni tarbiyalaydigan manba ekanini nazarda tutib, shu ishni amalga oshirgan.

2.VIII-XIII asrlarda O'rta Osiyoda ijtimoiy-falsafiy fikrlar o'z taraqqiyotining gullab yashnagan davrini kechirdi. Bu jarayonga O'rta va Yaqin

Sharq mamlakatlaridagi ilmiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy ta'limotlar ham katta ta'sir ko'rsatdi. Unda «sof arab-musulmon falsafasi» - **mashshoiyunlar** (Kindiy, Yah'yo ibn Adi, Nasriddin Tusiy, Ibn Bajja, Ibn Tufayl, Ibn Rushd), Demokritning empirik tabiatshunoslik falsafasi yo'nalishidagi **tabiiyunlar** (Jobir, Eronshahriy, Roziy, Beruniy, Abu-l-Barakot), **amaliy siyosat, davlat va axloq falsafasi** (Abu Hanifa, Abu Yusuf al-Hirojiy, Mavardiy, Forobiy, Ibn Miskavayh, Ibn Sino, Kaykovus, Nizomul-Mulk, Nasriddin Tusiy, Sa'diy, Hofiz), **mantiqshunoslik va hozirgi semantik mantiq falsafasi yo'nalishidagi falsafa** (Matta ibn Yunus, Yuhanna binni Haylon, Forobiy, Abu Sulaymon Mantiqiy as-Sijjistoniy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy, hurufiylar, Mir Said SHarif Jurjoniy), **fan, falsafiy va diniy ta'limotlarni qiyosiy o'rganuvchilar** (Ibn an-Nadim, Abu Abdulloh Kotib Xorazmiy, Abdulkarim ash-SHaharastoniyy, Bayhaqiy, Ibn Hallikon, Ibn abi Usaybi'a, al-Forisiy al-Fahriy) kabi o'qimlar ta'siri katta bo'ldi.

Abu al-Hasan al-Ash'ariy, Abu Mansur Moturidiy Samarqandiy, Boqilloniyy, Abu Homid al-G'azzoliy, Faxruddin Roziy, Abdurahmon al-Ijjiy, Sa'duddin Taftazoniy, Abu Hafs Umar an-Nasafiy va boshqa qator aqidlar islomning ilohiyot falsafasini - **Kalomni** ishlab chiqib, shariat aqidaviy - dunyoqarash asoslariga, shart-sharoit, taraqqiyot sur'atlariga moslasha oladigan yo'nalish berdilar.

O'zining ensiklopedik (hamma tomonlama) bilimlari sharofati bilan «Sharq Arastusi» va «Ikkinchi muallim» (Arastudan keyin) unvonlariga sazovor bo'lgan **Abu Nasr ibn Muhammad Forobiy** (873-950) buyuk faylasuf edi. Uning 160 jildidan ko'proq asarlarining barchasini ikki guruhga bo'lish mumkin: qadimgi yunon olimlari risolalariga sharh shaklida yozilgan asarlar, va asl nusxadagi tadqiqotlar. Forobiyning fikricha, yagona borliq olti bosqichdan iborat bo'lib, ular ayni bir vaqtda barcha mavjud narsalarning ibtidosi sifatida bir-birlari bilan sababiy bog'lanishdadirlar. Birinchi bosqich – birinchi sabab (Xudo); ikkinchisi – samoviy jismlar borlig'i; uchinchisi – faol aql, to'rtinchisi – ruh; beshinchisi – shakl; oltinchisi – modda. Shunday qilib, xudo va modda, yagona bir butunni tashkil etib, bir qator bosqichlar orqali bir-birlari bilan sababiy bog'lanishdadirlar.

O'zlarining sababiy bog'lanishlari tufayli ushbu ibtidolar ikki ko'rinishga ajratiladilar: «*vojibul vujud*» - shunday narsaki, mavjudligi o'zidan kelib chiqadi; «*mumkinul vujud*» - shunday narsaki, uning mavjudligi boshqa narsadan kelib chiqadi. Forobiy o'rta asrlar davrida birinchi bo'lib fanlar tasnifini vujudga keltirdiki, u o'sha vaqtdagi ilmiy bilimlarning ensiklopediyasi hisoblanar edi. Forobiy tabiatni bilish jarayonining cheksizligini qayd etib, uni bilmaslikdan bilish tomon ko'tarilishi, oqibatdan sababga, hodisadan mohiyatga, orazdan (aksidensiya) javhar (substansiya) tomon boradi, deb hisoblaydi. Forobiy bilishning ikki bosqichini – hissiy va fikriyni bir-biridan farqlab ko'rsatadi. Hissiy bilimning o'rniga to'xtalib, Forobiy insonni tashqi dunyo bilan bog'laydigan besh xil sezgining har biriga alohida e'tibor qaratadi. Forobiy sezgining har bir turini uni muayyan his qiluvchi badan a'zosi bilan bog'liq ravishda ko'rib chiqadi. Forobiy fikricha, har qanday sezgi badanning his qiluvchi a'zolariga hech kimga bog'liq bo'lmagan (ob'ektiv) holda mavjud bo'lgan narsalarning muayyan xususiyatlarining tashqi jismoniy ta'siri natijasidir.

Forobiy falsafasining inkor etib bo'lmaydigan joyi shundaki, u nazariy falsafani haqiqiy va asosiy ilm, deb bilib, qolgan barcha fanlarni unga tobe bo'lgan ikkinchi darajali sohalar maqomiga qo'ydi. Falsafalar o'rtasidagi umumiy dunyoqarashlar bilan kifoyalanmay, din bilan falsafani ham ayrim bir qismga joyladi. Uning fikricha, falsafadagi masalalar isbotini payg'ambarlar ramzlar shaklida bayon qilganlar, zero, mohiyat jihatidan falsafa bilan din o'rtasida hech qanday tafovut yo'q. Bunday qarash o'z davrida nihoyat darajada muvaffaqiyat qozonib, islomiy falsafaning asosi va usulini belgilab beruvchi fikrlash tarziga aylandi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) deyarli barcha fan sohalarida ijod etgan buyuk qomusiy alloma va mashhur mutafakkirdir. U yaratgan 152 ta asardan 28 tasi bizgacha yetib kelgan. Uning tabiatni o'rganishdagi xizmati kattadir. Alloma jismlarning o'zaro tortishuvi, Quyosh va Oyning tutilishi, zarra, inersiya va sun'iy tanlanish, rivojlanish anomaliyasi, Yer qa'rida ruy beradigan geotektonik siljishlar, Yer qiyofasining tadrijiy tarzda o'zgarib turishi, xilma - xil olamlar to'grisida ilmiy bashoratlarni ilgari surgan. Uning falsafiy qarashlari tabiiy-ilmiy qarashlari ta'sirida shakllandi. U modda va zamon, qonuniyat, zaruriyat va tasodifiyat, harakat va rivojlanish, ziddiyat, sabab va oqibat kabi falsafiy muammolarqa katta e'tibor bergan. Beruniyning asarlarida bilish masalalari muhim maqomga egadir. Bilishga bo'lgan qiziqishning ikkita sababi bor. Birinchidan, bu o'ziga xos lazzatdir. Ikkinchidan, bilishdan maqsad odamlar ehtiyojlarini qondirishdir. Bilish sezgilar yetkazib bergan ma'lumotlardan boshlanadi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) buyuk alloma va mutafakkir. Ibn Sino 260 nomdan ko'proq boy adabiy va ilmiy meros qoldirdi. Bizgacha uning 160 asari yetib kelgan. Ular ichida eng yirigi 22 jildidan iborat «Kitob ash-shifo» («Ruhni davolash kitobi») bo'lib, o'z ichiga mantiq, fizika, riyoziyot va metafizikani qamrab oladi. Ibn Sinoning boshqa asarlari: «Risola at-tayr», «Donishnoma» («Bilimlar kitobi»), «Solomon va Ibsol», «Hay ibn Yaqzon» kabilar. Ibn Sino fikricha, borliq *vojibul vujud* (zarur bo'lgan vujud), ya'ni birinchi sabab, Xudo, barcha ashyolarning ibtidosi va *mumkinul vujud* (bo'lishi mumkin bo'lgan vujud), ya'ni qolgan barcha narsalardan iboratdir. Vojibul vujud o'z-o'zicha bor bo'lib, yagonadir. Mumkinul vujud (mumkin bo'lgan vujud) birinchi sababdan kelib chiqib, ayni vaqtda ko'plikdir, ya'ni o'zida ko'p ashyolarning paydo bo'lish imkoniyatini sig'diradi. Shunday qilib, borliq bo'linmaydigan yagona va bo'linadigan ko'plikdan tashkil topgandir. Ko'plik darhol paydo bo'lmaydi, balki asta-sekin, sabab va oqibat shaklida namoyon bo'ladi. Ibn Sino harakat tahliliga katta e'tibor qaratib, uni mexanik tarzda o'rin almashtirish deb qaramaydi: «Harakat deb odatda shunday narsaga aytiladiki, u makonda sodir bo'ladi, ammo hozirgi vaqtda bu tushunchaning ma'nosi boshqacha bo'lib, makoniy harakatdan ko'ra umumiyroq bo'lib qoldi».

3. IX-X asrlarda esa imomlar Abu Hanifa, Ibn Anas, Abu Yusuf, Muhammad ash-Shaybon, Shofe'iy, Ibn Hanballar mujtahidlik ko'rsatib, islom va shariatdagi asosiy to'rt mazhablarni tuzdilar. Imomlar Ibn Moja, Abu Dovud, Abu Iso at-Termiziy, Ismoil Buxoriy, Nasa'iy va boshqa mo'tabar siymolar payg'ambar hadislarini yig'ib, sistemalashtirib, ularning isnodlarini, sahihlarini

aniqlab, ilmiy tadqiq qildilar. Ayni paytda Tabariy, Sa'olibiy, Faxriddin Roziy, Zamaxshariy, Bayzoviy, Abdurahmon al-Ijjiy va boshqalar Qur'on tafsirchiligini san'at darajasiga ko'tardilar.

Shu davrdan boshlab «*kalom*» (arabcha-«ta'limot») nomini olgan ilk islom falsafasi ishlab chiqila boshlandi. Bu ta'limot tarafdorlarni *mutakallimlar* deb atadilar. Mutakallimlar an'anadan ko'ra, aqlga tayanishning afzalligini ta'kidlar, «taqlid»ni rad etar va biror-bir nuqtai nazar va ta'limotni qabul qilishdan oldin ehtiyotkorlik jihatidan unga shubha bilan qarashni nasihat qilar edilar.

Mavoraunnahrda X asrdan keyin, Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog'ida tavallud topib, Mutakallim as-Samarqandiy nomi bilan mashhur bo'lgan Abu *Mansur al-Moturidiy* (944 yil vafot etgan)ning izdoshlari bo'lgan moturidiya oqimining juda ko'p maktablari mavjud edi. Moturidiy o'zining kalom tizimini Ashariydan mustaqil ravishda ishlab chiqqan edi. Umuman, ularning qarashlari va tizimlari bir-biriga o'xshaydi.

Mavoraunnahr mo'g'ullardan ozod bo'lgandan keyin, 1370 yildan boshlab mamlakatda Amir Temur (1336-1405) hukmron bo'ladi. Buyuk Temur kuchli markazlashgan davlat barpo qildi. Feodal tarqoqlikka chek qo'yildi, ishlab chiqarish kuchlari, qo'shni mamlakatlar bilan tashqi savdo aloqalari rivojlandi, er ishlari va shahar hunarmandchiligida yuqoriga ko'tarilish kuzatildi. Qadimgi dunyo madaniyati, Mavoraunnahr, Hindiston, arab mamlakatlari xalqlarining ilk o'rta asrdagi falsafiy merosiga qiziqish ortib bordi. Bu davrning falsafiy fikri uchun xos narsa dunyoviy va diniy fanlarga murojaat, tabiatni o'rganishga intilish, inson aqli va qobiliyatlarining ko'tarilishi, insonning axloqiy sifatlarini qadrlash, insonparvalik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish edi.

Sa'duddin Ma'sud binni Umar Taftazoniy (1322-1392) islom falsafasi bo'lgan kalomning yirik vakili edi. U Niso (Ashxobod) shahri yaqinidagi Taftazon qishlog'ida tug'ildi. Taftazoniy o'zining «Tahzib al-mantiq va al-kalom» asarida insonning xulq-atvoridagi iroda erkinligi masalasiga kengroq to'xtaladi. Uning fikricha, har qanday olijanoblik va xayrli ishlar o'z tabiatiga ko'ra xudoning mohiyatidan kelib chiqadi va u hamma narsaning xoliqi sifatida xayr-sharofatning yaratganligi sababidan insonlarni yomon xulq-atvordan tiyilib turishga chorlaydi. Yomon xulqlar, gunohlar insonga xos narsalar bo'lmasdan, ular faqat kishilarni sinash uchun yaratilgandir. Shunday qilib, uning fikricha, xudo o'z bandalariga ikki yo'lni «taklif» etadi, ya'ni sharaflı, xayrli faoliyat ko'rsatishni yoki nomatlub mashg'ulotlar bilan gunohga botishni, gunohga botish esa jazoga tortilishni keltirib chiqaradi.

XV olimlaridan biri Amir Temurning nevarasi *Muhammad Tarag'ay Ulug'bek* (1394-1449) edi. Mavoraunnahr hukmdori bo'lgan sulton Ulug'bek fan va madaniyat taraqqiyotiga katta e'tibor qaratdi. Uning ilmiy qiziqishlari riyoziyot, astronomiya, geometriya, kimyo, tarix va boshqa fan sohalarini qamrab olgan edi. 1428 yilda Ulug'bek boshchiligida Samarqandda o'sha zamondagi eng katta rasadxona qurildi. U 1437 yilda o'zining astronomiya sohasidagi asari bo'lgan «Zije Ko'ragoniy» («Ko'ragoniyning yulduzlar jadvali») risolasini yozib tugatdi. Ushbu risolada yil hisobi, sayyoralar nazariyasi, astronomiya muammolari bayon etilgan bo'lib, 1018 yulduzning jadvali ham berilgan edi. Ulug'bekning «To'rt ulus

tarixi» nomli asari ham borki, unda mo'g'ullar imperiyasining tarixi bayon etilgan. Bundan tashqari, Ulug'bek mantiq, fiqh, musiqa nazariyasi va adabiy uslub nazariyasini yaxshi bilar edi.

Ulug' mutafakkir va gumanist *Abdurahmon Jomiy* (1414-1492) qomusiy olim edi. U borliqni *vahdati vujud* ta'limoti asosida talqin qiladi. Uning tushuntirishicha, Xudo butun mavjudotlarning bosh sababchisi, ijodkoridir. U abadiy. Qolgan hamma narsa va hodisalar o'tkinchi va vaqtinchadir. Uning e'tiqodicha, Xudo yagona bo'lmaganda edi, dunyoda tartibsizlik hukm surar edi. Unda dunyo qonun asosida faoliyat ko'rsatmagan, tinchlik eshiklari ochilmagan bulur edi. Butun dunyo yo'qlikka aylanib, balki bu yo'qlikdan chiqolmagan bo'lur edi¹.

Ulug' o'zbek shoiri, davlat arbobi, buyuk mutafakkir *Alisher Navoiy* (1441-1501) Hirotida tavallud topadi. Navoiy vazirlik davrida shoiru olimlarga homiylik qiladi, jamg'argan boyligini ilm-fan, madaniyat va obodonchilik ishlariga sarflaydi, beva-bechora va muhtojlarga xayr-ehson qiladi, rabotlar, suv inshootlari, kasalxonalar qurdiradi, kanallar o'tkazadi.

Navoiy falsafiy qarashlari *vahdati-vujud* va *tasavvuf* ta'limotiga asoslangan. Mutafakkir o'zining dunyoqarashida Olloh, tabiat va inson birligidan kelib chiqadi. Uning e'tiqodiga ko'ra, inson baxt-saodatiga bu dunyoda erishishi mumkin. Buning uchun u tinmay mehnat qilishi, kasb-hunar egallashi, tabiatning siru asrorini idrok qilishi, uning noz-ne'matlaridan foydalanishi darkor. Xudo, allomaning fikricha, borliqning, shu jumladan insonning yaratuvchisidir. Mavjudotlarning eng yaxshisi, a'losi va gultojisi insondir.

Navoiy o'zining *ijtimoiy-siyosiy* qarashlarida hukmdorning faoliyatiga katta e'tibor berdi. U mamlakatni odil va ma'rifatli shoh boshqarishi lozim, deb hisoblaydi. Bunday hukmdor o'z q o'l ostidagilarga odilona munosabatda bo'lishi, ularga g'amxo'rlik qilishi lozim. Mutafakkirning gumanistik va umuminsoniy qarashlari tinchlik va urush masalasiga munosabatida yorqin namoyon bo'ladi. U butun umri davomida bosqinchilik urushlari va zo'ravonlikka qarshi kurashdi, xalqlarni tinch-totuv yashashga, do'stlikka da'vat etdi. **Tasavvuf** (so'fizm) falsafiy oqim va diniy-ma'naviy hodisa sifatida islom dini doirasida (ko'pgina ichki sabablar va ba'zi tashqi unsurlar – buddaviylik va hindiylikning ilk diniy tasavvurlari, Sharqiy xristian tarkidunyochiligi, neoplatonizm kabilarning ta'siri ostida) paydo bo'ldi. Tasavvuf uchun vahdoniyat – Ollohning birligi, Olloh va olamning porlab turishi, fano bo'lish, orif shaxsining Tangri taolo bilan ruhan birlashib ketishi kabi mushohadalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu oqim namoyandalari va tarafdorlarini sufiylar, deb ataganlar va «sufizm» atamasi shundan paydo bo'lgan. Ilk sufiylar aholining kambagal toifasi orasida shakllangan. Ularning qarashlari istilochilar zulmi, adolatsizlik, ijtimoiy tengsizlikka qarshi norozilik belgisi sifatida ham yuzaga kelgan. Tasavvufning muhim jihatlarini yirik musulmon ilohiyotchisi Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliyning (1059-1111) «Diniy ilmlarning tiriltirilishi» asarida bayon etilgan. Ul zot dunyo qonuniyatlarini aql orqali bilishni e'tirof etgan, lekin

¹ Жомий. Хафт авранг. –Т., 1914. 81-б.

Ollohni aql bilan anglash mumkin emasligini ta'kidlaganlar. U faqat qalb, maxsus ruhiy harakatlar – iltijo-ibodatlar kumagida bilib boriladi. Mantiq, tabiatni bilish Ollohni tanishga halal bermasa, ular ahamiyatlidir, agar aksincha bo'lsa, ularning maqomi chegaralanadi.

Rasmiyatchilik, aqidachilikni tasavvuf ahli qabul qilmagan. Ularning fikricha, iymon-e'tiqodning mohiyati Ollohdan boshqa narsaga muhtoj bo'lmaslik, hech qanday mulkning quliga aylanmaslik, boriga sabr-ganoat qilib yashashdir. Ollohga yetishish uchun qalbni poklash, nafs balosidan ozod bo'lish darkor. Ana shundagina inson dili nur bilan tuladi, nuqsonlarni boshqalardan emas, o'zidan izlaydigan darajaga ko'tariladi, Haq sari yaqinlashadi, bema'ni qarash va tushunchalarning qullik kishanidan o'zini ozod qiladi, chunki inson qalbi hurdir. Tasavvufda Kubraviya, Yassaviya, Naqshbandiya tariqat-suluklari keng tarqalgan.

Bahovuddin Muhammad Burhoniddin Muhammad al-Buhoriy Naqshband (1318-1389) – XIV asr Markaziy Osiyo tasavvufining eng yirik vakili edi. Naqshbandiya tariqatining ma'naviy asoschisi Xoja Yusuf al-Xamadoniy (vaf. 1140) hisoblanadi. Naqshband Buxoro yaqinida tug'ildi. U vafotidan keyin muqaddas shaxs hisoblanib, Xudo oldida vositachi, karomat ko'rsatuvchi va Buxoroning homiysi sifatlariga ega bo'ldi. Qabri ustiga o'rnatilgan maqbara ziyorat qilinadigan joyga aylandi.

Naqshband o'z ta'limotida tasavvufning ikki maktabi – Ahmad Yassaviy va Abdulholiq al-G'ijduvoni (vaf. 1180) qoidalarini bir-birlariga qo'shdi. Naqshband ta'limoti Markaziy Osiyoning turkiy qabilalari orasida islomning sunniy oqimini yoydi va mustahkamladi.

Naqshband haqiqiy solihni chalg'ituvchi zohiriy taqvodorlik va marosimchilikni rad qildi: 40 kunlik ro'za tutish, daydilik, gadoylik, ko'pchilik oldida musiqa, ashula va raqs ijro etishni, baland ovoz bilan zikr aytishni ma'qullamadi. U *silot al-barakaning* («sharofat zanjiri»), ya'ni go'yo muqaddaslik sharofati tariqatning rahbariga uning asoschisi tomonidan berilishini foydasiz, deb hisobladi. Chunki *baraka* har qanday solikka bevosita Xudo tomonidan beriladi. Shuning uchun u jazava vaqtida «pirni ko'rish» (mushohada) zarurligini ham rad etdi. Ruhiy poklik, manfaatparastlikdan yuz o'girish, ko'ngilli ravishda faqirlikda yashash, hokimiyat vakillari bilan hech qanday aloqada bo'lmaslik va honaqohda yashash – uning asosiy talablari edi. Turkistonda **ma'rifatparvarlik** uzoq tarixiy ildizga ega. XIX asrda ma'rifatparvarlik falsafasining kuchayishi XVI asrda Buyuk ipak yo'lining o'z faoliyatini to'xtatishi, dengiz yo'llarining ochilishi hamda XVIII-XIX asrlarda Yevropa mamlakatlarida sodir bo'lgan shiddatli texnologik rivojlanish natijasida O'rta Osiyo xonliklarining ob'ektiv sabablarga ko'ra taraqqiyotdan orqada qolishi bilan bog'liqligi hech kimga sir emas. Xalq xo'jaligi va umumiy taraqqiyotga katta zarar yetkazgan ichki o'zaro urushlar esa bu qoloqlikning sub'ektiv sabablari hisoblanadi. Shunday sharoitda ilg'or ziyolilar mazkur qoloqlik sabablarini teran tahlil qilib, taraqqiyotga erishish yo'llarini izlay boshladilar va keng xalq ommasini ma'rifatli qilishni bu yo'ldagi birlamchi vazifa deb bildilar.

Islotchilik va ma'rifatparvarlik yangi falsafasining shakllanishida qomusiy bilim sohibi, tabiiy va aniq fanlarni chuqur bilishi tufayli muhandis deb

ulug‘langan **Ahmad Donish** (1827-1897) alohida o‘rin tutadi. U astronomiya va kosmologiya sohalaridagina tadqiqotlar olib borib qolmay, falsafa, tarix, adabiyot, musiqa san‘ati va xattotlik fanlarida ham yetuk edi. Donishning siyosiy, ijtimoiy va falsafiy qarashlari uning «Navodir ul-vaqoe» («Nodir voqealar») kitobida o‘zining nisbatan to‘liq ifodasini topgan. Risolada u falsafa, axloq, ijtimoiy hayotning turli masalalari, davlat qurilishi va odamlarning o‘zaro munosabatlari to‘g‘risida mulohaza yuritadi, mavjud idora usulini tanqid qilib, Buxoro xonligining davlat boshqaruvini isloh qilishni taklif etadi. O‘sha davr Misr islohotchilari kabi Ahmad Donish fatalizmga qarshi chiqdi. U inson hamma narsa faqat yaratgandan deb o‘tirmay, o‘z ahvolini yaxshilash uchun faol harakat qilishi kerakligi g‘oyasini ilgari surib, har bir kishi o‘z taqdirini o‘zi hal qilish mumkinligini va Alloh tomonidan bunga katta imkoniyat berilishini uqtirdi. Uning fikricha, davlat bir to‘da kishilarning emas, balki xalqning manfaatlarini qondirishga xizmat qilishi kerak, davlat rahbarlari esa, mamlakat va jamiyat farovonligi to‘g‘risida qayg‘urishi lozim.

4. **Jadidchilik** - XIX asr oxiri - XX asr boshidagi ko‘plab SHarq mamlakatlaridagi milliy-taraqqiyparvar ziyolilarning islohotchilik harakati. Bu harakat O‘rta Osiyo xalqlarining madaniy, milliy-siyosiy jihatdan rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. "*Jadidlar*" degan nomning o‘zi "*usuli jadid*" ("Yangi usullar") tushunchasi asosida kelib chiqqan. Bu atama ostida o‘qitishning yangi usullari tushunilar, yangi usuldagi maktablar shu asosda qurilgan edi. Jadidchilik harakatining vazifalari kengayishiga muvofiq ravishda keyinchalik mazkur atamaning mazmuni ham kengaydi. Ma‘rifatparvarlik bilan bir qatorda, jadidlar ijtimoiy va siyosiy huquqiy holatlarning eski tizimini taraqqiyotning ilg‘or usullari bilan almashtirmoqchi bo‘ldilar. Jadidlar harakati XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi siyosiy kuchlar murakkab bir tarzda chigallashib ketgan Turkiston jamiyatining eng ilg‘or yo‘nalishi qarashlarini o‘zida aks ettirdi. U dunyo ahamiyatiga molik insonparvarlik va milliy qadriyatlarga asoslanib, jamiyat taraqqiyotining ehtiyojlari va o‘lkaning tub aholisi manfaatlariga javob berdi. **M.Behbudiy, A.Fitrat, U.Asadullaxo‘jaev, Munavvar Qori, A.Avloniy, S.Ayniy, F.Xo‘jaev, T.Norbo‘taev** va boshqa mashhur nomlar ushbu harakat bilan bog‘liq. Jadidlar islom falsafasi nuqtai nazari asosida ish tutganlar. Mavzuning hozirgi tadqiqotchilari yozganidek: «Islom va fan, islom va ilg‘or taraqqiyot - XIX asr ikkinchi yarmida musulmon mamlakatlaridagi intellektual va ijtimoiy-siyosiy islohotlar o‘tkazish yo‘lidagi izlanishlarning falsafiy asosi hisoblanadi»². Shuning uchun ham jadidlar faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri islomni modernizatsiyalash, uni bid‘atlardan tozalash, fan yutuqlari va ilg‘or texnologiyalarni egallashdan iborat edi. Birinchi navbatda, ular islomning mohiyatini o‘z manfaatlariga moslab olgan din namoyandalarini qattiq tanqid ostiga oldilar hamda dinni qurol qilib olgan siyosiy o‘yinlar qanday og‘ir oqibatlariga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatib berdilar.

² Прилуцкий Е.А. Запад и Восток в философских и теоретических концепциях джадидов // Жадидчилик: ислокот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Тошкент, 1999. 58-бет.

XX asrda O'zbekistonda falsafiy fikrlarning rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri O'zbekiston jamiyati: a) Chor Rossiyasi tarkibidagi, b) SSSR tarkibidagi va v) mustaqil O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy hodisalar bilan bog'liq. Chor Rossiyasi tarkibidagi O'zbekiston hududida falsafiy mafkuraning uchta kurashayotgan turini ajratish mumkin: an'anaviy kalom negizidagi, islohiy modernizm va ma'rifat negizida (jadidizm) hamda tub o'zgarishlar va jangovar ateizm negizidagi (bolshevizm va boshqa revolyusion oqimlar). Sovet hokimiyatining o'rnatilishi bilan marksizmning sovet varianti hukmron mafkuraga aylandi. Sovet falsafasining hozirgi mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarining stalinizmni leninizmdan, 70-yillar falsafasini «qayta qurish» davri falsafasidan, avtoritar va apologetik yo'nalishdagi ishlarni jiddiy ilmiy tadqiqotlardan farqlashi bejiz emas. 1954 yilgacha respublikada O'rta Osiyo (keyinchalik Toshkent) universitetidagina faqat bitta falsafa kafedrasini bo'lgan. 1955 yildan boshqa oliy o'quv yurtlarida ham falsafa kafedralari tashkil topa boshladi, 1963 yilda esa Toshkent davlat universiteti tarix fakultetida falsafa bo'limi ochildi va u keyinchalik falsafa-iqtisodiyot fakultetiga aylantirildi. 1956 yili ochilgan O'zSSR FA falsafa va huquq bo'limi negizida Falsafa va huquq instituti tashkil topdi. 2000 yildan Toshkent davlat sharqshunoslik institutida «Sharq falsafasi va madaniyati» ixtisosligi bo'yicha talabalar tayyorlash boshlandi.

O'zbekistonning mustaqillikni qo'lga kiritganligi, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar faylasuflar oldiga zaruriy ravishda yangi muammolarni qo'yimoqda. Milliy mustaqillik g'oyasini va yangi mafkurani shakllantirish bilan bog'liq ravishda O'zbekiston faylasuflari oldida muhim vazifalar ko'ndalang bo'lmoqda. Jamiyatda mafkuraning tutgan o'rni va mavqei, uning ma'naviy-axloqiy yangilanishi, yangi ijtimoiy eng yuksak orzu va qadriyatlarining qaror topishi, uyg'un barkamol avlod tarbiyasi haqidagi ijtimoiy ongning shakllantirish g'oyasi o'z aksini O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov hamda Prezident Sh.Mirziyoyevning asarlarida, rasmiy nashrlarda³, olimlarning tadqiqotlarida, ijtimoiy-siyosiy masalalarga doir adabiyotlarda topmoqda⁴. O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi jihatlarini tadqiq qilishni davom ettirish hozirgi zamon talabidir.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Yurtimizdagi qadimgi falsafiy qarashlarda umumiylik jihatlarini nimada?
2. Mutakallimlar kimlar?
3. Forobiyning falsafiy va jamiyatshunoslikka doir qarashlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Tasavvufning yirik namoyondalaridan kimlarni bilasiz?
5. «Dil ba yoru, dast ba kor» shiorining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering
6. Ahmad Donishning qarashlari haqida nimalarni bilasiz?
7. Jadidlar qanday g'oyalarni ilgari surdilar?

³ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар ва қоидалар. –Т., 2000.

⁴ Ҳ.Пўлатов. Ўзбек мафқураси: ўзбек миллий уйғониш мафқураси ҳақида. Т., Мулоқот, 1991, №6,7.
У.Абилов. Миллий ғоя: маънавий омиллар. –Т., Маънавият, 1999.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

3-Mavzu: G'ARB FALSAFASINING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING FAN TARAQQIYOTIGA TA'SIRI

REJA:

1. Qadimgi Yunon falsafa maktablarining fan taraqqiyotiga ta'siri
2. Ilk o'rta asrlarda Yevropa falsafiy tafakkuri
3. Yangi davr G'arb falsafasi
4. XIX-XX asr G'arb falsafasining mohiyati

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

Atomizm, naturfalsafa, stixiyali dialektika, sxolastika, ilohiyot, geliosentrizm, ratsionalizm, marifatparvarlar, nemis klassik falsafasi, neotomizm, pragmatizm, ekzistensializm, pozitivizm, sivilizatsion yondoshuv

1. Qadimgi Yunoniston va Rimdagi falsafiy qarashlar - antik davr falsafasi deb yuritiladi. Unda Milet falsafiy maktabi, Eley falsafiy maktabi, Suqrot, Pifagor, Aflotun, Arastu va boshqalarning falsafiy, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy - axloqiy ta'limotlari o'rganiladi. Yunonistonda dastlabki falsafiy ta'limotlar eramizda avvalgi VII-VI asrlar o'rtasida Milet shahrida yuzaga kelgan va rivojlangan. Milet maktabi vakillari Fales, Anaksimandr, Anaksimenlardir. Uning asoschisi **Fales** (eramizdan avvalgi 624 – 547 yillarda yashagan). U yunon fani va falsafasining asoschisi bo'lib, o'z davrining yetuk siyosiy arbobi, jug'rofi, faylasufi bo'lgan. Fales ta'limotiga ko'ra, tabiatdagi turli-tuman jism va hodisalar dastlabki ibtido - suvdan paydo bo'lgan va yana suvga aylanadi va bu moddiy birlik doimo o'zgarishda bo'ladi.

Yana bir yunon faylasufi **Geraklit** (eramizdan avvalgi 520-460 yillar) stixiyali dialektikaga asos solgan, olov – olamning asosi, deb bilgan. Uning fikricha, olamda hamma narsa harakatda. «Oqar suvga bir soniyada ikki marta tushish mumkin emas, chunki suv har daqiqada yangilanib turadi». Olamda turg'inlik yo'q. Harakat butun

tabiatga, barcha jism va xodisalarga xosdir. Abadiy harakat - abadiy o'zgarishdir. Harakat qarama-qarshilik asosida sodir bo'ladi. «Kurash hamma narsaning otasi, hamma narsaning podshosidir», degan ekan Geraklit. Bundan Geraklit kishilar o'rtasida urushlarni targ'ib qilgan ekanda, deya xulosa chiqarish noto'g'ri. Geraklitning fikricha, doimiy o'zgarish, harakat va o'zaro qarama-qarshi tomonlarga o'tish – jismlar sifatining nisbiyligi bilan bog'liq. Masalan, dengiz suvi inson iste'moli uchun yaroqsiz bo'lsa, baliqlar uchun ayni muddaodir. Geraklitning qarashlari falsafiy tafakkur rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Pifagor (eramizdan avvalgi 580-500 yillar) Yunonistonning Samos orolida yashab o'tgan. U Qadimgi Yunonistonda diniy-mafkuraviy falsafiy maktab, ya'ni pifagorchilikka asos solgan. Pifagor o'zining siyosiy qarashlari tufayli podsho Polikret bilan chiqisha olmagan va Samosni tark etib, janubiy Italiyaga ko'chib ketgan, o'sha yerda o'z uyushmasini tashkil etgan. Uningcha, dunyoni bilish jarayoni, avvalo, raqamlarni bilishdan boshlanishi kerak. Pifagorchilarning ta'limotiga ko'ra, olamning asosida modda ham, tabiat ham emas, balki ideallashgan raqamlar yotadi; narsa va hodisalar aynan ana shu raqamlar maxsulidir. Pifagorchilar birinchi bo'lib Yunonistonda tabiatdagi narsa va hodisalarni izohlashda miqdor kategoriyasini ilgari suradi. Pifagor zodagonlar oilasiga mansub bo'lgani bois aristokratiyani himoya qilgan. U «tartib» to'g'risidagi ta'limotini yaratib, faqat aristokratlar o'rnatgan tartib ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynaydi, degan. Uning fikricha, demokratiya bu tartibotning buzilishidir.

Suqrot (eramizdan oldingi 469-399 yillar.) (asli – Sokrat) – Qadimgi Yunon faylasufi. Suqrot o'z ta'limotini og'zaki ravishda ko'cha-ko'yda, maydonlarda, xiyobonlarda shogirdlari va izdoshlari bilan birga shakllantirgan va xalq ongiga singdirishga harakat qilgan, lekin bironta ham asar yozmagan. Uning falsafiy, axloqiy ta'limotlari mohiyatini shogirdlari Ksenofant, Aristofan va Aflotunlarning asarlaridan bilib olishimiz mumkin. Suqrotning fikricha, falsafaning markazida axloq masalalari turmog'i lozim. Jamiyatning ravnaqi, tinchlik va osoyishtaligi, farovon hayoti axloq va odobning ahvoliga bog'liq. Bu masalalar Sharq falsafasida ham katta o'rin tutganligi bois xalqimiz, buyuk allomalarimiz Suqrot nomini benihoya hurmat bilan tilga olgan, uning axloq-odob haqidagi pand-nasihatlariga amal qilgan.

Suqrotning shogirdi **Aflotun** (asli – Platon) jahon falsafasi tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk allomadir. U 35 dan ziyod dialog shaklidagi asarlar yozib qoldirgan. Arastuning u haqdagi ma'lumotlarini birdan-bir to'g'ri dalil deb qarash mumkin. Chunki Arastu Aflotunning eng yaqin do'sti va shogirdi bo'lgan. Aflotun «g'oyalar dunyosi va soyalar dunyosi» ta'limotining asoschisidir. Uningcha, g'oya haqiqiy borliq, biz biladigan va yashaydigan dunyo esa uning soyasidir. Haqiqiy o'zgarish va taraqqiyot g'oyalar dunyosiga xos, soyalar dunyosidagi harakat esa uning aksidir. G'oyalar dunyosining qonuniyatlarini hamma ham bilolmaydi. Ularni biladigan zotlar nihoyatda kam uchraydi, ular ulkan aql egasi bo'ladi va tarixda chuqur nom qoldiradi. Aksariyat kishilar esa, soyalar dunyosi bilan kifoyalanadi. Aflotun ijtimoiy-siyosiy masalalarga doir «Davlat», «Qonunlar», «Siyosat» va «Kritiy» nomli asarlar yozib qoldirgan. «Davlat» asarida jamiyat haqida,

uning ideal siyosiy tuzumi to'g'risidagi qarashlarini markaziy ta'limoti – g'oyalar nazariyasi bilan uzviy bog'liq holda ilgari surgan. Uning fikricha, davlatning to'rtta shakli mavjud: teokratiya; oligarxiya; demokratiya; tiraniya. Aflotunning ideal davlat to'g'risidagi orzulari negizida adolat g'oyasi yotadi. Aflotun aytganidek, jamiyat barcha a'zolarining odil jamiyatdagi qonunlarga bo'ysunishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy garovidir.

Aflotunning shogirdi va safdoshi **Arastu** (384 – 322 yillar) (asli – Aristotel) Qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi, o'zining betakror, jahonni lol qoldirgan ilmiy merosi bilan mashhurdir. Uning barcha asarlari borliqni o'rganishga qaratilgan. Mantiqqa oid asarlarining barchasini «Organon» (Qurol) nomli asariga jamlagan. Faylasuf barcha fanlarni ikki turga – nazariy va amaliy fanlarga bo'lgan. Amaliy fanlar shogirdlarga yo'l-yo'riq ko'rsatishga, biror bir foydali ishni amalga oshirishga yo'naltirilgan. U nazariy fanlarni uch qismga - falsafa (metafizika), matematika va fizikaga ajratgan. Faylasuf olamdagi narsa va hodisalar to'rtta sababga ega, deb ta'kidlaydi. Bular - moddiy sabab, ya'ni modda (materiya); shakliy sabab yoki shakl; yaratuvchi sabab; pirovard sabab yoki maqsad sabablardir. Yaratuvchi sabab, Arastu talqinicha, harakat manbaidir. Masalan, ota va ona bolaning ulg'ayishi sababchisidir. Arastu pirovard sabab (maqsad sabab) vositasida insonga xos bo'lgan maqsadni tabiat hodisalariga ham tatbiq etmoqchi bo'lgan. Harakat olam singari abadiydir. Ayni paytda, olam o'zining abadiy sababi, ya'ni harakatlantiruvchi kuchiga ega.

Yunon falsafasida **Demokritning** qarashlari ham muhim o'rin tutadi. U haqiqiy borliq – moddiy dunyo, abadiy va poyonsiz, cheksiz-chegarasiz reallikdir, olam mayda moddiy zarrachalardan, ya'ni atomlardan va bo'shliqdan iborat deya ta'lim beradi. Atomlar va bo'shliq o'zaro yaxlit abadiy ibtidodir. Atomlar – bo'linmas va o'zgarmas, sifat jihatdan bir xil, uning miqdori shakli singari behisobdir. Demokrit tasodifiyatni inkor etgan. U «na tabiatda na jamiyatda hech bir narsa tasodifan paydo bo'lmaydi», deb yozgan.

2.Yevropada Qadimgi Yunon va Rimdan O'rta asrlar falsafasigacha, ya'ni miloddan avvalgi I asrdan milodning XIV asrigacha bu davr falsafasida ikki xil jarayonni ko'rish mumkin:

1. Xiristianlikning shakllanib davlat dini va mafkurasiga aylanishi;
2. O'rta asrlarga kelib inkvizisiyaning ustivor yo'nalishga aylanishi.

Gnostika, apologetika, patristika, realizm, nominalizm va boshqa oqimlar o'sha davr falsafasining qiyofasisini belgilaydi. Gnostiklar shunday falsafiy ta'limot yaratdilarki, ularning fikricha Xudo ruh sifatida yovuzlikdan mutlaqo sof, inson esa o'z tabiatinnik ruhiy jhati bilan xudoga moslashgan. Apologetika so'zining lug'aviy ma'nosi «himoya qilish»,– demakdir. Apologetlar hukumatning xristianlikka bo'lgan dushmanligini bartaraf qilishga, Rim davlatining xristianlikni ta'qib qilishi hech qanday oqlashga loyiq emasligini isbotlashga harakat qilganlar. Patristika - so'zi «ota» («patre») so'zidan kelib chiqqan. G'arbda eng yirik cherkov otalaridan biri «Pok» degan unvonga sazovor bo'lgan **Avreliy Avgustin** (354-430) bo'lib hisoblanadi. U mushriklik falsafasini qoralaydi. Uningcha, bu falsafa insonni xristian dinichalik hech mahal haqiqatga olib kelmaydi.

Sxolastika - soʻzi yunoncha «shkola»dan (shola) olingan boʻlib, «oʻqish joyi», «maktab» maʼnolarini anglatadi. Sxolastikani maʼlum darajada ilohiyotni aqlga moslashtirish, dinni tafakkur yordamida quvvatlashga boʻlgan intilish deb ham baholash mumkin. Oʻsha davrda ilohiyotni muqaddas kitoblar aqidalari asosida emas, balki falsafiy nuqtai nazardan tadqiq qilish taqozo qilinardi. Sxolastlarning maqsadi eʼtiqod aqlga muvofiqmi degan savolga javob berish boʻlgan. **Foma Akvinskiy** (1224-1292) moʻtadil realizmning yana bir yirik vakili boʻlib hisoblanadi. Fomaning fikricha, natural falsafada tafakkur va Arastu mantiqiy taʼlimoti yordamida xudo mavjudligi haqidagi haqiqatga erishishi mumkin.

Uygʻonish davrida Yevropada falsafaning rivojlanishiga katta hissa qoʻshganlardan biri nemis **Nikolay Kuzanskiydir** (1401-1464). Kuzanskiy taʼlimoticha, xudo hamma narsalarda mavjud, shuningdek, hamma narsalar xudoda mavjud. Eng oliy haqiqatlarni bilish, sxolastik fikrlash bilan emas, balki, tajriba asosida amalga oshadi. Falsafa va fan rivojlanishiga eng katta hissa qoʻshgan uygʻonish davrining mutafakkirlaridan biri polyak olimi **Nikolay Kopernikdir** (1473-1543). Maʼlumki, fan tarixida Kopernik oʻzining fanda tub oʻzgarish yasagan geliosentrik taʼlimoti bilan mashhur boʻlgan. Uning taʼlimoticha, insonlar tomonidan kuzatiladigan quyosh va yulduzlarning harakatlari aslida Yerning oʻz oʻqi atrofida kundalik aylanishidan va quyosh atrofida yillik aylanishidan iborat. Bizning planetamizning markazi yer emas, quyoshdir. Kopernikning buyuk kashfiyoti dunyoga teologik qarashga zarba berib, tabiatshunoslikda toʻntarish yasadi. Kopernikning geliosentrik nazariyasidan chuqur ilmiy xulosalar chiqargan mutafakkirlardan biri italiyalik **Jordano Brunodir** (1548-1600). Bruno geliosentrik nazariyani himoya qilish va targʻib qilish bilan cheklanib qolmaydi. Bruno taʼlimoticha, haqiqiy falsafa ilmiy tajribaga suyanishi kerak, sxolastikani tugatish kerak. Uning taʼlimoticha, koinot yagona, moddiy, cheksiz va abadiy. Biz koʻrib turgan narsalar koinotining eng kichik bir qismidir. Yulduzlar - bu boshqa planeta sistemalarining quyoshi. Yer - cheksiz dunyoning kichik bir zarrasi. Demak, Bruno tabiiy - ilmiy qarashlarida Kopernikdan ilgarilab ketib, koinotning cheksizligi haqidagi fikrni aytadi, Kopernik esa koinotni chekli deb hisoblagan edi.

3. Yangi davr falsafasining asosiy vakillaridan biri **Frensis Bekon** (1561-1626) edi. Uning taʼlimoticha, fanning yangi binosini qurish uchun, toʻgʻri fikrlashga oʻrganish kerak. Bekon bilish nazariyasining birinchi bosqichi esa tajribadir, ikkinchi bosqichi aqlidir. U tajriba maʼlumotlarini ratsional qayta ishlaydi va umumlashtiradi. Bekon taʼlimoticha, olim asalariga oʻxshab gullardan olib keyin ularni asalga aylantirishi lozim. Bekon oʻzining ijtimoiy-siyosiy qarashlari boʻyicha kuchli markazlashgan davlat tarafdori boʻlgan. Jamiyat hayotida asosiy rolni Bekon fikricha sanʼat va savdo rivojlanishi oʻynaydi. Uning taʼlimotini **Tomas Gobbs** (1588-1679) takomillashtirgan va rivojlashtirgan. Gobbs moddiylikni asosiy substansiya deb hisoblagan, materiyaning abadiyligi, harakatning esa mexanistik tarzda amalga oshishining tarafdori boʻlgan olimdir. U matematik sifatida borliqning namoyon boʻlishini geometriya fani nuqtai nazaridan tushuntirgan. Bilish nazariyasida Gobbs koʻproq emperik jihatlariga oʻz eʼtiborini qaratgan, sezgilarning bilimlar hosil qilish jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilgan. Jamiyat taraqqiyoti va unda davlatning

o'zni hamda kelib chiqishi masalasida Gobbs ko'proq xususiy mulkchilikka asoslanadi.

Ingliz falsafasida **Jon Lokk** (1632-1704) qarashlari alohida o'rin tutadi. U tajribani bilishning asosiy manbai deb hisoblaydi. Bunda ichki va tashqi tajriba ajratib ko'rsatiladi. Lokkning fikricha bilish tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlardan iborat bo'lib, haqiqatlar esa kishilarning bu jarayonda hosil qilgan tushunchalari, g'oyalari va xulosalarining olamga mos kelishidan iboratdir. Ijtimoiy-siyosiy qarashlariga ko'ra Lokk davlatning o'ziga xos quyidagi tamoyillarini ta'riflaydi: 1. Hokimiyatni qonun chiqaruvchi tizimi; 2. Hokimiyatning ijro etuvchi organlari; 3. Ittifoq federativ hokimiyati. Ana shu tamoyillar uyg'un bo'lganida davlatning faoliyati samarali amalga oshadi.

O'rta asrlardagi Yevropa falsafasi taraqqiyotida Fransiyada shakllangan milliy falsafa maktabi nihoyatda katta o'rin tutadi. Bu borada R.Dekart, Lametri, Gelvetsiy, Didro, Golbax va Russolarning qarashlari nihoyatda muhim. **Rene Dekart** (1596-1650) falsafasida dualizm asosiy o'rin tutadi. Uning fikricha materiya va ruh borliqning asosida yotadi va xudoga bo'ysunadi. Olam, Dekart fikricha cheksiz va abadiy, u inson tafakkuriga bog'liq bo'lmagan holda rivojlanadi va takomillashadi. R. Dekartning «Men fikr qilayapman, demak men mavjudman» degan fikri faylasuflar orasida mashhur bo'lib hisoblanadi. Bilishda fikr va sezgilarning ahamiyatini nihoyatda ortiqcha deb bilgan R.Dekart ratsionalizm ta'limotining asoschisi bo'lib hisoblanadi. Uningcha insonning fikrlashi va mulohaza qilishi shubha ostiga olib bo'lmaydigan jarayondir, undan boshqa hamma narsani tekshirish shubha ostiga olish mumkin. Dekart o'sha zamonning eng buyuk matematiklaridan biri bo'lib, o'z davrida aniq fanlar sohasida katta ahamiyat kasb etgan deduksiya usulini falsafaga kiritgan olim bo'lib hisoblanadi.

XVIII asrning II yarmi va XIX asr boshlarida nemis falsafasi vujudga keldi. Nemis falsafasining asoschilaridan biri **Immanuel Kant** (1724-1804) faqat mashhur faylasufgina bo'lib qolmasdan, yirik tabiatshunos olim hamdir. Kantning tabiiy-ilmiy qarashlari tabiat hodisalarini metafizik ruhda tushuntiruvchi ta'limotlarga zarba berdi. Kant ta'limoti bo'yicha, falsafaning eng muhim muammolari bo'lmish - borliq, axloq masalalarini tahlil qilish uchun eng avvalo, inson bilimining imkoniyatlari va chegaralarini aniqlamoq kerak. Biz tabiat qonunlari deb bilgan narsalar aslida aql tomonidan hodisalar dunyosiga kiritilgan aloqadir. Boshqacha qilib aytganda, bizning aqlimiz tabiatga qonunlar kiritadi. Lekin hodisalar dunyosiga inson ongiga bog'liq bo'lmagan narsalarning mohiyati, ya'ni «narsa o'zida» mos keladi. Ularni mutlaq bilish mumkin emas. «Narsa o'zida» biz uchun faqat aql bilan bilish mumkin bo'lgan, lekin tajribadan kelib chiqmaydigan mohiyatdir. Kantning fikricha «narsa biz uchun»ni inson bila oladi. U «narsa biz uchun» deganda olamdagi narsa va hodisalarni ko'zda tutadi. Kant inson aqlining cheksiz qudratiga ishonchsiz qaraydi. Uning qarashlarida skeptitsizm g'oyasi sezilib turadi.

Kantning vafotidan keyin nemis falsafasining rivoji **Gegel** (1770-1831) ijodida o'zining yuksak chuqqisiga erishadi. Hegel dialektikaning qonunlari va kategoriyalari haqidagi ta'limotni rivojlantirdi. Falsafa tarixida birinchi marta bir tizimga solgan holda dialektik logikaning asosiy qoidalarini ishlab chiqdi. O'sha davrlarda hukmron bo'lgan metafizik fikrlash uslubini tanqid qildi. Kantning

«narsa o‘zida» haqidagi ta’limotiga qarama-qarshi qilib, shunday ta’limotni ilgari surdi: «Mohiyat namoyon bo‘ladi, hodisa mohiyatdan ajralmasdir». Gegelning ta’kidlashicha, kategoriyalar borliqning obyektiv shakllaridir. Borliqning asosida esa «dunyoviy aql», «mutlaq g‘oya» yoki «dunyo ruhi» yotadi. Rivojlanish g‘oyasi Gegel falsafasini qamrab olgan. Uning ta’kidlashicha, rivojlanish tor doira ichida emas, doimiy, quyidan yuqoriga qarab boradi. Mana shu jarayonda miqdor o‘zgarishlarining tub sifat o‘zgarishlariga o‘tishi yuz beradi. Rivojlanishning manbai esa har qanday o‘z-o‘zidan harakatning sababi bo‘lgan qarama-qarshilikdir. Gegel falsafasida borliq dialektik o‘tishlar zanjiri sifatida bayon qilingan.

4. Ma’lumki, hamma zamonlarda ham falsafa o‘z davrining dolzarb muammolarini hal etish yo‘llarini topishga harakat qilgan. XX asrga kelib insoniyat fan va texnika taraqqiyoti sohasida ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Lekin shu bilan birga, aynan ushbu asr ijtimoiy silsilalar, ikkita jahon urushi, ekologik inqiroz, og‘ir yo‘qotishlar davri ham bo‘ldi. Bu esa falsafiy fikrning taraqqiyotida o‘z aksini topdi, uning turli yo‘nalish va oqimlari shug‘ullangan muammolarning salmog‘i, maqsad-muddaosini aniq belgiladi. Buning natijasi sifatida, hozirgi davr falsafasida nihoyatda xilma - xil oqim va yo‘nalishlar mavjud. O‘z navbatida bu ilm-fan va amaliyotning hamda XIX asrning ikkinchi yarmi va hozirgacha bo‘lgan falsafa ilmi rivojining asosiy xususiyatlarini belgilaydi.

Hozirgi zamon falsafasining eng asosiy tamoyillari umuminsoniylikning ustuvorligi, uning milliylik bilan uyg‘unligi, demokratik erkinliklar, inson qadri, biror ta’limotni mutlaqlashtirmaslikdir. Bag‘rikenglik va tolerantlik hozirgi falsafiy ta’limotlar rang-barangligini ta’minlaydi.

An’anaviy falsafada, turli g‘oyaviy tizimlarga bo‘linishiga qaramay, muhim muammolarni hal etishda ma’lum bir umumiylik mavjud edi. Hozirgi zamon falsafasida aksincha, falsafiy muammolarning ko‘p xilligi va o‘ziga xosligi, turli-tumanligi, ular asosida falsafiy oqimlarning mustaqil yo‘nalish sifatida shakllanganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

An’anaviy falsafada aql - inson mohiyatining belgilovchisi, deb talqin etilgan bo‘lsa, endi ratsionalizmga qarshi insonning mavjudligi (ekzistensializm) muammolari, hamda uning noratsional mohiyati ilgari surila boshladi. Ya’ni ilgari ma’rifatparvarlik g‘oyasi ustuvor bo‘lsa, endilikda ko‘proq inson huquqlariga e’tibor kuchayib ketdi. Falsafa go‘yoki, mavhumlikdan aniqlik tomon bordi, umumiy emas, aniq-ravshan masalalarni hal qilish boshlandi.

Yangicha falsafiy tafakkurga asos solgan olimlar orasida ko‘pchilik nemis olimi **Artur Shopengauer** (1788 – 1860) qarashlarini tilga oladi. Shopengauer olamdagi barcha mavjud narsalarni irodaning namoyon bo‘lishi, irodani esa ongsiz ko‘r-ko‘rona intilish tarzida tushunadi. Mahluqotlarning instinktlari, xatti-harakatlari – irodaning namoyon bo‘lishidir. Inson faoliyati ham aqldan begona bo‘lgan irodaning natijasidir. Shuning uchun inson mohiyati irratsional asosga ega. Aql esa tasodifiydir. Inson hayoti doimo aylanib turgan iroda g‘ildiragiga bog‘liqdir.

Shopengauer ta’limotini davom ettirgan nemis faylasufi **Fridrix Nitsshe** (1844-1900) fikricha, «borliqning eng chuqur mohiyati hokimiyatga erishish uchun bo‘lgan irodadir» Nitsshe inson borlig‘ida maxluqlik va xoliqlikni birlashib

ketganini asoslab berishga harakat qildi. Uning diyorimizda bundan ikki yarim ming yil muqaddam shakllangan zardushtiylik ta'limotini o'rganib yaratgan «Zardusht tavallosi» asarida kuchli shaxslarni tarbiyalash g'oyasi ilgari surilgan. U o'z ortidan irodasiz kishilar ommasini yetaklashga qodir bo'lgan irodasi kuchli shaxslarni tarbiyalash tarafdori bo'lgan.

Pozitivizm g'arbda XIX asrning 20 – yillarida paydo bo'lgan, asoschisi XIX asrda yashagan fransuz faylasufi **Ogyust Kontdir**. Uning fikricha, falsafa aniq fanlar taraqqiyotisiz mavjud bo'la olmaydi. Falsafa – obyektiv reallikni emas, balki aniq fanlar qilayotgan ilmiy, ya'ni ijobiy (pozitiv) xulosalarni o'rganib, tahlil qilib ularni mantiqan bir tartibga, sistemaga solishi kerak. Kont falsafaning o'zi mustaqil ravishda obyektiv dunyo tug'risida xech qanday aniq bilimlar berishi mumkin emas, u shu paytgacha yiqilgan bilimlarni formal lokika qonunlari asosida tahlil etishi va qayta baholashi, uni «absolyut g'oya, ruh» tug'risidagi ortiqcha fikrlardan tozalashi kerak va yangi falsafani yaratishi kerak, deb ta'lim bergan.

Neopozitivizm oqimining yirik namoyandalari Karnap, Ayer, Rassel, Vitkenshteyn va boshqalardir. Neo – yangi; pozitiv – ijobiy degan ma'noni anglatadi. Neopozitivistlar verifikasiya prinsipini ilgari suradilar (lot. veritas – haqiqat.) ularning fikricha, faqat tajribada o'z tasdig'ini topgan bilimgina haqiqiydir. Shundan so'ng postpozitivizm (ya'ni keyingi pozitivizm) vakili **Karl Popper** (XX asr) falsifikasiyalash metodini ilgari surdi. Bunga ko'ra, inson ba'zi nazariy bilimlarning haqiqatligini emas, xato ekanligini isbotlashi kerak.

Neotomizm - XX asrdagi eng yirik diniy-falsafiy oqim bo'lib, u o'rta asrlardagi (XIII asr) Foma Akvinskiyning ta'limotini qaytadan tikladi. U (neo - yangi, tomizm - «foma», transkripsiyada «toma» bo'lib o'zgargan) Foma Akvinskiyning yangi, zamonaviy ta'limoti demakdir. Bu ta'limotga ko'ra, ilm va e'tiqod o'rtasida to'la muvofiqlik, uyg'unlik bor. Ular bir-birini to'ldirib turadi, har ikkisi ham xudo tomonidan berilgan haqiqat. Neotomizm vakillari fikricha, ilm yetmagan joyda e'tiqod qo'llanishi kerak.

Strukturalizm (asosiy vakillari Levi – Stross va Fuko) bilishda strukturaviy usulning ahamiyatini mutlaqlashtiradi. Bu oqim tarafdorlari narsa va xodisaning strukturasini bilish uning obyektiv mohiyatini bilish demakdir, deb hisoblaydilar.

Germenevtika – qadimgi yunon afsonalaridagi xudolarning xohish va irodasini insoniyatga tushuntirib berish uchun yerga yuborilgan elchisi – Germes nomi bilan ataladi. Demak, germenevtika – tushunish, tushuntirish, tahlil etish g'oyalari asosiy diqqatini qaratadi. Jamiyat, bu ta'limotga ko'ra, kishilar o'rtasidagi muloqotga asoslanadi. Muloqot jarayonida madaniy, tarixiy va ilmiy qadriyatlar yaratiladi. Shuning uchun falsafaning asosiy vazifasi hayotning ma'nosini, mohiyatini kishilar o'rtasidagi muloqotdan qidirishdan iborat.

XX asrning 30 – yillariga kelib «**ekzistensial falsafa**» rivojlandi. Ekzistensiya – tom ma'noda mavjud bo'lmoq demakdir. **Ekzistensializm** nihoyatda xilma-xil yo'nalishdagi ta'limotlarni insonning ma'naviy dunyosi, inson taqdiri, erkinligi g'oyalari asosida umumlashtirdi. Ekzistensialistlar Xaydeger, Sartr, Kamyularning ta'limotiga ko'ra, inson o'zining yaratish jarayonini o'zi erkin amalga oshiradi. Insoniyat oldida ulkan imkoniyatlar mavjud bo'lib, ulardan qaysi birini tanlashda u erkindir. Demak, inson o'z mohiyatini o'zi erkin belgilaydi,

uning kim bo'lib yetishishi faqat uning o'ziga bog'liq. Shu ma'noda, inson doimo rivojlanib boradigan, tugallanmagan loyihaga o'xshatiladi. Erkinlik insonning o'zi tomonidan yaratiladigan ichki ruhiy holati tarzida talqin etiladi.

Yangi zamon falsafasining yana bir oqimi **pragmatizm** AQShda keng tarqalgan. Umuman olganda, «pragmatizm» foydali faoliyatga undovchi, «foydaga» qanday qilib erishish yo'llari va usullari haqida mulohaza yurituvchi ta'limotdir. Bunda «foyda» tushunchasi «tajriba», «haqiqat» tushunchalari bilan aynanlashtiriladi. Pragmatizm ta'limotining yirik namoyandalari Ch.Pirs, U.Djems, J.Dyui va boshqalardir. Dyui tajriba natijasining «foydali» tomoniga e'tiborini qaratadi. Djems fikricha, haqiqat foydali bo'lgan narsa yoki hodisadir.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Aristotel jahon fan va madaniyatiga qanday hissa qo'shgan?
2. Platon falsafasining asosiy mohiyati nimada?
3. Uyg'onish davri falsafasining asosiy g'oyalari nimalarda ko'rinadi?
4. Yangi davr falsafasidagi bahs mavzulari qaysilar?
5. Nemis milliy (mumtoz) falsafasining vakillari kimlar?
6. Ekzistensial falsafaning mohiyati nimadan iborat?
7. Neopozitivizmning asosiy xususiyatlari nimada?
8. Germenevtika qanday ta'limot?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

4 - mavzu: BORLIQ FALSAFASI (ONTOLOGIYA)

REJA:

- 1.Borliq tushunchasining mohiyati
- 2.Borliq shakllarining tasnifi
- 3.Borliqda substansiya va materiyaning o'zaro aloqasi
- 4.Harakatning mohiyati. Makon va vaqt

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

Borliq, tabiat borlig'i, ijtimoiy borliq, inson borlig'i, reallik, harakat, fazo, vaqt, substansiya, materiya, makon, substansiya, substrat, "Yashil makon" umummilliy dasturi

1. Falsafa o'rganadigan qaysi bir masalani olmaylik, u borliq muammosi bilan bog'liq ekanligini ko'ramiz. Haqiqatan ham, borliq, unga munosabat masalasi falsafiy qarashlarda markaziy o'rinni tashkil qiladi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki, borliq muammosi falsafadagi har qanday dunyoqarash va metodologik muammolarning asosi hisoblanadi. Darhaqiqat, turli dunyoqarashlar o'rtasidagi bahslar borliq muammosi atrofida yuzaga kelayotgan tortishuvlarga, ya'ni borliq azaldan mavjudmi, yoki u mutlaq ruh tomonidan yaratilganmi, degan masalaga borib taqaladi.

Ma'lumki, qadim-qadim davrlardan beri kishilar o'zlarini qurshab turgan tabiat va jamiyat, inson va umuman insoniyat haqida, xususan, o'zlari haqida ham o'ylay boshlaganlar. Ular tabiat va jamiyat, o'z hayotlarida sodir bo'lib turgan turli-tuman o'zgarishlarni kuzatganlar, bu narsalar ular ko'z o'ngida ob'ektiv reallik sifatida gavdalangan: ya'ni ular bor, mavjud, lekin vaqt o'tishi bilan yo'q bo'ladi, ya'ni mavjud bo'lmay qoladi; aksincha, ba'zi yo'q narsalar paydo bo'ladi. Shular asosida kishilarda mavjudlik va yo'qlik haqida qarashlar paydo bo'la boshlagan.

Shuni aytish kerakki, borliq tushunchasi moddiylikdan tashqari ma'naviylikni ham o'z ichiga oladi. Bu jihatdan inson ongi ham, barcha ongli va ongsiz faoliyatlar va ong mahsulotlari, ma'naviy-ruhiy hodisalar ham borliq tushunchasi tarkibiga kiradi. Chunki, ong hech qachon anglangan borliqdan boshqa narsa bo'lishi mumkin emas, kishilarning turmushi esa ular hayotining real jarayonlaridir.

Demak, borliq keng ma'noda eng umumiy tushuncha sifatida bir butun dunyo va undagi narsa va hodisalardan tortib, inson hayoti, ongi, kishilar faoliyatining barcha ob'ektiv va sub'ektiv sharoitlari, hatto jamiyatda sodir bo'ladigan butun jarayonlardan iborat hamma realliklarni o'z ichiga oladi.

Falsafiy adabiyotlarda borliq haqidagi ta'limot **ontologiya** deb ataladi. Ontologiya so'zi yunoncha *ontos* (mavjudlik) va *logos* (ta'limot) so'zlarining birikmasidan tashkil topgan bo'lib, "mavjudlik haqidagi ta'limot", ya'ni borliq haqidagi fan ma'nosini ifodalaydi.

Kishilar, o'z faoliyatlarida tabiiy boyliklar bilan bir qatorda ma'naviy boyliklarni ham yaratadilar. Falsafada bu moddiy va ma'naviy boyliklar ham alohida o'ziga xos reallik xarakteriga ega bo'lgan borliq sifatida qaraladi. Demak, moddiy narsa va hodisalar bilan bir qatorda, ma'naviy hodisalar ham borliq tushunchasi tarkibiga kiradi.

Umuman, borliq muammosini tadqiq etishda falsafa kishilarning amaliy, ma'naviy-axloqiy, siyosiy, huquqiy, diniy va shular kabi faoliyatlariga va bilimlariga asoslanadi. Bunda borliq kategoriyasi u bilan uzviy bog'liq bo'lgan "mavjudlik", "reallik" va boshqa shular kabi bir qator falsafiy kategoriyalar

yordamida o'rganiladi. Falsafa borliq tushunchasini keng umumiy tushuncha sifatida o'ziga **boshlang'ich kategoriya** qilib qabul qiladi.

Borliq tushunchasi fasafiy kategoriya sifatida bilishning yuqori bosqichi – **abstrakt** tafakkurgagina xos bo'lib, fikrlash jarayonida kishilar bu tushuncha orqali dunyodagi alohida narsalar, ularning konkret belgilari va xossalari haqida emas, balki dunyodagi barcha narsalar, voqea va hodisalar, jarayonlar o'rtasidagi eng umumiy tomon – ularning realligi haqida fikr yuritadilar.

Borliq atamasini fan tarixida birinchi bor 1513 yil *R.Gokleniusning* «Falsafa lug'ati»da, so'ngra, *X.Volf* (1679 -1754)ning falsafaga oid darsligida qo'llanilgan bo'lsada, ulardan ilgari qadimgi yunon faylasuflari ham ontologiyani mazmunini ifodalovchi turli fikrlarni ilgari surishgan. Ular ontologiyani «haqiqiy borliqni nohaqiqiy borliqdan ajratib oluvchi borliq haqidagi ta'limotdir» deb hisoblashgan. *Eley maktabi* namoyondalari esa ontologiyani mangu, o'zgarmas, yagona, sof borliq haqidagi ta'limot deb hisoblashgan. *Milet* va *Ioniya maktabi* vakillari esa dastlabki borliqning sifatli talqini haqida bosh qotirishgan. Ulardan borliqning boshlanishida yotuvchi bunday asosni *Empedokl* «stixiya», *Demokrit* «atomlar», *Anaksimandr* «apeyron», *Anaksagor* «urug'» deb atagan. *Aflotun* esa g'oyalar ontologiyasini yaratgan. G'oyalar ontologiyasi aql bilan erishiladigan mohiyatlar ierarxiyasini tashkil etib, uning yuqori nuqtasida Farovonlik g'oyasi, undan keyin beto'xtov oquvchi xilma-xil hissiy dunyoni aks ettiruvchi ideal namunalari, sonlar, geometrik shakllar yotadi. *Arastu* fikricha umumiylik ayrim holda yakka narsalardan chetda mavjud emas. Biz olamda ayrim narsalarga duch kelamiz va ulardagi bir-biriga o'xshash jihatlarni umumlashtirib, abstrakt va ideal obraz hosil qilamiz. SHu tariqa *Arastu* empirizm ontologiyasini yaratdi.

Markaziy Osiyo Yaqin va O'rta sharqida IX-X asrlarda ijod qilgan *Al-Kindiy*, *Zakariyo Roziy*, *Forobiy*, *Ibn Sino* singari mutafakkirlar yunon faylasuflaridan farqli ravishda ontologik ta'limotni butunlay yangicha bosqichga ko'tarishdi. Masalan, *Forobiy* ontologiyaga yagona borliqning mohiyatini ochib beruvchi ta'limot sifatida yondashgan.

O'rta asrlar g'arb falsafasida esa ontologiya teologiya bilan chambarchas bog'lab tushuntiriladi. Bu davrda absolyut borliq xudo bilan, «sof» mohiyatlar ierarxiyasi bilan, «yaratilgan» borliq esa moddiy tabiat bilan aynanlashtirib talqin etilgan. *Sxolastik falsafada* ontologiya substansial va aksidensial, aktual va potensial, zaruriy va tasodifiy, ehtimoldagi va imkoniyatdagi borliq darajalarini ifodalovchi ta'limot sifatida qaralgan. Bu davrda borliq konsepsiyalari nominalizm, realizm va konseptualizm namoyondalarining universalialarning ontologik mohiyatiga munosabati tarzida namoyon bo'ladi.

Sharq falsafasida ontologiya ko'proq ilohiy borliqning mohiyatini, xudoning mohiyatini aks ettiruvchi ta'limot tarzida, sharq panteistik falsafasida esa *vahdatu mavjud* va *vahdatu vujud* ko'rinishidagi ta'limotlar shaklida vujudga kelgan.

2. Borliq o'zining mavjudlik shakllariga ko'ra xilma-xildir. Xo'sh, bu shakllar qanday ko'rinishlarda mavjud? Avvalambor, bizni qurshab turgan yaxlit, bir butun dunyo, eng umumiy borliq bo'lib, u ko'pdan-ko'p real mavjud narsalardir. Bu narsa va hodisalarning har biri o'ziga xos, boshqalarida mavjud bo'lmagan tomonlar, xususiyatlarga ham ega. Lekin inson o'z faoliyatida ularni bilish

jarayonida borliqning bu turli ko‘rinishlaridan kelib chiqib, umumlashtirishga, guruhlashtirishga, muayyan yaxlit tizimlarga birlashtirishga kirishadi. Shuni aytish kerakki, bunda inson yakka, ayrim narsa va hodisalarni ularga nisbatan kattaroq butunlikka birlashtirib, har bir yakka, ayrimlikning mavjudlik xususiyatiga e‘tibor bergan holda, ularning borliq ko‘rinishi, usuli va mavjud sharoitlaridagi o‘xshashliklardan kelib chiqib, ularni turli guruhlarga, turlarga ajratadi.

Hozirgi falsafiy adabiyotlarda faylasuflar borliq shakllarini dastlab bir-biridan farq qiluvchi va ayni vaqtda bir-biri bilan o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan quyidagi turlarga ajratmoqdalar:

1. Insondan, uning ongidan tashqarida ob‘ektiv reallik sifatida mavjud bo‘lgan narsalar, hodisalar, jarayonlardan iborat **moddiy borliq**.

2. Faqat inson, uning ongi bilan bog‘liq sub‘ektiv reallik sifatida mavjud bo‘lgan fikrlar, g‘oyalar, qarashlar tarzidagi **ma‘naviy borliq**.

Borliqning bu turlari o‘rtasidagi farq nisbiydir, chunki ular bir-birlariga o‘tib turishadi. Shu bilan birga, ularning har biri o‘z navbatida yana bir qancha shakllar, ko‘rinishlarga bo‘linadi.

Moddiy borliqni quyidagi konkret turlarga ajratish mumkin:

1. Tabiiy borliq yoki **tabiat borlig‘i**.

2. Insoniy borliq yoki **inson borlig‘i**.

3. **Ijtimoiy borliq** yoki jamiyat moddiy borlig‘i.

Moddiy borliqning bu turlarining har biri o‘z tabiatlari jihatidan yana bir necha ko‘rinishlarga bo‘linadi. Ularni bunday ko‘rinishlarga bo‘lishning o‘zi nisbiydir, chunki ularning hech biri sof holda emas, biri ikkinchisi bilan, ikkinchisi uchinchisi bilan va hokazo aralashib ketgandir. **Ma‘naviy borliq** inson ongi bilan bog‘liq barcha ma‘naviy hodisalar: fikrlar, g‘oyalar, qarashlar, ijtimoiy ong shakllari, inson va jamiyatning bir butun ma‘naviy-madaniy hayotidir. Shu jihatdan ma‘naviy borliqning quyidagi ikki ko‘rinishi farq qilinadi:

1. *Individuallashtirilgan ma‘naviy borliq.*

2. *Ob‘ektivlashtirilgan ma‘naviy borliq.*

Borliqning bu yuqorida ko‘rib o‘tgan turlari va shakllari, ularga xos xususiyatlarni tushunib olish uchun ularning har biri ustida alohida-alohida to‘xtalib o‘tmoq maqsadga muvofiqdir. Tabiiy borliq o‘zaro bog‘liq, lekin bir-biridan farq qiluvchi quyidagi ikki ko‘rinishdan iboratdir:

1. *Tabiatdagi narsa va hodisalarning, jism va jarayonlarning asl tabiiy borlig‘i*

2. *Tabiatdagi narsa va hodisalar asosida inson tomonidan yaratilgan narsalarning tabiiy borlig‘i*

Tabiiy borliqning birinchi ko‘rinishi insongacha, insondan va uning ongidan tashqarida, unga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘lgan narsa va hodisalar, jarayon va holatlarni o‘z ichiga olgan tabiatdir. Bu ba‘zi adabiyotlarda “**birlamchi tabiat**” deb ham ataladi. “Birlamchi” tabiat moddiy borliqning shakli sifatida insongacha mavjud bo‘lgan, insondan va uning ongidan tashqarida, unga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘lgani uchun ham, alohida reallik ko‘rinishidagi borliq hisoblanadi. Tabiiy borliqning bu shakli inson faoliyatining dastlabki sharti sifatida insongacha ob‘ektiv mavjud bo‘lgan tabiatdagi narsalar, hodisalar va jarayonlarga

xosdir. Birlamchi tabiat borliqning alohida o'ziga xos real shakli sifatida, avvalo, u insongacha, undan tashqarida, unga bog'liq bo'lmagan holda mavjud.

“Birlamchi tabiat” insondan tashqarida va unga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lib, inson esa uning mahsulidir, inson usiz yashay va faoliyat ko'rsata olmaydi, hatto “birlamchi” tabiatsiz biron bir narsa yarata olmaydi. “Birlamchi” tabiatni tashkil etuvchi narsa va hodisalar ob'ektiv reallik sifatida, insonga bog'liq bo'lmagan o'z qonunlari asosida o'zgaradi, taraqqiy etadi, o'z-o'zini yaratadi. Bu “birlamchi tabiat” makonda cheksiz, zamonda abadiydir, u hamma yerda doimo mavjud. Inson shu “birlamchi tabiat” materiallari asosida amaliy faoliyati va ongi bilan **“ikkilamchi tabiat”**ni yaratadi.

“Ikkilamchi” tabiatning vujudga kelishi insonga, “birlamchi tabiat”ga, undagi narsa, hodisalar va jarayonlarga, ularning qonuniyatlarini insonning bilishiga bog'liqdir. “Ikkilamchi tabiat” o'z mavjudlik shakllari va reallik sharoitlariga ko'ra, uning yuzaga kelishi, yashashi jihatdan o'zining yuzaga kelishida asos bo'lgan “birlamchi tabiat”ga o'xshaydi. Lekin shu bilan birga, “ikkilamchi tabiat” o'zining vujudga kelishi, yashashida inson mehnati va bilimi bilan bog'liqligi jihatdan “birlamchi tabiat”dan farq ham qiladi.

Aniq qilib aytsak, “ikkilamchi tabiat” inson paydo bo'lgandan keyin inson tomonidan yaratiladi, shu jihatdan u inson faoliyati va ongining mahsulidir. “Ikkilamchi tabiat” narsa va hodisalari ijtimoiy hayotda inson ehtiyojini qondirish zaruriyati, ijtimoiy turmushda biron bir funksiyani bajarish zarurati tufayli yaratiladi. Masalan, bizning asosiy yozuv qurolimiz bo'lgan ruchkani olaylik. Ruchka o'z materialiga ko'ra “birlamchi tabiat” resurslariga oid. Uni qayta ishlab, unga o'z mehnati va ongini sarflab, inson uni “ikkilamchi tabiat”ga aylantirib, o'zining yozuv qurolini yaratgan.

Borliqning o'ziga xos shakllaridan yana biri – bu **inson borlig'idir**. Inson borlig'i alohida kishi borlig'i va butun insoniyat borlig'i ko'rinishlarida mavjud bo'lishi jihatdan o'ziga xosdir. Biroq bu inson borlig'ida tabiat va jamiyatdagi hamma narsalar uchun umumiy bo'lgan tomonlar, xususiyatlar ham mavjuddir. Bu jihatdan inson borlig'i o'z tabiati va mohiyatiga ko'ra eng murakkab borliq shaklidir, u hamma borliq shakllarining ma'lum tomonlarining dialektik birligini namoyon etadi. *Inson borlig'ida, avvalo, insonning tabiat taraqqiyotining mahsuli sifatida tabiiy borliqning har ikki shakliga oid tomonlar bilan birga, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida unda ijtimoiy va ma'naviy borliqning ham barcha shakllariga xos tomonlarning yig'indisi mujassamlangandir.* Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, inson, dastavval, tabiatning eng oliy tirik mavjudotidir. Inson mavjudligining asosini inson tanasidagi hayot tashkil qiladi. Insonning tanasi bunda tabiiy jism sifatida boshqa tabiiy jismlar bilan bir xil, ular ega bo'lgan barcha xususiyatlarga egadir, ya'ni u ham paydo bo'lish, o'sish, rivojlanish, ulg'ayish, bir holatdan boshqa holatga o'tish va shu kabi xususiyatlarga ega. Bu tanada ham, birinchi navbatda, hayot jarayoni, ya'ni oqsil tanachalarining yashash usuli – moddalar almashish jarayoni kechishi lozim.

Ma'naviy borliq aslida inson borlig'ining bir ko'rinishi bo'lib, u individual va ijtimoiy ong jarayonlarini o'z ichiga oluvchi ma'naviylik, ma'naviy qadriyatlar va ma'naviy boyliklardan iboratdir. *Tarixda sodir bo'lgan va bo'ladigan ko'pchilik*

voqea-hodisalar, inson va insoniyatning kelajagi, kishilarning hayoti va taqdiri ko'p jihatdan ma'naviylik, ma'naviy boyliklar bilan bog'liqligi barchaga ayondir. Shu nuqtai nazardan ma'naviylikni borliqning o'ziga xos bir shakli sifatida alohida o'rganish maqsadga muvofiq. Ma'naviylik inson va insoniyatning nodir fazilati bo'lib, u inson ruhiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'naviylik – bu ko'p qirrali ong va ongsizlik jarayonlarini o'z ichiga oluvchi insonning kundalik hayot tajribalari, uning tabiat, atrofdagi kishilar va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlarida hosil qilgan malakalari, ko'nikmalari, uning shaxs sifatida shakllanishi davomida egallagan axloqiy, siyosiy, huquqiy, diniy, falsafiy qarashlari, shuningdek, fanlarni o'rganish asosida olgan bilimlari, badiiy, texnik va ilmiy ijodlarining yig'indisi hisoblanadi.

Ma'naviylikni, ya'ni ma'naviy borliqni uning mavjudlik shakllaridan kelib chiqib, ikki turga bo'lib o'rganish mumkin. Ularning birinchisi – individ ongi va ruhiyati bilan bog'liq bo'lgan individuallashtirilgan ma'naviy borliq bo'lsa, ikkinchisi – individ ongi va ruhiyatidan tashqari, ularga bog'liq bo'lmagan ob'ektivlashgan ma'naviy borliqdir. Ma'naviy borliqning ikkinchi ko'rinishi – bu ob'ektivlashgan ma'naviy borliqdir. Bu borliqda *individ ongida paydo bo'lgan g'oyalar, qarashlar, fikrlar undan tashqariga chiqib ob'ektivlashadi, reallashadi, moddiylashadi.* Natijada, ular individual ongdan tashqarida yashay boshlaydi. Ob'ektivlashgan ma'naviy borliqning o'ziga xos xususiyati shundaki, u sub'ekt ongidan – individual ongdan chiqib, unga bog'liq bo'lmagan holda ob'ektivlashgandan so'ng, tabiiy va sun'iy tillar materiallarida, ijtimoiy ong va uning shakllarida, masalan, *muayyan san'at asarlari va madaniyat obidalarida ifodalangan g'oyalar, qarashlar, nazariya va ta'limot shakllarida* tarixiy taraqqiyot davomida rivojlanib, takomillashib boradi va asrlar osha insoniyatga xizmat qilib, saqlanib turadi. Ob'ektivlashgan ma'naviy borliqning bir ko'rinishi bu til (nutq)dir.

Borliqning yana bir shakli – bu ijtimoiy borliqdir. *Ijtimoiy borliq individual, yakka shaxs va jamiyat borlig'ining birligidan iborat borliqdir.* Ijtimoiy borliq deyilganda, individual yakka shaxs va jamiyat hayotining hamma tomonlari emas, balki ularning *faqat moddiy hayoti* tushuniladi. Jamiyat moddiy hayoti esa kishilarning o'z hayotlari jarayonida ularning irodalariga bog'liq bo'lmagan ishlab chiqarish munosabatlaridan, bu ishlab chiqarish munosabatlarining jamini o'z ichiga olgan jamiyatning iqtisodiy tizimi, real bazisidan iborat bo'ladi. Jamiyatni ilmiy tushunishga ko'ra, ijtimoiy borliq, ya'ni moddiy hayotni ishlab chiqarish usuli jamiyat hayotining sotsial (ijtimoiy), siyosiy va ruhiy jarayonlariga sababchi bo'ladi. *Demak, ijtimoiy borliq deganda falsafada bir butun jamiyatning moddiy hayotini, moddiy ne'matlar ishlab chiqarishi hamda ishlab chiqarish jarayonida kishilar kirishadigan moddiy munosabatlarni tushunamiz.* Ijtimoiy borliq ijtimoiy ong bilan chambarchas bog'liqdir, ular bir butun jamiyat hayotining ikki – moddiy va ma'naviy tomonlarini tashkil qiladi.

Dunyoning paydo bo'lishi va evolyusiyasi haqidagi hozirgi ilmiy tasavvurlar so'nggi 400 yil ichida vujudga keldi, galaktikalar va ularning to'dalari, makro va mikrodunyoning hayratomuz rang-barangligi haqida odamlar XX asrdagina xabar topdilar. Olamning cheksiz bo'shlig'i qarshisida bizning dunyo haqidagi tasavvurlarimiz hozir ham dengizdan bir tomchi bo'lib tuyuladi. Lekin, shunga

qaramay, bugungi kunda biz bilgan va tushungan narsalar butun Olam va uning ayrim qismlari evolyusiyasi va muttasil o'zgaruvchanligi haqida ancha asosli xulosa chiqarish imkonini beradi. Boshqacha aytganda, dunyo u yoki bu bosqichda ma'lum narsalar vujudga kelib, o'z borlig'ini kasb etadigan va qachondir yo'q bo'ladigan, ya'ni o'zining avvalgi borlig'ini yo'qotib, modda va energiyaning saqlanish qonuniga binoan boshqa narsaga aylanadigan muttasil davom etuvchi jarayondir.

Notirik tabiatning hozirda mavjud bo'lgan butun rang-barangligi o'z asosiga ega, ya'ni u qachondir vujudga kelgan. Bu fikrni kengayib borayotgan Olam haqidagi hozirgi ilmiy tasavvurlar ham tasdiqlaydi. Biroq, olimlar fikriga ko'ra, biz yashayotgan Olam tarixi boshlanishiga asos bo'lgan Katta portlash nazariyasi dunyoning mohiyati va uning tuzilishi xususida yangi va yangi masalalarni kun tartibiga qo'yimoqda. Tabiiy fanlarning ma'lumotlari taxminan 15 milliard yil muqaddam ayrim osmon jismlari mavjud bo'lmagani, bizning Olam deyarli bir jinsli kengayib borayotgan plazmadan tashkil topganidan dalolat beradi. Endilikda bir-biridan uzoqlashayotgan galaktikalar tarkibiga kiruvchi yulduzlar, sayyoralar, asteroidlar va boshqa ko'plab kosmik jismlar mavjud bo'lib, bu galaktikalarning to'dalarida vaqti-vaqti bilan fanga ma'lum bo'lmagan sabablarga ko'ra ulkan tadrijiy va inqilobiy o'zgarishlar yuz beradi.

Ilmiy tasavvurlarga ko'ra biz yashayotgan sayyora taxminan 4,5 milliard yil muqaddam ilk quyosh sistemasida sochilib yotgan gazsimon-changsimon modddadan paydo bo'lgan, muayyan moddiy jism sifatida o'z borlig'ini kasb etgan, oradan yana bir milliard yilcha vaqt o'tgach, Yerning geologik tarixi boshlangan. Hozirgi zamon fani aniqlagan eng qadimgi tog' jinslarining yoshi shundan dalolat beradi. Shunday qilib, Yer jonsiz tabiatining moddiy dunyosi o'zining aniq geologik yil hisobiga ega va uning borlig'i sayyoramizning umumiy evolyusion jarayonlari bilan bog'liq. Yerning tabiiy kosmik jism sifatidagi evolyusiyasini esa nafaqat tog' jinslari yoki qit'alar tarixi, balki minerallar, foydali qazilmalar, keyinroq esa – oliy shakllar darajasigacha rivojlangan jonli mavjudodlarning paydo bo'lishi ham tasdiqlaydi.

3. Moddiy olamning asosida yotuvchi umumiy mohiyatni axtarish falsafada **materiya** haqidagi tasavvurlarning rivojlanishiga sababchi bo'ldi. *“Materiya” “moddiy unsur”ga nisbatan ham, “atomlar”ga nisbatan ham, “pramateriya”ga nisbatan ham kengroq, umumiyroq bo'lib, borliqning ob'ektiv real shaklini ifodalovchi, eng umumiy tushunchadir.*

Haqiqatdan ham, umuman materiya bu tushuncha, abstraksiya, fikrning mahsulidir, chunki, olamda “umuman materiya” uchramaydi, balki materiyaning konkret.; ko'rinishlari uchraydi. Umuman, hamma vaqt materiya konkret ob'ektlar ko'rinishida uchraydi. Shunday qilib, faylasuflar barcha moddiy ob'ektlarga xos xususiyatlarni umumiy tarzda ifodalash uchun qo'llaydigan tushuncha bu “materiya”dir.

«Materiya» tushunchasini asosiy falsafiy kategoriya sifatida ilk bor Platon ishlatgan. U hyle atamasini muomalaga kiritgan va u bilan kattaligi va shakl-shamoyili har xil jismlar paydo bo'lishiga asos bo'lib xizmat qiladigan sifatlardan mahrum substrat (material)ni ifodalagan. Platon talqinida materiya shaklsiz va

nomuayyan bo'lib, har qanday geometrik shakl ko'rinishini kasb etishi mumkin bo'lgan makon bilan tenglashtiriladi. Keyinchalik materiya haqidagi tasavvurlar asosan uning muayyan xossalari - massa, energiya, ko'lam bilan bog'langan va uning muayyan turlari - modda, atomlar, korpuskulalar va sh.k. bilan tenglashtirilgan.

Materiyaning falsafiy uchta muhim jihati bor. Bular: birinchidan, materiya tushunchasi falsafiy kategoriya ekanligi, ikkinchidan, bu kategoriya ob'ektiv reallikni, moddiy voqelikni ifoda etishi, uchinchidan, materiyaning bilish mumkinligining ta'kidlanishidir. Materiyaning bu falsafiy tushunchasi materiyaning muayyan ko'rinishlarini, uning tuzilishi va xossalarini o'rganishda metodologik ahamiyat kasb etadi. Materiya o'zining mavjudligini behisob xossalari, xususiyatlari orqali namoyish qiladi. Turli xil fanlar bu xususiyatlarni tadqiq etadi. Tabiatshunoslik va aniq fanlar materiyaning u yoki bu konkret xususiyatini, o'zlarining tadqiqot ob'ektlari doirasiga kiruvchi xossalarinigina o'rganadi. *Materiyaning eng umumiy xossa va xususiyatlarini falsafa fani o'rganadi.*

4. Materiyaning mavjudlik usulini ifoda etuvchi xususiyati **harakat** hisoblanadi. Chunki borliq harakatsiz o'zining strukturaviy yaxlitligini saqlay olmaydi. Harakat, bir tomondan, moddiy jismlar o'rtasidagi va ularni tashkil etuvchi elementlar o'rtasidagi aloqadorliklarning natijasi, boshqa tomondan esa, ulardagi o'zgarishlar sifatida sodir bo'ladi. Shu nuqtai nazardan ham falsafaning harakat bu umuman har qanday o'zgarishdir, deyilgan ta'rifi juda o'rinlidir. O'zgarishlar oddiy fazoviy siljishdan tortib, murakkab ijtimoiy o'zgarishlargacha takomillashib borgan. Shu tufayli harakatga faqatgina fazoviy siljish, deb qaramaslik lozim. Bunday qarash olamdagi barcha jarayonlarga mexanik harakat nuqtai nazaridan yondashishni vujudga keltiradi. Aslida olamda o'zgarishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular bir-biridan sifatiiy farq qiladi.

Mexanik, kimyoviy, biologik, fizik o'zgarishlar bilan ijtimoiy o'zgarishlarni aslo taqqoslab bo'lmaydi. To'g'ri, bu o'zgarishlar uchun umumiy bo'lgan fazoviy siljishlar harakat shakllarining hammasida ham, u yoki bu ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Lekin hamma o'zgarishni ham, faqatgina fazoviy siljishdan iborat, deb bo'lmaydi. Masalan, Yerning Quyosh atrofidagi, Oyning Yer atrofidagi harakatini fazoviy siljishning yaqqol ko'rinishi deyishimiz mumkin. Lekin Yer bag'rida ro'y berayotgan murakkab geologik jarayonlarni, Yer sirtidagi biosferaning yashash usulini birgina mexanik siljish bilan izohlab bo'lmaydi. Harakatning shakli qanchalik murakkab bo'lsa, u bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar ham shu qadar murakkab bo'ladi. Materiyaning tashkiliy struktura darajasi qanchalik yuqori darajada bo'lsa, unda fazoviy siljish ham shu qadar kam seziladi.

Harakatning bir necha shaklini ajratib ko'rsatish mumkin. Ular quyidagilardir: mexanik harakat, issiqlik, yorug'lik, elektr, magnetizm, kimyoviy birikish va parchalanish, agregat holatlarning bir-biriga o'tishi va organik hayot. Bularga ijtimoiy harakatni qo'shsak, quyidagi harakat shakllari hosil bo'ladi:

- 1) **mexanik** harakat (jismlarning fazodagi siljishi);
- 2) **fizik** harakat (issiqlik, yorug'lik, elektr, magnetizm);

3) **kimyoviy** harakat (kimyoviy birikish va parchalanish, agregat holatlarning bir-biriga o'tishi);

4) **biologik** harakat (organik hayot);

5) **ijtimoiy** harakat (jamiyat).

Ijtimoiy harakat bizga ma'lum bo'lgan harakat shakllari ichida eng murakkabi bo'lib, unda insonning ongli faoliyati, inson tafakkuri, ijtimoiy guruhlarining faoliyati, o'zaro munosabatlari, jamiyat miqyosidagi ijtimoiy fikr birgalikda harakatga keladi. Bu harakatni chiziqli, batartib harakatlar bilan mutlaqo taqqoslab bo'lmaydi. Uning kelajagini bashorat qilish ham o'ta murakkabdir.

Harakat **fazo** va **vaqt** bilan uzviy bog'langandir.

Borliqning asosiy yashash shakllariga fazo va vaqt kiradi. Fazo narsalarning ko'lamini, hajmini, o'zaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzluksizligini ifodalasa, vaqt hodisalarning ketma-ketligi, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi. Inson o'zining kundalik hayotida «masofa», «uzunlik», «joy», «o'rni», «makoni», «balandligi», «eni», «bo'yi», «baland», «past», «ichi», «tashqarisi», «o'ng», «chap», «oldi», «orqasi», «yaqin», «uzoq» singari *fazoga oid*, «lahza», «payt», «davr», «zamon», «fasl», «kecha», «bugun», «ertaga», «hozir», «shu on», «keyin», «o'tmish», «kelajak», «mangulik» kabi *vaqtga oid* tushunchalarga duch keladi. Bu tushunchalar voqea va hodisalarga nisbatan qo'llaniladi. Fanda *hodisa* deb fazo va vaqt nuqtasiga, ya'ni «**shu on**» va «**shu joy**»ga aytiladi. Shu jihatdan dunyo «shu joy» va «shu on»lar majmuasidan iborat.

Fazo va vaqtga quyidagicha ta'rif berish mumkin: **Fazo** - bu vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil etuvchi nuqtalarning o'zaro joylashish tartibi, ko'lami, vaziyatlari o'lchamidir. **Vaqt** - bu fazoning muayyan nuqtasida ro'y beruvchi hodisalar ketma-ketligi, tartibi va davomiyligi o'lchamidir. Olam haqidagi ilmiy bilimlarning rivojlanishi bilan real fazo va vaqt haqidagi tasavvurlar ham, konseptual modellar ham rivojlanib, takomillashib boradi.

Fazo va vaqt tushunchalari, ko'p hollarda, forsiy til ta'sirida yozilgan adabiyotlarda makon va zamon deb ham ataladi. Bu tushunchalar fazo va vaqtning tashqi, nisbiy xususiyatlarinigina aks ettiradi, xolos. Fazo narsalar joylashadigan joy ma'nosida, vaqt esa hodisalar bo'lib o'tadigan muddat ma'nosida ishlatiladi.

Fazo va vaqtni tushunish bo'yicha substansial va relyatsion yondashishlar mavjud. Substansial konsepsiya tarafdorlari fazoni narsalar joylashadigan idish, bo'shliq deb bilishadi. Ularning fikricha, hamma narsa fazo ichiga joylashtirilgan. Fazo o'ziga narsalarni sig'diruvchi substansiya. Hech narsasi yo'q, ya'ni narsalar solinmagan fazo ham bo'lishi mumkin, deyiladi. Relyasion konsepsiya tarafdorlari esa, narsalar fazoviy o'lchamga ega, deyishadi.

Hech narsasiz fazoning bo'lishi mumkin emas. Bu farqni relyativistik fizika asoschisi Albert Eynshteyn shunday tushuntirgan edi: faraz qiling, bir kazarma soldatlarni ko'z oldingizga keltiring. Ilgarigi, Nyuton fizikasiga ko'ra, soldatlar chiqib ketishi bilan kazarma bo'sh qoladi, ana shu substansial konsepsiyadagi fazodir. Yangi fizikaga ko'ra, soldatlar chiqib ketishi bilan kazarma ham yo'qoladi. Bu relyatsion konsepsiyadagi fazodir.

Materiya va moddiy ob'ektlar xilma-xil ko'rinishlarda va shakllarda uchraydi. Moddiy sistemalar tuzilishga ega, ya'ni u strukturali - turli xil strukturaviy

elementlardan tashkil topgan bo‘ladi. Bunday elementlar va ulardan tashkil topgan moddiy ob’ektlar rivojlanishga egadir.

Materiya va moddiy sistemalar, ob’ektiv dunyoning tuzilishi xususiyatlariga ko‘ra, turli xil strukturaviy darajalardan tashkil topgan bo‘ladi. Bunday darajalarni moddiy sistemalarning tashkiliy tuzilishi va miqyosiy tuzilishiga qarab: *a) tashkiliy-struktura* darajalari va *b) miqyosiy-struktura* darajalariga ajratish mumkin.

Materiyaning tashkiliy-struktura darajalari. Materiyaning tashkiliy-struktura darajalari moddiy sistemalarning tashkiliy jihatdan uyushganligi va faolligiga qarab bir-biridan farq qiladi. Bu darajalar fazo-vaqt strukturasi sifatida xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular: *noorganik* daraja («*notirik tabiat*»), *organik* daraja («*tirik tabiat*») va *sotsial* daraja («*jamiyat*») deb ataladi. Sifatida jihatdan eng quyi darajada uyushgan va eng passiv (inert) daraja *noorganik* darajadir. Bu darajada atom yadrosi, yadro, atom va molekulalar majmuasi, molekulyar birikmalar, jismlar, yer shari, osmon jismlari, Quyosh sistemasi va boshqa planetar sistemalar, yulduzlar to‘pi, Gallaktika, metagalaktika va koinotning quyi darajada uyushgan fazo-vaqt aloqadorliklari namoyon bo‘ladi. Bunga nisbatan uyushganroq va faolroq fazo-vaqt sistemasi *organik* daraja deyiladi. Unga organik molekulyar sistemalar, tirik organizmlarning xilma-xil ko‘rinishlari, bir hujayrali suv o‘tlari va sodda jonivorlardan tortib, murakkab tuzilgan umirtqalilargacha, sodda hayvonlardan to maymunlar va odamlargacha kiradi.

Odamlardan tashkil topgan turli murakkablikdagi ijtimoiy sistemalar *sotsial* darajaga mansubdir. Bu darajada ongga, fikrga ega bo‘lgan insonlar faoliyat ko‘rsatganligi sababli u eng uyushgan va faol daraja hisoblanadi. Yuqorida aytilgan tashkiliy-struktura (tuzilish) darajalari bir-biridan moddiy aloqadorliklar sifati va miqdoriga ko‘ra, unda yetakchilik qiluvchi harakat shakliga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, noorganik darajada mexanik, fizik, kimyoviy va geologik harakat shakllari faoliyat ko‘rsatsa, organik darajada yuqoridagi harakat shakllariga biologik harakat qo‘shiladi va u mazkur darajada yetakchilik qiladi, sotsial darajada yana bir harakat shakli ijtimoiy harakat faoliyat ko‘rsatib, u ushbu darajada yetakchilik qiladi⁵.

Materiyaning miqyosiy-struktura darajalari. Bu moddiy sistemalarning bir-biridan mazkur sistemada hukmronlik qiluvchi fundamental kuchlar bilan farq qiluvchi darajalardir. Ular: *mikrodunyo*, *makrodunyo* va *megadunyo* deyiladi.

*Mikrodunyoda kuchli va kuchsiz yadroviy o‘zaro ta’sir kuchlari hukmronlik qiladi*⁶. Bu kuchlarning ta’sir doirasi atom yadrosi va atom o‘lchovi bilan chegaralangandir. Kuchli yadroviy o‘zaro ta’sirlar atom yadrosining tarkibiy qismlari bo‘lgan proton va neytronlarning yaxlitligini, kuchsiz yadroviy o‘zaro ta’sir kuchlari esa atom strukturasi yaxlitligini ta’minlaydi. Bu kuchlar tufayli mikrodunyo o‘zining strukturaviy yaxlitligini saqlaydi.

Makrodunyoning strukturaviy yaxlitligi esa elektromagnit o‘zaro ta’sirlari bilan saqlanadi. Elektromagnit o‘zaro ta’sir kuchlari atomlar va molekulyar

⁵Каримов Б.Р., Тураев Б.О. Развитие форм пространства и времени. Т.: Фан, 1992.С.14.

⁶ Тураев Б.О. Пространство. Время. Развитие. Т.: Фан, 1992. С.47.

brikmalarning, moddiy jismlarning strukturaviy yaxlitligini ta'minlaydi. Shu kuch tufayli Yerda hayot mavjud, yorug'lik mavjud.

Megadunyo – bu gravitasion o'zaro ta'sirlar kuchi bilan chegaralangan eng katta moddiy ob'ekt – koinotdir. Yer shari va uning atrofida Oyning aylanishi, sayyoralarning Quyosh atrofida aylanishini ta'minlovchi, Gallaktikamizning muayyan tuzilishga egaligiga, butun Koinotning fazo-vaqt strukturasi tartibining mavjudligiga gravitatsion o'zaro ta'sir kuchlari mas'uldir. Bu kuchlar bo'lmaganda edi dunyodagi hozirgi tartib va munosabatlar ham bo'lmagan, mikro, makro va megadunyolar ham shakllanmagan bo'lar edi.

Xullas, materiya va moddiy ob'ektlarning strukturaviy yaxlitlikka ega bo'lishida harakat va fazo-vaqt shakllarining, ularning asosida yotuvchi o'zaro aloqadorlik kuchlarining roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Borliqni shakllarga ajratishda uning asosida, mohiyatida nimalar yotishiga e'tibor qaratish lozim. Shu tariqa falsafada *substansiya* kategoriyasi shakllangan. Substansiya (lotin. *substantia* - mohiyat, asosida yotuvchi nimadir) muayyan narsalar, voqealar, hodisalar va jarayonlar xilma-xilligining ichki birligida namoyon bo'luvchi mohiyat.

Substansiya deyilganda falsafada dastlabki paytlarda borliq, tabiat, jamiyat, inson va dunyodagi barcha narsa va hodisalarning asosida yotuvchi moddiy yoki ruhiy mohiyat anglangan. Olamning asosida nima yotadi, uning mohiyati nimadan iborat degan masalada monizm, dualizm, plyuralizm, materializm va idealizm kabi qator falsafiy qarashlar shakllangan.

Monizm (yunoncha — monos, ya'ni yakka ma'nosini anglatadi) — olamning asosi yakkayu-yagona sababga, bitta asosga ega deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limotdir.

Dualizm (lotin tilida dua, ya'ni ikki degani ma'noni ifodalaydi) — olamning asosida ikkita asos, ya'ni modda va materiya bilan birga ruh va g'oya, ya'ni ideya yotadi deyuvchi qarash.

Plyuralizm (lotin tilida plyural, ya'ni ko'plik degani ma'noni anglatadi) — olamning asosida ko'p narsa va ideyalar yotadi deb e'tirof etadigan ta'limotdir.

Materializm — olamning asosida materiya, ya'ni moddiy narsalar yotishini e'tirof etadigan, moddiylikni ustuvor deb biladigan ta'limot.

Idealizm — olamning asosida ruh yoki g'oyalar (ideyalar) yotadi, dunyo voqeligi va rivojida ideyalarni ustuvor deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limot.

Olamning tuzilishini tushunish yana bir tushuncha «substrat» kategoriyasi bilan ham bog'langandir. *Substrat* (lot. *substratum* - asos, to'shama, taglik) narsa va hodisalarning umumiy moddiy asosi; nisbatan oddiy va sifat jihatdan elementar bo'lgan moddiy yoki g'oyaviy tuzilmalar majmuasi. Ayrim falsafiy konsepsiyalarda substrat deb dunyoni tashkil etuvchi mutlaq elementar va bo'linmas asoslar tushunilgan. Masalan, qadimgi Hind falsafasida olamning asosida to'rtta bo'linmas unsur - suv, havo, tuproq va olov yotadi deb ta'lim beriladi. Bunday qarash Markaziy Osiyoda yaratilgan «Avesto» da ham uchraydi. Qadimgi yunon falsafasida Levkip, Demokrit, Epikur, Lukretsiy fikricha, dunyo atomlar va bo'shliqdan tashkil topgan, Anaksimandr - apeyrondan, Aflotun - g'oya, ruhdan, Fales - suvdan, Geraklit - olovdan iborat deb ta'lim bergan. Xullas,

har qanday ob'ektning nimalardan tashkil topganligi, sistemaning asosida shu sistemani tashkil etuvchi asosni axtarish - substratni axtarishdir. Masalan, RNK, DNK va oqsillar biologik organizmlar uchun substrat bo'lsa, EHMLarning asosida axborotlar almashuvi jarayoni substrat bo'lib keladi. Borliqning asosida yotuvchi birlamchi mohiyatni axtarish - *substansial yondashuv* bo'lsa, har qanday sistemaning, umuman borliqning nimalardan bunyod qilinganligini, tarkib topganligini, tashkil topganligini, «qurilganligini» axtarish *substrakt yondashuvdir*.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Borliq tushunchasi nimani bildiradi?
2. Borliq shakllarini sanab bering?
3. Falsafada harakat deganda nimani tushunasiz?
4. Harkatning asosiy shakllarini sanab bering?
5. Fazo va vaqt tushunchalarini tushuntiring.
6. Materiyaning mavjudlik shakllariga nimalar kiradi?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

5 - mavzu. RIVOJLANISH FALSAFASI

REJA:

1. Borliqda narsa va hodisalarning paydo bo'lishi, shakllanishi, o'zgarishi, rivojlanishi va taraqqiyotining o'zaro aloqadorligi
2. Rivojlanish qonunlarining mohiyati, ularning tabiiy va ijtimoiy jarayonlardagi o'rni
3. Falsafa kategoriyalarining tasnifi va ularning rivojlanish jarayonlaridagi roli

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

Rivojlanish, taraqqiyot, qonun, miqdor va sifat, sakrash, qarama-qarshilik, kurash, ziddiyat, inkorni inkor, yakkalik, alohidalik, umumiylik, sabab va oqibat,

sistema va element, butun va qism, mohiyat va hodisa, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik

1. Rivojlanish g'oyasi inson ongida uzoq asrlar davomida shakllanib boradi. Lekin dastlabki davrlarda mutafakkirlar rivojlanishni butunlay yangi narsaning, yangi bosqichning paydo bo'lishi, deb tushunish darajasiga ko'tarila olmaganlar. Rivojlanishni butunlay yangi sifat o'zgarishi, eskiga nisbatan jiddiy yangining paydo bo'lishi, deb tushunishda Uyg'onish davri Sharq va O'rta Osiyo mutafakkirlari, keyinchalik esa o'rta asr xristian, diniy va tarix falsafasi mutafakkirlari bir qadar oldinga ketadilar. Ularning qarashlarida rivojlanish g'oyasini insoniyat jamiyati tarixiga tatbiq etishga urinishlarni uchratamiz.

Rivojlanish g'oyasini bir butun dunyo rivojlanishi bilan bog'lab tushunishda muhim qadamni birinchi bo'lib fransuz faylasufi *Rene Dekart* qo'yadi. U, xudo dunyoni yaratayotib, unga dastlabki turtkini kiritgan va uni harakatga keltirgan, deydi. XVIII asr fransuz ma'rifatparvarlari *Volter* va *Russo* inqilobiy qayta qurishni o'z ichiga olgan tarixiy rivojlanish g'oyasini ilgari surishadi. Ularning izdoshi *Kondorse* esa o'zining jamiyatning ilgarilama harakati, uzluksiz taraqqiyot to'g'risidagi ta'limotini yaratadi. Bu mutafakkirlar o'z qarashlarida g'oyaviy omillar (masalan: axloq, din, huquq va shu kabilar) jamiyatni harakatga keltiruvchi, rivojlantiruvchi asosiy kuchlardir, degan g'oyani ilgari suradilar.

Nihoyat, rivojlanish to'g'risidagi har xil qarashlarning sintezi sifatida bir butun taraqqiyot nazariyasi faqat nemis klassik falsafasidagina paydo bo'ldi. Bu falsafaning asoschilaridan biri *I.Kant* rivojlanish g'oyasini Quyosh sistemasi va barcha yulduzlar dunyosini izohlashga tatbiq etib, uni hatto insonning ijtimoiy rivojlanishiga, xususan, insonning axloqiy rivojlanishiga ham joriy etishga urinadi. Kantning shogirdi *Gerder* esa rivojlanish g'oyasini butun xalqlarning tarixi taraqqiyotiga va insoniyat madaniyati taraqqiyotiga birinchi bo'lib tatbiq etadi. Bu davrga kelganda, rivojlanish g'oyasini **dialektika** tushunchasi ifodalay boshlaydi.

Dialektikani rivojlanish haqidagi har taraflama, mazmun jihatdan boy va chuqur ta'limot sifatida birinchi marta nemis klassik falsafasining buyuk vakili Gegel ishlab chiqdi. Gegelning ulug' xizmati shu bo'ldiki, u birinchi bo'lib, butun tabiiy, tarixiy va ma'naviy dunyoni bir jarayon shaklida, ya'ni uzluksiz harakat qilib, o'zgarib, qaytadan tuzilib, taraqqiy qilib turadigan holda ko'rsatdi va bu harakat bilan taraqqiyotning ichki bog'lanishini ochib berishga urindi. Natijada, insoniyat tarixi insoniyatning o'zining taraqqiyot jarayoni sifatida maydonga chiqdi va endilikda tafakkurning vazifasi bu jarayonning barcha yanglishib yurishlari ichida uning izchil bosqichlarini kuzatib borish va zohiriy tasodiflar orasida bu jarayonning ichki qonuniyatlarini isbot etishdan iborat bo'lib qoldi. Gegelning taraqqiyot to'g'risidagi bu qarashi dialektika haqidagi falsafiy ta'limotni yanada boyitdi.

“Rivojlanish” tushunchasi ko'p hollarda olg'a qarab borishning sinonimi sifatida “*progress*” tushunchasiga tenglashtiriladi. Bugungi kunda insoniyat jamiyatining rivojlanishi, unda sodir bo'layotgan o'zgarishlar rivojlanishning murakkab jarayon ekanligidan dalolat bermoqda. Unda muayyan davriy o'zgarish bilan bir qatorda, progressga tomon takrorlanmas o'zgarishlar, turli xil zigzaglar

mujassamligi ham ma'lum bo'lmoqda. Ayniqsa, keyingi paytlarda jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar tahlikali tendensiyalar, halokatlar xavfi bo'lgan jarayonlarni ham o'z ichiga olishligi ravshan bo'lmoqda. Bu jarayonlarni to'g'ri tushunib olish va ularga to'g'ri yondashib, to'g'ri xulosalar chiqarish uchun bizga yangicha fikrlash juda zarur bo'lmoqda. Masalan, bizning shu paytgacha o'ylamasdan tabiat boyliklaridan talon-tarojlik bilan foydalanib kelishimiz natijasida bugungi kunda tabiat o'z boshidan umumiy tanazzul (tanglik)ni kechirishi xavfi paydo bo'ldi. Shuning uchun tabiat va jamiyatda yuz berayotgan hozirgi jarayonlarning tahlili rivojlanishning falsafiy tushunchasini qayta ko'rib chiqishni taqozo qilmoqda. Bunga sabab rivojlanish jarayonida turli xil o'zgarishlarning ziddiyatli xarakterlari namoyon bo'layotganligidir. Rivojlanish jarayoni shu bilan birga, o'z tabiatiga ko'ra turlicha yo'nalishdagi, bir-biriga qarama-qarshi va ayni vaqtda bir-biridan ajralmas tendensiyali tomonlarga ham ega. Bu tendensiyalar differentsiatsiya va integratsiya jarayonlarining birligidan iboratdir.

Harakat, taraqqiyot, umumiy bog'lanish va aloqadorlik to'g'risidagi falsafiy ta'limotlar ham falsafa fani bilan birga paydo bo'lgan. Bu muammolar tahlili falsafada «dialektika» tushunchasi orqali ifodalangan. Bu tushuncha falsafa tarixida turli davrlarda turli ma'nolarni ifodalab kelgan. Dialektika dastlabki davrlarda o'zaro bahs, munozara olib boruvchi mutafakkirlarning muhokamalaridagi qarama-qarshi, zid fikrlarning to'qnashuvi va shular asosida haqiqatni aniqlash ma'nosini ifodalagan.

Antik davr mutafakkirlarining ma'lumotiga ko'ra, munozarada ishtirok etuvchilar, o'z muhokamalarida bir-birlariga muqobil savollarni berib, bu savollarga har tomonlama yondoshib, ulardagi bir tomonlamaliklarni bartaraf qilishga uringanlar. Bunda, ular, o'z muhokamalarida har xil nuqtai nazarlarni hisobga olgan holda, ilmiy, nazariy, ahloqiy, siyosiy, huquqiy va shu kabi voqea-Hodisalar to'g'risida o'z qarashlarini ishlab chiqqanlar. Ular shundan kelib chiqib, dialektika deganda o'zaro bahslashuv san'atini, munozara asosida haqiqatga erishish usulini tushunganlar. Masalan, antik davr mutafakkiri Suqrot dialektikani bahslarda yo'l qo'yiladigan qarama-qarshi fikrlar o'rtasidagi ziddiyatlarni ochish orqali haqiqatga erishish san'ati, deb tushungan.

Dialektikani bahs san'ati sifatida tushunish hatto o'rta asrlarda ham davom etgan. Dialektikaga munozara san'ati sifatida qarash o'rta asrlarda yashagan O'rta Osiyo mutafakkirlariga ham xos bo'lib, hatto bu narsa Uyg'onish davrlarida ham davom etgan. Bu davr mutafakkirlarida ham dialektika savol-javob san'ati sifatida o'zgacha fikrlarni rad qilish usuli bo'lib xizmat qiladi Asrlar davomida to'planib borgan dialektik munozara madaniyati murakkab muammolarni muhokama qilish, ulardagi turli qarama-qarshi nuqtai nazarlarni ochish, aniqlash va tushunish mahoratining qaror topishi inkor qilib bo'lmas ahamiyat kasb etdi. Bora-bora dialektika qarama-qarshi nuqtai nazarlar, ular o'rtasidagi ziddiyatlarni ochish usuli sifatida qaraladigan bo'ldi. Shunday qilib, sekin-asta inson ijodiy tafakkuri o'z tabiati bilan dialektik ekanligi haqidagi tasavvur paydo bo'ldi.

Lekin ma'lum vaqt o'tishi bilan dialektika faqat kishilarning o'zaro munozaralarigagina xos emasligi ma'lum bo'la bordi. Oqibatda, dialektika faqat

inson fikrlash jarayonigagina xos bo'lmagan, balki u tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarga ham xos, deb qarala boshlandi. Ayniqsa, bu qarash borliq shakllari va turlari o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorliklarning, ular doim o'zgarib, rivojlanib, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turishlarining aniqlanishi bilan yanada rivojlandi. Natijada, «dialektika» tushunchasi insonni, uni qurshab turgan dunyoni bilish, uni tushunish va izohlashning umumiy usuli ma'nosini ifodalay boshlaydi.

Vaqt o'tishi bilan «dialektika» tushunchasi hamma narsalar: xoh katta, xoh kichik bo'lishiga qaramasdan, o'zgarib, o'zining oldingi xususiyatlarini o'zgartirib, ilgari ega bo'lmagan yangi xususiyatlar hosil qilib borishlarini ham ifodalay boshlaydi. Shu asosda asta-sekin dunyoni dialektik tushunish, borliq va bilishga dialektik qarash qaror topa boshlaydi. Lekin dunyodagi barcha o'zgarish, aloqadorlik va rivojlanishlarni falsafiy jihatdan tushunib yetish juda qiyinlik bilan kechdi. Sababi: insoniyat taraqqiyotining juda uzoq davrlarigacha kishilar kosmosni, o'simliklar, hayvonot dunyosini, hatto kishilarning o'zlarini ham o'zgarimas, doimo bir xilda turadi, deb bilishgan. Dunyoning o'zgaruvchanligi, undagi narsa va hodisalarning bir-birlariga bog'liqligi to'g'risidagi tasavvurlarning paydo bo'lishi insoniyatning dunyoni bilishi jarayonida juda katta kashfiyot bo'lgan.

2.Dunyoning mavjudligi botiniy va zohiriy o'zgarishlarning abadiy takrorlanib turishidan iboratdir. Bu takrorlanishlar esa o'z mohiyati va xususiyatlarini saqlab qolganliklaridan **qonun** va **qonuniyat** tusini olgan.

Qonun tushunchasi kundalik hayotimizda nisbatan tez-tez ishlatib turiladigan tushunchadir. Xususan, fizika yoki kimyo qonunlari deymiz, tabiat qonuni yoki bo'lmasa, iqtisodiy qonunlar, yuridik qonunlar va h.k. Eng avvalo, shuni aytish kerakki, olamdagi barcha narsa – tabiat, jamiyat va inson taraqqiyoti ma'lum qonunlar asosida amalga oshadi. Fanlarning (ijtimoiy, gumanitar, tabiiy va x. k.) asosiy vazifasi har bir soha bo'yicha tadqiqot o'tkazib, qonunlarni kashf qilish yoki ularning amal qilish xususiyatlarini o'rganish va ochib berishdan iborat.

Qancha ko'p qonun kashf qilinsa, taraqqiyot shuncha tez bo'ladi. Taraqqiyot qonunlarini bilmasdan turib, rivojlanishga erishish qiyin.

Qonun – olamdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi bog'lanishlari, o'zaro aloqalari va munosabatlarining namoyon bo'lishidir.

Endi qonunning belgilariga to'xtalamiz:

- Qonun turli-tuman aloqadorliklar, bog'lanishlardan faqat muhimlarini, ya'ni shunday bog'lanishlarni ifodalaydiki, bular olamning mavjudligi, o'zgarishlari va undagi narsa hamda hodisalarning mohiyatidan kelib chiqqan bo'ladi;

- Qonun zaruriy bog'lanishlarni ifodalaydi, ya'ni tasodifiy bog'lanishlar, goh paydo bo'lib, goh yo'qolib ketadigan bog'lanishlarga asoslanmaydi;

- Qonun narsa va hodisalarning umumiy bog'lanishlarini ifodalaydi.

Qonun nisbatan barqaror, takrorlanib turuvchi bog'lanishlarni (munosabatlarni) ifodalaydi, ya'ni bir safar yuz berib, ikkinchi safar yuz bermaydigan bog'lanishlarni qonun qamrab olmaydi. Masalan, 2026 yil qishdan

keyin bahor kelib, 2027 yilda qishdan keyin birdaniga yoz kelishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki, bu tabiat qonuni – fasllar o'zgarishi qonuni doirasiga kirmaydi.

Tabiat qonunlarining yana bir eng muhim xususiyati – u ob'ektiv xarakterga ega, ya'ni u insonga ham, insoniyatga ham bog'liq emas. Biror kishi, hatto millatning irodasi bilan ham, tabiat qonuniga tub o'zgartirish kiritish yoki uni butunlay yo'q qilish mumkin emas. Chunki bu qonunlarning asosini tashkil qilgan bog'lanishlar, munosabatlar ob'yektiv xususiyatga ega. Qonunlarning bir qancha turlari bor. Ular voqelik qonunlari, fan qonunlari, yuridik qonunlar, falsafa qonunlari.

Fan qonunlari ob'ektiv voqelik qonunlarining inson tafakkuridagi in'ikosidir. *Fan ta'riflab beradigan qonunlar muayyan sharoitdagi ob'ektiv, umumiy, zarur va muhim aloqalarning in'ikosidir.* Biroq ob'ektiv mavjud bo'lgan qonuniyatli aloqa ta'riflab berilgan qonunga qaraganda ancha keng qamrovlidir, chunki bu qonun bilish jarayonida yangi faktlarga ega bo'lib borilgan sari doimo aniqlanib boradi.

Qonunlar o'zining *ifodalash shakllari* bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Bir xil qonunlar hodisalar o'rtasidagi qat'iy miqdoriy bog'liqlikni aks ettiradi va fanda matematik formulalar bilan qayd etiladi (masalan, butun olam tortilish qonuni). Boshqa xil qonunlarni esa qat'iy matematik formulalar bilan ifodalab bo'lmaydi (masalan, tabiiy tanlanish qonuni). Qonunlarni sinflarga bo'lish g'oyat muhim ahamiyatga ega: dinamik qonunlar (qattiq determinatsiya), *statistik* (ehtimoliy) qonunlar, *simmetrik* qonunlar, *boshqaruv* qonunlari. Qonunlarning turli sinflari mavjudligi dunyoda sifat jihatdan turli tuman muhim aloqalar mavjudligini aks ettiradi, bu esa ilmiy bilim tuzilmasida, uning tuzilish mantig'ida o'z ifodasini topadi.

Falsafa qonunlariga **qarama qarshilik va ziddiyat, miqdor o'zgarishlari va sifat o'zgarishlari dialektikasi, inkorni-inkor** qonunlari kiradi.

Borliqdagi har bir narsa yoki hodisa qarama-qarshi tomonlarning birligidan iborat bo'ladi. Har bir narsa va hodisa bir-birini taqozo qiluvchi va bir-birini o'zaro inkor etuvchi tomonlar, xususiyatlar va tamoyillarga ega. Masalan, elektrda manfiy va musbat, tabiatda esa o'zaro tortilish va itarilish, tirik organizmda assimilyatsiya va dissimilyatsiya kabilar. Ana shu *bir-birini taqozo etuvchi va o'zaro bir-birini inkor qiluvchi tomonlar o'rtasidagi munosabat ziddiyat deb ataladi.* Xuddi shu ziddiyat qarama-qarshi tomonlar o'rtasidagi kurash va rivojlanishning sababi, manbai bo'lib hisoblanadi. Rivojlanishning har bir bosqichi o'ziga xos ziddiyatlar va turli qarama-qarshiliklarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va hal bo'lishidan iborat. Qarama-qarshiliklar va ularning o'zaro munosabati, ziddiyat va ularning birligi jamiyatga, ijtimoiy hodisalarga, insonga, inson faoliyatiga, hatto uning bilish jarayoniga ham xosdir. Taraqqiyot ziddiyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va bartaraf etilishi jarayonidan iborat ekanligini tushunib olish uchun *ayniyat, tafovut, ziddiyat, qarama-qarshilik* kabi tushunchalarning o'zaro munosabatlarini bilib olish lozim.

Narsa va hodisalardagi o'zaro o'xshash tomonlar birligi ayniyat deyiladi. Aynanlik narsa va hodisalarning tomonlari va xususiyatlarining birga mavjudligini ifodalaydi. Har bir narsa yoki hodisada ayniqlik bilan birga, tafovut ham mavjud

bo'ladi. *Tafovut narsa va hodisalar tomonlarining har birining farq qiluvchi jihatlarining ifodalanishidir.* Borliqda o'z qarama-qarshi tomonlariga ega bo'lmaydigan narsa va hodisa bo'lmaydi. Binobarin, ularda ayniyat ham, tafovut ham bo'ladi. Tafovutlarning rivojlanishi ziddiyatning kelib chiqishiga olib keladi. Ziddiyatning mavjudligi taraqqiyotning manbai va harakatga keltiruvchi kuchini taqozo etadi.

Qarama-qarshilik *deb, borliqdagi narsa, hodisa va jarayonlarning o'zaro bir-birini istisno qiladigan, shu bilan birga, bir-birini taqozo etuvchi tomonlari, tamoyillari va kuchlarining o'zaro munosabatlari tushuniladi.* Umuman, qarama-qarshiliklarni, ular orasidagi ayniyat, tafovut, ziddiyatlarni o'rganish *qarama-qarshiliklar birligi va kurashi* haqidagi ta'limotning mohiyatini bilishga yordam beradi. Chunki, har qanday narsa va hodisalarning o'zgarishi va rivojlanishi ulardagi mavjud ziddiyatlar birligi va kurashi natijasida yuz beradi. Ziddiyatlar rivojlanib, keskinlashgan holatida hal qilinmasa, konfliktga aylanishi mumkin. Ziddiyatlarning hal qilinishi o'zgarish va rivojlanishga, bir sifatda narsa yoki hodisaning boshqa sifatda narsa yoki hodisaga aylanishiga, eski narsa yoki hodisa o'rniga yangi narsa va hodisa paydo bo'lishiga olib keladi.

Ziddiyatlar juda xilma-xildir. Ular narsa va hodisalarning harakati va rivojlanishida turlicha rol o'ynaydi hamda har xil vazifani bajaradi. Ular, odatda, ichki va tashqi, asosiy va asosiy bo'lmagan, antagonistik va noantagonistik ziddiyatlarga bo'lib o'rganiladi. Umuman olganda, o'zgarish va rivojlanish jarayonida turli-tuman ziddiyatlar paydo bo'lishi, rivojlanishi va turlicha hal qilinishi mumkin. Bu bilan ziddiyatlar butunlay tugamaydi. Ularning eskilari o'rniga yangilari paydo bo'lib, ular ham ma'lum vaqtdan so'ng eskirib, o'rnini yana yangilari olib, shu asosda rivojlanish cheksiz davom etaveradi.

Bizni qurshab turgan narsa va hodisalarni o'rganar ekanmiz, ular bir-birlaridan o'zlarining turli xususiyatlari bilan farqlanishlarini ko'ramiz. Bunda ularni bir-biridan farq qildiruvchi narsa ularning sifatidir. Sifat *deb, narsa va hodisalarga nisbiy barqarorlik bag'ishlaydigan, ularning ichki muayyanligini ta'minlaydigan, bir narsa va hodisani ikkinchi narsa va hodisadan farq qildiradigan barcha muhim belgi va xususiyatlarning birligiga aytiladi.* Sifat bir narsa yoki hodisani boshqa narsa yoki hodisadan ajratib turadigan shunday muayyanlikki, uning o'zgarishi uning o'rniga boshqa narsa va hodisani vujudga keltiradi. Tabiat va jamiyat juda ko'p xilma-xil narsalar, voqea va hodisalarning birligidan tashkil topgan. Ularning bunday xilma-xilligi narsa va hodisalar o'rtasidagi sifatli tafovutlarning ifodasidir. Masalan, noorganik tabiat bilan organik tabiat sifat jihatdan bir-biridan farq qiladi. Organik tabiat o'z atrofida muhit bilan uzluksiz modda almashinib turadi. Noorganik tabiatda bunday modda almashinish bo'lmaydi, o'z navbatida, organik tabiatning turli qismlari o'rtasida, masalan, o'simliklar bilan hayvonlar o'rtasida ham sifat jihatdan farq bor.

Biroq, inson ularga nisbatan butunlay boshqacha sifatga ega. Odatda bir narsa yoki hodisaning sifati boshqa narsa yoki hodisa bilan bo'lgan munosabatida aniqlanadi. Shu bilan birga, sifat bir narsani ikkinchi bir narsadan ajratibgina qolmasdan, balki uning boshqa narsalar bilan bog'liqligini ham ko'rsatadi. Shuning uchun muayyan sifatga ega bo'lgan narsa va hodisalarni bir-biridan

ajratib, bir tomonlama o'rganish bilan chegaralanmay, balki ularni bir-biri bilan bog'laydigan umumiy xususiyatlari asosida ham o'rganish zarur.

Narsa va hodisalarning sifati ularning xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. Har bir narsa yoki hodisa ko'pgina xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlardan bir qanchasi birikib, shu narsa yoki hodisaning muayyan sifatini tashkil qiladi. Bunda sifat bilan xususiyat bir narsa emasligi ma'lum bo'ladi. Sifat narsa va hodisaning umumiy xarakteristikasini berib, uning mohiyatini ifodalaydi. Xususiyatlar esa sifatning ifodasidir, ularning muhim va nomuhim xususiyatlari o'zgarishi bilan ularning sifati ham o'zgarishi mumkin. Bundan ma'lum bo'ladiki, narsa va hodisalarning muhim xususiyatlari ularning sifatining o'zgarishlarida katta rol o'ynaydi. Narsa va hodisalar nomuhim xususiyatlarini yo'qotishlari yoki yangidan hosil qilishlari natijasida, ular o'z sifatlarini o'zgartirmaydilar. Agar bu narsa va hodisalar o'zlarining muhim xususiyatlarini yo'qotsa yoki o'zgartirsalar, ular yangi sifatga o'tadilar. Masalan, benzin uchun rang muhim xususiyat emas. Benzin rangini yo'qotgani yoki boshqa rangga kirgani bilan u boshqa suyuqlikka aylanmaydi. Tez yonuvchanlik esa benzinning muhim xususiyatidir. Benzin o'zining bu xususiyatini biror sabab bilan yo'qotsa, u dvigatel uchun yonilg'i bo'lmay qoladi, natijada, sifat jihatidan boshqa kimyoviy moddaga aylangan bo'ladi. Narsa va hodisalarning sifat va xususiyatlari ham ob'yektivdir.

Shuni aytish kerakki, borliqdagi narsa va hodisalar bir-biridan faqat sifatlari bilan emas, balki miqdorlari bilan ham farqlanadilar. Ularning sifatlari doimo miqdorlari bilan birga mavjuddir. *Narsa va hodisalardagi son, hajm, daraja kabi tomonlarning muayyanligi miqdor deb ataladi.* Narsa va hodisalarda miqdor turlicha ifodalanadi. Ularda miqdor bir holatda son tariqasida, ikkinchi holatda o'lchov daraja tariqasida, uchinchi holatda esa narsa va hodisalarning makondagi o'zaro munosabati (uzunligi, kengligi, balandligi) tariqasida ifodalanadi.

Me'yor narsa va hodisalarning miqdor va sifat birligini qamrab oluvchi chegaradir. Boshqacha qilib aytganda, sifat bilan miqdorning birligi me'yor, deyiladi. *Me'yor narsa va hodisalarning shunday muayyanligiki, uning buzilishi narsa yoki hodisaning sifatining o'zgarishiga, uning boshqa sifatga o'tishiga, ya'ni boshqa narsa va hodisaga aylanishiga olib keladi.* Ijtimoiy hodisalarda me'yorning roli juda kattadir. Ayniqsa, san'atda me'yor juda muhimdir. Tabiat va inson go'zalligini me'yordan chiqib ifodalash mumkin emas.

O'zgarish va rivojlanishda miqdorning sifatga o'tishi, eski sifatning yangi sifatga aylanish jarayoni falsafada *uzluksizlikning uzilishi*, deyiladi. *Ayni shu uzluksizlikning uzilishi tufayli bir sifatdan ikkinchi sifatga o'tish jarayonini falsafada sakrash, deb ataladi.* Sakrash narsa va hodisalarning butun uzluksiz rivojlanish davomida tayyorlanib, shu uzluksiz rivojlanish momenti tugab, uzilish sodir bo'lishi bilan zaruriy ravishda yuz beradi. *Masalan, moddiy olam rivojlanishida noorganik tabiatdan organik tabiatning paydo bo'lishi, ayni vaqtda buyuk sakrash bo'lgan.* Sakrash birdaniga, to'satdan bo'ladigan holatgina emas balki yangi sifat elementlari ko'payishi orqali yuz beradigan tadrijiy jarayon hamdir. Sakrashlarni ikki turga bulish mumkin: birinchisi-portlash yo'li bilan bo'ladigan sakrashlar, ikkinchisi - sekin-asta tadrijiy yo'l bilan bo'ladigan sakrashlar.

O'zgarish va rivojlanish jarayonida o'z-o'zini inkor etish tamoyili nihoyatda muhim hisoblanadi. *Bunda vorislik – eskining inkori va yangilikning shakllanishi sifatida namoyon bo'ladi. Ana shu jarayonlarning doimiy takrorlanishi inkorni inkor qonunining mohiyatini bildiradi.*

Mazkur qonunga muvofiq ob'ektiv voqelikdagi narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonida eskining yangi tomonidan inkor qilinishi ro'y beradi. Biroq, aksariyat hollarda, eskilik butunligicha inkor qilinmaydi, undagi ijobiy tomonlar saqlanib qoladi.

Inkor tushunchasi kundalik ongda «yo'q», so'zi bilan qo'shilib ketadi, inkor qilmoq – «yo'q» demakdir, biror narsani rad etmoqdir. Lekin dialektikada inkor kundalik ongda ishlatiladigan tushunchadan farq qiladi. Dialektikada inkor qilish to'g'ridan-to'g'ri «yo'q» degani emas, ya'ni narsani mavjud emas, deb e'lon qilmoq yoki uni har qanday usul bilan yo'qotib tashlamoq emas.

Inkorni dialektik tushunish yangining eski bilan oddiy almashuvi bo'lmasdan, balki eskining bag'rida vujudga kelib, undan foydalanib, qaror topishini tan olishdir. Dialektik inkorning muhim ikki jihati mavjud: birinchisi, eskining o'rniga yangining kelishi tabiiy-tarixiy jarayon bo'lganligi uchun taraqqiyotning muhim sharti hisoblansa; ikkinchisi, u yangini eski bilan vorisiy bog'liq ekanligini ham ifodalaydi.

Inkorni inkor qonunini tushunish uchun uni nega shunday deb atalishini izohlamoq lozim. Falsafaning bu ta'limotini ikki marta takrorlanuvchi inkorda ifodalanishi olamdagi narsa va hodisalarning doimiy ravishda o'zgarib, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib borishi va oqibatda, rivojlanish uzluksiz ekanligidan kelib chiqadi.

Bu qonunga ko'ra, har bir mavjud bo'lgan narsa va hodisa o'zigacha bo'lgan sifat va miqdor inkor etilishining mahsuli, shu bilan birga, ana shu narsa va hodisalarning o'zi ham sharoitning o'zgarishi, vaqtning o'tishi bilan inkor etilishga mahkumdur. Demak, har bir narsa va hodisaning o'zgarishi va rivojlanishi hamisha ikki va undan ko'proq inkor etishlar bilan amalga oshadi. Insoniyat tarixi – avlodlar almashinuvi tarixidir, deyilganida ham ana shunday hol nazarda tutiladi.

Inkorni inkorning yana bir muhim belgisi shuki, taraqqiyotdagi davriylikning muayyan xalqasida, ya'ni navbatdagi inkor bosqichida uning oldingi bosqichidagi ba'zi belgilar takrorlanadi. Masalan, *don o'simlikdan yana donlarga aylanadi, keyinroq yana o'simlikka* va hokazo.

Inkorni inkorning amal qilishi tufayli taraqqiyot tug'ri chiziq shaklida emas, doira shaklida bo'ladi, uning oxirgi nuqtasi boshlang'ich nuqtaga yaqinlashadi. Lekin, bu yaqinlashuv uning oxirgi nuqta bilan tutashishi bo'lmasdan, balki yuqori bosqichda sodir bo'lishi sababli taraqqiyot spiral shaklga ega bo'ladi. Bu spiralning har bir yangi o'rami oldingi o'ramiga nisbatan yuqoriroq bosqichda yuzaga keladi.

Dialektik inkor yangi bilan eski o'rtasidagi bog'lanishni butkul rad qiladi, deb tushunmaslik kerak. Yangi qanchalik ilg'or bo'lmasin, u yo'q joydan paydo bo'lmaydi, balki eskining qobig'ida asta-sekin shakllanadi. Shuning uchun ham ko'p hollarda eskidan yangiga o'tilayotganda eski butunlay tashlab yuborilmaydi, balki uning ijobiy tomonlari saqlanib qoladi va rivojlanish davom ettiriladi. Demak, *yangi*

bilan eski o'rtasida vorislik mavjuddir. Inkorni inkor qonuni taraqqiyotda vorislik va qaytariluvchanlikning birligini tavsiflaydi. Dialektik inkorning muhim xususiyati ana shundan iborat.

3.Kategoriya so'z qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib: «izohlash», «tushuntirish», «ko'rsatish», degan ma'nolarni anglatadi. Uning mazmunidagi bunday xilma-xillik qadimgi davrlardan oq ilmiy tadqiqot yo'nalishiga aylangan.

Falsafa tarixida ularni birinchi bo'lib, Arastu ta'riflab bergan. U o'zining «Kategoriyalar» degan asarida ularni ob'ektiv voqelikning umumlashgan in'kosi sifatida qarab, turkumlashtirishga harakat qilgan. Xususan, uningcha quyidagi kategoriyalar mavjud: «mohiyat» (substansiya), «miqdor», «sifat», «munosabat», «o'rin», «vaqt», «holat», «harakat», «azob-uqubat».

Falsafada o'z xususiyatlariga ko'ra, «*juft kategoriyalar*» deb ataladigan umumiy bog'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalovchi tushunchalar ham bor. Ular narsa va hodisalarning muayyan yo'nalishdagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, davriy takrorlanib turuvchi bog'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalaydi. Falsafa kategoriyalari mazmunidagi ichki birlik, bog'lanish, aloqadorlik va munosabatlarning yaxlitligi bilish jaraonining uzluksizligini ta'minlaydigan umumiy qonuniyat tarzida vujudga kelgan.

Borliqdagi narsa va hodisalar *sistema, struktura va element* aloqadorligiga ega bo'ladi. Chunki ular ma'lum sistemalar tarzida mavjud bo'lib, o'z tuzilishi va tarkibiga ko'ra esa muayyan strukturaga ega hamda qator elementlardan tashkil topgan bo'ladi. **Sistema** - bu borliqdagi o'zaro bog'liq, muayyan tartibdagi bir-biriga ta'sir va aks ta'sir qilib turuvchi narsalar, hodisalar va jarayonlarning qonuniyatli birligidir. **Struktura** - esa shu sistemani tashkil etgan narsalar, hodisalar va jarayonlarning tartibi, tuzilishi, tarkibi, joylashishi va ifodalanishidir. Struktura har bir narsa yoki hodisaning, har bir sistemaning ajralmas tub xususiyati bo'lib, u muayyan elementlardan tashkil topadi. **Element** - sistema strukturasini tashkil qilgan, nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan tuzilmadir. Har bir sistema o'z strukturasiga ko'ra bir qancha o'zaro chambarchas bog'liq va aloqadorlikda bo'lgan elementlardan iborat bo'ladi. Sistema, struktura va element kategoriyalari narsa va hodisalarga xos bo'lgan ana shu moddiy sistemalar, strukturalar va elementlarning aqliy in'ikoslaridir. Odatda, har bir sistema, o'zining tuzilishiga ko'ra alohida sistemachalarga ajralishi, nisbiy mustaqil elementlarga bo'linishi, ularning o'zaro uzviy bog'liqligi, bir butunlikni tashkil etishi kabi xususiyatlarga egadir.

Yakkalik, xususiylik va umumiylik borliqdagi narsa va hodisalarning har biriga xos alohida, ma'lum guruhiga xos maxsus va hammasiga xos umumiy tomonlari, xususiyatlari hamda ular o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorlikni ifodalaydi. *Alohida narsa va hodisagagina xos bo'lib, bu narsa va hodisani boshqa narsa va hodisadan farq qiluvchi, takrorlanmaydigan, individual belgi va xususiyatlar birligi yakkalik deyiladi.* Yakkalik alohida narsa va hodisalarni ham, ulardagi alohida tomon, belgi va xossalarni ham aks ettiradi. *Ko'pchilik narsa va hodisalarga (yoki ularning turlariga hamda tomonlariga) xos bo'lgan o'zaro o'xshash, bir xil, takrorlanuvchi belgi va xususiyatlar birligini aks ettiruvchi tushuncha umumiylik deb ataladi.* Umumiylik borliqdagi ko'pchilik narsa va

hodisalarga (yoki ularning tomonlariga) xos bo'lgan umumiy belgi va xususiyatlarning fikriy in'ikosidir. Umumiylik bir sinf yoki bir turga kirgan narsa va hodisalarni ham ifodalaydi. Chunki borliqda har bir narsa va hodisa boshqa narsa va hodisalar bilan albatta, biror umumiy tomonga, xossaga, belgi va xususiyatga egadir.

Yakkalik, xususiylik va umumiylik bir-biri bilan o'zaro dialektik munosabatda bo'ladi. Binobarin, yakkalik bilan umumiylik xususiylik orqali bog'langan bo'lib, ular o'zaro aloqadorlikdadir. **Xususiylik** yakkaliklardan tashkil topib, umumiylikni alohidalik bilan bog'laydi. Umumiylik esa yakkaliklardan ajralgan holda bo'lmaydi, balki yakkaliklarning umumiy xususiyatlari, belgilari, tomonlari, bog'lanishlari shaklida har bir yakkalikning o'zida mavjud bo'ladi. Demak, har bir konkret narsa va hodisa yakkalik, xususiylik va umumiylikning birligidan iboratdir.

Falsafada *mazmun va shakl* kategoriyasi narsa, xodisalarning mavjudligi va rivojlanish jarayonini bilish usuli sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazmun va shakl ham kishilarning borliqni bilishida katta rol o'ynaydi. **Mazmun** – narsa yoki hodisani aynan shu narsa yoki hodisa sifatida ifodalovchi jarayonlar, muhim elementlar va o'zgarishlarning majmuidan iborat. **Shakl** – mazmunning mavjudlik usulini, uning strukturasi, ya'ni tuzilishini ifodalovchi, narsa va hodisalarning ichki va tashqi tomonlarining birligidan iborat. Mazmunni tashkil etuvchi xususiyatlar, ziddiyatlar, elementlar shaklsiz ifodalanmaganidek, ularning mavjudlik usuli, strukturasi, tuzilishi ham mazmunsiz namoyon bo'la olmaydi. Demak, mazmun va shakl muayyan bir narsa yoki hodisaning bir-biri bilan dialektik aloqador bo'lgan ikki tomonidir. Ob'ektiv olamda narsa va hodisaga oid bo'lmagan sof mazmun ham, sof shakl ham yo'q. Aksincha, faqat muayyan mazmun va shakl birligiga ega bo'lgan narsalar va hodisalargina mavjuddir. Bunda hamisha muayyan mazmun muayyan shaklda ifodalanib, muayyan shakl muayyan mazmunga ega bo'ladi. Borliqdagi har bir narsa va hodisa o'z mazmun va shakl birligi tufayligina mavjud bo'lsada, ular shu birlikni vujudga keltirishda turlicha rol o'ynaydi. Shakl esa, aksincha, mazmunni ifodalaydi. Qisqa qilib aytganda, mazmun shaklni belgilaydi.

Mohiyat – narsa va hodisalarning ichki, eng muhim o'zaro bog'lanishlari, shu bog'lanishlarning qonuniy aloqadorliklarini ifodalaydi. **Hodisa** esa shu narsa va jarayonlarni tashkil etuvchi tomonlar, xususiyatlar va bog'lanishlarning namoyon bo'lish shakli, mohiyatning ifodalanishidir. Masalan, hamma tirik mavjudotlarning mohiyati ulardagi modda almashish jarayoni bo'lmasa, tiriklik jarayoni-hayot ham bo'lmaydi. Modda almashish jarayoni butun hayot jarayonining asosiy mohiyatini tashkil etadi. Lekin bu modda almashuv jarayoni har bir tirik organizmda juda xilma-xil ko'rinishlarda sodir bo'ladi. Bu ko'rinishlar - hodisalar. Mohiyat va hodisa o'zaro umumiy va o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu xususiyatlar quyidagilardan iboratdir:

- Mohiyat ichki aloqalarni, hodisa esa tashqi aloqalarni ifodalaydi. Masalan, inson daraxtning shitirlashini, qushlarning sayrashini eshitadi. Bu hodisalarning sababi turlicha bo'lsa-da, ularning mohiyati bittadir, ya'ni havo zarralarining

tebranishidiryu Biroq, inson buni birdan payqay olmaydi. Dastlab u hodisa sifatida yuz bergan narsani fahmlaydi so'ng uning mohiyatini bila boshlaydi.

- Mohiyat bilan hodisa o'zaro birlikda bo'lishi bilan, ular bir-biriga qarama-qarshi ham, shu sababli ular hech vaqt bir-biriga aynan mos kelmaydi. Ularning qarama-qarshiligi borliqdagi narsalarning o'z tabiatidan kelib chiqadi. Mohiyat hodisada yashirin bo'ladi va uni bevosita hissiy organlar orqali bilish mumkin emas. Hodisa - narsalarning namoyon bo'lishi shakli sifatida mohiyat bilan hech vaqt mos kelmaydi. Agar narsalarning namoyon bo'lish shakli bo'lgan hodisa mohiyat bilan bevosita mos kelganda edi, u holda har qanday fan ortiqcha bir narsa bo'lib qolgan bo'lur edi. Fanning vazifasi borliqning ko'pdan-ko'p hodisalari, ularning tashqi tomonlari va belgilari ostida yashirinib yotgan, ularning asosini tashkil qiladigan mohiyatlarni izlab topishdan iborat.

Narsa va hodisalar o'zlarining paydo bo'lishlari, shakllanish va rivojlanishlarida bir-birlari bilan aloqadorlikda va sababiy bog'lanishlarda bo'lishib, ularning biri **sabab**, ikkinchisi shu sabab tufayli kelib chiqqan **oqibat** bo'ladi. Ularning o'zaro bunday aloqadorligi sababiy bog'lanish deyiladi. Bu sababiy bog'lanishda bir narsa yoki hodisa ikkinchi bir narsa yoki hodisani vujudga keltiradi. *Bir hodisadan oldin kelib, uni vujudga keltirgan hodisa yoki hodisalar guruhi **sabab** deb ataladi. Sababning bevosita yoki bivosita ta'siri bilan yuz beradigan hodisa **oqibat** deyiladi.* Masalan, qo'llarimizni bir-biriga ishqalaganimizda qo'llarimiz qiziydi. Bu yerda ikki hodisa: ishqalanish va issiqlikning guvohi bo'lib turibmiz. Lekin bunda ishqalanish issiqliqni keltirib chiqarmoqda, ya'ni ishqalanish issiqlikning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Ob'ektiv olamni bilishda **zaruriyat** va **tasodif** kategoriyasi muhim falsafiy-metodologik ahamiyatga ega. *Narsa va hodisalarning mohiyatidan, ularning ichki muhim bog'lanishlaridan muayyan sharoitda qat'iy ravishda kelib chiqadigan, kelib chiqishi muqarrar bo'lgan voqea yoki hodisa **zaruriyat** deb ataladi. Narsa va hodisalarning mohiyati bilan bog'liq bo'lmagan, tashqi ta'sir va ikkinchi darajali omillar bilan bog'liq bo'lgan, ayni sharoitda yuz berishi ham, yuz bermasligi ham mumkin bo'lgan hodisa yoki voqea **tasodif** deyiladi.* Zaruriyat va tasodif o'zaro bog'liq bo'lgan, biri ikkinchisiz mavjud bo'lmaydigan borliqdagi narsa va hodisalarning o'zgarishi va rivojlanishiga oid aloqadorlikning ikki tomonidir. Tasodif zaruriyatdan farqli o'laroq, muayyan sharoitda yuz berishi ham, yuz bermasligi ham mumkin, u shu tarzda ham, boshqacha tarzda ham yuz berishi mumkin. Tasodif ayni vaqtda narsa yoki hodisaning mohiyatidan kelib chiqmaydi, u beqaror va vaqtinchadir. Ammo tasodif ham sababsiz yuz bermaydi. Uning sababi, odatda, narsa yoki hodisaning o'zida bo'lmay, balki undan tashqarida tashqi shart-sharoitlarda bo'ladi. Umuman, zaruriyat va tasodif borliqdagi narsa va hodisalar o'zaro aloqadorligining turli shakllari sifatida mavjud bo'lib, ular ob'ektivdir, ya'ni ularning mavjudligi va amal qilishi inson xohishi va irodasiga bog'liq emas. Ular birbirisiz, alohida-alohida mavjud bo'lolmaydi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1.Rivojlanish deganda nimani tushunasiz?

2. Hozirgi davrda taraqqiyot va o'zaro bog'liqlik tamoyillari qanday namoyon bo'lmoqda?
3. Qonun tushunchasini qanday izohlaysiz?
4. Qonunlardagi ichki birlikning asosi nimada?
5. Falsafa kategoriyalarining fan kategoriyalaridan farqi nimada?
6. Falsafa qonunlari qaysilar?
7. Falsafa qonunlarining boshqa qonunlardan farqi nimada?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

6 - mavzu. BILISH FALSAFASI

REJA:

1. Bilish jarayonining mohiyati va asosiy mezonlari
2. Bilimning asosiy turlari va shakllari
3. Haqiqat bilishning mezoni. Metod, metodika metodologiyaning o'zaro aloqasi va farqi

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

Gnoseologiya, epistemologiya, bilish nazariyasi, falsafiy bilim, mifologik bilim, diniy bilim, ob'ekt, sub'ekt, agnostitsizm, skeptitsizm, sezish, idrok etish, xotira, tasavvur qilish, empirik bilim, kuzatish, eksperiment, haqiqat, haqiqat mezonlari

1. Insonning o'zini qurshagan dunyoga bo'lgan munosabatlaridan biri – bilishdir. Inson o'z hayoti davomida faqat tashqi dunyoni, ya'ni tabiat va jamiyatnigina bilib qolmasdan, balki o'zini, o'zining ruhiy-ma'naviy dunyosini ham bilib boradi. Insonning dunyoni bilishini falsafa ham, boshqa hamma aniq fanlar ham o'rganadi. Bunda aniq fanlar dunyoning turli tomonlarini, ularning qonuniyatlarini va xususiyatlarini o'rganadi va ochib beradi. Falsafa esa inson bilishining eng umumiy tomonlarini, qonuniyatlarini va xususiyatlarini o'rganadi va ochib beradi. Falsafa paydo bo'lgan paytdan boshlab, inson bilishining tabiati

va mohiyatini nima tashkil qiladi? Uning eng umumiy qonuniyatlari va xususiyatlari nimalardan iborat? degan savollarga javob qidirib va javob berib keldi. Shu sababli, falsafada inson bilishining falsafiy muammolari bilan shug'ullanmagan birorta ham falsafiy oqim, birorta ham faylasuf yo'q. Aksincha, hamma falsafiy oqimlar va falsafiy yo'nalishlar bu sohaga oid o'z qarashlarining ma'lum tizimini ishlab chiqqanlar. Natijada, falsafada inson bilishining tabiati va mohiyati haqida turli xil ta'limotlar, turli qarashlar kelib chiqdi.

Bir guruh faylasuflar insondan, uning ongidan tashqari dunyo mavjud emas, dunyo faqat bizning ongimizda, bizning sezgi va idroklarimizning yig'indisi (kompleks yoki kombinatsiyalar)dan iborat xolos, binobarin biz o'z sezgi va idrokimiznigina bila olamiz, degan fikrlarni bildirishganlari ma'lum. Boshqa bir guruh faylasuflar esa insonning dunyoni va o'zini bilishiga shubha bilan qaraydilar, inson dunyoni to'liq bilolmaydi, deyishib, inson bilishini cheklaydilar yoki dunyoni bilishni butunlay inkor qiladilar.

Skeptitsizm ta'limoti vakillari inson bilishining nisbiyligi, uning turli sharoitlar va vaziyatlar bilan bog'liq ekaniigini aytishib, hamma e'tirof qiluvchi, isbot talab qilinmaydigan inson bilimlarining bo'lishi mumkinligiga shubhalanadilar.

Dunyoni bilishni qisman yoki butunlay inkor qiluvchi falsafiy ta'limot bo'lgan agnostitsizm vakillari inson dunyoni bilishga qodir emas, degan g'oyani ilgari suradi. Masalan, ingliz faylasufi D.Yum ta'limotiga ko'ra, bilish ob'yekti, bilimlarimizning manbai ob'yektiv borliq emas, balki sub'yektiv sezgi va idroklarimizdir, biz o'z sezgi va idroklarimiz chegarasidan tashqarida nima borligini bila olmaymiz. Nemis faylasufi I.Kant esa insondan va uning ongidan tashqarida ob'yektiv borliqning mavjudligini e'tirof qilgan holda, undagi predmet va hodisalarni «narsalar biz uchun» va «narsalar o'zida»ga bo'ladi. Uning qarashicha, «narsalar biz uchun»ni inson bila oladi, «narsalar o'zida»ni esa inson bila olmaydi. Kantning «narsalar biz uchun»i - bu insonni qurshab turgan predmetlar va hodisalar, shu jumladan, tabiat ham. «Narsalar o'zida» esa: erkinlik, o'lmaslik, xudo va shu kabilardir. Ularni inson hech qachon to'liq bila olmaydi. Kant o'z bilish nazariyasida e'tiqodga o'rin qoldirish, uni mustahkamlash uchun aqlni tanqid qiladi va cheklaydi. U inson aqlini nazariy va amaliy aqlarga bo'ladi, amaliy aql, uningcha, cheklangan. Uning qarashicha, inson tajriba va amaliyot bilan har qanday bilishga ham ega bo'lavermaydi. Inson bilishida insonning tajribasigacha unda aprior (lot. arriori – so'zidan olingan bo'lib, tajribadan oldin degani) bilimlar bo'ladi. Bu aprior bilimlar tug'ma bilimlardir. Inson aqli bu bilimlarga tajribagacha ega bo'lgan bo'ladi.

Qadimgi yunon faylasuflari inson dunyoni va o'zini bilishi, hahiqatga erishishi mumkin, deyishgan. Ular hissiy va aqliy bilishning roli haqida ham qimmatli fikrlar aytishgan. O'rta Osiyo mutafakkirlari Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiylar ham insonning dunyoni va o'zini bilish masalasi haqida to'xtalib, inson tabiat va jamiyatni hamda o'zini bilishga qodir, inson bilishi sezgi va idroklardan boshlanib, tafakkurga tomon rivojlanib boradi, inson aqli - faol, u bilishning asosiy qurolidir, deyishadi. Ular inson bilishi ma'lum narsalardan noma'lum narsalar tomon rivojlanib boradi, deb ko'rsatishgan. Tasavvuf falsafasi

vakillari esa o'z qarashlarida insonning hissiy bilishi tashqi bilishni, aqliy bilish esa ichki bilishni tashkil qilishini aytishib, ularning o'zaro bog'liqligini ham uqtirganlar. Shu bilan birga, ular inson dunyoni va o'zini bilishi uchun ma'naviy kamolotga erishmog'i lozim, lekin bu kamolotga erishish quruq intilish bilan emas, balki o'qish, o'rganish, bilimlarni va hunarlarni egallash, jamiyatda boshqa kishilar bilan o'zaro muloqotda va munosabatda bo'lish orqali yuzaga keladi, deyishadi.

Nemis klassik falsafasining vakili Gegel esa inson bilishini mutlaq ruhning inson qiyofasida o'z-o'zini anglashidir, deydi. Nemis klassik falsafasining so'nggi vakili L.Feyerbax esa insonning dunyoni bilishini e'tirof etib, dunyo insondan va uning ongidan tashqarida mavjud, inson bilishi tabiatning, uning sezgilari va tafakkuridagi to'g'ri in'ikosi ekanligini aytadi. Insonda, deydi u, dunyoni bilish uchun qancha sezgi a'zosi kerak bo'lsa, shuncha sezgi a'zolar bor. Uningcha, sezgilar bilish jarayonining boshlang'ich bosqichi bo'lib, sezgi a'zolari insonni tashqi dunyo bilan bog'laydi. Inson bilishining yuqori bosqichi tafakkurdir. Tafakkurning asosiy vazifasi esa sezgi a'zolari orqali yig'ilgan ma'lumotlarni to'plash, solishtirish, tahlil qilish, izohlash, umumlashtirish, shular asosida ularning ichki mazmunini ochish va ulardan xulosalar chiqarishdir. Bulardan tashqari, XVII-XIX asrlarda intuitiv bilish haqidagi ta'limotlar ham kelib chiqdi.

Bilishning mohiyati, shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari, xususiyatlarini o'rganish falsafa tarixida muhim o'rin egallab kelmoqda. Inson o'z bilimi tufayli borliq, tabiat, jamiyatni va nihoyat, o'z-o'zini o'zgartiradi. Bilishga qaratilgan inson faoliyatini va uni amalga oshirishning eng samarali usullarini tadqiq etish falsafa tarixida muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham falsafaning bilish masalalari va muammolari bilan shug'ullanuvchi maxsus sohasi – *gnoseologiya* vujudga keldi. Inson bilishi nihoyatda ko'p qirrali, murakkab va ziddiyatli jarayondir. Gnoseologiya asosan, bilishning falsafiy muammolarini hal etish bilan shug'ullanadi.

XVIII asr mutafakkirlari ilmiy bilishda inson aqli imkoniyatlariga, ratsional bilishning hissiy bilishga nisbatan ustunligiga alohida urg'u berdilar. Buyuk nemis faylasufi I.Kant bilish natijalarining haqiqiyliги xususida emas, balki insonning bilish qobiliyatlari haqida bahs yuritdi. Gnoseologiya oldida inson olamni bila oladimi, degan masala keskin qo'yildi. Insonning bilish imkoniyatlariga shubha bilan qaraydigan faylasuflar agnostiklar deb ataldilar.

Bilish nima? *Bilish insonning tabiat, jamiyat va o'zi tog'risida bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy, ma'naviy faoliyat turidir.* Inson o'zini qurshab turgan atrof-muhit to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lmay turib, faoliyatning biron-bir turi bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olmaydi. Bilishning mahsuli, natijasi ilm bo'lib, har qanday kasb-korni egallash faqat ilm orqali ro'y beradi. Shuningdek, bilish insongagina xos bo'lgan ma'naviy ehtiyoj, hayotiy zaruriyatdir.

Insoniyat ko'p asrlar davomida orttirgan bilimlarini umumlashtirib va keyingi avlodlarga berib kelganligi tufayli ham o'zi uchun qator qulayliklarni yaratgan. Inson faoliyatining har qanday turi muayyan ilmga tayanadi va faoliyat jarayonida yangi bilimlar hosil qilinadi.

Kundalik faoliyat jarayonida tajribalar orqali bilimlar hosil qilish butun insoniyatga xos bo'lgan bilish usulidir. Bilimlar bevosita hayotiy ehtiyojdan,

farovon hayot kechirish zaruratidan vujudga kelgan va rivojlangan. Insoniyatning ancha keyingi taraqqiyoti davomida ilmiy faoliyat bilan bevosita shug'ullanadigan va ilmiy nazariyalar yaratuvchi alohida sotsial guruh vujudga keldi. Bular – ilmfan kishilari bo'lib, ilmiy nazariyalar yaratish bilan shug'ullanadilar.

Hozirgi zamon g'arb sotsiologiyasida xalqlarning kundalik bilim hosil qilish usullarini o'rganuvchi maxsus soha – etnometodologiya fani vujudga keldi. *Gnoseologiya asosan nazariy bilish va uning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.*

2. Inson o'zini qurshagan dunyoni anglab yetadi, uni har xil usullar yordamida o'zlashtiradi. Bu usullardan ikkita eng muhimini qayd etish mumkin. Birinchi – moddiy-texnikaviy usul – tirikchilik vositalarini ishlab chiqarish, mehnat, amaliyot. Ikkinchi – ma'naviy (ideal) usul; uning doirasida sub'ekt va ob'ektning bilishga doir munosabatlari ular o'rtasidagi ko'p sonly munosabatlarning biridir.

Kundalik amaliy bilim. *Tabiat haqida, shuningdek, odamlarning o'zlari, ularning yashash sharoiti, ijtimoiy aloqalari va hokazolar to'g'risida elementlar bilimlar beruvchi kundalik amaliy bilimlar bilishning tarixan eng birinchi shakli hisoblanadi.* Bilishning bu shakli kundalik hayot, odamlar amaliy tajribasidan kelib chiqqan. Shu asosda olingan bilimlar garchi mustahkam bo'lsada, biroq tartibsiz, tarqoq xususiyatga ega bo'ladi, ma'lumotlar, qoidalar va shu kabilarning oddiy majmuini tashkil etadi. Kundalik bilish sohasi juda rang-barang. U sog'lom fikr, e'tiqodlar, belgi-alomatlar, shaxsiy tajribadan chiqarilgan dastlabki xulosalar, ularning an'analar, rivoyatlar, o'gitlar va hokazolarda ifodalangan ko'rinishlari, intuitive ishonch, sezgilar va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

Mifologik bilim Mif – ibtidoiy odam tafakkurining tabiat hodisalarini tushunish va tushuntirishning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Mif narsa va obraz, jism va xossa, «asos» va tamoyillarni farqlamaydi. Voqealar o'xshashligi yoki ketma-ketligini sabab va oqibat bog'lanishi sifatida talqin qiladi. Mif oily darajada universal voqealar, chunonchi: inson o'limi va uning mangu barhayotligi, dunyoning vujudga kelishi, qahramonona qilmishlar, madaniyat yutuqlari (masalan, olovning o'g'irlanishi haqidagi mif) va shu kabilar haqida hikoya qiladi. Mifning mazmuni ramziy tilde ifodalanadi, natijada uning xulosalari keng va ko'p ma'noli tus kasb etadi. Ko'p sonlilik tamoyilini, aks ettirish, muayyanlik va antromorflik (ya'ni, inson xususiyatlarini tabiat ob'ektlariga o'tkazish), obraz va ob'ektni tenglashtirish kabilar mifologik bilishning o'ziga xos xususiyatlaridir. Borliqni anglab etish usuli sifatida mif inson, jamiyat, dunyoni modellashtiradi, tasniflaydi va talqin qiladi.

Diniy bilim *insoniyat to'plagan tajribaga tayanib, inson hayotining muhim ko'rinishlari, chunonchi: oila va turmushdagi xulq-atvor, axloqiy qoidalar, mehnat, tabiat, jamiyat va davlatga munosabatni tartibga soladi.* Dinning asosiy vazifasi – inson hayoti, tabiat va jamiyat borlig'ining mazmunini aniqlashdan iborat. Din universumning pirovard mazmunlari haqidagi o'z tasavvurini asoslab, dunyo va insoniyatning birligini tushunishga ko'maklashadi. U inson hayotini o'zgartirishga qodir bo'lgan haqiqatlar tizimidan iborat. Diniy ta'limotlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular jamoa tajribasini ifodalaydi va shu

bois nafaqat har bir dindor odam, balki dinga sig'inmaydiganlar uchun ham qadrlidir. Diniy ta'limotlarning vazifasi Xudo bormi, uni qanday qilib bilish mumkin, umuman, Xudoni bilish mumkinmi, degan savollarga javob berishdan iborat. Din o'z dunyoqarashini Muqaddas Kitob matnlarida, shuningdek, diniy rasm-rusum va urf-odatlarida ifoda etadi. Diniy rasm-rusumlarning bir unsure ramziy ahamiyatga egadir. Diniy ramzlar g'oya va obraz muvozanatini o'zida mujassamlashtiradi. Meditatsiya – o'z tafakkurini bir ob'ektga qaratish, inson e'tiborini chalg'ituvchi barcha begona omillarni chetga chiqarish yo'li bilan fikr yuritish, narsa, g'oya, dunyoni idrok etishdir. Dinda meditatsiya shaxsiy ongning Absolyut bilan birikuvini anglatadi.

Falsafiy bilim. Falsafa san'at va din kabi, bilish vazifalarini echish bilangina kifoyalanmaydi. *Uning bosh vazifasi san'at va din bilan uyg'un holda–insonning dunyoda ma'naviy mo'ljal olishiga ko'maklashishdan iborat.* Falsafiy bilish ayni shu maqsadga bo'ysundirilgan.

Ilmiy bilim. Bilishning eng oily shakli fandir. Ayrim fanlarning vakillari fanni ta'riflar ekanlar, uni muayyan tadqiqotlar sohasi bilan bog'laydilar. Ilmiy bilim boshqa bilim turlaridan o'zining aniqligi bilan ajralib turadi. *Ilmiy bilim, ma'naviy ishlab chiqarishning barcha shakllari kabi, pirovardida inson faoliyatini tartibga solish uchun zarur.* Bilishning har xil turlari bu vazifani turlicha bajaradi va mazkur farqning tahlili ilmiy bilimning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashning birinchi va muhim sharti hisoblanadi.

Ijtimoiy bilim, asosan, o'zi o'rganayotgan borliqning sifat tomonini tavsiflashga qarab mo'ljal oladi. Bu erda hodisalar va jarayonlar miqdor va umumiylik nuqtai nazaridan emas, balki sifat va xususiylik nuqtai nazaridan o'rganiladi. SHu sababli miqdor metodlarining ulushi, bu yerda, tabiiy-matematik siklga mansub fanlarga qaraganda kamroq. Biroq, bilimning matematikalashuvi, kompyuterlashuvi jarayonlari bu yerda ham tobora kengroq tus olib bormoqda.

Inson bilishini shartli ravishda bir necha turlarga bo'lib o'rganish mumkin. Dastlab inson bilishini unda borliq qanday holda in'ikos etganligiga qarab, oddiy (kundalik) va ilmiy bilishlarga ajratish mumkin. Oddiy (kundalik) bilish kishilarning odatdagi o'z kundalik hayotlarida borliqdagi predmet va hodisalarni bevosita o'z sezgi a'zolari va tafakkurlari orqali bilishdir. U kishilarning kundalik hayotiy tajribalari, malakalari va amaliy ishlari orqali hosil bo'lib, odatda «sog'lom fikrlar»da o'z ifodasini topgan bo'ladi. Oddiy bilish hamma kishilarga xos bilishdir. Ilmiy bilish esa, oddiy (kundalik) bilishdan farqlanib, u borliqdagi predmet va hodisalarning qonuniyatlarini, ularning mohiyatini bilishdir. Ilmiy bilish, odatda ilmiy tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib borish asosida amalga oshadi. Shu sababli ilmiy bilish uzoq davom etadigan, muayyan usullar va yo'llar bilan amalga oshiriladigan murakkab, ziddiyatli bilishdir. Shu tufayli ilmiy bilish bilan hamma kishilar emas, balki bir guruh yoki alohida kishilar: tadqiqotchilar, olimlarga shug'ullanadilar.

Bulardan tashqari, inson bilishida uning qanday paydo bo'lishi jihatdan hissiy bilish, mantiqiy bilish, intuitiv bilish, g'oyibona bilish va shu kabi ko'rinishlari ham farq qilinadi. Hissiy bilish deyilganda, odatda, insonning his qilishi, sezgi a'zolari orqali predmet va hodisalarni, ularning tashqi tomonlarini, tashqi belgi va

xususiyatlarini bevosita bilish tushuniladi. Insonning bu bilishi, deyarli hayvonlarga ham xos bo'lgan bilish bilan bir xil xususiyatlarga ega bo'lgan bilishdir (lekin ular tub farqlarga ham ega). Mantiqiy bilish esa insonning predmet va hodisalarni tafakkur orqali umumlashtirib, mavhumlashtirib va konkretlashtirib, ularni fikrda bilishidir.

Hissiy bilishning barcha shakllariga xos bo'lgan xususiyatlari qatoriga quyidagilar kiradi:

Birinchidan, hissiy bilish ob'ektning (predmetning yoki uning birorta xususiyatining) sub'ektga (individda, to'g'rirog'i, uning sezgi organlariga) bevosita ta'sir etishini taqozo etadi. Tasavvur ham bundan istisno emas. Unda obrazi qayta hosil etilayotgan (yoki yaratilayotgan) predmet emas, u bilan bog'liq bo'lgan boshqa predmet-signal ta'sir etadi.

Ikkinchidan, hissiy bilish shakllari predmetning tashqi xususiyatlari va munosabatlarini aks ettiradi.

Uchinchidan, hissiy obraz predmetning yaqqol obrazidan iborat.

To'rtinchidan, hissiy bilish, konkret individlar tomonidan amalga oshirilganligi uchun ham, har bir alohida holda konkret insonning sezish qobiliyati bilan bog'liq tarzda o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi.

Beshinchidan, hissiy bilish bilishining dastlabki va zaruriy bosqichi hisoblanadi. Usiz bilish mavjud bo'la olmaydi. Chunki inson tashqi olam bilan o'zining sezgi organlari orqali bog'langan. Bilishning keyingi bosqichi, boshqa barcha shakllari sezgilarimiz bergan ma'lumotlarga tayanadi.

Bilishning yuqori bosqichi faqat insonlargagina xos bo'lib, aqliy bilish (ratsional bilish) deyiladi. Agar inson o'z sezgilari yordamida narsa va hodisalarning faqat tashqi xossa va xususiyatlarini bilsa, tafakkur vositasida narsa va hodisalarning ichki mohiyatini bilib oladi. Mohiyat hamisha yashirindir, u doimo hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Har bir hodisada mohiyatning faqat bir tomonigina namoyon bo'ladi. Shu boisdan ham hodisa aldamchi va chalg'ituvchidir. Binobarin, inson sezgilarining biron bir narsa yoki hodisa to'g'risida bergan ma'lumotlari hech qachon uning butun mohiyatini ochib bera olmaydi.

Bilishning oliy darajasi intuitiv bilish, qalban bilish, g'oyibona bilishdir. O'zining butun borlig'ini fan, din, siyosat va san'at sohasiga bag'ishlagan buyuk kishilar ana shunday bilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Intuitiv bilish hissiy va aqliy bilishga tayanadi. Buyuk shaxslarning g'oyibona bilishi ularning doimiy ravishda fikrini band etgan, yechimini kutayotgan umumbashariy muammolar bilan bog'liqdir.

3. Bilishning bosh vazifasi haqiqat izlashdir. Haqiqat tushunchasi masalasi butun bilish nazariyasining eng muhim vazifasidir. Faylasuflar orasida haqiqat va uning bilishdagi roli to'g'risida yagona fikr yo'q. Sub'ektiv idealizm uchun haqiqat sub'ektiv narsadir. Masalan, nimaiki foydali bo'lsa u haqiqat deb davoluvchi pragmatizm, yoki hamma e'tirof etgan, hamma uchun ahamiyatli bo'lgan narsa haqiqatdir deb hisoblovchi konvensionalizm va neopozitivizm ham haqiqat sub'ektiv narsadir. Materializm uchun haqiqat - bu tashqi dunyoning ongimizda adekvat, to'g'ri aks etishidir. Haqiqat - bu bizning dunyo to'g'risidagi bilimlarimiz va tasavvurlarimizning dunyoning o'ziga, ob'ektiv reallikka muvofiq

kelishidir. Haqiqatni nohaqiqatdan, yanglishuvdan, yolgʻondan farqlashtirish, ajratish uchun bizning bilimimiz obʻektiv voqelikka, uning yashash va rivojlanish qonunlariga qanchalik mos kelishini aniqlab olinolmay kerak. Aristotel haqiqatning “klassik” konsepsiyasi muallifidir. Bu konsepsiya haqiqatni fikrning, bilimning voqelikka mos kelishi deb, yolgʻonni esa fikrning real ahvolga mos kelmasligi deb talqin qiladi. U oʻzining “Metafizika”sida bunday deb yozadi: “Bor narsani yoʻq deyish yoki yoʻq narsani bor deyish yolgʻon gapirishdir; borni bor va yoʻqni yoʻq deyish esa haqiqatni gapirishdir”⁷. Hozirgi zamon falsafiy va ilmiy adabiyotida obʻektiv haqiqat tushunchasi tez-tez uchrayib turadi. Obʻektiv haqiqat – bu bilimlarimizning shunday mazmuniki, u bir kishiga ham, butun insoniyatga ham bogʻliq emas. Haqiqatning obʻektivligini u mavjud olamning inikosi boʻlishi belgilaydi.

Absolyut haqiqat - bu bilish obʻekti haqidagi inkor qilib boʻlmaydigan toʻliq va tugʻilgan bilimdir, nisbiy haqiqat esa bilish predmeti toʻliqligidagi notoʻliq va tugʻilmagan bilimdir. Absolyut haqiqat toʻliq hajmdagi obʻektiv haqiqatdan boshqa narsa emas, nisbiy haqiqat esa tugʻilmagan shakldagi, notoʻliq hajmdagi obʻektiv haqiqatdir. Har bir nisbiy haqiqatda absolyut haqiqat jihati bor, chunki har qanday nisbiy haqiqat obʻektivligi sababli, unda doimiy bilim jihati bor. 1913-yilda XX asrning eng yirik fizigi Nils oʻzining mashhur toʻldiruvchanlik prinsipini taʼriflab berdi. Bu prinsipga koʻra, haqiqatligi muayyan hodisalar guruhi uchun aniqlangan va tasdiqlangan bilim va nazariyalar yanada kengroq predmet sohasini qamrab olgan yangi, yanada chuqurroq bilim va nazariyalar paydo boʻlishi bilan mutlaqo notoʻliqligini deb ulloqlashtirib tashlanmaydi, balki nisbiy haqiqat sifatida bu yangi nazariyalarning chegaraviy shakli yoki xususiy holati sifatida saqlanib qoladi.

Klassik mexanika bilan nisbiylik nazariyasi, moddalar ximik tuzilishining klassik va hozirgi zamon nazariyasi va koʻp boshqa nazariyalar oʻzaro ana shunday munosabatda boʻladi. Absolyut haqiqatni absolyutlashtirish dogmatizmga, nisbiy haqiqatni absolyutlashtirish relyativizmga olib keladi. Relyativizm va dogmatizmning cheklanganligiga sabab ular absolyut haqiqat bilan nisbiy haqiqat bir-biridan ajratib olinganligi va qarama-qarshi qilib qoʻyilganligidir.

Bizning bilimlarimiz ayni bir vaqtning oʻzida ham absolyut, ham nisbiydir. Egallagan bilimlarimiz va tajribamiz asosida biz bilib olgan va tasvirlay oladigan narsa, sodir boʻlgan, inkor etib boʻlmaydigan narsa bizning bilimlarimizning absolyut jihatini tashkil etadi. Lekin shu bilan birga, biz har bir bosqichda hamma narsani ham bilavermaymiz. Bizning bilimlarimiz ayni bir vaqtning oʻzida uzluksiz kengayib va chuqurlashib boradi. Shu maʼnoda ular absolyut emas, balki nisbiydir, shu boisdan absolyut haqiqatning oʻzi nisbiy haqiqatlar yigʻindisidan tarkib topishini eʼtirof etmoq kerak. Rivojlanishning har bir bosqichida bilimlarimizning chegaralari vaqtinchadir, lekin bilimlarimiz tobora toʻliqligini va chuqurlashib boigan sari biz absolyut haqiqatga yaqinlashib boramiz, ammo uni hech qachon toʻliqlashtirish toʻkis egallay va tushunchada ifodalay olmaymiz, chunki tabiatning oʻzi bilish obʻekti sifatida kengligi jihatidan ham, chuqurligi jihatidan ham cheksizdir.

⁷ Аристотель. Сочинения в 4 т. М., 1975, т.1. 141-Б. 320

Bilimlarimizning haqiqat yoki yolg'onligini, ularning absolyutlik va nisbiylik darajasini konkret joy va vaqt sharoiti belgilab abstrakt haqiqat beradi. Joy va vaqt sharoiti almashinib, o'zgarib turadigan omil ekanligi sababli bir sharoitda haqiqat bo'lgan narsa o'zgargan sharoitda yanglish yoki yolg'on bo'lib chiqadi. Joy va vaqt sharoitini har tomonlama hisobga olish talabi biluvchi sub'ektni dogmatik xatolardan ehtiyot qiladi.

Agar haqiqatga jarayon deb qarab unga uning rivojlanishi nuqtayi nazaridan yondashiladigan bo'lsa, bu holda konkret haqiqatga abstrakt haqiqat qarama-qarshi qo'yiladi. Abstrakt haqiqat - bu to'liq bo'lmagan, rivojlanmagan, bir tomonlama haqiqat, konkret haqiqat esa, aksincha - to'liq, rivojlangan, ko'p tomonlama haqiqat. Har qanday haqiqat, u bilish jarayonida rivojlanib borganligi sababli, abstraktlikni ham, konkretlikni ham o'z ichiga oladi. Haqiqat o'z rivojining keyingi bosqichiga nisbatan abstrakt va ilgarigi rivojlanish bosqichiga nisbatan konkretidir, Haqiqatga darhol erishib bo'lmaydi; unga erishish bilishning qiyin, ko'p bosqichli jarayonidir.

Ilmiy bilishning eng samarali usullarini aniqlash gnoseologiyada muhim o'rin egallab keldi. Har bir fan o'ziga xos bilish usullaridan foydalanadi.

Ilmiy bilish fakt va dalillarga, ularni qayta ishlash, umumlashtirishga asoslanadi. Ilmiy fakt va dalillar to'plashning o'ziga xos usullari mavjud bo'lib, ularni ilmiy bilish metodlari deyiladi.

Ilmiy bilish metodlarini o'rganadigan maxsus soha – metodologiya deb ataladi. Ilmiy bilish metodlari o'z xarakteriga ko'ra: 1) eng umumiy ilmiy metodlar; 2) umumiy ilmiy metodlar; 3) xususiy ilmiy metodlarga bo'linadi.

Eng umumiy ilmiy bilish metodlari barcha fanlar uchun xos bo'lgan metodlardir. Bunga analiz va sintez, umumlashtirish va mavhumlashtirish, induksiya va deduksiya, qiyoslash va modellashtirish kabilarni ko'rsatish mumkin. Masalan, tabiatshunoslik fanlarida kuzatish, eksperiment, taqqoslash umumilmiy metodlar bo'lsa, ijtimoiy fanlarda tarixiylik va mantiqiylik umumilmiy metodlar hisoblanadi.

Xususiy ilmiy metodlar har bir fanning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, suhbatlashish, anketa so'rovi, hujjatlarni o'rganish sotsiolog'iya faniga xos bo'lgan xususiy ilmiy metodlardir. Bir fanda yaxshi samara beradigan ilmiy bilish metodi boshqa fanda shunday samara bermasligi mumkin. Ilmiy bilishda to'g'ri metodni tanlash bilishda muvaffag'iyat garovi hisoblanadi.

Fan, falsafa sohasida erishilgan yutuqlarni mutlaqlashtirish, ularga ko'r-ko'rona sig'inish muqarrar ravishda dogmatizmni keltirib chiqaradi. Fan erishgan yutuqlar hamisha nisbiydir. Lekin bunday nisbiylikni mutlaqlashtirish relyativizmni, fan yutuqlariga ishonchsizlik bilan qarash esa, skeptitsizmni vujudga keltiradi. Fan taraqqiyoti uchun dogmatizm, relyativizm va skeptitsizm jiddiy xalaqit beradi.

Ilg'or ilmiy nazariyalar ma'lum bir davrda ilmiy va falsafiy qarashlar yo'nalishini o'zgartirishi, ilmiylikning o'ziga xos mezonini bo'lishi ham mumkin. Masalan, Charlz Darvinning evolyutsion nazariyasi, Albert Eynshteynning nisbiylik nazariyasi falsafiy va ilmiy dunyoqarashlarda muhim o'zgarishlarni vujudga keltirdi.

Ilmiy tafakkurning shakllari: muammo, g'oya, tushuncha, gipoteza va nazariyadir.

Muammo yunon tilida to'siq, qiyinchilik, masala degan ma'nolarni bildiradi. «Problema» tushunchasi *masalalar yoki butun masalalar kompleksini hal qilishga qaratilgan bilishning rivojlanish jarayonini* ifodalaydi. Inson faoliyatining butun rivojlanish jarayoni bir problemani qo'yish va hal etishdan boshqasiga o'tishdir. Odamlar o'zlari hali bilmagan narsalarni bilishga intiladilar. Lekin dastlab ular, garchi umumiy tarzda bo'lsada, nimani bilmasliklarini va nimani bilishni istashlarini bilishlari kerak. Buyuk Sokratning hikmatli so'zlarida: biz qancha kam bilishimizni bilish uchun qancha ko'p bilishimiz kerakligini hamma ham bilavermaydi, - deb juda aniq aytilgan.

Problema, muammo mazmunining hayotiyliigi shundan iboratki, problemalar o'rta qo'yilgan masalani hal etish, yechish yo'lini topishni tashkil qilish vositasidir. Problemani hal yetib bo'lmasligining isboti uni hal etishning o'ziga xos shakli bo'lib xizmat qilishi mumkin (masalan, abadiy dvigatelni yaratish muammosi), chunki bunday isbot problema qo'yilishiga sabab bo'lgan ilmiy asoslarni qayta ko'rib chiqishga undaydi. Fanda o'rta qo'yilgan problemani hal etish zarurati ham ularni qayta ko'rib chiqish uchun sharoit yaratadi.

Ilmiy problemalarni hal etish fanda bilim olishning, bilish vositalari taraqqiyotining va bilish faoliyati rivojining asosiy yo'nalishidir. Ilmiy tadqiqotning bu boshlang'ich elementini anglash, ajratish va o'rganish ilmiy-tadqiqot faoliyatini optimallashtirish muhim dastlabki shartidir. Ilmiy problemaga «ilmiy asosda hal etiladigan shakl»dagi masala sifatida yoki fanda ishlab chiqilgan vositalar va metodlarga albatta murojaat etishni talab qiladigan masala sifatida qarash mumkin.

G'oya – hodislarni fikrda ifoda etishning formalaridan biri bo'lib, kelgusida batafsilroq shaklga keltiriladigan bilimning mohiyati va asosiy mazmunini anglashni o'z ichiga oladi. Agar ilgari g'oyani ongda paydo bo'ladigan hissiy obraz deb, u yoki bu hodisalarning predmetlari va ob'ektlarini in'ikosi deb bilgan bo'lsalar, hozirgi zamon falsafasi g'oyani *narsalarning «mazmuni» yoki «mohiyati»* deb, ob'ektiv reallikning in'ikosi deb biladi. G'oya deganda bilishning forma va usullaridan biri tushuniladiki, uning ma'nosi hodisalarning mohiyatini qonunini ifodalovchi umumlashgan nazariy konstruksiyani, nazariy modelni shakllantirishdan iborat. Masalan, modda zarrachalari va elektromagnit maydonning korpuskulyar-to'lqinli xarakteri to'g'risidagi g'oya ana shundaydir. Shu prinsipga ko'ra, makro va mikrodunyolar bir-biriga bog'liqdir va ularning birligi korpuskulyar-to'lqinli dualizmida ifodalanadi. Mikrojarayonlarning ushbu xususiyatini ifoda etish borasida V.Geyzenberg «nomuayyanlik nisbati» deb atalgan nisbatni kashf etgan.

Nazariy tafakkurning asosiy formalari orasida eng dastlabki va asosiy formasi tushunchadir. Tushunchalarning tabiati, ularning ilmiy bilishdagi roli to'g'risidagi masalaning yechimini bilib olmay turib, fan taraqqiyotining qonuniyatini, uning metodini, fikrlash usulini chuqur tushunib bo'lmaydi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Gnoseologiya nimani o'rganadi?
2. Bilish nima?
3. Hissiy va ratsional bilishning o'ziga xosligi nimada?
4. Bilish ob'ekti, sub'ekti, predmeti tushunchalarini izohlang.
5. Ilmiy bilishning asosiy usul (metod) larini ko'rsating.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

7-Mavzu: MANTIQ

REJA:

1. Mantiqning mohiyati. Tafakkur qonunlari
2. Tushuncha tafakkur shakli
3. Hukmning mohiyati va qoidalar
4. Deduktiv xulosa chiqarishning fikr ravonligini ta'minlashdagi roli. Induktiv xulosa.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

Tafakkur, ob'ektiv mantiq, sub'ektiv mantiq, so'z, tafakkur qonunlari, formal mantiq, ayniyat qonuni, nozidlik qonuni, uchinchisi istisno qonuni, yetarli asos qonuni, tushuncha, hukm, xulosa chiqarish, analogiya

1. **“Mantiq”** arabcha so'z bo'lib, ma'nosi bo'yicha «logika» so'ziga muvofiq keladi. «Logika» atamasi esa, grekcha «logos» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «fikir», «so'z», «aql», «qonuniyat» kabi ma'nolarga ega. Uning ko'p ma'noligi turli xil narsalarni ifoda qilishida o'z aksini topadi. Xususan, mantiq so'zi, birinchidan, ob'ektiv olam qonuniyatlarini (masalan, «ob'ektiv mantiq», «narsalar mantig'i» kabi iboralarda), ikkinchidan, tafakkurning mavjud bo'lish shakllari va taraqqiyotini, shu jumladan, fikrlar o'rtasidagi aloqadorlikni xarakterlaydigan qonun-qoidalar yig'indisini (masalan «sub'ektiv mantiq» iborasida) va nihoyat, uchinchidan, tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fanni ifoda etishda ishlatiladi.

Mantiq ilmining o'rganish ob'ektini **tafakkur** tashkil etadi. «Tafakkur» arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilidagi «fikrlash», «aqliy bilish» so'zlarining sinonimi sifatida qo'llaniladi. Tafakkur bilishning yuqori bosqichidir. Uning mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun bilish jarayonida tutgan o'rni, bilishning boshqa shakllari bilan bo'lgan munosabatini aniqlab olish zarur.

Predmet va hodisalarning mohiyatini tushunishga tafakkur yordamida erishiladi. Tafakkur bilishning yuqori – ratsional (lotincha ratsio-aql) bilish bosqichi bo'lib, unda predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlanadi, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlar aks ettiriladi. Tafakkur til bilan uzviy aloqada mavjud. Fikr ideal hodisadir. U faqat tilda-moddiy hodisada (tovush to'lqinlarida, grafik chiziqlarda) reallashadi, boshqa kishilar bevosita qabul qila oladigan, his etadigan shaklga kiradi va odamlarning o'zaro fikr almashish vositasiga aylanadi. Boshqacha aytganda, til fikrning bevosita voqe bo'lish shaklidir.

Keng ma'noda **mantiqni tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan**, deb atash mumkin. Hozirgi paytda uning **formal mantiq**, **dialektik mantiq** va **matematik mantiq** kabi yo'nalishlarini farq qilish mumkin. Formal mantiq tafakkurning strukturasi fikrning konkret mazmuni va taraqqiyotidan chetlashgan holda, nisbatan mustaqil ravishda olib o'rganadi. Uning diqqat markazida muhokamani to'g'ri qurish bilan bog'liq qoidalar va mantiqiy amallar yotadi.

Formal mantiqqa to'g'ri tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi falsafiy fan, deb ta'rif berish mumkin.

Dialektik mantiq, formal mantiqdan farqli o'laroq, *tafakkurni uning mazmuni va shakli birligida hamda taraqqiyotida olib o'rganadi. Matematik mantiq esa tafakkurni matematik metodlar yordamida tadqiq etadi*. U hozirgi zamon matematikasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, tafakkurni mantiqiy hisoblash deb ataladigan yuqori darajada abstraktlashgan va formallashgan sistemada tahlil qiladi.

Biz o'rganadigan fan **formal mantiq** bo'lib, u hozirgi paytda o'zining maxsus formallashgan tiliga, to'g'ri muhokama yuritish uchun zarur bo'lgan samarali mantiqiy metodlari va usullariga, konseptual vositalariga ega. Tafakkurni o'rganuvchi boshqa fanlar, xususan falsafa, psixologiya, fiziologiya bilan hamkorlik qiladi hamda ilmiy bilimlar sistemasida o'zining munosib o'rniga ega. Ayniqsa, uning bilish metodi sifatidagi ahamiyati katta.

Buyuk mutafakkir Forobiyning mantiq ilmining ahamiyati haqida bildirgan quyidagi fikrlarining alohida e'tiborga loyiq ekanligini ta'kidlash zarur. U shunday yozadi: «*Bizning maqsadimiz aqlni, xatoga yo'l qo'yish mumkin bo'lgan barcha hollarda, to'g'ri tafakkurga yetaklaydigan, uning yordamida har safar xulosa chiqarayotganda adashishga qarshi ehtiyot choralarini ko'rsatadigan san'atni - mantiq san'atini o'rganishdir. Mantiq tafakkur jarayonini yaxshi amalga oshirish maqsadida xatoga yo'l qo'yish mumkin bo'lgan barcha hollarda aqlni to'g'irlab turadi*».⁸

⁸ Аль-Фараби. Естественно-научные трактаты. Алма-Ата, 1987, 435-бет.

Formal **mantiq qonunlari** (yoki **tafakkur qonunlari**) deyilganda fikrlashga xos muhim, zururiy bog‘lanishlar tushuniladi. Tafakkur qonunlari ob‘ektiv voqelikning inson miyasida uzoq vaqt davomida aks etishi natijasida vujudga kelgan va shakllangan.

Bu qonunlar fikrlashning to‘g‘ri amalga oshishini ta‘minlab turadi. Ular tafakkur shakllari bo‘lgan tushunchalar, mulohazalar (hukmlar) hamda xulosa chiqarishning shakllanishi va o‘zaro aloqalarini ifodalaydi.

Ayniyat qonuni. Biror buyum yoki hodisa haqida fikr yuritilganda ularga xos bo‘lgan barcha muhim belgilar, tomonlar qamrab olinadi. Predmet haqidagi fikr necha marta va qanday holatlarda takrorlanishiga qaramasdan doimiy, o‘zgarmas va qat‘iy mazmunga ega bo‘ladi. Tafakkurga xos bo‘lgan bu aniqlik xususiyati ayniyat qonunining mohiyatini tashkil etadi.

Ayniyat qonuniga ko‘ra ma‘lum bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ayni bir fikr ayni bir muhokama doirasida ayni bir vaqtda o‘z-o‘ziga tengdir. Bu qonun formal mantiq ilmida «A-A dir» formulasi bilan ifodalanadi.

Ayniyat qonunining asosiy talabi quyidagicha: fikrlash jarayonida turli fikrlarni aynanlashtirish va aksincha, o‘zaro aynan bo‘lgan fikrlarga teng emas, deb qarash mumkin emas. Bu mantiqiy tafakkurning muhim shartlaridan biridir.

Nozidlik qonuni. Inson tafakkuri aniq, ravshan bo‘libgina qolmasdan, ziddiyatsiz bo‘lishi ham zarur. Ziddiyatsizlik inson tafakkuriga xos bo‘lgan eng muhim xislatlardan biridir. Ma‘lumki, *ob‘ektiv voqelikdagi buyum va hodisalar bir vaqtda, bir xil sharoitda biror xususiyatga ham ega bo‘lishi, ham ega bo‘lmasligi mumkin emas.* Masalan, bir vaqtning o‘zida, bir xil sharoitda inson ham axloqli, ham axloqsiz bo‘lishi mumkin emas. U yo axloqli, yo axloqsiz bo‘ladi.

Bir vaqtning o‘zida bir predmetga ikki zid xususiyatning taalluqli bo‘lmasligi tafakkurda nozidlik qonuni sifatida shakllanib qolgan. Bu qonun fikrlash jarayonida ziddiyatga yo‘l qo‘ymaslikni talab qiladi va tafakkurning ziddiyatsiz hamda izchil bo‘lishini ta‘minlaydi. Nozidlik qonuni ayni bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ikki o‘zaro bir-birini istisno qiluvchi (qarama-qarshi yoki zid) fikr bir vaqtda va bir xil nisbatda birdaniga chin bo‘lishi mumkin emasligini, hech bo‘lmaganda ulardan biri albatta xato bo‘lishini ifodalaydi. Bu qonun «**A ham B, ham B emas bo‘la olmaydi**» formulasi orqali beriladi.

Uchinchisi istisno qonuni. Uchinchisi istisno qonuni nozidlik qonunining mantiqiy davomi bo‘lib, fikrning to‘liq mazmunini qamrab olib bayon qilingan ikki zid fikrdan biri chin, boshqasi xato, uchinchisiga o‘rin yo‘q ekanligini ifodalaydi. Bu qonun «**A B yoki B emasdir**» formulasi orqali beriladi.

Uchinchisi istisno qonuni quyidagi holatlarda qo‘llaniladi:

1. Alohida olingan yakka buyumga nisbatan bir xil vaqt va munosabat doirasida o‘zaro zid fikr bildirilganda. Masalan:

Toshkent-O‘zbekistonning poytaxti.

Toshkent-O‘zbekistonning poytaxti emas.

Bu mulohazalar birgalikda chin ham, xato ham bo‘la olmaydi. *Ulardan biri chin, ikkinchisi xato, uchinchisi mulohazaga o‘rin yo‘q.* **Uchinchisi istisno qonuni o‘zaro zid umumiy mulohazalar doirasida amal qilmaydi.** Chunki umumiy mulohazalarda buyumlar sinfiga va shu sinfga mansub har bir buyumga nisbatan fikr bildiriladi. Masalan:

Hamma faylasuflar notiqdir.

Hech bir faylasuf notiq emas.

Bu mulohazalardan, birining xatoligidan ikkinchisining chinligi haqida xulosa chiqarib bo'lmaydi. Bunday holatda «Ba'zi faylasuflar notiqdir» degan uchinchi bir mulohaza chin hisoblanadi.

Demak, Uchinchisi istisno qonuni:

Ikki zid yakka mulohazalarga nisbatan;

Umumiy tasdiq va juziy inkor mulohazalarga nisbatan;

Umumiy inkor va ju'ziy tasdiq mulohazalarga nisbatan qo'llaniladi.

Yetarli asos qonuni. To'g'ri fikrlashga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri isbotlilik, ishonchlilikdir. Fikrlash jarayonida buyum va hodisalar haqida chin muhokama yuritibgina qolmasdan, bu muhokamaning chinligiga hech qanday shubha bo'lmasligi uchun, uni isbotlashga, asoslashga harakat qilinadi. Bunda chinligi avvaldan ma'lum bo'lgan va o'zaro mantiqiy bog'langan mulohazalarga asoslaniladi, ya'ni bayon qilingan fikrning chinligi avvaldan ma'lum bo'lgan, tasdiqlangan boshqa bir fikr, mulohaza bilan taqqoslanadi. Tafakkurning bu xususiyati yetarli asos qonuni orqali ifodalanadi.

Muhokama yuritishda ishonchli natijalarga erishishning zaruriy shartlari qatoriga fikrning chin bo'lishi va formal jihatdan to'g'ri qurilishi kiradi. *Chin fikr deb, o'zi ifoda qilayotgan predmetga muvofiq keluvchi fikr hisoblanadi (Masalan, «Temir-metall»). Xato fikr predmetga mos kelmaydigan fikrdir (masalan, «Temir-metall emas»). Fikrning chin yoki xato bo'lishi uning mazmuniga tegishli xususiyatlaridir.*

Muhokamani to'g'ri qurish bilan bog'liq talablar haqida gapirganda, birinchi navbatda, ularning muayyan prinsiplar, qoidalar tarzida, ya'ni to'g'ri tafakkur prinsiplari sifatida amal qilishiga e'tibor berish zarur. Mazkur qoidalarining buzilishi muhokamaning noto'g'ri qurilishiga sabab bo'ladi. Bunda, xususan, chin fikrlardan xato xulosa chiqishi (masalan, "Qonun – rioya qilish zarur bo'lgan huquqiy hujjat", "Buyruq qonun emas", demak, "Buyruq rioya qilish zarur bo'lgan huquqiy hujjat emas") yoki xato qurilgan muhokamadan chin xulosa chiqishi (masalan, "Barcha moddiy jismlar – kimyoviy elementlar", "Temir – moddiy jism", demak, "Temir – kimyoviy element") mumkin.

2.Tafakkur uch xil shaklda: *tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish* shaklida mavjud.

Tushuncha predmet va hodisalarning umumiy, muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shaklidir.

Belgilar deb, predmetlarni bir-biridan farq qiluvchi hamda ularning bir-biriga o'xshashligini ifoda qiluvchi tomonlarga, xususiyatlarga aytiladi. Har bir predmet olamdagi boshqa predmetlar bilan (bevosita yoki bilvosita) aloqada bo'lganligi uchun ko'p belgilarga ega. Ularning ba'zilar faqat bitta predmetga xos bo'lgan, uning individual, yakkalik belgilarini tashkil qilsa, boshqalari predmetning ma'lum bir guruhiga tegishli bo'lib, **umumiy belgilar** hisoblanadi. Masalan, har bir kishi faqat o'zigagina xos bo'lgan ruhiy kechinmalar va shu kabi individual belgilarga ega. Shuning bilan birga kishilarning ma'lum bir guruhiga (mehnat jamoasi, millat va shu kabilarga tegishli) yoki barcha kishilarga (mehnat

qilish, fikr yuritish qobiliyatlari, ijtimoiy munosabatlarda ishtirok qilishi va shu kabilar) xos bo'lgan umumiy belgilarga ega.

Individual va umumiy belgilarning ba'zilar predmetning mavjud bo'lishi uchun zarur bo'lib, uning tabiatini, mohiyatini ifodalaydi. Bunday belgilar predmetning **muhim belgilari** deyiladi. Masalan, davlatning mavjud bo'lishi uning o'z maydoni, aholisi, hokimiyat organlariga ega bo'lishini taqozo etadi.

Nomuhim belgilar predmetning mohiyatini tashkil qilmaydi. Ularning yo'qolishi bilan predmetning tabiati o'zgarmaydi. Masalan, qaysi irqqa, millatga, jinsga taalluqli bo'lishi individning inson sifatida mavjud bo'lishi uchun muhim emas.

Tushunchaning hissiy bilish shakllaridan tubdan farq qilishiga alohida e'tibor berish zarur. Sezgi, idrok va tasavvur predmetning yaqqol obrazlaridir. Biz faqat birorta konkret predmetni, masalan, o'zimiz yozib o'tirgan qalamni idrok qilishimiz yoki u to'g'risida tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin. "Umuman qalam"ni idrok qilib bo'lmaydi. Chunki *tushuncha predmetning yaqqol obrazi emas, balki abstrakt obrazidir*. Qalam tushunchasi o'zida konkret qalamlarning barchasini qamrab olgani holda, ularning har biriga xos bo'lgan individual belgilarni tashlab yuborib, umumiy, muhim belgilarini ifoda qiladi. Ayni paytda bu belgilar qalamni boshqa predmetlardan, masalan, kitobdan farq qildirib turadigan spetsifik beliglar bo'lib ham xizmat qiladi.

Tushunchalar so'z va so'z birikmalari yordamida ifoda qilinadi. Masalan "talaba", "tarix fakulteti", "Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti" va shu kabilar so'zlardan iborat. Lekin bundan tushuncha va so'z aynan bir xildir, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Bitta tushuncha har xil tillarda, ba'zan bir tilda ham turli xil so'zlar bilan ifoda qilinadi. Tilimizdagi omonim va sinonim hodisalar so'z va tushunchaning nisbiy mustaqil holda mavjudligidan dalolat beradi.

Shuni ham aytish lozimki, so'zning ko'p ma'noga ega bo'lishi ba'zan fikr yuritish jarayonida tushunchalarni aralashtirib yuborishga olib keladi. Shuning uchun ham fan va texnikada ko'proq terminlardan foydalaniladi. *Termin* qat'iy bitta tushunchani ifoda qiluvchi so'z bo'lib, muayyan ilmiy bilish sohasida bir xil ma'noda ishlatiladi.

Mantiqda tushunchalar mazmuni va hajmi bo'yicha bir qancha turlarga bo'linadilar. Xususan, hajmiga ko'ra *yakka* va *umumiy* tushunchalar farq qilinadi.

Yakka tushunchaning hajmida bitta predmet fikr qilinadi. Masalan, "Yer sayyorasi", "O'zMU asosiy kutubxonasi" va shu kabilar yakka tushunchalardir. Umumiy tushunchalar predmetlar guruhini aks ettiradi. "Sayyora", "Kutubxona" tushunchalari umumiy tushunchalar hisoblanadi. Umumiy tushunchalar aks ettiruvchi predmetlarning miqdori chegaralangan va chegaralanmagan bo'lishi mumkin. Masalan, "kimyoviy element" tushunchasida fikr qilinayotgan predmetlar soni chegaralangan. Ularni hisobga olish mumkin. "Yulduz" tushunchasi hajmini tashkil qiluvchi predmetlar soni esa cheksiz, ularni hisobga olib bo'lmaydi.

Fikr yuritish jarayonida *ayiruvchi* va *to'plovchi* tushunchalarni farq qilish ham muhim ahamiyatga ega. Ayiruvchi tushuncha shunday umumiy tushunchaki, u aks ettiruvchi belgilar berilgan sinfnig har bir predmetiga xosdir.

Masalan, “SamDVMChBU talabalari Taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyatini o‘rganmoqda” degan fikr SamDVMChBuning har bir talabasiga tegishli. Demak, “SamDVMChBU talabalari” tushunchasi bu yerda ayiruvchi tushunchadir.

“SamDVMChBU talabalari Taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyatini muhokama etishmoqda” degan fikrda esa, “SamDVMChBU talabalari” tushunchasi to‘plovchi tushuncha sifatida ishtirok qiladi, chunki fikr ularning to‘plamiga nisbatan bildirilgan.

Mazmuni bo‘yicha tushunchalar, avvalam bor, *abstrakt* va *konkret* tushunchalarga bo‘linadilar. Konkret tushunchalarda predmet o‘zining belgilari bilan birgalikda fikr qilinadi. Abstrakt tushunchalarda esa predmetning belgilari undan fikran ajratib olinib, alohida aks ettiriladi. Masalan “Inson”, “Quyosh” tushunchalari – konkret tushunchalar, “Qahramonlik” (insonga xos xususiyatni aks ettiradi), “Go‘zallik” (borliqdagi predmetlarga xos xususiyatni ifoda qiladi) tushunchalari abstrakt tushunchalardir.

Ba’zi hollarda *ijobiy* va *salbiy* tushunchalar ham farq qilinadi. Ijobiy tushunchalarning mazmunida predmet unga xos belgilar orqali fikr qilinsa, salbiy tushunchalarning mazmunida predmet unga xos bo‘lmagan belgilar orqali fikr qilinadi. Masalan, «Savodli kishi», «Vijdonli kishi» - ijobiy tushunchalar, «Savodsiz kishi», «Vijdotsiz kishi» - esa salbiy tushunchalardir.

Biz yuqorida tushunchalarning bir qancha turlari bilan tanishib chiqdik. U yoki bu tushunchaning ana shu turlardan qaysilariga mansub ekanligini aniqlash unga mantiqiy tavsif berish demakdir. Masalan, «Talaba» – umumiy, ayiruvchi, chegaralangan, konkret, nisbatsiz, ijobiy tushuncha; «A.Navoiy nomli O‘zbekiston davlat kutubxonasi»-yakka, to‘plovchi, chegaralangan, konkret, nisbatsiz, ijobiy tushunchadir.

Sig‘ishadigan tushunchalarning hajmi bir-biriga butunlay, to‘laligicha yoki qisman mos keladi. Ular o‘rtasida uch xil munosabat mavjud: moslik, qisman moslik va bo‘ysunish. Moslik munosabatidagi tushunchalar bitta predmetni (predmetlar sinfini) aks ettiruvchi tushunchalar bo‘lib, ular bir-biridan faqat mazmuni bilangina farq qiladi. Masalan,

«Sh.M.Mirziyoyev», «O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti» tushunchalari xuddi shu munosabatda mavjuddir. Buni quyidagi sxema yordamida ko‘rsatish mumkin.

A- Sh.M.Mirziyoyev.

B- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Qisman moslik munosabatidagi tushunchalarning hajmi qisman umumiylikka ega. Masalan:

A-Sportchi.

B-Talaba.

Doiralarning shtrixlangan qismi bir vaqtningn o‘zida ham sportchi, ham talaba bo‘lganlarni bildiradi.

Bo‘ysunish munosabatida tushunchalardan birining hajmi ikkinchisining hajmiga to‘liq kirib, uni tashkil qiluvchi qism hisoblanadi. Masalan:

A-Fan.

B-Mantiq.

Bu munosabatdagi tushunchalardan biri bo'ysundiruvchi (A), ikkinchisi (B) bo'ysinuvchi bo'lib, ular jins-tur munosabatida bo'ladi.


Sig'ishmaydigan tushunchalar hajmi jihatidan umumiylikka ega bo'lmagan tushunchalar hisoblanib, bir sinfga kiruvchi har xil predmetlarni yoki predmetlar guruhini aks ettiradi. Ularning umumiyligi faqat ana shunda. Bu tushunchalar o'rtasida ham uch xil munosabat bor: birga bo'ysunish, qarama-qarshilik, zidlik.

Birga bo'ysunish munosabati quyidagi tushunchalar o'rtasida mavjuddir.

A-Fan.

V-Mantiq.

S-Fizika.



Bunda «Mantiq» va «Fizika» tushunchalari hajmlari jihatidan birgalikda «Fan» tushunchasining hajmiga bo'ysunadi.

3. Tafakkurning tushunchadan keyin keluvchi navbatdagi shakli bu **hukm (mulohaza)dir**. *Aqliy bilish narsa va hodisalarga xos bo'lgan belgi va xususiyatlarni tasdiqlash yoki inkor etishni taqozo etadi. Tafakkurga xos bo'lgan ana shu tasdiqlash yoki inkor etish qobiliyatiga hukm deyiladi. Hukm predmetga ma'lum bir xossaning, munosabatning xosligi yoki xos emasligini ifodalovchi tafakkur shaklidir.*

Hukmlar tushunchalar vositasida shakllanadi. Hukmlar yangi bilimlar hosil qilishga imkoniyat yaratadi, ular vositasida narsa va hodisalar mohiyatiga chuqurroq kirib boriladi. Shunday qilib, hukm narsa va hodisalarning tub mohiyatini ifodalovchi eng muhim belgi va xususiyatlar mavjudligini yo tasdiqlaydi yoki inkor etadi. Masalan, «Inson aqli mavjudotdir», degan hukmda insonga xos eng asosiy belgi – aqlning mavjudligi tasdiqlanayapti. Biroq inson shunday murakkab mavjudotdirki, uning mohiyati faqat aqli mavjudot ekanligi bilan cheklanmaydi. Chunki qirg'inbarot urushlar, ekologik inqirozlar aqli mavjudot bo'lgan inson tomonidan amalga oshirildi.

Hukm (mulohaza)larda predmet bilan uning xossasi, predmetlar o'rtasidagi munosabatlar, predmetning mavjud bo'lish yoki bo'lmaslik fakti haqidagi fikrlar tasdiq yoki inkor shaklda ifoda etiladi. Masalan «Temir – metal» degan hukmda predmet (temir) bilan uning xossasi (metall ekanligi) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan. «Axloq huquqdan ilgari paydo bo'lgan» degan hukmda ikkita predmet (axloq va huquq) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan. Mazmun jihatdan turli xil bo'lgan bu hukmlar tuzilishiga ko'ra bir xildir: ularda predmet haqidagi tushuncha (S) bilan predmet belgisi haqidagi tushuncha (P) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan, ya'ni P ning S ga xosligi tasdiqlangan. Umumiy holda hukmning mantiqiy strukturasi (shaklini) S-P formulasi yordamida ifoda etish mumkin.

Hukmning asosiy vazifasi predmet bilan uning xususiyati, predmetlar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatishdir. Ana shuning uchun ham u doimo tasdiq yoki inkor shakldagi fikrdan iborat bo'ladi. Fikr yuritish jarayonida biz predmet va hodisalarning oddiy, tashqi xususiyatlari bilan birga ularning ichki, zaruriy boglanishlarini, munosabatlarini bilib boramiz. Predmet va xodisalarning xususiyatlarini ketma-ket o'rganib, ular haqida turli abstraktsiyalar hosil qilamiz.

Bu abstraktsiyalar hukmlar yordamida ifodalanadi. Bilimlarimiz turlicha bo'lgani uchun, ularni ifodalaydigan hukmlar ham har xil bo'ladi. Ba'zi hukmlarda aniq, tekshirilgan bilimlar ifodalansa, boshqalarida xususiyatning predmetga xosligi taxmin qilinadi, ya'ni noaniq bilimlar ifodalanadi.

Hukmlar nisbatan tugal fikrdir. Unda konkret predmet bilan uning konkret belgisi haqida bilim ifoda qilingan bo'ldi.

Hukmlar voqelikka mos kelish darajasiga ko'ra *chin*, *xato* va *noaniq* (ehtimol, taxminiy) bo'ladi. Ob'ektiv voqelikka mos kelgan, uni to'g'ri ifodalagan hukmlar *chin*, mos kelmaganlari *xato* bo'ladi. Ayni vaqtda chinligini xam, xatoligini ham aniqlab bo'lmaydigan hukmlar – noaniq hukmlar mavjuddir.

Hukmlar tilda gaplar orqali ifodalanadi. Hukm mantiqiy kategoriya bo'lsa, gap grammatik kategoriyadir. Hukmlar asosan darak gap orqali ifodalanadi. Faqat darak gaplardagina fikr tasdiq yoki inkor holda bo'ladi.

Masalan, «Vaqt orqaga qaytmaydi», «Hayot – bu harakat» kabi gaplar hukmni ifoda qiladilar.

Hukmlar tuzilishiga ko'ra **oddiy** va **murakkab** bo'ladi. *Oddiy hukm deb tarkibidan yana bir hukmni ajratib bo'lmaydigan mulohazaga aytiladi. Tarkibidan ikki yoki undan ortiq hukmni ajratish mumkin bo'lgan mulohazalarga murakkab hukm deyiladi.* Masalan, «Mantiq ilmini o'rganish to'g'ri fikrlash madaniyatini shakllantiradi» degan mulohaza oddiy hukmni ifodalaydi. «Mantiq ilmi tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganadi», degan mulohaza murakkab hukmdir. Bu mulohazaning tarkibi ikki qismdan: «Mantiq ilmi tafakkur shakllarini o'rganadi» va «Mantiq ilmi tafakkur qonunlarini o'rganadi», degan ikki oddiy hukmdan iborat.

Mulohaza (hukm) tarkibida mantiqiy ega va mantiqiy kesimni ajratib ko'rsatish mumkin. Mantiqiy ega-sub'ekt (S) fikr qilinayotgan predmet va xodisani bildiradi. Mantiqiy kesim-predikat (P) predmetga xos xususiyatni, munosabatni bildiradi. Predikatda ifodalangan bilimlar hisobiga sub'ekt xaqidagi tasavvur boyitiladi. Hukmning sub'ekt va predikati uning terminlari deb ataladi.

Hukmning uchinchi zaruriy elementi mantiqiy bog'lamadir. U sub'ekt va predikatni bir-biri bilan bog'laydi, natijada hukm hosil bo'ladi. Oddiy qat'iy hukmning formulasi quidagicha yoziladi: S – P.

Oddiy hukmlar sifati va miqdoriga ko'ra turlarga bo'linadi. Sifatiga ko'ra *tasdiq* va *inkor* hukmlar farqlanadi. Hukmning sifatini mantiqiy bog'lama belgilaydi. *Tasdiq hukmlarda* belgining predmetga xosligi, inkor hukmlarda, aksincha, xos emasligi ko'rsatiladi.

Masalan, «A.Oripov O'zbekiston Respublikasi madhiyasining muallifidir» - tasdiq hukm, «Matematika ijtimoiy fan emas» - inkor hukm.

Miqdoriga ko'ra oddiy hukmlar *yakka*, *umumiy* va *juz'iy* hukmlarga bo'linadi. Bunda sub'ektda ifodalangan predmetlarning soni, ya'ni uning hajmidan kelib chiqiladi.

Yakka hukmlarda birorta belgining predmetga xosligi yoki xos emasligi xaqida fikr bildiriladi. Masalan: «O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlatdir», «Rahimov tarixchi emas».

Umumiy hukmlarda birorta belgining yakka predmetlar sinfining xammasiga yoki undagi xar bir predmetga taalluqli yoki taalluqli emasligi haqida fikr bayon qilinadi. Masalan: «Har bir inson baxtli bo‘lishni xohlaydi», va «Hech bir aqlli odam vaqtini behuda sarflamaydi».

Juz’iy hukmlarda birorta belgining predmetlar to‘plamining bir qismiga xos yoki xos emasligi haqida fikr bildiriladi. Masalan: «Ba’zi faylasuflar notiqdir». «Ko‘pchilik talabalar dangasa emas». Juz’iy hukmlarda «ba’zi» so‘zi «hech bo‘lmasa bittasi, balki hammasi» degan ma’noda qo‘llaniladi.

Murakkab hukmlar. Hukm terminlari birdan ortiq bo‘lsa, murakkab hukm deb ataladi. Murakkab hukmlar «va», «yoki», «agar... unda» kabi mantiqiy bog‘lamalar, inkor qilish va modal terminlarni qo‘llash orqali ikki va undan ortiq oddiy hukmlarning o‘zaro birikishidan hosil bo‘ladi.

4. Voqelikni bilish jarayonida inson yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Bu bilimlar abstrakt tafakkur yordamida, mavjud bilimlarga asoslangan holda vujudga keladi. Bunday bilimlarni hosil qilish mantiq ilmida **xulosa chiqarish**, deb ataladi.

Xulosa chiqarish deb bir va undan ortiq chin mulohazalardan ma’lum qoidalar yordamida yangi bilimlarni keltirib chiqarishdan iborat bo‘lgan tafakkur shakliga aytiladi.

Xulosa chiqarish jarayoni asoslar, xulosa va asoslardan xulosaga o‘tishdan tashkil topadi. To‘g‘ri xulosa chiqarish uchun, avvalam bor, asoslar chin mulohazalar bo‘lishi, o‘zaro mantiqan boglanishi kerak. Masalan, «Aristotel – mantiq fanining asoschisi» va «Platon yunon faylasufidir» degan ikki chin mulohazadan xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Chunki bu mulohazalar o‘rtasida mantiqiy aloqadorlik yo‘q.

Xulosa asoslari va xulosa ham o‘zaro mantiqan bog‘langan bo‘lishi shart. Bunday aloqadorlikning zarurligi xulosa chiqarish qoidalarida qayd qilingan bo‘ladi. Bu qoidalar buzilsa, to‘g‘ri xulosa chiqmaydi. Masalan «Talaba A – a’lochi» degan mulohazadan «Talaba A – odobli», deb xulosa chiqarib bo‘lmaydi.

Deduktiv xulosa chiqarish

Deduktiv xulosa chiqarishning muhim xususiyati unda umumiy bilimdan juz’iy bilimga o‘tishning mantiqan zaruriy xarakterga egaligidir. Uning turlaridan biri bevosita xulosa chiqarishdir.

Faqat birgina mulohazaga asoslangan holda yangi bilimlarning hosil qilinishi bevosita xulosa chiqarish deb ataladi. Bevosita xulosa chiqarishning quyidagi mantiqiy usullari mavjud:

I. **Aylantirish** (lot.-obversio) - shunday mantiqiy usulki, unda berilgan mulohazaning miqdorini saqlagan holda, sifatini o‘zgartirish bilan yangi mulohaza xosil qilinadi. Bu usul bilan xulosa chiqarilganda qo‘sh inkor sodir bo‘ladi, ya’ni avval asosning predikati, keyin bog‘lovchisi inkor etiladi. Buni quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$\frac{S - P}{S - \bar{P}}$$

Inkor qilish jarayonida inkor yuklamalaridan (-ma; -siz; -mas) yoki inkor qilinayotgan tushunchaga zid bo‘lgan tushunchalardan foydalaniladi. Oddiy qat’iy mulohazalarning hammasidan aylantirish usuli bilan xulosa chiqariladi.

Aylantirish usuli bilan xulosa chiqarilganda «biror nimaning qo'sh inkori uning tasdig'iga tengdir», degan qoidaga asoslanadi.

II. Almashtirish (lot.-conversio) - shunday mantiqiy xulosa chiqarish usuliki, unda xulosa berilgan mulohazadagi sub'ekt va predikatning o'rnini almashtirish orqali keltirib chiqariladi.

Almashtirishda berilgan mulohazadagi terminlar hajmi e'tiborga olinishi shart. Agar berilgan mulohazadagi terminlar hajmiga e'tibor berilmasa, xulosa noto'g'ri bo'lishi mumkin: Masalan,

Hamma insonlar tirik mavjudotlardir.

Hamma tirik mavjudotlar insonlardir.

Xulosa xato, chunki berilgan mulohazada P - (tirik mavjudotlar) to'liq xajmda olinmagan, xulosada esa to'liq xajmda olingan. Yuqoridagi asosdan «Ba'zi tirik mavjudotlar insonlardir» deb chiqarilgan xulosa to'g'ri bo'ladi. Shunga ko'ra almashtirishning uch turi farqlanadi: *toraytirilgan, kengaytirilgan va sof almashtirish.*

Ma'lumki, deduktiv xulosa chiqarish aslida **sillogizm** shaklida bo'ladi. Sillogizm qo'shib hisoblash, degan ma'noni anglatadi. Bu termindan mantiqda, odatda, deduktiv xulosa chiqarishning ko'proq ishlatiladigan turi hisoblangan oddiy qat'iy sillogizمنى ifoda qilish uchun foydalaniladi. Sillogizm xulosa chiqarishning shunday shakliki, unda o'zaro mantiqiy bog'langan ikki qat'iy mulohazadan uchinchi-yangi qat'iy mulohaza zaruriy tarzda kelib chiqadi. Bunda dastlabki mulohazalardan biri albatta yo umumiy tasdiq yoki umumiy inkor mulohaza bo'ladi. Hosil qilingan yangi mulohaza dastlabki mulohazalardan umumiyroq bo'lmaydi. Shunga ko'ra sillogizمنى umumiylikka asoslangan xulosa chiqarish, deb atasa bo'ladi. Masalan, quyidagi mulohazalar berilgan bo'lsin:

Hech bir xasis saxiy emas.

Ba'zi boylar xasisdir.

Bu mulohazalardan zaruriy ravishda - «Ba'zi boylar saxiy emas», degan uchinchi mulohaza kelib chiqadi. Sillogizmning tarkibi oddiy qat'iy mulohazalardan tashkil topgani uchun u oddiy qat'iy sillogizm deyiladi.

Sillogizm aksiomasi. Aksiomalar isbotsiz chin deb qabul qilingan nazariy mulohazalar bo'lib, ular vositasida boshqa fikr va mulohazalar asoslab beriladi. Sillogizmning aksiomasi xulosalashning mantiqiy asoslanganligini ifodalaydi. Sillogizm aksiomasini terminlarning hajmiga yoki mazmuniga ko'ra, ya'ni atributiv ta'riflash mumkin. Sillogizm aksiomaning mohiyati quyidagicha: **buyum va hodisalarning sinfi to'grisida tasdiqlab yoki inkor etib bayon qilingan fikr shu sinf ichiga kiruvchi barcha buyum va hodisalarning har biri yoki ayrim qismiga ham taalluqli bo'lgan tasdiq yoki inkor fikr hisoblanadi.**

Masalan:

Tafakkur shakllari ob'ektiv xarakterga ega.

Tushuncha tafakkur shaklidir.

Tushuncha ob'ektiv xarakterga ega.

Analogiya (grek. - moslik, o'xshashlik) bevosita xulosa chiqarishning bir turidir. Deduktiv xulosa chiqarishda fikr umumiylikdan xususiylikka qarab,

induktsiyada xususiylikdan umumiylikka qarab harakatlansa, analogiyada esa bir xususiy holatdan boshqa xususiy holatga qarab harakatlanadi.

Analogiyada predmetlarning o'xshash xossalari asoslanib xulosa chiqariladi. Tabiat va jamiyatda ob'ektiv turli-tumanlik bilan bir qatorda, ob'ektiv o'xshashlik ham mavjuddir. Ular inson ongida o'z ifodasini topadi. Ob'ektiv reallikning turli sohalariga oid qonun va qoidalar tuzilishi jihatidan o'xshash bo'lsa, ular aks ettirgan voqelikdagi turli narsa va hodisalar ham ma'lum ma'noda o'xshash bo'ladi.

Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish ob'ektiv reallikning cheksiz ko'rinishlari hamda unda mavjud bo'lgan turli sistemalarning xossalari, munosabatlari, strukturalaridagi o'xshashliklarga asoslanadi. Masalan, sayyoralar, davlatlar, ijtimoiy tuzumlar mohiyatida o'xshashlik bor. Bilishda muhim va nomuhim xossalar o'xshashligi asosida analogiya bo'yicha xulosa chiqariladi.

Analogiya vositasida bir predmetdan (modeldan) boshqa predmetga (prototipga) axborot o'tkaziladi. Xulosa asoslari modelga, xulosa prototipga taalluqli bo'ladi. Masalan, qadimgi greklarning «Dedal va Ikar» afsonasida aytilishicha, ota va bola qullikdan ozod bo'lish uchun o'zlariga qanot yasashadi va uchib ketishadi. Bunda xulosa chiqarish quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Qush tirik mavjudot, uning qanoti bor, u uchadi.

Inson ham tirik mavjudot, uning qanoti yo'q, u uchmaydi.

Insonning ham qanoti bo'lsa, u, ehtimol uchadi.

Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish boshqa xulosa chiqarishlar kabi asoslardan, xulosadan va asoslar hamda xulosa o'rtasidagi mantiqiy aloqadan iboratdir. Uning xulosasi ehtimoliy shaklda bo'lib, keyingi tekshirishlarni talab qiladi. Aniq asoslardan ba'zan aniq, ba'zan ehtimoliy xulosa chiqadi.

Analogiya o'zining ob'ektiv asosiga ega. Bular predmetlar, ularning xossalari o'rtasidagi aloqalar va munosabatlardir.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Formal mantiq deganda nimani tushunasiz?
2. Mantiq qonunlari nimani o'rgatadi?
3. Tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari nimada?
4. Yetarli asos qonunini tushuntirib bering.
5. Tushnchani qanday turlari bor?
6. Hukmning qanday turlari bor?
7. Xulosa chiqarish deganda nimani tushunasiz?
8. Analogiya nima?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.

3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

8-Mavzu: JAMIYAT FALSAFASI

REJA:

1. Jamiyat tushunchasining mohiyati va uning rivojlanish bosqichlari
2. Jamiyat rivojlanishining iqtisodiy asoslari. Jamiyat rivojining siyosiy asoslari. Fuqarolik jamiyati, davlat boshqaruvi va demokratiya
3. Jamiyat rivojining ma’naviy asoslari. Jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy asoslari. Ijtimoiy birliklar va guruhlar
4. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi va yangilangan konstitutsiyaning ijtimoiy ong transformatsiyasiga ta’siri

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR:

Jamiyat, jamiyat sohalari, iqtisodiy soha, xususiy tadbirkorlik, siyosiy soha, fuqarolik jamiyati, jamoat birlashmalari, ma’naviy kamolot, ishlab chiqarish kuchlari, ijtimoiy guruhlar, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, Yangi tahrirdagi Konstitutsiya

1.Falsafaning ijtimoiy falsafa deb nomlanadigan bo‘limi jamiyatni, uning tuzilishi va tarkibini hamda mohiyatini tadqiq etadi. **“Jamiyat”** so‘zi arabcha ja’ma so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, *ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida, ongga, til va nutqqa ega bo‘lgan, bir-birlarining ijtimoiy yordami, ko‘magiga ehtiyoj sezuvchi insonlar ijtimoiy uyushmasining eng umumiy ilmiy-falsafiy atamasidir.*

Sorokinning fikricha, «jamiyat mavjud bo‘lishi uchun hech bo‘lmasa ikki kishi bo‘lishi va ular bir-birlari bilan o‘zaro ta’sir bog‘lanishida bog‘langan bo‘lishi kerak. Bu eng oddiy jamiyatning ko‘rinishidir...»².

Falsafada *jamiyat* kishilarning tarixan qaror topgan birgalikdagi faoliyatlari yig‘indisi, borliqning tabiatdan ajralib chiqqan, mohiyatan va mazmunan nihoyatda murakkab qismi, deb qaraladi. «Jamiyat» tushunchasi quyidagi ma’nolarni qamrab olgan:

1. Jamiyat tushunchasida nafaqat hozir yashab turgan kishilarning faoliyatlari, balki ularning o‘tmishi hamda kelajak avlodlar hayoti, ya’ni insoniyat tarixining ilk boshlanishidan tortib uning kelajagigacha barcha jihatlar aks etadi.

² Цитата. Социология. М., 1995. 144-бетдан олинган.

2. Bu tushunchada muayyan xildagi jamiyatlarning o'ziga xos jihatlari ham ifodasini topadi. Masalan, umuman antik davr jamiyati, «yevropacha», «osiyocha» jamiyat va hokazolar.

3. Mazkur tushunchada bir-biriga bevosita bog'lanmagan holda mavjud bo'lgan jamiyatlar ham ifodalanadiki, bunda ularning makon va vaqt bilan aloqador jihatlari e'tiborga olinadi. Bularga misol tariqasida qadimgi saklar, O'rta Osiyo jamiyatlari, yaqin Sharqdagi arab jamiyatlari yoki G'arbiy Yevropadagi jamiyatlar va boshqalarni olish mumkin.

Ijtimoiy aloqalarning mohiyatini aniqlash va tushuntirib berish – jamiyat falsafasining asosiy vazifasidir. Aflotunning fikricha, jamiyat odamlarning ehtiyojidan paydo bo'ladi. Arastu uni «tabiatning hosilasi», o'rta asr falsafasi – Alloh yaratgan degan fikrni olg'a suradi. Forobiy jamiyatning paydo bo'lishini teleologiya oldindan belgilangan maqsadga muvofiq nuqtai nazardan tushuntiradi – jamiyat odamlarning komillikka erishishi uchun zarur, deb hisoblaydi.

Nemis faylasufi *Maks Veber* (1864-1920) fikricha, jamiyat insonlarning o'zaro ta'siridan, ya'ni ijtimoiy xatti-harakatlardan tashkil topgan tizim bo'lib, boshqa odamlarning xatti-harakatiga qarshi javob tariqasida yo'naltirilgandir. M.Veber jamiyat rivojining asosini ijtimoiy faoliyatda, deb hisoblaydi. Amerikalik sotsiolog va ijtimoiy falsafa bo'yicha mutaxassis – faylasuf *Talkott Parsons* (1902-1979) fikricha, jamiyat qadriyatlar va me'yorlar bilan bog'langan odamlarning munosabatiga asoslangan tizimdir. Inson shularga asoslanib o'z ijtimoiy faoliyatini amalga oshiradi.

Eng keng ma'noda, *jamiyat – bu odamlar birlashuvining hamma shakllari va ularning o'zaro aloqalari va o'zaro ta'sirlarining hamma usullari majmuidir.*

Ijtimoiy muammolarga *islomiy* qarashlarda ilohiy ta'limotlarga asoslaniladi. Islomda taqdirga bo'ysunish, sabr-toqatli bo'lishga da'vat etiladi. Islomning geografik jihatdan keng tarqalishi uning hududlarga xos bo'lgan ko'rinishlari paydo bo'lishiga olib kelib, bu hududlarda ijtimoiy masalalar u yoki bu holatlarga bog'liq holda talqin etildi. Islom faqat o'ziga xos turmush tarzi, «inson borlig'ining hamma tomonlariga chuqur ta'sir qiluvchi»⁹ din sifatida maydonga chiqadi. Islom ta'limotida musulmonning ijtimoiy va shaxsiy hayotining hamma tomonlari aniq ko'rsatib berilgan. Shuning uchun ham an'anaviy islom bilan zamoniylashgan islom o'rtasida ziddiyatlar mavjud. Bu muammolar hamma boshqa dinlarda ham mavjud bo'lib, islomda esa, keskin tus olgan.

Jamiyat rivojlanishini idealizm nuqtai nazaridan tushuntirib berish antik davrga – *Fukidid* va *Geradot* yashagan davr (mil. av. V asr) ga to'g'ri keladi. *Aflotun* («Davlat», «Qonunlar» va boshqa asarlarida) jamiyat to'g'risidagi idealistik ta'limotni keng rivojlantirgan. *Etatik* an'ana undan boshlanib, unga asosan jamiyat bilan davlatni aynan bir deb tushuntirishga harakat qilingan. Aflotun o'zining uch ijtimoiy sinfdan iborat ideal davlatning modelini ishlab chiqqan: «faylasuflar» («donishmandlar») davlatni boshqaradilar; «lashkarlar» («qo'riqchilar») qo'riqlaydilar, ozod mehnatkashlar (dehqonlar, hunarmandlar),

⁹ Ф.М.Денни. Ислам и мусульманская община//Религиозные традиции мира. 144-б.

shuning-dek qullar (ular jamiyat va uning tizimdan tashqaridalar) mehnat qiladilar. Aflotun ijtimoiy taraqqiyotning antik idealistik talqiniga asos soldi.

Jamiyatning an'anaviy talqiniga Sharq mutafakkirlari o'z hissalarini qo'shganlar. Bunga *Forobiy*ning «Fozil odamlar shahri», *Beruniy*ning «O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar», *Yusuf Xos Xojib*ning «Qutadg'u bilig», *Navoiy*ning «Payg'ambarlar va donishmandlar tarixi», Amir Temurning «Tuzuklari», *A.Jomiy*ning «Iskandarning donishmandlik kitobi» va boshqa asarlarni misol qilib keltirishning o'zi kifoya qiladi.

Jamiyat haqidagi idealistik talqin rivojiga *T.Gobbs* va *J.Lokk* (ijtimoiy kelishuv shartnomasi nazariyasi), *J.Viko* («millat harakati to'g'risida»gi ta'limot), *Volter* (hamma insonlarning boshdanoq siyosiy tengligi to'g'risidagi g'oya), *I.Kant* («abadiy dunyo» to'g'risidagi ta'limot) o'z hissalarini qo'shdilar. Jamiyatning tugallangan idealistik talqinini *Gegel* falsafasida o'zining to'liq aksini topdi. Uning asarlari deyarli to'laligicha ijtimoiy muammolarga bag'ishlangan. *Gegel* ularda «jamiyat» tushunchasining «davlat» tushunchasidan kengligini aniq va tushunarli shaklda bayon etib berdi. *Fuqarolik jamiyati*, ya'ni bevosita davlat boshqarmaydigan sotsium to'g'risidagi g'oya aynan *Gegel* tomonidan ilgari surilgan.

Yangi davrda tabiiy fanlarning va mexanik-materialistik g'oyalarning rivojlanishi ham ijtimoiy taraqqiyotni materialistik asosda tushuntirish to'g'risidagi bilimlarning shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu jarayonga XVIII asr *fransuz materialistlari* katta hissa qo'shdilar. Ijtimoiy rivojlanishning materialistik talqini *K.Marks* va *F.Engels*larning «Kapital», «Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi», «Nemis mafkurasi», «Falsafa qashshoqligi», «Muqaddas oila» asarlarida keng yoritilgan. Ular «ijtimoiy borliq», «ijtimoiy ong» kabi falsafiy tushunchalarini asoslab berib, birinchisini ikkinchisiga nisbatan birlamchi ekanligini ta'kidladilar. Ijtimoiy rivojlanishning asosini ijtimoiy ishlab chiqarish tashkil qilishi tushuntirib berildi. Jamiyat rivojlanishining tarixiy bosqichlarida ma'lum bir moddiy ishlab chiqarish usuli yotishi, bu esa *ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya* sifatida ifodalanib, insoniyat jamiyati tarixi esa formatsiyalarning ketma-ket almashinuvidan iboratdir.

2.Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va ijtimoiy sohalari farqlanadi.

Iqtisodiy sohaga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. U tor ma'noda «turli predmet va xizmat turlarini ishlab chiqarish, taqsimlash, almashtirish va iste'mol qilish» deb tushuniladi¹⁰. Shu ma'noda aytish mumkinki, «jamiyatning iqtisodiy soha»si tushunchasi «bazis» tushunchasiga mos keladi. Keng ma'noda esa iqtisodiy soha deganda barcha ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni tushuniladi: ishlab chiqarish usuli, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining birligi, shuningdek iqtisodiyotning o'zaro aloqadorligi va o'zaro ta'sirlari yig'indisi. O'ta keng kategorial ma'noda sotsiumning iqtisodiy sohasi «tabiat bilan insonlar o'rtasida individ va kishilar guruhining ongli faoliyati orqali o'zaro aloqalarini» aks ettiradi¹¹.

¹⁰ Социальная философия. М., 1995., 36-б.

¹¹ Философия. М., 1995. 209-б.

Iqtisodiy soha asosida insonning ishlab chiqarish va mehnat faoliyati yotadi. Uning zarurligi insonning ehtiyojlari hayvonning ehtiyojlaridan tubdan farqlanishi bilan belgilanadi. Inson rivojlanishi bilan tabiatdan ajraladi. Bu jarayonda esa, jamiyatning iqtisodiy sohasi taraqqiyoti muhim rol o'ynaydi. «Xususiy mulk» tushunchasi iqtisodiy tushunchalarning eng muhimlaridan hisoblanadi. Jamiyatning iqtisodiy sohasida *ishlab chiqarish kuchlari* va *ishlab chiqarish munosabatlari* muhim tuzilmaviy qismlari hisoblanadi. *Iqtisodiy munosabatlar kishilar o'rtasida ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish va ne'matlarni iste'mol qilish jarayonlarida shakllanadigan iqtisodiy munosabatlardir.* Ishlab chiqarish kuchlariga moddiy ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lgan «sub'ektiv (inson) va moddiy (texnika va mehnat qurollari) elementlar tizimi kiradi»¹².

Hatto eng yuqori darajadagi texnika va texnologiya rivojiga qaramay, baribir moddiy ishlab chiqarish va ma'naviy qadriyatlarni yaratuvchi inson ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lib qoladi. Fanning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanganligi insonga, ishchiga qo'yiladigan talablarni qayta ko'rib chiqishni taqozo qiladi. Hozirgi davrda ishchi nafaqat o'zining malakali kasbi, hunariga ega bo'lishi kerak, balki u doim o'zining malakasini oshirib, bilimlarini chuqurlashtirib borishi kerak. Masalan, Yaponiyada yaqin kelajakda umumiy, oliy ta'lim tizimiga o'tish mo'ljallangan, chunki ishchilarga nisbatan talablar kuchayib ketgan.

Hozirgi davrda bozor munosabatlari dunyodagi barcha mamlakatlar xo'jalik faoliyatining asosini tashkil qilmoqda. Lekin bozor iqtisodiyoti har bir mamlakatda uning o'z andozasi bo'yicha rivojlanadi. Bu rivojlanish birinchidan o'sha mamlakatning milliy xususiyatlari va odatlari hisobga olinsa, boshqa tomondan, erkin raqobatning darajasi bilan uning davlat tomonidan qay darajada boshqarilishi, ijtimoiy yo'naltirilganlik darajasi, shuningdek, hal etilayotgan makroiqtisodiy muammolar ustivorligiga bog'liq bo'ladi. Masalan, «amerikacha» modelga kuchli erkin raqobat xos bo'lsa, «yaponcha», «fransuzcha» modellari uchun davlatning xo'jalik ishlarida faol qatnashishi; «nemischa», «shvedcha» modellarda esa, ulkan ijtimoiy yo'naltirishlik muhimdir. Rivojlanayotgan davlatlarda esa asosiy e'tibor iqtisodiyotni barqarorlashtirish, byudjet taqchilligini keskin kamaytirish, iqtisodiyotni erkinlashtirishga qaratiladi. Janubiy-SHarqdagi yangi industrial mamlakatlar (Singapur, Janubiy Koreya, Tailand, Gonkong) uchun kuchli davlat mavqeini saqlash, import o'rnini bosish strategiyasini saqlagan holda eksportni rag'batlantirish bozor xususiyati hisoblanadi.

Jamiyatning siyosiy sohasi (yoki sodda qilib aytganda - siyosat) sotsium tuzilmasining asosiy qismlaridan biridir. Keng ma'noda «siyosat» va «siyosiy soha» tushunchalari bir-biriga mos keladi. Tor ma'noda *siyosat deganda odamlarning, siyosiy kuchlarning hokimiyatga egalik qilishi, uni saqlab turish, mustahkamlash va amalga oshirishga qaratilgan ongli xatti – harakati tushuniladi.* Jamiyatning har bir a'zosi ma'lum bir darajada: davlatning fuqarosi sifatida, siyosiy partiya yoki ijtimoiy-siyosiy tashkilotning a'zosi sifatida, mehnat jamoasi yoki jamoatning a'zosi sifatida siyosiy soha bilan bog'liqdir.

¹² С.Э.Крапивенский. социальная философия. М., 1998. 95-б.

Hozirgi zamondagi ijtimoiy-falsafiy fikrlarga binoan siyosat «davlat hokimiyati va shu jamiyat ichidagi davlat (shu jumladan, milliy davlat) tuzilmasi bo'yicha katta ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi, shu jumladan, xalqaro maydonda davlatlar o'rtasidagi munosabatlar»¹³ sohasi sifatida tushuniladi. Keng ma'noda jamiyatning siyosiy tizimiga siyosiy faoliyat, siyosiy rejim, siyosiy nazariya va boshqalar kiradi. Tor ma'noda esa siyosiy soha jamiyat siyosiy tizimining sinonimi sifatida tushuniladi.

Jamiyatning *siyosiy tizimi* sotsiumning asosiy qismi hisoblanadi. U boshqa tizimlar – iqtisodiy, mafkuraviy, huquqiy, ma'naviy va boshqa tizimlar bilan o'zaro aloqadorlikda va ta'sirda bo'ladi.

Jamiyat siyosiy tizimining asosi, poydevori *davlatdir*. Davlatning asosiy vazifasi siyosiy hokimiyat va siyosiy boshqarishni ta'minlashdir. Hozirgi vaqtda ko'p zamonaviy davlatlar *hokiyamiatni bo'lish* asosiga qurilgan. Hokimiyatning uch tarmog'i – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati bir-birlariga halaqit bermay, bir-birlarining ishlariga aralashmay o'z vazifalarini bajaradilar. Jamiyat siyosiy tizimining boshqa elementlari – siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlar *bilvosita siyosiy institutlar* deb ataladi¹⁴.

Fuqarolik jamiyati fuqarolarning boshqaruv jarayonida real ishtirokini, davlat faoliyati ustidan ularning nazoratini ta'minlashga layoqatli nodavlat ijtimoiy tashkilotlarning yig'indisidir. Fuqarolik jamiyati - haqiqiy fuqarolardan, ya'ni uzviy bog'liklikda bo'lgan hamda axloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir.

Fuqarolik jamiyati - insonning yalpi huquqlari kafolatlanadigan, mafkuraviy plyuralizm ta'minlanadigan jamiyat tuzilishi bo'lib, davlat organlaridan tashqaridagi siyosiy partiya va jamoat tashkilotlaridan tashkil topgan jamiyatdir. O'zbekiston milliy mustaqilligining dastlabki yillaridanoq yurtimizda fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Fuqarolik jamiyatida davlatning qator vazifalari fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari qo'lga o'ta boshlaydi, mahalliy hokimiyat organlarining vakolati kengayadi. Fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish kishilarning yuksak siyosiy va huquqiy madaniyati, ijtimoiy-siyosiy faolligiga tayanadi.

“Fuqarolik jamiyati” va “huquqiy davlat” tushunchasi birgalikda XVIII asrda paydo bo'lgan. Odamlar hayoti va faoliyatining ikki tomoni: ularning shaxsiy manfaatleri, tashabbusi, ixtiyoriy faoliyati jabhasi va odamlar xulq-atvori davlatning xohish-irodasiga bo'ysunuvchi xalq hokimiyati jabhasi shu tushunchalar bilan ifodalandi.

Yetuk fuqarolik jamiyatisiz huquqiy demokratik davlat qurish mumkin emas, chunki ongli erkin fuqarolargina kishilik jamiyatining eng oqilona shakllarini yaratishga qodirdirlar. SHunday qilib, fuqarolik jamiyati erkin individ va markazlashgan davlat xohish-irodasi o'rtasida bog'lovchi bo'g'in hisoblansa, davlatning vazifasi parchalanish, tartibsizlik, tanglik, tanazzulga qarshi ish ko'rish,

¹³ С.Э.Крапивенский. Социальная философия. М., 1992, 191-6.

¹⁴ Р.З.Жумаев. Политическая система республики Узбекистан: становление и развитие. Т., 1996, 101-6.

erkin shaxsning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Huquqiy davlat – bu shunday bir davlat hokimiyatidirki, u huquq normalariga binoan, va ularning doirasida ish ko'radi, bu normalarni buzish, bekor qilish yoki cheklashga jur'at etmaydi, fuqarolar va ularning birlashmalarining uzviy tabiiy-tarixiy huquqlarini e'tirof etadi.

Fuqarolik jamiyatining xavfsizligi (jamoat xavfsizligi) quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanishi mumkin:

-ijtimoiy adolat; -davlat bilan o'zaro munosabatlarda fuqarolarning va umuman jamiyatning huquqlari; - qonuniylik tartibi; - fuqarolarning iqtisodiy farovonligi;

- demokratik plyuralizm; - jamiyatning ochiqligi; - fuqarolik jamiyatining milliy jihatdan muayyanligi.

Fuqarolik jamiyatining yuzaga kelishi inson huquqlari va fuqaro huquqlarining farqlanishini belgilab berdi.

Inson huquqlarini fuqarolik jamiyati, fuqaro huquqlarini – davlat ta'minlaydi. Ikkala holatda ham shaxs huquqlari to'g'rsida so'z yuritiladi, biroq birinchi holatda ayrim inson sifatidagi shaxsning yashash, erkinlik huquqlari nazarda tutilsa, ikkinchi holatda – uning siyosiy huquqlari nazarda tutiladi.

Fuqarolik jamiyati tuzilmalari «yuqoridan» turib emas, balki «quyidan», fuqarolarning tashabbusi bilan, ixtiyoriy asosda, tabiiyki, muassislarning manfaatlari, qiziqishlari va moyilliklariga muvofiq tuziladi. Ularning erkinligi davlat tuzilmalariga qaram emaslikda, ichki qoidalar bilan nazarda tutilgan vazifalarni hal qilishga qaratilgan o'zini o'zi boshqarish faoliyatida namoyon bo'ladi.

Fuqarolik jamiyatining eng muhim omillari:

- 1) iqtisodiy erkinlik, mulk shakllarining rang-barangligi, bozor munosabatlari;
- 2) inson va fuqaroning tabiiy huquqlarini so'zsiz e'tirof etish va himoya qilish;
- 3) hokimiyatning qonuniyligi va demokratik xususiyati;
- 4) qonun va odil sud oldida hammaning tengligi, har bir shaxsning yuridik jihatdan ishonchli himoyalanganligi;
- 5) hokimiyatning uchga bo'linishi va hokimiyatlarning o'zaro aloqasi prinsipiga asoslangan huquqiy davlat;
- 6) siyosiy va mafkuraviy plyuralizm, konstruktiv muxolifatning mavjudligi;
- 7) so'z va matbuot erkinligi, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi;
- 8) fuqarolarning shaxsiy hayotiga davlatning aralashmasligi, ularning o'zaro majburiyatlari va burchlari;
- 9) sinfiy va milliy totuvlik, ijtimoiy sherikchilik;
- 10) odamlarning munosib turmush darajasini ta'minlovchi samarali ijtimoiy siyosat.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy mezonlaridan biri - bu uning huquqiy negizini yaratishdan iborat bo'lganligi bois, birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevorini o'rnatishga, uning asosiy qoida va talablarini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi huquqiy normalarining o'z ifodasini topishiga alohida e'tibor berildi.

Fuqarolik jamiyati sharoitida fuqarolik jamiyati institutlari asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlar tushunchalari deyarli bitta ma’noni bildiradi.

Hozirgi davrda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, huquqiy davlat qurish vazifalari nodavlat notijorat tashkilotlarni yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda. Fuqarolik jamiyati sharoitlarida fuqarolarning turli tuman o‘zaro munosabatlari va hamkorligi, ularning ixtiyoriy ravishda jamiyat boshqaruvida ishtirok etishi jarayonlari asosan nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Davlat bilan jamiyatning bir-birlaridan begonalashmasligi ham nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining rivojlanishi bilan bog‘liqdir.

3. Jamiyatning ma’naviy sohasi ko‘pincha madaniyat bilan tenglashtiriladi. Bunday tenglashtirish unchalik to‘g‘ri emas, chunki madaniyat faqatgina ma’naviy bo‘lmagan moddiy xususiyatga ham egadir. Buning ustiga, madaniyat integral xususiyatga ega bo‘lib, jamiyatning hamma tomonlari (iqtisodiyot sohasi iqtisodiy va moddiy madaniyatni, siyosat sohasi siyosiy madaniyatni o‘z ichiga oladi va boshqalar)ga kirib boradi. Moddiylik va ma’naviylik bir-biriga qarama-qarshi tomonlar (antitez) bo‘lmagan, ular bir-birga o‘zaro ta’sir qiluvchi va o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi ijtimoiy rivojlanish omillaridir. U yoki bu xalq ma’naviyatining shakllanishi, shu xalqning yashaydigan tabiiy-iqlimiy sharoitlari, ularning u yoki bu darajada rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Shuni aytish kerakki, ma’naviyat dunyoviy va diniy bo‘lishi mumkin. Lekin ma’naviyatni faqat dinga bog‘lash ham mumkin emas. Hatto o‘rta asrlarda, din hukmron bo‘lgan davrlarda ham ilg‘or fikrga ega bo‘lgan mutafakkirlar ma’naviyatni diniylikdan farq qilishini va undan kengroq ma’noga ega ekanligini qo‘rqmasdan ta’kidlaganlar. Masalan, Ibn Sino o‘zining buyuk asari «Donishnoma»da ma’naviylikni substansiya (moddiy substansiya bilan birga)ning ko‘rinishlaridan biri, deb ta’riflaydi. O‘rta asr mutafakkirlarini ateistlar deb atash mumkin emas. Lekin ular ma’naviyatni diniylikdan keng mazmunga ega deb o‘ylaganlari haqiqat. Ma’naviylik va diniylik tushunchalarini ajratish tendensiyasi markaziy osiyolik ma’rifatparvarlar ijodida keyinroq paydo bo‘ldi. Markaziy Osiyo mutafakkirlari din va uning qadriyatlariga o‘z e’tiborlarini qaratish bilan birga, ular davr uchun sof diniylikdan tashqari universallik (umumiylik) ham zarurligini tushunib etdilar.

Zamonaviy jamiyat nafaqat texnologiya va iqtisodiyot, balki yuksak darajaga ega bo‘lgan ma’naviylikdan ham iboratdir. *Ma’naviy soha – bu ma’naviy ishlab chiqarish (keng ma’noda tushunilganda), uning jarayoni va natijalarining birligidir.* U san’at, fan, falsafa, axloq, huquqiy va siyosiy ong, dindan iboratdir. Mazkur barcha ijtimoiy hodisalar jamiyat ma’naviy sohasining elementlarini (aniqrog‘i kichik tizimlarini) tashkil qiladi.

Ma’naviyatni tushunishning yana bir yo‘nalishi mavjuddir. Odatda «ma’naviyat» tushunchasi insonning hayvondan farqini bildiruvchi aql va irodasini ifodalaydi. Shaxs irodasining ma’naviy kuchi uning qobiliyati orqali ifodalanadi. Zamonaviy mazmunda *ma’naviyat – oliy ma’naviy qadriyatlar* sifatida qabul qilinadi. Uning asosiy kategoriyalari Haqiqat, Ezgulik, Go‘zallikdir. Ma’naviyatsizlik esa ezgu maqsad va qadriyatlarning bo‘lmisligi bilan ifodalanadi.

Etimologik nuqtai nazardan «ijtimoiy» degan soʻz «jamiyat» atamasi bilan sinonimdir. U keng maʼnoda «jamiyatning ijtimoiy sohasi»ni belgilaydi. SHu jihatdan jamiyatning hamma sohalar – iqtisodiy, siyosiy, maʼnaviy sohalar ijtimoiy sohalar deyiladi. Biroq shu bilan birga jamiyatning alohida *ijtimoiy sohasi* boʻlib, u – *har xil ijtimoiy guruhlar, turli darajada uyushgan elatlar* (ijtimoiy qatlam, strategiya, etnoslar, ijtimoiy demokratik guruhlar, alohida jamoalar va boshqalar) *oʻrtasidagi munosabatlarni* ifodalaydi. Ijtimoiy munosabatlarning xususiyatlari shundaki, ular jamiyatning hamma sohalariga kirib borgan. Ularni faqat iqtisodiy, siyosiy yoki maʼnaviy munosabatlar, deb ajratish mumkin emas.

Shuni aytish mumkinki, ijtimoiy sohaning asosini *individdning ijtimoiylashuvi* tashkil qiladi, yaʼni bunga uning meʼyorlar, qadriyatlar, namunali xulq koʻrsatmalarini bajarishi kiradi. Agar iqtisodiy va maʼnaviy sohalarida individ moddiy va maʼnaviy boyliklarni ishlab chiqaruvchi va ehtiyojlarni taʼminlovchi boʻlsa, siyosiy sohada siyosatning obʼekti va subʼekti boʻlsa, ijtimoiy sohada esa ijtimoiy individdir, yaʼni u sotsiumning (jamiyatning) aʼzosi. Individ sotsiumga turli guruh va birlashmalar orqali aʼzo boʻlgani uchun turli guruh va birlashmalarning faoliyati ijtimoiy sohaning asosiy mazmunini tashkil qiladi. Ijtimoiy birlashmalar va guruhlar jamiyatning ijtimoiy tuzilishini (strukturasini) tashkil qiladi.

Jamiyat strukturasining quyidagi turlarini ajratish mumkin: demokratik, etnik, ijtimoiy-sinfiy, joylashishiga koʻra hududiy, kasbiy-maʼrifiy, konfessional tuzilish va boshqalar.

Har bir individ yoshligi yoki keksaligi, shaharlik yoki qishloqdan ekanligi, qaysi etnos, konfessiya vakili, sinf, kasbi va boshqa xususiyatlari boʻyicha turli xil tuzilmaga kiradi. Jamiyatning *demografik strukturasida* aholining tarkibini jinsi, yoshi, mehnatga yaroqliligi, aholining zichligi va umumiy soni, oʻsish darajasi, migratsiyaning xarakteri, sogʻligʻining holati aks etadi.

Jamiyatning *ijtimoiy-sinfiy strukturasiga* kelsak, u sinflar, qatlamlar, tabaqalar, stratlardan iboratdir. Sinflar deganda odamlarning katta guruhlarini tushuniladi, ular quyidagi sifatlari bilan farq qiladi: a) ijtimoiy ishlab chiqarish tizimidagi maʼlum oʻrni; b) ishlab chiqarish vositalariga munosabati; v) mehnat taqsimoti tizimidagi roli; g) foyda olish usuli; d) ijtimoiy boylikdagi ulushi bilan. Lekin bir qator guruhlar ham borki, ular sinflarga xos xususiyatlarga ega emas (ziyolilar, byurokratiya, lyumpenlar va boshqalar), shunga qaramay ular baribir ijtimoiy strukturaning elementi hisoblanadilar.

4. Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib oʻtgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini soʻzsiz taʼminlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yoʻnalishlarini belgilash ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda keng jamoatchilik muhokamasi natijasida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosida ishlab chiqilgan 2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. 2022–2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekiston

Taraqqiyot strategiyasi 7 ta yo‘nalish va 100 ta maqsaddan tashkil topgan. 7 ta yo‘nalish quyidagilar:

1. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
2. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
3. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash;
4. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
5. Ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
6. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
7. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Taraqqiyot strategiyasining har bir bosqichini amalga oshirishda jamoatchilik nazorati ishtirokining kuchaytirilayotgani ham e‘tiborga molik. Tabiiyki, bunday nazoratni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgani esa alohida diqqatga sazovor. Turli jabhalaru sohalarning raqamlashtirilishi, shuningdek, elektron platformalar tashkil qilinishining rejalashtirilishi, eng avvalo ushbu tashkilotlarning o‘z faoliyatida samaradorlikka erishishi uchun xizmat qilsa, boshqa tomondan aholining davlat organlari faoliyatidan qoniqish hissini shakllantirishga turtki bo‘ladi. Shuningdek, ushbu shaffoflik va ochiqlik jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirish imkonini ham beradi. Undan tashqari, barcha darajadagi davlat organlarining **xalq vakillari** – deputatlar oldidagi hisobdorligi ortayotganligi ham davlat organlari ustidan nazoratning kuchayishi, mutassaddilarning o‘z vazifalariga mas‘uliyat bilan yondashishlariga xizmat qiladi.

Qabul qilingan har qanday qonun, qaror va boshqa meyoriy hujjatlar vaqt o‘tib o‘z ta‘sirchanligini kamaytirishi, davrning yangi chaqiriqlariga mos kelmasligi mumkin. Shu jihatdan olib qaraganda, **2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston - 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi 158-son Farmoni bugungi davr chaqiriqlaridan kelib chiqib, hamda kelajak rejalarni belgilash uchun yangi huquqiy vosita sifatida e‘tirof etish va qabul qilish mumkin.**

Farmon bilan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi tasdiqlandi. Hujjatda quyidagi asosiy g‘oyalar aks ettirilgan:

- barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachada yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta‘lim, - - tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;
- aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;
- xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;
- mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta‘minlash.

«O‘zbekiston – 2030» strategiyasi doirasida o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan barcha maqsadlarga erishish, shuningdek, Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish ta‘minlanadi.

Hayot bir joyda to‘xtab turmaydi. Bugungi globallashib borayotgan dunyo insoniyatga yangi chaqiriqlar, tahdidlar va o‘zgarishlarni taqdim etmoqda. Bunday vaziyatda davr ruhiga mos rivojlanish, taraqqiy etgan davlatlar qatoriga qo‘shilish, turli tahdidlar ortib borishi sharoitida milliy xususiyatlarni saqlab qolgan holda rivojlanishni ta‘minlash kabi masalalardan kelib chiqib qonunchilikni zamon talablariga integratsiya qilish zarurati ortishi tayin. Shu jihatdan, asosiy qonunimiz hisoblangan Konstitutsiyani modernizatsiya qilish ehtiyoji tug‘ildi. Ehtiyojdan kelib chiqib, yangi tahrirdagi **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida (6 bo‘lm, 28 bob, 155 moddadan iborat) umumxalq ovoz berish orqali qabul qilindi.** “Konstitutsiyaning yagona manbai va muallifi xalq bo‘lishi kerak”, degan g‘oya loyihani ishlab chiqishda asosiy mezon vazifasini o‘tadi. Natijada esa aholidan 220 mingdan ziyod takliflar kelib tushdi va muhimi, ularning aksariyati qonun loyihasidan o‘rin egalladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasida “O‘zbekiston - ijtimoiy davlat” tamoyili mustahkamlanganligini alohida aytish zarur. Bosh qomusda davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq normalar 3 barobarga ko‘paytirilib, aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta‘minlash bo‘yicha davlatning majburiyatlari, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorini belgilashda insonning munosib yashashini ta‘minlash hisobga olinishi, kafolatlangan tibbiy yordam, davlatning ta‘limning barcha shakllariga g‘amxo‘rlik qilishi va o‘qituvchi maqomi Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Jamiyat deganda nimani tushunasiz?
2. Jamiyatning qanday sohalari farqlanadi?
3. Falsafa tarixida jamiyat to‘g‘risida qanday falsafiy ta‘limotlar yaratilgan?
4. Fuqarolik jamiyati deganda nimani tushunasiz, uning qanday belgilari mavjud?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

9-Mavzu: TARIX FALSAFASI, SIVILIZATSIYA VA MADANIYAT

REJA:

1. Tarix falsafasining tuzilishi, funksiyalari va tarixiy jarayon mazmunini belgilashga oid yondashuvlar
2. Sivilizatsiya tushunchasi va uning tiplari
3. Madaniyat tushunchasi, uning tuzilishi va ijtimoiy funksiyalari

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR:

Tarix falsafasi, tarixiy jarayon, sivilizatsiya, madaniyat, formatsion yondoshuv, sivilizatsion yondoshuv, moddiy madaniyat, ma'naviy madaniyat, lokal sivilizatsiya, madaniyatning vazifalari

1. Insoniyat bir necha ming yillik tarixga ega. Uning rivojlanish jarayonini tarix fani o'rganadi. Tarix yunoncha *Historian* so'zidan olingan bo'lib, o'tmish voqealar haqida hikoyalar, bo'lib o'tgan hodisalar degan ma'noni anglatadi. U insoniyat o'tmishining o'ziga xosligini va umuman ko'p xilligini manbaashunoslik va boshqa yordamchi fanlar tarixiy manbalari asosida o'rganuvchi ijtimoiy bilimlar majmuini tashkil etadi.

Tarixiy jarayonlarning falsafiy tahlili bilan *tarix falsafasi* yoki *istoriosofiya* shug'ullanadi. U mustaqil falsafiy fan sifatida o'zining predmeti, kategoriyalar apparati va metodologik yondashuvlariga ega. Ilk bor «tarix falsafasi» tushunchasini *Volter* qo'llagan. Nemis ma'rifatparvari *Iogann Gotfrid Gerder* (1744-1803) o'zining «Insoniyat tarixi falsafasiga doir g'oyalar» (1784) asarida ilk bor barcha xalqlarni o'z ichiga qamrab olgan yagona umuminsoniy kelajakka olib keluvchi tarixiy jarayonning birligi g'oyasini ilgari surdi. Jahon tarixiy jarayonini aynan shu tarzda anglashni u tarix falsafasining predmeti sifatida qaragan. Hozirgi davrga kelib, tarix falsafasi yoki istoriosofik bilimlar (jamiyat tarixining nazariy masalalari) tizimida uchta asosiy yo'nalish ajratib ko'rsatilmoqda. Bular: tarixiy jarayonni umumlashtirish (alohida «tarixlarni» yagona jahon tarixiga jamlash), tarixning ma'nosini axtarib topish va tarixiy bilish metodologiyasini yaratish¹⁵dan iborat.

Tarix falsafasining rivojlanishi jarayonida tarixiy bilishga doir bir qator metodologik yondoshuvlar vujudga keldi. Ularning ichida *monistik* va *plyuralistik*; *chiziqli* va *davriy*; *formatsion* va *sivilizatsion* konsepsiyalar kabi dioxotomik qarashlarni keltirish mumkin. *Monistik* yondoshuv doirasiga marksistik ta'limot va postindustrial jamiyat nazariyalarini kiritish mumkin. *Marksistik* ta'limot ijtimoiy rivojlanishning ustivor omili, deb ishlab chiqarish usulini tan oladi va shu tamoyil asosida insoniyat tarixi rivojini muqarrar, birining o'rnini boshqasi egallaydigan

¹⁵ Каранг: Философия истории. М., 1999, 15-6.

besh asosiy formatsiyalar (ibtidoiy jamoa tuzumi, quldorlik, feodalizm, kapitalizm va kommunizm)ga ajratadi. Ikkinchi ta'limot – *postindustrial jamiyat konsepsiyasi* texnikani insoniyat tarixining asosiy omili, deb hisoblaydi va jamiyat tarixini birining o'rnini keyingisi egallaydigan 3 ta bosqichga bo'ladi. Bular: an'anaviy (sanoatlashgungacha), sanoatlashgan va postsanoatlashgan (informatsion) jamiyatlar.

Plyuralistik yondoshuv insoniyat tarixining birligini inkor etib, o'zaro bog'liq bo'lmagan yoki kam bog'liq bo'lgan ko'plab o'zaro teng qadrli tarixiy tuzilmalar – sivilizatsiyalarning mavjudligini tan oladi, shu asosda insoniyat tarixi rivojlanishining yagona taraqqiyot jarayoni ekanligini inkor etadi.

Chiziqli (yoki progressistik - taraqqiyotparvarlik) yondoshuv namoyondalari tarixiy taraqqiyot g'oyasini jahon tarixiy rivoji dinamikasining asosini tashkil etuvchi umumiy qonun sifatida qabul qiladilar. Bunda muayyan mezonlarga binoan insonning barcha tabiiy imkoniyatlari ro'yobga chiqadigan hamda barcha ehtiyojlari qondirilishi mumkin bo'lgan mukammal jamiyatga yetishishning bosqichlari va davrlari belgilanadi. Bunday maqsadlar sifatida sotsialistik, kommunistik va boshqa utopiyalar ko'rsatiladi.

Chiziqli rivojlanish konsepsiyasiga muqobil bo'lgan *davriy (siklik) paradigma* namoyondalari insoniyat tarixining yagona tarixiy yoki abadiy maqsadga qarab rivojlanishni inkor etadilar. Ularning fikricha, tarix aylanma shaklda harakat qilib, oxir oqibat o'zining boshlang'ich holatiga qaytadi. Ushbu nazariyalar qatoriga madaniy-tarixiy yoki sivilizatsion yondoshuv ham kiradi. Unga binoan, insoniyat tarixi – har biri o'ziga xos shakllanish, rivojlanish va inqiroz bosqichlariga ega bo'lgan, o'zaro kam aloqador yoki umuman bog'liq bo'lmagan lokal sivilizatsiyalardan tashkil topadi.

Hozirgi davrga kelib, formatsion va sivilizatsion yondoshuvlar dixotomiyasi doirasidagi bahs-munozara keskin tus olmoqda. Ayniqsa, postsotsialistik makonda bir necha o'n yilliklar davomida hukmron bo'lib kelgan formatsion, marksistik yondoshuvning qiyinchiliklar bilan bartaraf etilishi yorqin namoyon bo'lmoqda.

Formatsion ta'limotga ko'ra, jamiyat quyi shakldan yuqori shakllarga, ibtidoiy jamoa tuzumidan quldorlik jamiyati orqali feodalizmga, undan kapitalizmga hamda eng oliy maqsad, insoniyatning «oltin» asri kommunizmga qarab harakat qiladi. Bir formatsiyadan ikkinchisiga o'tish yangi ishlab chiqarish kuchlari va eskirib qolgan ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasidagi ziddiyatlar hamda ixtiloflar natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy inqilob orqali sodir bo'ladi.

XIX asrning oxiri – XX asr o'rtalariga kelib, formatsion ta'limot nafaqat ijtimoiy nazariya bo'libgina qolmay, balki kuchli e'tiqodga tayangan *mafkuraviy ta'limot* darajasiga ko'tarildi. Rossiyada 1917 yil Oktyabr inqilobi va ayniqsa, 1945 yildan so'ng, «real sotsializm» deb atalmish mamlakatlarning rasmiy mafkurasiga aylandi.

Hozirgi davr, ayniqsa XX asr oxiri – XXI asrning boshlari jahon hamjamiyati hayotidagi *oqilona (tafakkurga asoslangan) ibtidoni* mustahkamlash, shuningdek, bu ibtidoni namoyon qilish mumkin bo'lgan tashkiliy shakllarini qidirib topishga yo'naltirilgan izlanishlar bilan harakterlanadi.

Insoniyatni ko'pchilik bilan kelishilgan holda qaror qabul qilish zarurati so'nggi yillardagi ijtimoiy amaliyot tomonidan isbotlanmoqda. Yugoslaviya va Iroqdagi urushlar natijasida jahon ijtimoiy fikri keskin bo'linib ketdi. Ko'pchilik olimlar va siyosiy arboblarni bu voqealarni mavjud umumplanetar tizim – eng avvalo, BMT ning inqirozi sifatida baholadilar. Hozirgi paytda bug'xona (parnik) effektini beruvchi moddalarning ishlab chiqarishi muammosi ham keskin tus olgan. XXI asrga kelib ham ko'pchilik kishilar ochlik, oddiy tibbiy yordamning yo'qligidan halok bo'lmoqda. Insoniyat oldida shu va shularga o'xshash muammolarni umumbashariy muammo sifatida anglashi va uyushgan holda yangi tahdidlarga qarshi tura olishini hal etish vazifasi turibdi.

Global muammolarning paydo bo'lishi bilan bir qatorda umumbashariy tafakkur shakllanishining yana bir sababi *axborot-kommunikatsion texnologiyalardagi* inqilob bilan bog'liq. Internet mazkur texnologiyalarning yorqin namunasi sifatida, uning milliy-madaniy shakllarini yuvilib, global ongning shakllanishga olib kelmoqda. Internetda u yoki bu aksiya bo'yicha (masalan, Iroqda) turli so'rovlar sanoqli kunlarida bunday aksiyalarning ko'pmillionli elektron tarafdorlarini yoki aksincha, muholifatni aniqlashga yordam beradi. To'la kompyuterlashtirish va global axborot tizimiga ulangan sharoitda juda qisqa muddatda an'anaviy sotsiologik so'rovlarda bo'lgani kabi 1000 yoki bir necha ming kishining emas, Yer yuzidagi ko'pchilik kishilarning ijtimoiy fikrini o'rganish imkoniyatini beradi.

Kishilar, ijtimoiy guruhlar davlatlar va davlatlararo tuzilmalar o'rtasida «tushunish» va «ijtimoiy shartnoma»siz olamning yaxlitligiga, uni tafakkur va insonparvarlik asosida yaratishga erishish mumkin emas.

Shuning uchun ham bugun xalqaro huquq normalari va yangi «global etika», «global gumanizm», «oqilona qurilgan jamiyat» normalariga asoslangan *yangicha xalqaro bitim* haqida tez-tez gapirilishi bejiz emas. 1986 yilda BMT doirasida asos solingan *xalqaro xavfsizlik tizimining* yaratilishi haqidagi masala kun tartibiga qo'yildi. Uning mazmun-mohiyati faqat urush xavfining oldini olish bilangina emas, balki harbiy xarakterga ega bo'lgan boshqa muammolar: orqaga qaytarilmaydigan iqlimiy o'zgarishlar, tabiiy muhitning buzilishi, terrorizm, rivojlangan industrial mamalakatlarni va rivojlanayotgan mamalakatlarning iqtisodiy rivoji o'rtasidagi nomutanosiblik, AESlardagi avariya va h.klar bilan ham bog'liq. Hozir u yoki bu davlatlararo nizolarni hal eta oladigan Gaagadagi xalqaro sudga o'xshagan huquqlarni muhofaza etuvchi «*kelishuv institutlari*»ning keng tarmoqli tizimini tashkil etish masalasi dolzarb bo'lib turibdi. Avvaldan bo'lgan va hanuzgacha amaliyotda mavjud davlatlararo nizolarni «*kuchli tomon huquqi*» asosida hal etilishi e'tiborga olinsa, bunday g'oya, bir qaraganda, utopik xarakterga egadek ko'rinadi. Akademik N.I.Moiseev fikricha, «Davrimizning o'ziga xosligi shundan iboratki, kishilar, guruhlar, davlatlar manfaatlari doirasi tobora ko'proq bir-biriga mos keluvchi tarkibiy qismlar bilan kengayib bormoqda. Odamlar borgan sari bir-birlariga bog'liq bo'lib qolmoqdalar. Umuminsoniy qadriyatlar qaror topib bormoqda. Demakki kishilar o'rtasidagi, eng avvalo, davlatlararo

o‘zaro aloqalar ikki tomonlama manfaatli kelishuvlarni topishga qodir bo‘lgan murosalar institutlarining qonunlashtirilishiga qachondir olib keladi».¹

2. «Sivilizatsiya» tushunchasi (lot. civilize – fuqarolarga, davlatga xos) ilk bor XVIII asrda yevropalik ma’rifatparvarlarning asarlarida qo‘llana boshladi. U jiddiy evolyusiyaga yuz tutib, hozirgi paytgacha bir qancha ma’nolarda qo‘llaniladi¹⁶. Dastlabki davrlarda u tabiat olami tuzilishidan farqli ravishda *umuman insoniyatni*, uning ijtimoiy tuzilishini *anglatgan* va birlik shaklda ishlatilgan. Keyinchalik u *yovvoyilik* va *johillikdan keyin keluvchi* ijtimoiy rivojlanish bosqichini bildirgan. So’ngra u qadriyaviy xususiyat kasb etib, madaniyat tushunchasiga, ayniqsa, individual va ijtimoiy xulq-atvor normativlariga singib ketgan *ma’naviy madaniyat*, ya’ni kishilar, xalqlarning mentalligi ma’nosiga yaqinlashib qoldi. Amerikalik olimlar A.Kreber va K.Klakxan 1952 yilda «madaniyat» terminining 164 ta ta’rifini e’lon qildilar va ko‘p hollarda uni «sivilizatsiya» termini bilan bir qatorda qo‘llanilganligini qayd etdilar¹⁷. «Sivilizatsiya» va «madaniyat» tushunchalari ko‘pincha sinonimlar sifatida ishlatib kelindi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan sivilizatsiya tushunchasini butun bir xalqlar va mamlakatlarning rivojlangan holatiga, «*oliy darajadagi madaniy tuzilmalar*»ga tatbiqan, ko‘plik shaklida qo‘llanila boshlandi. 1861 yilda Zalsburgda insoniyat sivilizatsion rivojining rang-barangli nazariyasini, tarixga *madaniy-tarixiy yoki sivilizatsion yondoshuvni* shakllantira boshlagan madaniy-tarixiy maktab paydo bo‘ldi. N.Ya. Danilevskiy (1822-1865), O.Shpengler (1880-1936), A.Toynbi (1889-1975), P.A.Sorokin (1889-1968) va boshqalar ushbu maktabning mashhur namoyondalari edi. Ularning har biri «sivilizatsiya» terminiga o‘z talqinlarini berganlar: Danilevskiy – «madaniy-tarixiy tiplar», Shpengler – «Yetuk madaniyatlar», Toynbi – «Lokal sivilizatsiyalar», Sorokin – «Madaniy supersistemalar» g‘oyalarini ilgari surishgan. Ularning ichida eng ommaviylashgani «*lokal sivilizatsiyalar*» termini bo‘ldi.

Umuman olganda, madaniy-tarixiy yo‘nalish namoyondalari sivilizatsiyani odatda etnik chegaralar bilan mos tushmaydigan, etnoslararo xarakterga ega bo‘lgan madaniyat tiplari tarzida tushunganlar. Lekin etnoslararo sivilizatsiyalar muayyan madaniy markazlarning kuchli ta’siri ostida vujudga keladi. Xususan, Qadimgi Sharqqa nisbatan yaqin sharq, hind va uzoq sharq sivilizatsiyalari, Yevropaga nisbatan esa – antik sivilizatsiya haqida fikr yuritilib, ular mos ravishda Qadimgi Mesopotamiya, Shimoliy Hind, Xitoy va Gretsiya ta’sirida paydo bo‘lgan.

Sivilizatsion yondoshuvda *sivilizatsion ayniyat (identichnost) mezonlari*, ya’ni madaniyatning u yoki bu tipini qanday belgilar asosida aniqlanishi masalasi nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Shunga bog‘liq holda ularning soni, klassifikatsiyasi va o‘zaro aloqadorligi muammosi turlicha hal etiladi. Masalan, O.Shpengler sivilizatsiya shakllanishida dinning belgilovchi ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib, 8 ta buyuk madaniyatlar yoki sivilizatsiyalar nomini keltiradi. Bular:

¹ Н.Н.Моисеев. Экология, нравственность и политика//Вопросы философии. 1989. №5. 12-6.

¹⁶ Каранг: История Востока. М., 1999. Т.1, 17-19-бетлар.

¹⁷ A.Z.Kreber, Kluckhohn. Culture: A Critical Review of Concept and Definitions. N.-Y. 1952. p.291.

misr, bobil, hind, xitoy, appolon (YUnon-rim), arab (afsunkor), Meksika, g'arb (faust) madaniyatlari yoki sivilizatsiyalaridir¹⁸.

A.Toynbi sivilizatsion ayniylikning mezoni sifatida, din, tarix, til, an'ana va madaniyatni qabul qiladi hamda shu asosda 5 ta «jonli» sivilizatsiyalarni ajratadi – g'arb xristianligi orqali birlashgan g'arb jamiyati; janubi-sharqiy Yevropani Rossiya bilan birlashtirgan pravoslav-xristian jamiyati, Shimoliy Afrikadan tortib Buyuk Xitoy devori hududigacha bo'lgan – islom jamiyati, tropik-subkontinental Hindistondagi – hind jamiyati, Janubiy-SHarqiy Osiyoning subtropik va mo'tadil hududlarida shakllangan – Uzoq Sharq jamiyati¹⁹.

N.Danilevskiy 10 ta sivilizatsiyani yoki uning iborasi bilan aytganda, madaniy-tarixiy tiplarni farqlaydi. Bular: misr, ossuriya-bobil-finikiya-xaldey (qadimgi somiy), xitoy, hind, eron, yahudiy, yunon, rim, arab (yangi somiy), evropa (romano-german)²⁰ sivilizatsiyalaridir.

Sivilizatsion konsepsiya tarafdorlari rivojlanishning davriyligi nuqtai nazaridan turib, sivilizatsiyaning vujudga kelish, gullab-yashnash va halokati bosqichlarini ajratadilar. Uni o'simliklar, jonivorlar va inson hayoti davrlari bilan qiyoslab, sivilizatsiyalar «tug'iladi, rivojlanishning turli bosqichlaridan o'tadi, qariydi, so'nadi, halok bo'ladi», deb hisoblashadi. Umuman olganda, tarix, ularning fikricha, jahon tarixi miqyosida muayyan tarzda o'zaro aloqada bo'lgan, rivojlanib boruvchi lokal sivilizatsiyalar majmuini tashkil etadi, jahon sivilizatsiyasi esa, turli sivilizatsiyalarning o'zaro ta'siri natijasidir.

Shunday qilib, *sivilizatsiya* – tarixning madaniy-tarixiy konsepsiyasi nuqtai nazaridan, - *sotsiomadaniy asosga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi mamlakat va xalqlarning yirik hamda uzoq davom etadigan mustaqil umumiyati bo'lib, ularning o'ziga xosligi tabiiy, oxir-oqibat hayotning ob'ektiv sharoitlari, shuningdek, ishlab chiqarish usuliga bog'liq bo'ladi*. Bu umumiyatlar vujudga kelish, shakllanish, inqiroz va barham topish bosqichlarini bosib o'tdilar.

3. Yangi davrning uch ming yilligiga qadam qo'ygan hozirgi zamon madaniyatning mohiyati va tushunchasi haqida bosh qotirishda davom etmoqda. *Madaniyat* atamasi ko'p ma'nolarga ega – ekin ekish, qayta ishlov berish, asrash, avaylash, ma'lumot, ta'lim-tarbiya, taraqqiyot. Har qanday holatda ham, bu erdagi bosh masala shundaki, madaniyat o'ta darajada *ijtimoiy ko'rinishga* ega bo'lib, insonni boshqa barcha tabiiy-biologik dunyodan ajratib turadi. Madaniyat tarixi davomida uning barcha hodisalari va jarayonlari ijtimoiy fanlarning barcha majmuasi – falsafa, tarix, qadimshunoslik, jamiyatshunoslik, ruhshunoslik va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Oxir oqibatda, bu shunga olib keldiki, *madaniyatshunoslik* deb atalgan mustaqil integral ilmiy fan shakllandi.

Hozirgi zamon fanida madaniyatning 600 dan ko'proq ta'rifi mavjud. Eng umumiy ko'rinishda *madaniyat tushunchasi deganda odamlar hayoti va faoliyatini tashkil qilish shakllari va turlarida, hamda ular tomonidan yaratilgan moddiy va*

¹⁸ О. Шпенглер. Закат Европы. М., П., 1923. 16-6.

¹⁹ А. Тойнби. Постигание истории. М., 1921. 33-6.

²⁰ Н.Данилевский. Россия и Европа. М., 1991. 74-6.

ma'naviy qadriyatlarda o'z ifodasini topgan jamiyat va inson taraqqiyotining muayyan tarixiy saviyasi tushuniladi²¹.

Madaniyat – murakkab va ko'p vazifalarga ega tizimdir. Uning bosh vazifalari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Adaptatsion (moslashuvchanlik) vazifa. Uning tufayli inson muayyan tabiiy va ijtimoiy muhitga moslashishga imkon topadi. Agar madaniyat qancha yuqori bo'lsa, odatda, uning adaptatsion imkoniyati shuncha ko'p bo'ladi.

Ma'rifiy (evristik) vazifa. Uning mohiyati shundan iboratki, madaniy yutuqlar dunyoni bilish vositasi sifatida xizmat qiladi. Madaniyatning shunday qismi bo'lgan fan, butunlay ushbu vazifani bajarishga bag'ishlangan. Bu erda bilish ob'ekti sifatida tabiat, jamiyat va insonning o'zi xizmat qiladi.

Informatsion (Xabar etkazuvchi) vazifa. Uning vazifasi doirasiga ijtimoiy tajribani to'plash (jamg'arish), uni bir avloddan boshqasiga etkazish, ya'ni tarixiy vorislikni ta'minlash kiradi. Xabar etkazish faqat vaqtinchalik bo'lmasdan, balki makoniy xususiyatga (bir jamoa yoki guruhdan boshqasiga xabar berish va hokazo) ega bo'lishi mumkin.

Kommunikativ (munosabat o'rnatish) vazifasi. U xabar yetkazuvchanlik vazifasi bilan yaqindan bog'langan bo'lib nutq (til), ramziy qiyofa (san'at), belgilar (fan) vositasida amalga oshiriladi. Jamiyatning taraqqiyot darajasi qancha yuqori bo'lsa, bevosita aloqa shunchalik ko'p darajada bilvosita, ya'ni texnik vositalar yordamida (telefon, telegraf, internet va hokazolar bilan) amalga oshiriladi.

Me'yoriy (boshqaruvchilik) vazifasi. U o'z ifodasini ijtimoiy boshqaruvchilik (avvalo, huquqiy va axloqiy me'yorlar) tizimini shakllantirishda topadi. Bunda muayyan o'rinni norasmiy boshqaruvchilar bo'lgan urf-odatlar, marosimlar, an'analar ham egallaydi.

Qadriyatlilik (baholash) vazifasi. Insoniy hayot jarayonlarida qadriyatlarni tanlash ro'y beradi. Vaqti kelib, alohida olingan shaxs va ijtimoiy tajriba barcha zaruriy va foydali narsalarni ajratib olishga imkon bersa, bunday holatda qadriyatlar yo'nalishini qayta ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Bunday holatda nimalardir barham topadi, qandaydir narsalar paydo bo'ladi, nimalarir qayta shakllanadi.

Sotsializatsiya (ijtimoiylashuv) vazifasi. Bu madaniyatning bosh, tizim tashkil qiluvchilik vazifasidir. Insoniy hayot faoliyatining shakli sifatidagi madaniyatning o'ziga xos xususiyati aynan shunda o'z ifodasini topadiki, u insonga maksimal darajasidagi ijtimoiylik, jamoaviylik ko'rinishini ato etadi.

Madaniyat vazifalarining umumiy sharhi bir qator quyidagi madaniyatga oid qonuniyatlarni ifodalashga imkon beradi:

- madaniyat jamiyat hayotining tabiiy va sun'iy sharoitlariga (uning turi, xususiyati, kelib chiqishi, vazifalari, sub'ektlari va hokazo) bog'liqdir;
- jamiyat hayoti barcha tomonlarining taraqqiyoti, o'zgarishlari, mavjudligiga madaniyatning ta'siri;
- madaniyat taraqqiyotida vorislik. U faqat xronologik bo'lmay, balki ko'p ko'lamli bo'lishi mumkin.

²¹ Қаранг: Гимопинов В.И. Культурология. Алмата 1997. 225-б.

- ikki jihatdan kelib chiqadigan madaniyat taraqqiyotidagi notekislik: tashqi tomondan (madaniyatning gullab yashnagan va inqirozli davrlari jamiyatning boshqa doiralaridagi xuddi shunday davrlariga muvofiq kelishi shart emasligi) va ichki tomondan (madaniyatning turli ko'rinishlari bir-biriga nisbatan notekis rivojlanishi);

-madaniy qadriyatlarning shakllanish jarayonida shaxsning o'ziga xos o'rni, ijodiy yagonaligi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Tarix falsafasi deganda nimani tushunasiz?
2. Sivilizatsiya tushunchasi o'zida nimani aks etiradi?
3. Lokal sivilizatsiyalar tushunchasining mazmun-mohiyati nimadan iborat?
4. Sivilizatsiya va madaniyat tushunchalarining o'zaro nisbati qanday?
5. Madaniyatning qanday turlari bor?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

10-Mavzu: INSON FALSAFASI (FALSAFIY ANTROPOLOGIYA)

REJA:

- 1.Falsafa tarixida inson mohiyatiga oid qarashlar tasnifi
- 2.Insonni tushunishga dualizm, monizm va fan nuqtai-nazaridan yondashuv
- 3.Ijtimoiy ongning strukturasi va funksiyalari
- 4.Hayotning ma'nosi va unda insonning vazifasi

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

Inson, shaxs, inson borlig'i, ong, tafakkur, til, miya, ijtimoiy ong, individual ong, inson hayotining ma'nosi, o'lim, manguilik

1.Falsafa tarixida inson mohiyatiga oid ko'plab qarashlar, ta'limotlar va yondoshuvlar vujudga kelgan. Sharq-musulmon falsafasi doirasida inson

muammosiga ikki xil yondashuvni ko'rish mumkin. Ulardan biri ko'proq taqdir haqidagi islom aqidasi suyanadi. Inson taqdiri oldindan belgilab qo'yilgan, shu sababli insonning qo'lidan keladigan birdan-bir ish - bu o'zini ana shu taqdirda belgilab qo'yilganidek tutish. Biroq, *Forobiy, Beruni, Ibn Sino, Alisher Navoi, Mirza Bedil*, XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi ma'rifatparvarlar - *Ahmad Donish, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Sattorxon Abdulg'afforrov* va boshqalar inson haqidagi gumanistik, ma'rifatparvar va demokratik konsepsiyaning shakllanishiga katta hissa qo'shdilar. Ularning ijodlari uchun insonga, uning kuchiga, aqliga, irodasiga ishonch xosdir, ular ommani ma'rifatli va bilimli bo'lishiga da'vat etdilar. Yangi davr falsafasi insonning mohiyati va o'z-o'zini anglashi muammolariga qaytishi bilan ajralib turadi.

Tomas Gobbs, mexanik materializm tarafdori o'laroq, insonning ruhiy dunyosi mexanik kuch-g'ayrat va harakatlar majmuasidan boshqa narsa emas, deb hisobladi. Uning fikricha, inson faqatgina murakkab tuzilgan mexanizmdir xolos, u mexanika qonunlariga bo'ysunadi. Gobbs ruhning alohida substansiya sifatida mavjudligini inkor etdi.

Rene Dekart insonning dualistik konsepsiyasini ishlab chiqdi. U inson o'lik mexanizm (tana) bilan irodaga va fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan substansiya (ruh)ning qo'shiluvidan tashkil topgan, deb hisobladi.

Benedikt Spinoza o'zining inson haqidagi ta'limotini insonning tabiatning bir qismi ekanligi, tana va ruhning birligi asosida yaratdi. Insonning butun ruhiy hayoti idrok va affektlar (quvonch, g'am, lazzat)dan iborat. Insonni harakatiga keltiruvchi kuch - o'zini saqlash va manfaatga intilishdir.

XVIII asr fransuz materialistlari *J.O.Lametri, K.A.Gelvetsiy, P.A. Golbax, D.Didro* va boshqalar inson haqidagi ta'limotini ishlab chiqishga katta xissa qo'shdilar. Buni hatto ularning asarlarining nomlari ham tasdiqlab turadi: Lametrining «Inson-mashina», Gelvetsiyning «Inson haqida» va hokazo.

Lametri ijtimoiy rivojlanishning asosiy sabablari ulug' shaxslarning faoliyati va ma'rifatdir, deb hisoblar edi. Didro insonni oliy qadriyat, koinotning idrok markazi, butun madaniyatning yaratuvchisi deb hisobladi. Golbaxning nazarida esa, inson tabiatning bir qismi, u tabiat qonunlariga bo'ysunadi. *Gelvetsiyning fikriga ko'ra, insonning shakllanishida atrof muhit asosiy rol o'ynaydi. U barcha odamlar o'z qobiliyatlari va imkoniyatlariga ko'ra tabiat tomonidan teng qilib yaratilgan, ularning qanday bo'lishi faqat tarbiyaga bog'liq deb hisobladi.*

XIX asr falsafiy fikrning inson haqidagi ta'limotni rivojlantirishdagi eng muhim yutuqlaridan biri - bu *Lyudvig Feyerbaxning* (1804-1872) falsafiy antropologizmidir. U inson mohiyati muammosini falsafasining «birdan-bir, universal va eng oliy» muammosi sifatida qaradi va birinchi planga olib chiqdi. Biroq Feyerbax, aslida, insonga biologik nuqtai nazardan qaraydi, uning ijtimoiy mohiyatini izohlamaydi.

Antropologik tamoyil (ya'ni, ob'ektiv olamni inson mohiyatining hosilasidan iborat bir narsa sifatida qarash) ekzistensializm, hayot falsafasi, falsafiy antropologiya, antroposotsiologiya, freydizm va boshqa ko'plab falsafiy va ijtimoiy oqimlarning asosida yotadi.

Ekzisensialistlar (*J.P.Sartr, A.Kamyu* va hokazo) falsafaning asosiy muammosi deb insonning mavjud bo'lishi masalalarini hisoblaydilar (Ekzistensiya). Inson faqat o'zini anglashi mumkin. *K.YAspers* yozganidek: «Mavjud bo'lish bilish demakdir va men ong sifatida mavjudman». Ekzistensializmning asosiy tamoyili - erkinlik tamoyilidir. Inson «ozod bo'lishga mahkum etilgan» (*J.P.Sartr*). Ijtimoiy hayotning tangliklaridan chiqishning yo'li - shaxsning individualistik borlig'ida. Insonning o'z diqqat markaziga qo'yuvchi yana bir oqim – «*falsafiy antropologiya*». Bu oqimning asoschisi - Maks Sheler (1874-1928) falsafaning asosiy masalasi «Inson nima?:» degan savoldan iborat deb hisobladi.

Freydizmga avstriyalik psixolog *Zigmund Freyd* (1856-1939) asos solgan. U shaxs tuzilmasida uchta asosiy qatlamni ajratib ko'rsatdi «U» ongosti, «Men» yoki «EGO» (ong), YUksak «Men» (yuksak ong).

Yangi davrga kelib ayrim olingan inson shaxsining qimmat, avtonomligi, o'ziga xosligi qaror topdi. Bu ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy fikr uchun xosdir. Ijtimoiy faollik, tadbirkorlik, ongli va foydali faoliyat, mustaqillik, individualizm, shaxsiy mas'uliyat, o'z qadr-qimmatini bilish tuyg'usi - mana bular shaxsning *g'arb, yevropa-amerika konsepsiyalari* yuksak qadrlanadigan sifatlari hisoblanadi.

Shaxsning sharq modeli esa boshqachadir. Shaxsning *sharqqa xos modelining* bir nechta modifikatsiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin (islom, budda, konfusiya va hokazo). Shunday bo'lsa-da, ular o'rtasida ularni shaxsning *g'arb* modelidan ajratib turuvchi muayyan mushtarakliklar mavjud.

Shaxsning sharq tipiga xos asosiy xususiyatlar quyidagilardir: mas'uliyat va majburiyatlarning inson huquqlari oldida ustuvorligi, xulq-atvordagi traditsionalizm, hulq-atvorning, jamoaviy modellarining individual me'yorlardan ustunligi, sotsiumga ko'proq qaramlik, ijtimoiy muhit bilan aloqaning ko'pligi.

Shuni esda tutish lozimki, shaxs tipi ijtimoiy munosabatlarning real tizimining in'ikosidir. Shaxsning shakllanishi va rivojlanishining muhim omili sifatida uning ijtimoiy faoliyati, sotsium hayotida muayyan rolni bajarishi namoyon bo'ladi. Individ shaxs sifatida faqat turli tuman ijtimoiy munosabatlardagina o'z-o'zini namoyon etishi mumkin. O'z vaqtida Arastu «insonning vazifasi uning ongli faoliyatidan iborat» deb hisoblagan edi. A.Jomiy «Qo'llaring baquvvat ekan, mavjud ekan kundalik mehnatga ko'ngil qo'y» deya da'vat etgan bo'lsa, Ibn Sino «Bekorhilik va ishyoqmaslik faqat nodonlikka sabab bo'libgina qolmay, ayni paytda kasalliklarga ham sabab bo'ladi» deb ogohlantirgan edi. Shaxs - bu muayyan ijtimoiylashuv jarayonining natijasiga emas, bu uzluksiz o'sib boruvchi jarayon. Agar doimiy rivojlanish, kamolotga intilish, olg'a harakat bo'lmasa, u holda shaxs buzilishi, degradatsiyaga duchor bo'lishi mumkin.

2. Inson ko'plab fanlar o'rganadigan predmetdir. Biologiya uni *Homo sapiens* turi sifatida qaraydi. Pedagogika uchun u tarbiya ob'ekti, sotsiologiya uchun - turli munosabatlar sub'ekti, kulturologiya uchun - madaniyatning ob'ekti va sub'ekti, iqtisodiy nazariya uchun - asosiy ishlab chiqarish kuchi va hokazo.

Tabiiy fanlar orasida an'anaviy (biologiya, antropologiya, meditsina va boshqalar) bilan bir qatorda nisbatan yangi fanlar (oliy nerv tizimi faoliyati fiziologiyasi, somatologiya, seksologiya va hokazo) paydo bo'ldi. Ijtimoiy bilim

sohasida ham «eski» fanlar (psixologiya, sotsiologiya, tilshunoslik, etika) qatorida «yangi» fanlar (aksiologiya, germenevtika) kabilar faoliyat ko'rsatishadi.

XX asrda ilmiy bilimning shiddatli rivoji, parallel tarzda boruvchi fanlarning faol differentsiatsiyasi va integratsiyasi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fanlar chegarasida bir qator yangi fanlarning: bioetika va tibbiyot etikasi, sotsiobiologiya, psixofiziologiya va boshqalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bu hol falsafaning inson muammolarini ko'rib chiqishdagi metodologik roli haqidagi masalani yanada dolzarb etib qo'yadi.

Biz yuqorida aytib o'tganimizdek, inson ko'p fanlar tomonidan predmet sifatida qaraladi, shu sababli bizning oldimizda muhim bir vazifa – inson muammosining aynan falsafiy aspektlarini ochib berish turadi.

Tabiatshunoslik va jamiyatshunoslikda insonni tadqiq etishning hozirgi darajasi shundayki, bunda inson hozirgi to'plangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish masalalari tobora ko'proq birinchi planga chiqmoqda.

Inson muammosining falsafaga oid masalalari deb quyidagilarni hisoblash mumkin: a) inson mohiyati; b) insonda ijtimoiylik va biologik (tabiiylik)ning nisbati; v) shaxsning erkinligi; g) insonning mavjud bo'lishi (borlig'i) va mohiyatining dialektikasi; d) inson hayotining maqsad va ma'nosi.

Bu albatta inson muammosining falsafiy spetsifikasi faqat yuqoridagilar bilan cheklanadi, degani emas. Biz faqat asosiylarini sanab o'tdik xolos.

Falsafa va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarda «individ», «individuallik», «shaxs» singari tushunchalar ko'p qo'llaniladi. Ularning o'xshashligi va farqlari nimada? Bu tushunchalarning har birining mohiyati nimadan iborat?

Yuqoridagi tushunchalar qatorida «*individ*» tushunchasi birinchida turadi. U eng avvalo, muayyan insonning boshqa odamlardan alohidaligiki, «chegaralanib» olganligini ifoda etadi. Individ - bu Homo sapiens biologik turining ayrim olingan, yakka vakili. Individning asosiy xususiyati - bu uning boshqalardan ajralganligi, alohidaligidir. Individ - bu insonning eng oddiy va abstrak tavsifi.

Shunisi qiziqki, turli fanlar «individ» tushunchasini turlicha talqin etadilar. Masalan, *psixologiya* ushbu tushunchani ikki aspektda ko'radi: a) individ ayrim olingan tabiiy mavjudot, tug'ma va orttirilgan xususiyatlarning mahsuli, individual, o'ziga xos xususiyatlarning sohibi sifatida; b) insonlar jamoasining alohida olingan vakili; o'zining biologik cheklanganlik doirasidan chiquvchi qurollardan, belgilardan foydalanuvchi va ular vositasida o'z xulqi hamda psixik jarayonlarini kasb etuvchi ijtimoiy mavjudot.²²

Psixologiya individning asosiy qirralari deb quyidagilarni hisoblaydi: 1) psixofiziologik tashkillashuvning yaxlitligi; 2) atrof dunyo bilan o'zaro ta'sirdagi barqarorlik; 3) faollik²³.

Sotsiologiya nuqtai nazaridan individ - bu inson naslining ayrim olingan vakili va insoniyatning barcha ijtimoiy va psixologik xususiyatlarining: aql, iroda, ehtiyojlar, manfaatlar va boshqalarning muayyan sohibi. Bu holda «Individ» tushunchasi muayyan, aniq bir insonni anglatadi²⁴.

²² Қаранг: Психология. Словарь. М., 1990. 135-6.

²³ Ўша ерда. 136-6.

²⁴ Қаранг: Радугин А.А. Радугин К.А. Социология. М. 1995. 85-6.

Va nihoyat, *falsafa* uchun individ ijtimoiy atom, alohida ajralib turuvchi mohiyat, ancha keng bo'lgan ijtimoiy yaxlitlikning (guruhning, sinfnig, millatning, insoniyatning) ayrim olingan vakili²⁵.

Individ - eng avvalo qandaydir ko'plikni bir vakili, ko'plarning biri. SHu ma'noda deyarli har bir odam - individ (ba'zan individium ham deyiladi va yoziladi).

Bu o'rinda bir narsani ta'kidlash lozim: ajralib turish, alohidalik insonning spetsifik xususiyati emas, ob'ektiv dunyodagi barcha predmetlar va hodisalar u yoki bu tarzda ajralib turadi. Ammo insonga nisbatan ko'proq boshqa bir tushuncha nisbat beriladi - «*individuallik*». U muayyan insonning noyobligi, betakrorligini anglatadi. Muayyan ma'noda individuallik - individdan shaxsga olib boruvchi pog'onadir. Inson tug'ilishidan individ bo'lib tug'iladi, biroq shaxs sifatida u o'z individualligining barcha imkoniyatlarini ochish orqaligina shakllana oladi.

Individuallik individning o'ziga xosligini, ichki dunyosining o'ziga xosligini aks ettiradi, bu insonga xos umumiy (universal) va ayrim (noyob, o'ziga xos) xususiyatlarning uzviy birligidir.

Inson falsafasidagi yana bir muhim tushuncha «*sub'ekt*» tushunchasidir. Sub'ekt sifatida ayrim olingan individ ham va qandaydir jamoa (guruh, sotsium va xatto umuman insoniyat) namoyon bo'lishi mumkin. Bu o'rinda bizni individual sub'ekt qiziqtiradi. Uning asosiy tavsiflari quyidagilardir: faollik, onglilik, maqsadning mavjudligi, o'z-o'zini anglash, xatti-harakatlar erkinligi. Sub'ekt sifatida inson muayyan ijtimoiy rolni o'ynaydi. Odam sub'ekt bo'lib tug'ilmaydi, balki tarbiya jarayonida sub'ektga aylanadi.

Sub'ektivlik haqida so'z ketganda mazkur tushunchaning ikki ma'nosi borligini esda tutish lozim. Birinchidan, u ayrim individning tanlovi sifatidagi sub'ektivlikni anglatadi, ikkinchidan esa ushbu individ insoniy sub'ektivlik doirasidan tamoyilan chiqa olmasligini bildiradi²⁶.

Shaxs tushunchasi falsafada va umuman insonni o'rganuvchi fanlar majmuasida eng murakkab tushunchadir. Inson shaxsi rivojlanishining eng muhim biologik omili inson miyasidir. Ammo shaxs mohiyati - bu ijtimoiy xususiyatga molik hodisa. Miya esa moddiy organ bo'lib, u orqali shaxs o'z-o'zini namoyon etadi.

Inson mazkur sotsiumga xos bo'lgan me'yorlar, bilimlar, qadriyatlarning muayyan tizimini o'zlashtiradi. Muayyan jamiyatning real shart-sharoitlari shaxsning ijtimoiy mohiyatini belgilaydi. Shaxsning shakllanishi jarayoni *sotsializatsiya* deb ataladi.

3. Ong nima? Inson azal-azaldan o'zigagina xos bo'lgan ongning nima ekaniligi to'g'risida o'ylab, bahslashib keladi. Bu bahslarning bir jihati, ong tabiat mahsulimi yoki inson ongi ilohiy yaratilganmi? degan masaladan iborat. Ikkinchi jihati esa, inson dunyoni doimo bir xil anglaganmi? Ya'ni asrlar davomida inson

²⁵ Қаранг: Философия. Ростов-на-Дону, 1996. 264-б.

²⁶ Қаранг: Сартр- Ж-П. Экзистенциализм – это гуманизм // Сумерки богов. М., 1989. 323-б.

ongi takomillashib kelganmi yoki hamon o'sha-o'shami? degan muammo bilan bog'liq.

«O'zingni bilsang, olamni bilasan», – degan edi Suqrot. Aforizmga aylanib ketgan bu fikr ortida olam kabi inson ham siru sinoatlarga boy, u o'zini bilish orqali olam mohiyatini anglashga yo'l ochishi mumkin, degan g'oya yotibdi. Shu ma'noda, inson o'zini tashqi olamdan ajratib, alohida bir mo'jiza va tadqiqot mavzui sifatida o'rganishga harakat qila boshlagan paytdan buyon uni o'ylantirib kelayotgan muammolardan biri ongning mohiyati, uning kelib chiqishi masalasidir.

Ongni diniy tushunish uni ilohiy hodisa, xudo yaratgan mo'jiza tarzida talqin qilishga asoslanadi. Ko'pgina dinlarda inson ongi buyuk ilohiy aqlning mittigina aks etishi, uning namoyon bo'lish shakli tarzida tavsiflanadi. Inson tanasidagi ruh bizning istak va fikrlarimizning tashuvchisidir. Jon o'lishi bilan ong ham o'ladi. Bunday qarashlarning ildizi juda qadimiy bo'lsa-da, ular hamon o'zining ko'plab tarafdorlariga ega. Zero, u olam va odamning yaratilganligi masalasi bilan bevosita bog'liqdir. Kimda-kim olam va odam yaratilganligini tan olar ekan, ong ham yaratganning qudrati ekanligini tan olishi tabiiy.

Ong moddiylikning miyada aks etishi deb tushunishda, uning mohiyati inson tanasi faoliyati bilan bog'lab talqin etiladi. Bunday qarashlar ham qadimiy ildizlarga ega. XVIII asrga kelib ongni bevosita inson miyasi faoliyati bilan bog'lashga harakat qilgan qarashlar ham shakllandi. Ayni paytda materialistik yo'nalish nomini olgan bunday yondashuvlar doirasida ongning mohiyatini buzib talqin qilish hollari ham paydo bo'lgan. Falsafa tarixida «Vulgar materializm» deb nom olgan oqim namoyandalarining qarashlari bunga misol bo'la oladi. Ularning fikricha, xuddi jigar safro ishlab chiqargani kabi, miya ham ongni ishlab chiqaradi. Bunday yondashuv natijasida ong ideal emas, balki moddiy hodisa, degan xulosa chiqadi. Vaholanki, safroni ko'rish mumkin, ammo ongni ko'rib ham, ushlab ham, o'lchab ham bo'lmaydi.

Xo'sh, ong tarixan qachon va qanday omillar ta'sirida shakllangan? U haqiqatan ham miya bilan bog'liqmi?

Ong tarixi insonning inson bo'lib shakllana boshlashi tarixi bilan bog'liqdir. Uzoq vaqt davomida inson, uning ongi planetar, ya'ni Yer shari doirasidagi hodisa sifatida qarab kelindi. Hozirgi zamon fani masalaga kengroq doirada yondashish zarurligini ko'rsatmoqda. Chunki fan dalillari inson paydo bo'lishini faqat Yerda kechgan jarayonlar bilan cheklab qo'yish to'g'ri emasligini, u koinot evolyutsiyasining tabiiy hosilasi ekanligini tobora chuqurroq isbotlamoqda.

Inson biologik va ijtimoiy harakatning tashuvchisi ekan, harakat shakllari o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni, uning yuqori shakllari quyi shakllariga bog'liqligini, tayanishini, ulardan o'sib chiqishini unutmaslik lozim. Boshqacha aytanda, ular o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud.

Ong va miya. Inson miyasi nozik, murakkab tuzilishga ega bo'lgan tizimdir. Aynan uning murakkabligi ong paydo bo'lishi mumkinligining asosiy shartidir. Bunday holat ham uzoq davom etgan evolyutsiyaning tabiiy hosilasidir.

Ammo yuksak darajada tashkil topgan miyaning o'zi ham hali ong paydo bo'lishi uchun yetarli emasligini unutmaslik lozim. Bu miya normal funksional

faoliyat ko'rsatishi zarur. Va nihoyat, normal funksional faoliyat ko'rsatuvchi miya sohibi ijtimoiy munosabatlarga tortilgan bo'lishi shart.

Shu o'rinda vulgar materialistlar qarashlariga yana bir marta murojaat qilish lozim. Agar ular haq bo'lganida edi, hayvonot olamiga tushib qolgan inson bolalarida ham ong shakllangan bo'lishi kerak edi. Ular hayvonlar orasida bo'lganida ham jigar safro ishlab chiqaraveradi. Ammo, miya ongni ishlab chiqarmaydi. Bundan ongning ijtimoiy-ruhiy hodisa ekaniligi va u faqat jamiyatdagina shakllanishi mumkinligi haqidagi xulosa kelib chiqadi.

Ong va ruhiyat (psixika). Ong psixik in'ikosning o'ziga xos, yuksak shaklidir. Ammo, bu psixika va ong tushunchalarini aynanlashtirish uchun asos bo'la olmaydi. Negaki, psixika hayvonlarga ham xosdir. Gap inson psixikasi haqida ketganda ham, u ong tushunchasiga nisbatan keng qamrovlilik kasb etishini unutmazlik lozim. Z. Freyd fikricha, psixika ongsizlik, ong osti hodisalarini va ongning o'zidan iborat uch qatlamdan tashkil topgan. Inson hayoti va faoliyatida ong bilan bir qatorda ongsizlik va ong osti hodisalari ham muhim ahamiyatga ega.

Psixologlar fikricha, inson farzandining kamol topa borishi bilan bir qatorda ko'plab funksiyalar ong nazorati ostidan chiqib avtomatik xarakter kasb etishi bilan xarakterlanadi. Aytaylik, birinchi marta mashinaga o'tirganimizda, birinchi marta surat olayotganimizda deyarli barcha harakatlarimiz ongning qattiq nazorati ostida bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan esa ko'pgina harakatlarni ongsiz tarzda, anglamagan holda bajara boshlaymiz. Bunday holat inson faoliyatining xilma-xil sohalari, yo'nalishlarida, ularga ongning faol tarzda aralashishini, ya'ni qayta faoliyatni o'z nazoratiga olishi mumkinligini inkor etmaydi. Hatti-harakatlarning ongsizlik sohasiga ko'chishi bir tomondan ong «yuki»ning yengillashiga xizmat qilsa, boshqa tomondan, ongning asosiy kuchi, quvvati, «diqqati»ni inson hayoti uchun muhim bo'lgan harakat, jarayonlarga qaratilishiga imkoniyat yaratadi.

Ongsizlik doirasiga ong nazoratidan tashqarida qolgan sezgi, tasavvur, instinkt va intuitsiya kabi hodisalar ham kiradi. Ana shu xususiyatlarni inobatga oladigan bo'lsak, ongsizlik ong mavjudligi va rivojlanishining tabiiy sharti deyish mumkin. Ong osti hodisalari ham psixik jarayonlarning muhim bo'g'inidir. Z. Freyd fikricha, ular ongsizlik bilan ong o'rtasidagi chegaraviy sohadir.

Ongning tuzilishi. Ong o'zaro aloqada bo'lgan turli unsur (element) lardan tashkil topgan murakkab ma'naviy tuzilishga ega.

Ong in'ikosning o'ziga xos shakli ekani, avvalo, unda aks ettiriladigan obyekt haqidagi muayyan bilimlar hissiy va ratsional shaklda o'z ifodasini topadi. Demak, bilim ong tuzilishining asosiy unsuridir. Shuning uchun ham bilimlarning boyib, chuqurlashib borishi ong rivojlanishini xarakterlaydigan muhim belgi sifatida yuzaga chiqadi.

Ong tuzilishining yana bir unsuri xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan kechinmalardir. Ularda in'ikos obyektiga munosabat gavdalanadi. Bilimlarimizning chuqurligi va ko'lamliligi, hissiyotlarimizning namoyon bo'lishi yoki bo'lmasligi intilishimiz - irodamizga bog'liq. Iroda kuchi olamni anglash jarayonida yuzaga keladigan har qanday to'siqlarni yengib o'tishga, ko'zlangan maqsad yo'lida tinmay harakat qilishga yo'l ochadi.

Ongning tarkibiga nazar solsak ijtimoiy va individual ong bir-biridan farqlanadi. Ijtimoiy ong tabiiy va ijtimoiy voqelikning in'ikosi, jamiyatning muayyan davriga yoki qismiga tegishli bo'lgan umumiy his-tuyg'ular, kayfiyatlar, qarashlar, g'oyalar, nazariyalar majmuidir.

Ijtimoiy ong tufayli jamiyatning o'z-o'zini anglashi sodir bo'ladi, kechayotgan jarayonlarga munosabati shakllanadi. Ijtimoiy o'zgarishlar bilan bir qatorda ijtimoiy ong ham o'zgarib rivojlanib boraveradi. Ammo bundan, aslo, ijtimoiy ongning taraqqiyoti faqat ijtimoiy voqelikdagi o'zgarishlargagina bog'liq ekan-da, degan xulosa kelib chiqmaydi. Zero, ijtimoiy ong o'z taraqqiyotida nisbiy mustaqillik karakteriga va ijtimoiy voqelikka faol aks ta'sir eta olish xususiyatiga ham egadir.

Individual ong muayyan guruh, elat, millatga mansub bo'lgan ayrim kishining ongi bo'lib, jamiyatdagi voqelik va real borliqning alohida olingan shaxsning ongida aks etishdir.

Ijtimoiy va individual ongning mohiyatini chuqurroq anglash uchun ular o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarni tushunib olish maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy va individual ong o'rtasidagi o'xshashlik bir tomondan, har ikkalasining ham ijtimoiy voqelikni aks ettirishida ko'rinadi. Boshqa tomondan, ijtimoiy ong voqelikni individ ongi orqali aks ettiradi. Chunki, ijtimoiy voqelikda yuz beradigan o'zgarishlar avvalo, alohida kishilar ongida o'z aksini topadi va undan so'nggina ijtimoiy ongda gavdalanadi.

Ong va til. Til ongning insongagina xosligini isbotlovchi omillardan biridir. Xo'sh, til deganida o'zi nima tushuniladi? Til, bu eng avvalo, muayyan belgilar tizimi demakdir. Ammo, tilning xususiyatlarini shu bilangina cheklash to'g'ri emas. Negaki, muayyan belgilar tizimi hayvonlarga ham xos, ular yordamida jonzotlar o'rtasida muayyan axborot almashinuvi sodir bo'ladi.

Aytaylik, kabutarlarining «muhabbat» raqsi, jonzotlarning xavf-xatar paydo bo'lganda turli tovush - belgilar yordamida bir-birini ogohlantirishi, ayrim hayvonlarning o'zi yashaydigan hududni turli yo'llar bilan «chegaralab» chiqishi ana shunday belgilar tizimining o'ziga xos ko'rinishlaridir. Lekin, jiddiy e'tibor beriladigan bo'lsa, bu belgi - signallar tizimi uzoq davom etgan evolyutsiya davomida hosil qilingan reflekslar ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Hatti-harakat yoki boshqa belgilar yordamida uzatilayotgan axborotning mazmuni muayyan vaziyatdagi holat bilan belgilangan bo'ladi. Bundan farqli o'laroq inson nutqi, tili konkret vaziyat, makon va zamondan holi bo'lishi, unga bog'liq bo'lmasligi ham mumkin. Boshqacha aytganda, u o'zida o'tmishni, hozirgi xolatni va istiqbolni ham ifodalashi mumkin. Bu inson tilining belgilar tizimi sifatida hayvonot dunyosida amal qiladigan belgilardan tub farqini ko'rsatuvchi muhim xususiyatidir.

4. Inson hayotning tezoqarligini yodda tutishi, odamzod hayotining bebaholigi haqida o'ylashi, o'lim haq ekanligini unutmasligi lozimligi haqidagi fikrlarga biz falsafa fani shakllanish jarayonining ilk bosqichidayoq, G'arb falsafiy an'anasida ham, Sharq falsafasida ham duch kelishimiz mumkin. SHundan beri o'tgan ikki yarim ming yildan ko'proq vaqt mobaynida bu borada deyarli hech qanday o'zgarish yuz bergani yo'q, zero, avvalgidek, odamzodning hayot yo'li tug'ilish va o'lish sanalari bilan chegaralanadi.

Shuningdek, birinchi sana doim muayyan, aniq bo'lsa, ikkinchi sana inson umrining oxirgi soniyalarigacha mavhum bo'lib qoladi. Ayni shu sababli hayotning mazmuni muammosi har bir inson qarshisida ertami-kechmi ko'ndalang bo'ladi va u o'ziga aniq va uzil-kesil javob topish mumkin bo'lmagan savollarni beradi. «Bu dunyoda nima uchun yashayapman», deb so'raydi o'zidan inson va agar bu savolga o'zi javob bermasa, o'z hayotiga muayyan mazmun baxsh etmasa, bu ishni uning o'rniga hech kim va hech qachon bajarmasligini vaqt o'tishi bilan anglay boshlaydi. Abadiyat qarshisida, o'lim qarshisida har kim, oxir-oqibatda, o'zi bilan o'zi tanho qoladi. Albatta, jamiyatda inson o'zini bu darajada yolg'iz his etmaydi, biroq, ekzistensialistlar fikriga ko'ra, bu hol toki inson boshqalarning ham o'z hayoti borligi va ular ham o'z hayotining mazmuni va o'zining vazifasi haqidagi o'ta shaxsiy muammolarni mustaqil echish zaruriyati qarshisida turganini anglab etgunga qadar davom etadi. Bundan ekzistensializm falsafasida yolg'izlik muammosi kelib chiqadi.

Har qanday jonli mavjudot singari inson hayotining nihoyasi borligi, boshqa mavjudotlardan farqli o'laroq u o'zining oxir-oqibatda o'limga mahkumligini anglashi ham falsafiy muammolar doirasiga kiradi. Bu - tasodifiy hol emas. Inson hayoti va o'limi masalalari asotirlar va dinlarda ham markaziy o'rinni egallagan. Kishilarda dastlab o'limdan qo'rqish tuyg'usi kuchli bo'lgan. Keyinroq asotiriy diniy tasavvurlar vositasida bu jarayon «majburiy» ekanligi haqidagi e'tiqod bilan almashindi. Asotirlarda hayvonlar ham, kishilar ham o'ladigan tana va o'lmas ruhga ega deb ko'rsatilgan. Ruh nozik, nomoddiy tabiatga ega bo'lib, o'zida inson vujudi timsolini gavdalantirgan. U yo'qolmaydi, o'lmaydi va o'z makonida yashaydi, hamda o'z joyini almashtirib turadi. Ba'zi diniy ta'limotlarda tana o'lgach, ruh bir jonzotdan ikkinchisiga o'tib turishi ko'rsatilgan.

Islom dinida inson hayoti, uning ma'nosi va o'limi masalasi katta o'rin olgan. Hayotning ma'nosi - bu uning salomatligi, doimiy rohat-farog'atga eltuvchi mehnat va bilimdir. Inson o'z hayotini xudbinlik va yovuzlikdan saqlamog'i, butun umri davomida oxiratni o'ylamog'i kerak. Inson hayoti, o'limi va manguligi masalasi tasavvuf tariqatlarida ham muhim o'rin olgan. Uning yirik ilk vakillari Hasan Basriy, Al Muxsimiy va Junaydlar islomning monoteistik talablariga muvoiq, *insonning mohiyati va hayot yo'nalishi Olloh ko'rstgan yo'ldan borish*, deb tushuntirdilar. Sufiy mutafakkirlar - Abduxoliq G'ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro va Bahovuddin Naqshband ta'limotlarida hayotning ma'nosi, o'lim va mangulik masalalari insonning ilohiy mohiyatini bilishga intilishi, halol mehnat qilib boshqalarga mehr-muravvatli, rahm-shafqatli bo'lishi bilan bog'liq ravishda yoritildi.

Yevropadagi Yangi davr falsafasida ham Sharq falsafasi ta'siri ostida hayot va o'lim masalalariga yangi qarashlar shakllandi. Jumladan hayot va o'limni anglash muammosi ikki antropologiyaviy modelda - tabiiy inson va yangi Yevropacha inson modellari orqali ifodalanadi. Agar birinchi modelda inson (biologiya, fiziologiya, psixologiya va boshqa) fanlar ob'ekti bo'lsa, ikkinchisida u o'zini olamning markazi sifatida anglagan, aql idroki va erkinligini o'zi yo'naltiradigan, o'z hayotini o'tmishdan hozirgi, undan esa kelajakka qarab

borishini tushungan ijtimoiy mavjudot sifatida baholanadi. Bu fikrlar insonga, uning hayoti mazmuni va maqsadga ratsional yondashishning natijalaridir.

XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab G'arb antropologik falsafasida shakllangan irratsional yo'nalishda («hayot falsafasi», ekzistensializm va boshqalar) o'lim biologiyaviy ma'nodagina tan olinmay inson borlig'ining nihoyasi sifatida qaraladi. Bu nuqtai nazarga binoan o'lim diniy yoki siyqa tabiiy tushunilishdan farqli o'laroq, sub'ektivlik sohasi voqeasiga aylanadi. F.Nitsshening so'zlari bilan aytganda inson o'limi uning hayotidan ahamiyatliroqdir. Ya'ni o'lim tuyg'usi inson hayotini ma'noli qiladi.

Hozirgi inson ko'proq shartli mulohazalar asosida yashashga moyilki, uni bunday yashash va fikrlash yo'liga radio, televideniye, kino, teatr, badiiy adabiyot va albatta, o'zining mustaqil fikr-o'ylari olib kelgan. Natijada u o'zining o'limidan keyingi hayotidan ko'proq tashvishlanmoqda. Hayot qancha yaxshi bo'lsa kishiga o'lim shunchalik dahshatli ko'rinadi.

O'limni ma'naviy anglashdan undan keyingi umrning ma'nosi to'g'risidagi masala kelib chiqadi. Boshqacha aytganda, bu ma'noli yashalgan umrning o'limdan keyingi davomi, ya'ni yuksak manguqlik masalasidir. Manguqlik - inson o'z ijodiy, yaratuvchilik faoliyati bilan hayotda abadiy iz qoldirishdir. Inson dunyoda iz qoldirgan yaxshi nom - uning ikkinchi umridir. Shu sababli insoniyat xayrli, adolatli ishlar qilib, yaxshi nom qoldirgan kishilarni abadiy hurmat bilan tilga oladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Insonning mohiyati to'g'risida qanday ta'limotlar vujudga kelgan?
2. Insonni ta'riflashda G'arb va Sharq mamlakatlarida qanday yondoshuvlar mavjud?
3. Insonni falsafiy tushunish nimani ko'zda tutadi?
4. Ong nima, ongning hosil bo'lishi haqida qanday qarashlar mavjud?
5. Ong va til o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
6. Inson hayotining ma'nosi nimada?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

11-Mavzu: QADRIYATLAR FALSAFASI

Reja:

- 1.Qadriyat tushunchasining ma'nosi va uning umumiy tavsifi
- 2.Qadriyatlarning turlari: moddiy va ma'naviy, umuminsoniy, milliy, shaxsiy, axloqiy qadriyatlar.
- 3.Qadriyatlarning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati va yoshlar tarbiyasidagi o'rni

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

Qadriyat, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, shaxsiy qadriyatlar, oila, gender tengligi, mahalla, oila-ta'lim-mahalla tizimi, qadriyatlarni baholash, qadriyatlarning transformasiyasi, jamiyatning devalvatsiyasi, sog'liq, sog'lom turmush tarzi

1.O'tmishdagi barcha falsafiy ta'limotlarda qadriyatlarning mohiyati va ularning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni masalasiga katta e'tibor berilib, ular ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning mahsuli, jamiyat ma'naviy kamolotining muhim omili ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Faylasuflar qadriyatlar va ularning jamiyat hayoti va taraqqiyotida tutgan o'rni masalasiga ontologik, gnoseologik, evristik va dunyoqarashlik nuqtai na zaridan yondashib, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatini o'z davri talablari va imkoniyatlari doirasida ochib berishga uringanlar. Qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining, moddiy va ma'naviy boyliklari rivojining yakuni, inson kamolotining kelajak uchun ham katta ahamiyat kasb etadigan ijobiy mahsulidir. Insonning ob'ektiv olamga nisbatan bo'lgan aktiv faoliyati, moddiy va ma'naviy muhit, yashash shart-sharoitlarining rivojlanishi vorislik asosida sodir bo'lib, yangi-yangi qadriyatlarning shakllanishiga, o'tmishdan meros bo'lib qolganlari esa davr ruhi, yangi ijtimoiy ehtiyoj talablari asosida rivojlanishiga olib keladi. Buning natijasida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyotning imkoniyatlari ham kengayadi. **Jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan har qanday hodisa o'tmishda ijobiy ahamiyat kasb etgani uchungina emas, balki kelajak istiqboli uchun yangi imkoniyatlar yaratib berishga qodir bo'lganligi sababli ham qadriyat deb ataladi.**

Qadriyatlar olamni bilish va uni amaliy o'zgartirishning muhim omilidir. Har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi. Qadriyatlarning ko'pligi, mazmuni, ularni aniqlash va ularga e'tiqod qilish insonning bilish qobiliyati va amaliy imkoniyatlari takomillashib, chuqurlashib, kengayib borayotganini ifodalaydi. Yangi qadriyatlar yuzaga kelishi insonning ob'ektiv olam, ma'naviyat borasidagi bilimlari vorislik asosida davom etayotganining ifodasidir.

Qadriyatlar inson ma'naviy kamolotining muhim omili hamdir. Har bir millat rivojlanishidagi tarixiy voqealar, unga ijobiy hissa qo'shgan shaxslar ham milliy qadriyatlar jumlasiga kiradi. Qadriyatlarda ular yuzaga kelgan davrning ruhi,

imkoniyatlari, talab va ehtiyojlari o'zining yaqqol ifodasini topadi. Har bir qadriyat ma'lum konkret davr, sharoit va ehtiyojlarning mahsuligina emas, balki uning ko'zgusi hamdir.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida davrlar o'tishi, sharoit va imkoniyatlar o'zgarib turishi ham qadriyatlarning mazmunida, ularga munosabatda o'z ifodasini topadi.

Qadriyatlarga baho berishdan oldin ular yuzaga kelgan konkret tarixiy sharoitlar, o'sha davrlarga xos bo'lgan imkoniyat va ehtiyojlarni ham bilmoq kerak. Kechagi voqealarni bugungi talab bilan o'lchash mumkin bo'lmaganidek, har bir qadriyatning ijtimoiy ahamiyatini bilishga muayyan tarixiy sharoitlarni hisobga olib yondashmoq kerak.

Moddiy ishlab chiqarish, ma'naviy taraqqiyot ehtiyojlari qadriyatlar shakllanishining asosiy omillaridir. Har bir qadriyat qaysi zamin, ehtiyoj asosida yuzaga kelmasin, yuqoridagi omillar bilan bevosita, yoki bilvosita aloqada bo'ladi. Qadriyatlar taraqqiyotidagi vorislik shu tariqa uzluksiz davom etaveradi.

Qadriyatlarning shakllanishi, ularga amal qilish imkoniyatlari kishilar yashagan muhit, tabiiy sharoitlar, ishlab chiqarish usuli, kasb malakalari, mehnat faoliyatining asosiy yo'nalishlari, yoshi, jinsiy jihatlari, turmush tarzi bilan ham bog'liqdir.

Umuman olganda, qadriyatlar jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, o'tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etgan moddiy, ma'naviy boyliklardir.

Qadriyatlarning ob'ektiv va sub'ektiv tomonlari mavjud. *Qadriyatlar kishilarning moddiy turmush darajasi, sharoiti, imkoniyatlari asosida shakllanadi va rivojlanadi. Bu - qadriyatlarning ob'ektiv zaminidir.*

Qadriyatlar ijtimoiy, moddiy, ma'naviy hodisa bo'lsa ham ularning ahamiyati va mohiyati kishilarning ularga nisbatan bo'lgan munosabati asosida belgilanadi. Qadriyat degan tushunchaning o'zi ham qadr-qimmat, degan ma'noni bildiradi. Har bir ijtimoiy hodisaga kishilar o'z dunyoqarashi, taraqqiyot va istiqbol muammolarini hisobga olib yondashadilar va baho beradilar. Qadriyatlarni baholash turli xildagi manfaatlar bilan ham bog'liqdir.

Muayyan qadriyatlarga amal qilishga, ularni baholashga shaxsiy, guruh, milliy, umuminsoniy manfaatlar ham bevosita ta'sir etishi shubhasizdir. Bular - qadriyatlarga baho berishning sub'ektiv omili hisoblanadi. *Qadriyatlarga baho berishda jamiyat a'zolarining umumiy ma'naviy kamoloti, ijtimoiy, milliy ongning yetukligi ham katta ahamiyatga ega.*

2.Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Ular umuminsoniy, milliy, shaxsiy va boshqa turlarga bo'lish mumkin. Umuminsoniy qadriyatlar jahon sivilizatsiyasining yaxlitligi, uning barcha bosqichlari bir-biri bilan uzviy bog'langanligining ifodasidir. Sayyoramizda yashagan, yashayotgan barcha kishilar millati, irqi, ijtimoiy guruhi, yoshidan kat'iy nazar, tug'iladi, yashaydi va o'ladi. Kishilarning turmush sharoitlarida, kasb-hunarida, faoliyatida, yoshida farq bo'lsa ham, ularning hammasida bir-biri bilan bog'liq bo'lgan tub mohiyatli jihatlari ham bor. Har bir inson yaxshi yashashga, oila qurishga, farzand ko'rishga, boshqalar bilan yaqin do'st, qadrdon bo'lishga intiladi, farovon turmush

qurishga, madaniyat, fan, texnika yutuqlarini egallashga, baxtli bo'lishga harakat qiladi. Umuminsoniy qadriyatlarning ildizlari barcha davrlar, jamiyatlar, mamlakatlarda mavjud bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlar, kishilarning mehnati, turmush sharoiti va uning darajasi, niyat va intilishlari, maqsad va manfaatlaridagi birlikdir. Har bir davr, mamlakat va millatning bu sohalaridagi o'ziga xos jihatlaridan tashqari umumiy tomonlari ham bor. **Umuminsoniy qadriyatlar deb barcha insonlarning tarixi, merosi, istiqloli, istiqboli va manfaatlarida mavjud bo'lgan tutash, umumiy zaminlar va manfaatlar asosida tashkil topgan, taraqqiyotning yangi bosqichida ham barchaning manfaatiga mos keladigan ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy hodisalar va boyliklarga aytiladi.**

Umuminsoniy qadriyatlar turli davlatlar, xalqlar o'rtasidagi ko'priklar vositasini o'tab, odamlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, hamjihatlik va hamkorlikka chorlovchi kuch vazifasini o'taydi. Ma'naviyat borasida ham umuminsoniy qadriyatlar barcha xalqlarning madaniyatini yaqinlashtiradi va ularni tezroq kamol topishga imkon yaratib beradi. Umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyatga xos qadriyatlar asosida tashkil topadi va rivojlanadi, ular ayni vaqtda barcha milliy qadriyatlarning bir-biriga yaqinlashishi va rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo'q joyda biron narsaning qadr qimmatini haqida so'zlash bema'nilikdir. Shuning uchun ham inson qadr qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Jamiyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning, islohotlarning barchasi kishilar hayoti to'q, boy, go'zal bo'lishi, inson o'zini chinakam erkin his etishi, o'z mehnati natijasining, o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishini ta'minlashga qaratilgandir.

Birinchi Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek «jamiyatni isloh qilish va yangilash bo'yicha ko'p qirrali faoliyatimiz markazida inson, suveren O'zbekistonining fuqarosi turadi. Islohotlarning mazmuni har bir fuqaro shahs sifatida o'zini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishiga qaratilgan. Siyosiy va ijtimoiy hayotdagi barcha o'zgarishlar ayni mana shu oliy maqsadga erishishga, har bir kishining hayotini yaxshiroq, munosibroq, ma'naviy jihatdan boyroq qilishga bo'ysundirilgan»²⁷.

Istiqlol tufayli respublikamizda keyingi yillarda insonning shaxsiy huquqlari, erkinliklari va qadriyatlarini muhofaza qilish masalasida juda katta ishlar amalga oshirildi. Imzosiz xatlar yozish, bo'hton, tuhmat uyushtirish yo'li bilan kishilarni nohaq bezovta qilish, ularning qadr-qimmatini va or-nomusiga tajovuz qilishlar mamlakatimizda qonun yo'li bilan taqiqlangan. Asosli, adolatli tanqid uchun o'ch olishga harakat qiladigan shahslar, kimligidan qat'i nazar, jinoiy javobgarlikka tortiladi. Vazifasini suiste'mol qilgan mansabdorlar g'ayriqonuniy xatti harakatlari uchun qonun oldida javob beradi.

²⁷ Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. –Т.:Ўзбекистон, 1995, 247-248 бетлар.

Nogironlar, ruhiy kasalmand kishilar, mehnat qobiliyatini yo'qotgan, boquvchisidan mahrum bo'lib qolganlar, yolg'iz ayollar, qariyalarning haquhuqlari davlat yo'li bilan muhofaza qilinadi, ularga moddiy, ma'naviy yordam ko'rsatiladi. Bizda odamlarning shahsiy hayotlari, uy-joyining daxlsizligi, telefon so'zlashuvlari, yozishmalar, pochta va telegraf orqali jo'natilgan narsalarning sir saqlanishi kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasi qonunlari fuqarolar or nomusi, qadr-qimmatini saqlash va muxofaza etishga muxim vazifalardan biri sifatida qaraydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida fuqarolar o'z hayotlari va sog'liklariga, mulklariga va shaxsiy erkinliklariga, or-nomuslariga va qadr-qimmatlariga tajovuzlardan sud orqali himoya qilinish huquqiga ega ekanliklari belgilab qo'yilgan.

Kishilarning turmush farovonligini oshirish, ularning talab ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy sohani tez sur'atlar bilan rivojlantirish masalasida ham O'zbekistonda juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Inson turmush farovonligini yaxshilashning eng asosiy masalalaridan biri ularni uy joy, ichimlik suvi, gaz, elektr energiyasi va boshqalar bilan ta'minlashdir. O'zbekiston rahbariyati tashabbusi bilan bu borada jiddiy vazifalar amalga oshirilmoqda.

Inson ehtiyojlarini qondirishda tabiiy qadriyatlar katta ahamiyat kasb etadi. Tabiiy qadriyatlarga yer va yer osti boyliklari, suv, havo, o'rmonlar, o'simliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar kiradi.

Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston zamini xilma xil qazilmalarga boy. Yer yuzasiga yaqin yotgan qazilmalarning aksariyati ochilgan va ular xalq xo'jaligi, fan va texnika tarakqiyoti uchun xizmat qilmoqda. Shu bilan birga hali ochilmagan, ro'yobga chiqmagan konlar ham ko'p. Bu konlarning juda oz qismi bevosita yer yuziga chiqqan bo'lsa, aksariyati yer ichkarisida yashirinib yotibdi.²⁸ Iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy xom ashyo uyumlari «foydali qazilmalar» O'zbekiston Respublikasining milliy boyligi, uning asosiy qadriyatlaridandir. O'zbekiston behisob tabiiy boyliklarga, qulay jug'rofik muxitga ega.

Tabiat tabiiy resurslar manbaidir. Tabiiy resurslar, ya'ni yonilg'i, har xil metallar, rudalar, havo, suv, o'simliklar, xayvonot dunyosi bo'lmasa insoniyat yashay olmaydi. Tabiat biz uchun moddiy ne'matlarning bosh manbai sifatida ham, cog'lik, shodlik, turmushga mehr-muxabbatning va har bir kishidagi ma'naviy boyliklarning bitmas tuganmas omili sifatida ham o'zining g'oyat zo'r ahamiyatini hyech qachon yuqotmaydi.

Ona Yer kishilar uchun moddiy ne'matlar manbai, dastlabki mehnat vositalarining xazinasidir, insoniyat taraqqiyotining beshigidir. Yerdan inson o'zi uchun zarur narsalarni undiradi. Yer insonni boqadi. Taniqli ingliz iqtisodchi olimi Vilzm Petti aytganidek, mehnat boylikning otasi bo'lsa, Yer uning onasidir. Insonning kundalik hayoti va sevinchlari ham Yer tufaylidir. Shunday ekan, inson uchun g'oyat darajada muxim va zarur bo'lgan hayot manbai Yerni qadrlamaslik e'zozlamaslik mumkin emas!

Zotan, O'zbekiston Konstitusiyasining 68-moddasida yozib qo'yilgan: «Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy

²⁸ Қаранг:Хамроев И. Кўз илғамас хазиначар. -Т.:Фан,1990.

zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir»²⁹.

Inson mehnati, xatti-harakati, aql zakovati bilan yaratilgan «ikkinchi tabiat», ya'ni turli tuman moddiy boyliklar, zavod va fabrikalar, ishlab chiqarish kuchlari, transport vositalari, asbob-uskunalar, turar joy, mol-mulk, noz-ne'mat va shu qabilar moddiy qadriyatlar hisoblanadi.

3.Jamiyat taraqqiyotida, inson hayotida ijtimoiy siyosiy qadriyatlar alohida o'rin tutadi. Erkinlik, tenglik, birodarlik insoniyat tomonidan hamisha e'zozlab, qadrlanib kelingan.

Insonning erkinligi, uning shon-shuhrati va qadr-qimmati jamiyatimizning oliy qadriyatidir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bu to'g'risida shunday so'zlar yozilgan: «O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi».

Jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan, «Inson huquqlari va erkinliklari deklaratsiyasi»ga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida har bir insonning fuqarolik shahsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, shuningdek inson huquqlari va erkinliklari kafolatlangan, fuqarolarning burchlari belgilab qo'yilgan.

Respublikamiz barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shahsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Konstitutsiyada yozib qo'yilgandek, «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi».

Boshqa xalqlar, millatlarga nisbatan do'stlik birodarlik munosabatida bo'lishi – bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Xalqimiz hech qachon o'zini boshqa xalqdan ustun qo'ymagan. Boshqa millatlarga, boshqa mazhab vakillariga munosib darajada ehtirom ko'rsatgan. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, biz milliy belgi bo'yicha har qanaqa farqlashlarga qat'iy qarshi chiqamiz. Jahonda katta va kichik millatlar va elatlar yo'q. Ularning har biri asriy barqaror va tengi yo'q an'analari bilan, tarixiy merosining boyligi bilan, milliy ruhining umumiyliги bilan, madaniyatining o'ziga xosligi bilan ahamiyatlidir. «Respublika aholisi orasida ko'pchilikni tashkil qilgan o'zbek millatining muqaddas burchi ona tilini, o'z milliy madaniyati va tarixini tiklashdangina iborat emas, balki birgalikda hayot kechiruvchi kam sonli xalqlarning taqdiri uchun, ularning o'ziga xos madaniy-ma'naviy xususiyatlarini saqlab qolish uchun, kamol topishi va o'zligini namoyon etishi uchun ularga teng sharoit va imkoniyatlar yaratib berish borasida mas'ul bo'lishdan ham iboratdir.

²⁹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.-Т.:Ўзбекистон, 20, 11 – бет.

Fuqarolar o'rtasidagi tinchlik, millatlararo totuvlik va do'stlik, ularni saqlash va mustahkamlashga intilish doimo xalqimizning o'ziga xos fazilati bo'lib keldi va shunday bo'lib qolmoqda»³⁰.

Ijtimoiy siyosiy qadriyatlar ichida istiqlol tufayli qo'lga kiritilgan barqarorlik, tinchlik totuvlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Barqarorlik, tinchlik, totuvlik - bular davlatchiligimizning yangi binosi barpo qilinadigan poydevordir. Bu bizni ertangi porloq kunimizga olib boradigan yo'ldir. Tinchlik va barqarorlik – bular xalqaro hamjamiyat bilan birlashtiruvchi vositadir. «Insonparvarlik, yaxshilik sofdillik singari umuminsoniy qadriyatlarni qabul qilgan va birgalikda barham ko'rgan mamlakatgina, xalqgina butun dunyo xalqlariga yaqin va tushunarli bo'lishi, jahon hamjamiyatiga qabul qilinishi mumkin. Faqat ular bilan teng huquqli, o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatilishi mumkin»³¹.

Yuqorida biz qadriyatlarning asosiy turlariga to'xtalib o'tdik, xolos. Qadriyatlar mohiyati shular bilan chegaralanib qolmaydi, albatta.

Davlat qadriyatlariga uning tasarrufida bo'lgan yer osti va yer usti boyliklari, moddiy va ma'naviy mulklari, suverenitet va hududiy yaxlitligi, aholining tinch hayoti va xavfsizligi, davlat ramzlari - bayrog'i, gerbi va madhiyasi, qurolli kuchlari, moliya, pul, kredit tizimi kabilar kiradi.

3.Qadriyatlar katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Qadriyatlarning mohiyatini bilish, ularga e'tiqod, ixlos qo'yish yoshlarda milliy g'urur, vatanparvarlik, milliy birdamlik va hamjihatlik tuyg'usini shakllantirishda, insonparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, axloqiy poklik fazilatlarini kamol toptirishda katta ahamiyatga ega. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgan hozirgi sharoitda vatanparvarlik tarbiyasi katta ahamiyat kasb etmoqda. Vatanparvarlik - o'z vatanini vijdonan sevis, uning taraqqiyot yo'li va istiqlolini anglab olish, manfaatlarini hamma sohalarda himoya qilishda fidoiylilik namunalarini ko'rsatishdir. Bu borada o'lkamiz tarixida namuna oladigan, katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab qadriyatlar bor. Ota-bobolarimiz vatanini ajnabiy bosqinchilardan himoya qilish uchun asrlar mobaynida mardlik va qahramonlik namunalarini ko'rsatganlar. Vatanparvarlik faqat qo'lga qurol olib vatan uchun kurashish emas. Fan, madaniyat, amaliy mehnat malakalarini chuqur egallab, Ona yurt dovrug'ini olamga yoyish ham vatanparvarlikdir. Ko'plab buyuk vatandoshlarimiz fan, madaniyat, yuksak amaliy san'at malakalarini egallab, rivojlantirib o'z vatanlarining obro'sini olamga yoyganlar. Milliy iftixor ham milliy qadriyatlarni to'la anglash, ular bilan faxrlanishdir. Vatanparvarlik va milliy iftixor bir-biri bilan bog'langan qadriyatlardir. Yuksak milliy iftixor zaminidagina vatanparvarlik bo'lishi mumkin.

Eng avvalo, shuni qayd qilish kerakki, qadriyatlar juda sarmazmun va ko'p qirrali tushunchadir. Shuning uchun ham adabiyotlarda mazkur tushunchaning mohiyatini ifodalashda turlicha yondashuvlarni uchratishimiz mumkin. Masalan,

³⁰ Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида.-Т.:Ўзбекистон, 1995, 262-263 бетлар.

³¹ Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида.-Т.:Ўзбекистон, 1995, 170 – 171-бетлар.

«Falsafiy ensiklopediya»ning beshinchi jildida qadriyatlar quyidagicha tavsiflangan: «Qadriyat falsafiy va sotsiologik tushuncha. U, birinchidan, biror obyektning ijobiy yoki salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ, belgilovchi - bag'ishlovchi jihati (subyektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)ni ifoda etadi. Shunga ko'ra obyektiv (ashyoviy) va subyektiv (ong) qadriyatlari bir biridan farqlanadi».³²

Ong qadriyatlariga normativ tasavvurlar yaxshilik va yomonlik adolat, go'zallik va xunuklik haqidagi, tarixning ma'nosi va insonning vazifasi haqidagi tasavvurlar, ideallar, harakat me'yorlari va tamoyillari tarzida ifodalangan ijtimoiy ko'rsatmalar va baholar, talab va taqiqlar, maqsad va loyihalar kiradi.

Ko'rinadiki, «Falsafiy ensiklopediya»da ruscha «sennost» tushunchasiga kishilar tomonidan yo ijobiy, yo salbiy baholanadigan, ularning moddiy va ma'naviy hayotiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan barcha narsa va hodisalar kiritilgan.

Qadriyatlar ichida eng birinchi va eng umumiy hayotning o'zidir, chunki hayotdan mahrum bo'lish qolgan barcha qadriyatlardan foydalanishni yo'qqa chiqaradi. Qadriyatlarning boshqa turlari, aslini olganda, hayot ne'matlarining mohiyatidir, madaniy qadriyatlardir»³³.

V.P.Tugarinov «qadriyat» va «baho» tushunchalarini bir biridan farqlash zarurligini uqtiradi. Qadriyat real yoki orzudagi hodisa (bor narsa yoki ideal)dir, baho esa shu hodisaga munosabatni bildiradi. U yoki bu hodisani qadriyatlarga mansub hisoblash, ya'ni uni qadriyatlarga qo'shish yoki qo'shmaslik ana shu munosabatga, ijobiy yoki salbiy bahoga bog'liq.

Qadriyatlarning jamiyat taraqqiyoti, inson hayotiga ko'rsatadigan ta'siri nuqtai nazaridan progressiv va reakion qadriyatlarga ajratilishini ham esdan chiqarmaslik kerak. Jamiyatimizning iqtisodiyoti, madaniyati va ma'naviyatining ilgari qarab rivojlanishiga, milliy axloq, odob, urf-odat negizlarida komil insonni tarbiyalashga, mustaqil respublikamizni har tomonlama ravnaq toptirib, jahon sivilizatsiyasiga qo'shishga astoydil xizmat qiladigan qadriyatlar – bu progressiv qadriyatlarni tashkil etadi. Aksincha, respublikamizning oldida turgan ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy muammolarni hal etishga to'sqinlik qiladigan hodisalar reakion qadriyatlarga kiradi.

Progressiv qadriyatlarning barcha turlari insonning farovon hayot kechirishini, erkin yashashi, ma'naviy axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan vositalar hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni avaylab asrash, yuksaltirish inson shahsiy hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Inson ongi, odob-axloqi, ma'naviyati, dunyoqarashining shakllanishi, talab-ehtiyojlarining qondirilishi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyati va harakteriga bevosita bog'liq. Jamiyat qanday bo'lsa ijtimoiy munosabatlar majmui bo'lgan inson ham unga mos bo'ladi. Demak, insonning inson sifatida shakllanishi, o'zini namoyon qilishi, ma'naviy kamoloti, qobiliyat va

³² Философская энциклопедия. 5-Жилд. -М.: Наука, 1970, 462-бет.

³³ Тугаринов В.П. О ценностях жизни культуры.- Л.,1960, 3-бет.

iste'dodini ruyobga chiqarish uchun jamiyat o'zining barcha jabhalarida insoniylashmog'i lozim.

Afsuski, yetmish to'rt yil davomida hukmronlik qilgan totalitar tuzum jamiyatdagi oddiy fuqarolarni birinchi navbatda mehnatkash insonni davlatning va kommunistik partiyaning irodasiyu, ko'rsatmasini bajaruvchi qullarga aylantirib qo'ygan edi. Odamlar asta-sekin o'zlarining talab va ehtiyojlariga ko'pam mos kelavermaydigan mavxum vazifalarni amalga oshiruvchi qo'g'irchoqqa aylanib boraverdilar. Insondagi o'ziga xoslik tashabbusi bug'ildi. Asossiz zo'ravonliklar, qatag'onlar sharoitida esa inson ma'naviyatining botiniy mohiyatini to'la ifodalamaydigan holatlar - ikkiyuzlamachilik oshirib-toshirib maqtash, og'zaki vatanparvarlik va insonparvarlik yolg'ondakam faollik paydo bo'ldi. Bora-bora odamlar yuksak minbarlarda otashin nutqlar so'zlab, ishda, faoliyatda uning aksini qiladigan bo'ldilar. Mafkuraviy tazyiq va zo'ravonliklar ta'siri ostida mehnatkash inson o'z maqsad-orzularini, qiziqishlarini ochiq-oydin izxor etish va himoya qilishdan cho'chiydigan bo'lib qoldi.

Tarix saboqlaridan shu narsa aniq va ravshanki, qaysi bir davlat yoki jamiyat o'zining moddiy boyliklariga ishonib, asosiy e'tiborni faqat uni ko'paytirishga qaratib, halqning madaniyatini rivojlantirish, insonning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishni o'ylamasa, u albatta inqirozga yuz tutadi. Sobiq sovet jamiyati inqirozining asl sabablaridan biri xalqning madaniy darajasiga, moddiy boyliklar yaratadigan insonning istaklari, ma'naviyati, qiziqishlariga lozim darajada e'tibor berilmaganligi bo'ldi.

Ilg'or mamlakatlar og'ir va murakkab sharoitda ham xalqning bilimi, axloqi, ma'naviyati, burch va mas'uliyati, imyon-e'tiqodini kuchaytirdilar. Bu mustaqillik yo'lidan odimlab borayotgan O'zbekiston davlati uchun ham katta tarixiy saboqdir.

Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining birinchi qadamlaridanoq, insonning odob-axloqi, bilimi, dunyoqarashi, ma'naviyati rivojiga katta ahamiyat berilganligi uning kelajagi buyuk ekanligiga yaqqol dalildir. Ma'naviy kamolot, bilim, odob-axloq, imyon-e'tiqod, falsafiy dunyoqarash inson uchun ham, jamiyat uchun ham bebaho boylikdir.

Har bir shaxsning umumxalq, bashariyat manfaatlariga to'la taalluqli bo'lgan burchlari va mas'uliyatlari ham bo'ladi. Bularga tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklarini qo'riqlash, madaniy, tarixiy yodgorliklarni saqlash to'g'risida g'amxo'rlik qilish, boshqa mamlakatlarning xalqlari bilan do'stlik va hamkorlikni rivojlantirish, yalpi tinchlikni saqlash va mustahkamlashga ko'maklashish singari burchlar kiradi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Aksiologiya qanday fan?
2. Qadriyatlarining qanday turlari bor?
3. Oilaning qadriyatga doir jihatlari nimada deb o'ylaysiz?
4. Davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta'minlashdagi o'rni nimada?
5. Gender tenglik to'g'risida nimalarni bilasiz?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

12-Mavzu: ETIKA

REJA:

1. Etikaning mohiyati va ahamiyati
2. Etikaning asosiy kategoriyalari
3. Kasbiy axloq va mehnat etikasi

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR:

Axloq, xulq, odob, ezgulik, yaxshilik, yomonlik, adolat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, or, burch, muomala madaniyati, barkamol avlod, sog‘lom turmush tarzi, “ommaviy madaniyat”, axloqiy tarbiya

1. Axloqshunoslik bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan qadimiy fandır. U bizda «Ilmi ravish», «Ilmi axloq», «Axloq ilmi», «Odobnoma» singari nomlar bilan atab kelingan. Yevropoda esa «Etika» nomi bilan mashhur, biz ham yaqin-yaqingacha shu atamani qo‘llar edik. Uni birinchi bo‘lib yunon faylasufi Arastu muomalaga kiritgan. Arastu fanlarni tasnif qilarkan, ularni uch guruhga bo‘ladi: nazariy, amaliy va ijodiy. Birinchi guruhga u falsafa, matematika va fizikani; ikkinchi guruhga – etika va siyosatni; uchinchi guruhga esa – san‘at, hunurmandchilik va amaliy fanlarni kiritadi. Shunday qilib, qadimgi yunonlar axloq haqidagi ta’limotni fan darajasiga ko‘targanlar va «Etika» (ta ethika) deb ataganlar.

Hozirgi kunda bu fanni ilmiy va zamonaviy talablar nuqtai nazaridan «Axloqshunoslik» deb atashni maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

Axloqshunoslik axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini o‘rganadi. Axloqshunoslik deb shunday falsafiy sohani aytishadiki, u inson faoliyatining, odobi va axloqiy me‘yorlarini o‘rganadi. «Axloq» so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, «xulq» so‘zining ko‘plik shaklidir. «Axloq» iborasi ikki xil ma’noga ega: umumiy tushuncha sifatida fanning tadqiqot obyekti anglatrsa, muayyan tushuncha sifatida inson fe‘l-atvori va xatti-harakat ining eng qamrovli qismini bildiradi. Axloqni umumiy tushuncha

sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan bo'lsak, doiraning eng kichik qismini odob, undan kattaroq qismini xulq, eng qamrovli qismini axloq egallaydi. Agar *axloq* tushunchasi ostida ko'pincha ijtimoiy ong shakli (ya'ni anglangan me'yorlar va qoidalar) anglashilsa, odob doirasi kishilar orasidagi o'zaro munosabatda ularning voqeyiy hayotdagi aloqalarini tashkil etadi.

Odob – inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida u qadar muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

Xulq – oila, jamoa, mahalla-ko'y miqyosida ahamiyatli bo'lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.

Axloq esa – jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig'indisidir.

Bu fikrlarimizni misollar orqali tushuntirishga harakat qilamiz. Deylik, avtobusda yoshgina yigit, talaba hamma qatori o'tiribdi. Navbatdagi bekatdan bir kekxa kishi chiqib, uning ro'parasida tik turib qoldi. Agar talaba darhol: «O'tiring, otaxon!» deb joy bo'shatsa, u chiroyli a'mol qilgan bo'ladi; chetdan qarab turganlar unga ich-ichidan minnatdorchilik bildirib: «Baraka topgur, odobli yigitcha ekan», deb qo'yadi. Aksincha, talaba yo teskari qarab olsa, yoki o'zini mudraganga solib, qariyaga joy bo'shatmasa, g'ashimiz keladi, ko'nglimizdan: «Buncha beodob, surbet ekan!» degan fikr o'tadi, xullas, u bizda yoqimsiz taassurot uyg'otadi. Lekin, ayni paytda, talabaning qariyaga joy bo'shatgani yoki bo'shatmagani oqibatida avtobusdagi yo'lovchilar hayotida biror-bir ijobiymi, salbiymi – muhim o'zgarish ro'y bermaydi.

Xulqqa quyidagicha misol keltirish mumkin: mahallamizdagi oila boshliqlaridan biri imkon boricha qo'ni-qo'shnilarining barcha marakalarida xizmatda turadi, hech kimdan qo'ldan kelgan yordamini ayamaydi, ochiq ko'ngil, ochiq qo'l, doimo o'z bilimini oshirib borishga intiladi, tirishqoq, oila a'zolariga mehribon va h. k. Unday odamni biz hushxulq inson deymiz va unga mahallamizning namunasi sifatida qaraymiz. Bordi-yu, aksincha bo'lsa, u qo'ni-qo'shnilar bilan qo'pol muomala qilsa, to'y- ma'rakalarda janjal ko'tarsa, sal gapga o'dag'aylab, musht o'qtalsa, ichib kelib, oilada xotin-bolalarini urib, haqoratlasa, uni badxulq deymiz. Uning badxulqliligidan oilasi, ba'zi shaxslar jabr ko'radi, mahalladagilarning tinchi buziladi, lekin xatti-harakatlari jamiyat ijtimoiy hayotiga yoki insoniyat tarixiga biror bir ta'sir o'tkazmaydi.

Axloqqa kelsak, masala jiddiy mohiyat kasb etadi: deylik, bir tuman yohud viloyat prokurori o'zi mas'ul hududda doimo qonun ustuvorligini, adolat qaror topishini ko'zlab ish yuritadi, lozim bo'lsa, hokimning noqonuniy farmoyishlariga qarshi chiqib, ularning bekor qilinishiga erishadi; oddiy fuqaro nazdida na faqat o'z kasbini e'zozlovchi shaxs, balki haqiqiy huquq posboni, adolatli tuzum timsoli tarzida gavdalanadi; u – umrini millat, Vatan va inson manfaatiga bag'ishlagan yuksak axloq egasi; u, o'zi yashayotgan jamiyat uchun namuna bularoq, o'sha jamiyatning yanada taraqqiy topishiga xizmat qiladi. Agar mazkur prokuror, aksincha, qonun himoyachisi bo'laturib, o'zi qonunni buzsa, shaxsiy manfaati yo'lida oqni qora, qorani oq deb tursa, u axloqsizlik qilgan bo'ladi: oddiy fuqoro

nazdida birgina kishi prokuror-amaldor emas, balki butun jamiyat adolatsiz ekan, degan tasavvur uygʻonadi. Bu tasavvurning muntazam kuchayib borishi esa, oxir-oqibat oʻsha jamiyat yoki toʻzumni tanazzulga olib keladi.

Albatta, har uchala axloqiy hodisa va ularning ziddi nisbiylikka ega. Chunonchi, hozirgina misol keltirganimiz prokurorning axloqsizligi darajasi bilan oʻz yakka hukmronligi yoʻlida millionlab begunoh insonlarni oʻlimga mahgʻum etgan Lenin, Stalin, Gitler, Pol Pot singari shaxslar orasida farq bor: agar prokurorning axloqsizligi bir millat yoki mamlakat uchun zarar qilsa, totalitar tuzum hukmdorlari hatti-harakatlari umumbashariy miqyosdagi fojealarga olib keladi.

Har bir olingan shaxs va jamiyat qadriyatlari tizimida axloq muhim oʻrin tutadi. Ijtimoiy falsafada *axloq ijtimoiy ongning shunday shakli* sifatida tushuniladiki, *unda ayrim olingan kishilar, ijtimoiy guruhlar va umuman jamiyatning axloqiy tasavvurlari, odamlar xatti-harakatining meʼyorlari va baholanishi* oʻz ifodasini topadi.

«Axloq», «xulq» va «odob» tushunchalari bir-biridan farq qilsada, ammo kundalik hayotda, har kungi aloqalarda mazkur tushunchalar koʻpincha sinonimlar sifatida qoʻllaniladi. Masalan, birgina xatti-harakatni «axloqsizlik», «badxulqlik», «odobsizlik» deb aytish mumkin.

Axloq, odob, etika haqidagi falsafiy tasavvurlarning tarixiy taraqqiyotida juda ham xilma-xil nazariy va uslubiy yondoshishlarni topish mumkin.

Axloq eng qadimgi ijtimoiy hodisalardan biridir. Uzoq vaqtlar davomida u jamiyatda yagona tartibga solib turuvchilik vazifasini bajarib keldi.

Axloq qaysi vaqtda shakllanganligi haqida turli tuman nuqtai nazarlar mavjud. Nima boʻlganda ham, u ibtidoiy jamiyatdayoq paydo boʻlgan. Axloq shu vaqtda paydo boʻldiki, unda inson nima bor-u, nima boʻlishi kerakligini farqiga borgan edi. Eng qadimgi zamonlardan boshlab barcha falsafiy taʼlimotlar koʻproq yoki ozroq darajada tartibga keltirilgan axloqiy qarashlar tizimini albatta oʻzida mujassamlashtirgan edi.

XX-XXI asrlar orasi faqat siyosiy, bilish va boshqa jihatlardangina emas, balki maʼnaviy-axloqiy muammolardagi yangi yoʻnalish va yondoshishlarning shakllanishi jihatidan ham haqiqatan burilish nuqtasi boʻldi. Jumladan, biologik axloq, tabiat axloqi, ekologik axloq va shu kabi yoʻnalishlar shakllandi. Shunday qilib, axloqiy masʼuliyat doirasining kengayishi yuz berdi. Masalan, biologik axloq taʼlimotining asoschilaridan biri boʻlgan ingliz faylasufi R. Atfild hech bir istenosiz barcha yirik mavjudotlarni axloqiy maqomga ega qilib qoʻyadi. «Yer yuzi axloqi» taʼlimotining asoschilaridan biri O. Leopold undan ham oʻzib ketadiki, uning fikricha, faqat biologik obyektlargina emas, balki ekologik tizimlar ham, biosfera, yer yuzi ham toʻlaligicha axloqiy maqomga egadirlar.

Axloq falsafasida yangi yoʻnalishlarning shakllanishi, hali unda anʼanaviy maʼnaviy-axloqiy muammolarga qiziqishning barham topishi maʼnosini anglatmaydi. Ezgulik va illatlar, hayot va oʻlim, yaxshilik va yomonlik, toʻgʻrilik va egrilik, ulugʻvorlik va pastkashlik, altruizm va xudbinlik – bu va boshqa koʻplab masalalar asrlar davomida faqatgina faylasuflarnigina emas, insoniyatning eng asl aql egalarini doim qiziqtirib kelgan.

Mustaqil O'zbekistonning milliy g'oyasini shakllanishi va rivoji do'stlik, xayrixohlik, mehr-shafqat, mehnatsevarlik, poklik, kattalarga hurmat, bag'ri kenglik, ma'rifatparvarlik kabi axloqiy qadriyatlar bilan bog'liqdir³⁴. Jamiyatda ma'naviy-axloqiy asos mustahkam o'rnatilgan bo'lsagina, uning haqiqiy gullab-yashnashi, taraqqiyotning yuksalishi mumkin bo'ladi.

Shu o'rinda A.Eynshteyning quyidagi so'zlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: «Oxir oqibatda barcha insoniy qadriyatlarning asosida axloqiylik yotadi».

2. Barcha fanlarda bo'lgani kabi etika fani ham o'zining kategoriyalariga ega. Ezgulik axloqshunoslikdagi eng asosiy kategoriyalardan. U inson faoliyatining asl mohiyatini anglatadi – Tangri irodasining inson qalbidagi tajassumi sifatida namoyon bo'ladi. «Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal» uchligi «Avesto» dan tortib, barcha muqaddas kitoblarda yetakchi o'rinni egallashi ham shundan. Ezgulik – inson shaxsini komillikka, baxtga, jamityani esa yuksak taraqqyoitga yetkazuvchi vositadir. U insonning axloqiy faoliyati tufayli muayyanlashadi, yuzaga chiqadi. Uni sinfiylik yohud partiyaviylik qobig'iga o'rash mumkin emas. Chunonchi, «sinfiy dushmani», ya'ni biror bir shaxsni yoki guruhni faqat boshqa sinfga mansub bo'lgani uchun jisman yo'qotish, qanchalik bo'yab-bejalmasin, ezgulik bo'lolmaydi. U tom ma'nodagi yovuzlikdir. Shu bois totalitar tuzumlarda ezgulikni bunday talqin etishning noilmiyligi, soxtaligi hozirgi kunda hammaga ayon.

Ezgulik va uning ziddi yovuzlik odatiy, kundalik hayot mezonlari bilan o'lchanmaydi, ular ham muhabbat singari qamrovli va ijtimoiylik xususiyatiga ega. Ezgulikning axloqiy ideal bilan bog'liqligi ham shundan. Shu tufayli u amaliyotda qahramonlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, jasurlik singari tamoyillarni o'z ichga oladi.

Shuni ham aytish kerakki, muhabbat va nafrat juftlik tushunchasida nafrat muhabbatni inkor etmay, aksincha, uning barqarorligidan dalolat bersa, ezgulik va yovuzlik juftligida har ikki tushuncha bir-birini tamomila inkor etadi. Nafaqat inkor etadi, balki ular orasida hayot-mamot kurashi ketadi va bu kurash abadiy kurash sifatida, olamni harakatga keltiruvchi kuch tarzida nomoyon bo'ladi.

Ezgulik va yovuzlik haqida gap borganida, yaxshilik va yomonlik nima, bu ikki juftlik mazmunan bir emasmi, degani savol tug'iladi. Bu tabiiy. Chunki hozirgacha bizga ma'lum o'zbek tilidagi barcha axloqshunoslikka doir adabiyotlarda ezgulik va yovuzlik mezoniy tushunchalar sirasiga kiritilmagan, u bor-yo'g'i yaxshilik va yomonlikning sinonimi tarzida taqdim etib kelingan. To'g'ri, yaxshilik tushunchasining ko'pgina unsurlari ezgulikdan, ezgulikning ba'zi unsurlari yaxshilikdan joy olishini inkor qilish mumkin emas. Ularning ziddida ham shunday «singishib ketish» mavjud. Lekin bunday dalilllar aslo mazkur ikki juftlikni aynanlashtirishga asos bo'la olmaydi. Ular orasida qat'iy farq mavjud: ezgulik, yuqorida aytganimizdek, ijtimoiylik xususiyatiga ega, yaxshilik esa unday emas. U asosan shaxsning odobiga, xulqiga bog'liq bo'lgan ijobiy hodisa. Zero unda, mardlik, ochiqko'nqillilik, halollik singari axloqiy me'yorlar tajassum topadi. Biroq u qahramonlik, jasorat, vatanparvarlik kabi tamoyillar darajasiga ko'tarila olmaydi. Misol tariqasida buyuk shoirimiz Alisher Navoiyning faoliyatini

³⁴ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва қоидалар. –Т., 2001

olaylik. U surunkasiga ijodiy mehnatga umrini bag‘ishladi, xalqi uchun, xalqlar uchun «Xazoyin ul-maoniy»dek, «Hamsa»dek buyuk asarlar yaratdi. Bu ezgulik – abadiy, zero Navoiy asarlari millionlab odamlarga yuzlab yillar mobaynida zavq-shavq ulashib, ularni komillikka chorlab kelmoqda. Ayni paytda, u ko‘plab yaxshiliklar qildi – muhtoj odamlarga qarz berdi, bergan qarzidan kechib yubordi v.h. Uning bu yaxshiliklari, ajoyib ijobiy hodisa bo‘lgani holda, o‘tkinchilik xususiyatiga ega, shuningdek, qahramonlik ham, buyuk jasorat ham, vatanparvarlik ham emas. Demak, yaxshilikni yirik ijtimoiy hodisa – ezgulik bilan aynanlashtirish to‘g‘ri emas.

Axloqshunoslikning yana bir qamrovli mezoniy tushunchasi-adolat. Uning ezgulik va yovuzlik hamda yaxshilik va yomonlikdan asosiy farqi shundaki, adolatning o‘zi biror bir qadriyatni anglamaydi, lekin qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baholash maqomiga ega. Shu bois unda jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyati bor; unda ham axloqiy, ham huquqiy talablar mujassamlashgan. Uni ma‘lum ma‘noda miqdor o‘lchovchi ham deyish mumkin: u talab bilan taqdirlashni o‘lchab turadigan tarozudir. Adolat bor joyda ijtimoiy jabrga, beboshlikka yo‘l yo‘q.

Deyarli bir yarim asr moybaynida adolatsizlikni milliy kamsitishni, milliy iftixor hissining oyoq osti qilinishini, begona irodaning zo‘rlab qabul qildirish kabi holatlarni boshdan g‘echirgan xalqimiz, endlikda, mustaqilliqqa erishib, adolatli fuqorolik jamiyati tuzishga kirishdi. Adolat bugungi kunda bizning mustaqil, kelajagi buyuk davlatimizning mohiyatini anglatuvchi tushunchaga aylanib bormoqda.

Axloqshunoslikning nihoyatda ta’sir doirasi keng tushunchalaridan biri vijdondir. Vijdon – Zigmund Freyd ta’biri bilan aytganda, a’lo men, men ustidan nazorat o‘rnatib, uni boshqarib turuvchi ikkinchi, yuqora darajadagi men. Agar uyat hissi insonning tashqi, jamiyatga bog‘liqligidan kelib chiqsa, vijdon uning ichki o‘z-o‘ziga bog‘likligini namoyon etadi. Bu ichki bog‘liqlik tashqi bog‘liqlikka nisbatan teran va doimiydir: uyat ma‘lum bir vaqt ichida odamning o‘z nojo‘ya harakat i tufayli yuzaga kelgan o‘ngaysizlik bo‘lsa, vijdon azobi, bu oddiy o‘ngaysizlik emas, balki qalbdagi, odamda*gi odamiylikka e’tiqodning faryodi, talabi, uni qondirmas ekansiz, hech qachon azob to‘xtamaydi. Uyat bilan vijdonni, shu bois, dengizdagi muz tog‘iga – aysbergga o‘xshatish mumkin: yuzaga uyat tarzida chiqib turgan qismi teranlikdagi qismidan yuz, balki ming barobar kichik.

Ko‘pincha vijdon tushunchasi o‘rnida iymon iborasini uchratish mumkin. Iymon aslida diniy tushuncha. Lekin hayotda vijdon tushunchasining sinonimi tarzida ishlatiladi. Masalan, kimnidir birov «iymonli odam» deganida, uning musulmonlikka iymon keltirgan-keltirmagani haqida o‘ylab o‘tirmaydi, buning ustiga, u odam musulmon emas, nasroniy bo‘lishi ham mumkin. Chunki gap bu yerda o‘sha odamning dindorligi haqida emas, balki vijdonli, halol, rostgo‘y eganiligi to‘g‘risida ketyapti. Shu ma‘noda vijdon bilan iymonni egizak tushunchalar deyish mumkin.

Yana bir muhim mezoniy tushuncha – burch. Burch, mohiyatan, jamiyat, davlat va shaxslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat.

U yuqorida aytganimizdek, vijdon, e'tiqod mas'uliyat kabi tushunchalar bilan mustahkam bog'liq. Umuman, hayotda insonning har bir xatti-harakati zamirida burch tushunchasi – burchga sadoqat yoki xiyonat yotadi. Burchning insonlik burchi, musulmonlik burchi, nasroniylik burchi, farzandlik burchi singari keng qamrovli, barcha davrlar uchun umumiy bo'lgan tushunchalari ham, jurnalistlik burchi, shifokorlik burchi, olimlik burchi kabi kasbiy odob doirasidagi tushunchalari ham mavjud. Burch tushunchasining o'ziga xos jihatlaridan yana biri – uning vaqt va jamiyatda muayyanlashish xususiyati. Chunonchi, bir tuzum yoki jamiyatda ijobiy hisoblangan burch talablari ikkinchi bir tuzum yoki jamiyat uchun salbiy ma'no kasb etishi mumkin. Sobiq sho'rolar fuqarosining o'sha davrdagi mavjud tuzum oldidagi burchi hozirgi kunda o'ta salbiy hodisa sifatida baholanishi bunga yorqin misol bo'la oladi.

Shuni ham aytish kerakki, ba'zi hollarda burch shaxsning ko'pgina mayli-istaklariga qarshi boradi: uni huzur-halovatdan, turmush lazzatlaridan mahrum etadi. Masalan, Furqat mustamlakachilar mafkurasiga xizmat qilganida, uning hayoti rohat farog'atda kechishi mumkin edi. Lekin u Vatan oldidagi, millat oldidagi burchni deb muhojirlikning og'ir qismatiga duchor bo'ldi: uni mustamlakachilar mamlakat hududidan chiqarib yuborib, qayta kiritmadilar. Furqat xorijda vafot etdi.

Ba'zan burch tufayli odamlar o'z sevgisidan, jon-dilidan sevgan kishisidan kechishga ham majbur bo'ladilar. Xullas, burch axloqshunoslik mezoniy tushunchalari ichidagi eng «qattiqqo'l», eng «shafqatsizi».

Mezoniy tushunchalardan yana biri – nomus. Nomus tushunchasi bir tomondan, burch bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihatdan, qadr-qimmat tushunchasiga aloqadir. Zero nomus mohiyatan shaxsning o'z qadr-qimmatini anglab yetishi, shu qadr-qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmaslikka munosabati bilan belgilanadi. Goho uni or tushunchasi bilan chalkashtirish hollari ham uchrab turadi. Lekin aslida, nomusga nisbatan or ancha tor qamrovdagi, nisbatan zalvorsiz tushuncha. Chunonchi, oriyatli odam deganida, o'z so'zining ustidan chiqadigan, sadaqa tarzida qilingan muruvvatlardan baland turadigan shaxs tushuniladi. Beor odam esa – o'z sha'niga aytilgan gaplarga parvo qilmay, ishini bajarib ketaveradigan, aytilgan-aytilmagan joylarga suqilib kiraveradigan surbetnamo kishi. Nomusning esa toshi og'ir – ijtimoiylik xususiyatiga ega, keng qamrovli. Nomus yo'lida inson hatto o'z hayotidan kechishi mumkin, odamlar o'z nomusi, oila nomusi, millat nomusi deb kurashadilar. Bu haqda ko'plab badiiy asarlar yaratilgan. Mehnat, sport singari sohalarda jamoa nomusi ham alohida ahamiyatga ega; shu o'rinda nomus obro' tushunchasi bilan bog'lanib ketadi. Bularning hammasi o'zini hurmat qilish, o'ziga nisbatan atrofdagilarning hurmat-izzatini yo'qotmaslik uchun o'z-o'zini nazorat qilish hissidan kelib chiqadi.

Biz yuqorida ko'rib o'tganlarimiz – asosiy mezoniy tushunchalarning barchasi baholash tabiatiga ega. Yana qator muhim axloqiy tushunchalar borki, ular o'z yechimini talab qilishi bilan, ya'ni muammolik xususiyati bilan ajralib turadi. Ideal, baxt, hayotning ma'nosi, singari tushunchalar shular jumlasidandir. Biz ular orasidagi eng qamrovlisi bo'lishi axloqiy ideal tushunchasiga nisbatan batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

Bir qaraganda, idealda ham baholash xususiyati mavjuddek tuyuladi. Lekin aslida u qiyoslashga asoslanadi. Antiqa tomoni shundaki, idealda nomavjud, xayoldagi insonga, voqelika real, mavjud, hayotdagi xodisalar qiyoslanadi, ya'ni bor narsa yo'q narsa bilan o'lchanadi. Zero ideal hayotda mavjud bo'lishi mumkin emas – bu hammaga ayon gap. Buning ustiga, ideal hozirgi zamonda ham, kelajakda ham bo'lmaydi, uning mavjudlik sharti-o'tgan zamon. Lekin, shunga qaramay, inson ideal sari intiladi, o'z hayotini unga qiyoslaydi, unga taqlid qiladi. U inson hayotidagi eng oliy axloqiy talabkiki, uning bajarilishi shaxsni komillikka yetkazadi. Albatta, hayotda bunday bo'lmaydi, lekin inson ana shu komillikni o'ziga namuna bilib, idealga intilib yashashi jarayonida nisbiy komillikka erishadi.

Dunyoviy ideal bilan, to'g'rirog'i, ijtimoiy-axloqiy ideal bilan diniy ideal, bir qaraganda, o'xshashdek ko'rinsa-da, aslida keskin farq qiladi. Chunonchi, musulmonlar uchun-Muhammad alayhissalom, nasroniylar uchun – hazrati Iso, yahudo dinidagilar uchun – hazrati Muso ideal hisoblanadi. Ular ideal sifatida hech qachon o'zgarmaydi, boqiy. Ijtimoiy-axloqiy ideallar esa o'zgarishi mumkin va ko'p hollarda o'zgarib turadi. Masalan, sho'rolar davrida o'sha to'zum asoschisi Lenin – eng yuksak axloqiy ideal sifatida talqin etilardi va ko'pchilik tomonidan shunday qabul qilanardi. Hozir esa «Kuch-adolatda!» degan shiorni hayotining ma'nosi deb bilgan buyuk ajdodimiz Amir Temur ko'pchilik tomonidan ijtimoiy-axloqiy ideal, adolatli davlat rahbarining ideal timsoli tarzida qabul qilinadi. Demak, muayyan tuzum talablaridan kelib chiqqan holda, ijtimoiy-axloqiy ideallar o'zgarishi mumkin. Faoliyati niqoblangan axloqsizlikdan iborat bo'lgan. Lenin, Stalin, Gitler kabi ijtimoiy ideallarning umri uzoq bo'lmasa-da, har holda ideal edilar, aldangan ko'pchilik ularni namuna deb bildilar.

Asosiy mezoniy tushunchalar – kategoriyalar singari axloqiy tamoyillar ham axloqiy anglash shakllaridan hisoblanadi. Ularda axloqiy talab nisbatan umumiy tarzda ko'zga tashlanadi.

Ular jamiyat tomonidan shaxsga qo'yiladigan talab tarzida namoyon bo'lib, insonning axloqiy mohiyatini, uning hayoti mazmunini, odamlar bilan o'zaro aloqalaridagi asosiy jihatlarini belgilab beradi. Natijada tamoyillar, inson xatti-harakat ining umumiy yo'nalishini ko'rsatgan holda, ko'pgina axloqiy me'yorlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Axloqiy tamoyillarning eng qadimiy va eng muhimlaridan biri – insonparvarlik. U – insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g'oyalar, qarashlar va e'tiqodlar majmui, shaxs erki, qadr-qimmat, uning baxtli bo'lish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga yengilmas ishonch. Insonparvarlik tamoyilini, Ovro'po Uyg'onish mutafakkirlari dastlab ilgari surganlar, degan fikr mavjud. Aslida, insonparvarlik dastavval Sharqda o'rta tashlangan, insoniylik, insonparvarlik degan ma'noni bildiruvchi «namlulu» so'zi bundan 3-4 ming yillar avvalgi qadimgi Somir mix xatlarida uchraydi.

Eng ma'lum va mashhur tamoyil, bu – vatanparvarlik. U insonning o'z Vataniga muhabbatini, uni asrab-avaylashga bo'lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Uni ko'pincha Vatan dushmanlariga qarshi ma'naviy-mafkuraviy qurol sifatidagina talqin etadilar.

Aslida esa, bu tamoyilning qamrovi ancha keng – u insonparvalikning nisbatan muayyanlashgan shakli. U, eng avvalo, o‘z vatandoshlari erkini asrash uchun kurash, inson ozodligi yo‘lidan xatti-harakatlardir. Vatan himoyasi, bu – inson himoyasi, millat himoyasi. Lekin bu himoya, yuqorida aytganimizdek, faqat jang maydonida emas, balki barcha sohalarda namoyon bo‘ladi. Har bir sohada Vatan erishgan muvaffaqiyatlardan quvonch, muvaffaqiyasizliklardan qayg‘u hissini tuyush, Vatan bilan g‘ururlanish, uning har bir qarich yeri, binosining har bir g‘ishtiga, qadimiy obidalariga, ilm-fan va san’atdagi yutuqlariga mehr bilan qarash, ularni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash – bular hammasi vatanparvarlikdir.

Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalash, ularni Vatan ma’nosini teran anglab yetishga o‘rgatish, vatanparvarlik – yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish fanizmning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Yana bir muhim axloqiy tamoyil, bu – millatparvarlik. U ma’lum ma’noda, vatanparvarlik tamoyilining yanada muayyanlashgan shakli. Zero millatni sevish keng ma’noda Vatanni sevish degan. Vatanparvarlik millatning bo‘lishi yoki rasmona erkin va baxtli yashashi mumkin emas.

Asl millatparvar insonlarning umri millatning umri kabi mangudir. Millat yo‘lida o‘z jonini tikkan Munavvarqori, Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon singari minglab fidoiylarni ham halqimiz hech qachon unutmaydi.

Inson hayotida axloqiy me’yorlar ham katta ahamiyatga ega. Ular tamoyillarga nisbatan ancha sodda, umumlashmagan, tor qamrovli. Ularni kundalik hayotimizda ma’lum axloqiy tamoyillarning amalga oshish murvatlari ham deyish mumkin, ular axloqiy talablarning eng oddiy shakli sifatida ro‘yobga chiqadi. Halollik, rostgo‘ylik, xushmomalalik, bo‘doblilik, kamtarlik singari me’yorlar ayniqsa, diqqatga sazovar. Shuni ham aytish kerakki, halollikni uning dastlabki tor diniy mazmunida-qaysi taom harom-u, qaysinisi halol, degan ma’noda tushunmaslik lozim. U allaqachon umuminsoniy ma’no kasb etgan me’yorga aylangan. Halollik, rostgo‘ylik vijdon tushunchasi bilan bog‘liq, insonning o‘zgaga munosabati o‘ziga munosabatidek sof bo‘lishini talab etuvchi me’yorlardir.

O‘nlab me’yorlar orasida bu ikkisiga to‘xtalishimizning sababi shundaki, mustamlakachilik davrida, ayniqsa, sho‘rolar hukmronlik qilgan chorakam bir asr vaqt mobaynida yolg‘on, aldov, nopoklik, haromxo‘rlik, munofiqlik singari illatlar xalqimizga shu qadar ustalik bilan singdirildiki, hozirgi paytda ko‘pchilik odamlar halollik va rostgo‘ylik ustidan hatto kuladigan bo‘lib qolganlar. So‘z bilan ish birligi yo‘qolgan, qog‘ozdagi chiroyli gaplar hayotga to‘g‘ri kelmaydi. Lekin bularning hammasi afsuski, odatiy xoldek qabul qilinadi. Shu bois mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq bu illatlarga qarshi kurash boshlandi. Hozirgi kunda davlatimiz milliy ma’naviy qadriyatlarni tiklashni, odamlarni halol, insofli, adolatli bo‘lishga chaqirishni o‘z ichki siyosatining muhim qismi deb bilgan holda ish tutmoqda. Zero ko‘z o‘ngimizda yolg‘on, aldov, ikkiyuzlamachilik nimaligini deyarli bilmaydigan jamiyatlar, millatlar gullab-yashnamoqda. Yaponiya, Germaniya, Fransiya, AQSh, Buyuk Britaniya singari mamlakatlar shular jumlasidan.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Etika fani nimani o'rganadi?
2. Axloq va xulq o'rtasida qanday farq bor?
3. Adolat deganda nimani tushunasiz?
4. Insonning qanday burchlari bor?
5. Vijdon va iymon tushunshalari o'rtasida farq bormi?
6. Muomala madaniyatining qanday ahamiyati bor?
7. Barkamol avlod qanday shakllanadi?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.
6. Muxammadjonova L.A. Davlat xizmatchisi etikasi va imidji. – Toshkent: Universitet, 2017.

13-Mavzu: ESTETIKA

REJA:

- 1.Dunyoni estetik idrok etishning mohiyati. Sharq va G'arb mutafakkirlarining estetik qarashlari
- 2.Estetik did va olamni estetik idrok etishning shaxs kamolotiga ta'siri
- 3.Estetikaning zamonaviy yondoshuvlari

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

Go'zallik, xunuklik, tabiat go'zalligi, inson go'zalligi, go'zallik va san'at, ulug'vorlik va tubanlik, tabiat ulug'vorligi, fojeaviylik, fojeaviylik va nafosatli ideal, fojiaaviy ziddiyat, kulgili holat, hazil, mutoyiba

1. **Nafosatshunoslik** yoki **estetika** eng qadimgi fanlardan biri. Uning tarixi ikki yarim-uch ming yillik davrni o'z ichiga oladi. Biroq u o'zining hozirgi nomini XVIII asrda olgan. Ungacha bu fanning asosiy muammosi bo'lmish go'zallik va san'at haqidagi mulohazalar har xil san'at turlariga bag'ishlangan risolalarda, falsafa hamda ilohiyot borasidagi asarlarda o'z aksini topgan edi. «Estetika»

atamasini birinchi bo'lib buyuk nemis faylasufi **Aleksandr Baumgarten** (1714–1762) ilmiy muomalaga kiritgan. Baumgartenning «his qilish», «sezish», «his etiladigan» singari ma'nolarni anglatuvchi yunoncha aisthetikos – «oyestetikos» so'zidan «estetika» (nemischa «estetik» - «eshtetik») iborasini olib, ushbu fanni ana shunday nomlaydi.

Baumgarten nafosatshunoslikni hissiy idrok etish nazariyasi sifatida ilgari surdi. Lekin, ko'p o'tmay, u goh «**go'zallik falsafasi**», goh «**san'at falsafasi**» sifatida talqin etila boshlandi. Nafosatshunoslik fanining eng buyuk nazariyotchilaridan biri **Gegel** esa o'z ma'ruzalarining kirish qismida yozadi: «Estetika» degan nom muvaffaqiyatsiz chiqqani va yuzaki ekani sababli boshqa atama qo'llashga urinishlar bo'ldi. Bizning fanimiz mazmuniga javob beradigan ibora, bu – «san'at falsafasi» yoki yana ham aniqroq qilib aytganda - «badiiy ijod falsafasi».

Gegelnig «estetika» atamasidan ko'ngli to'lmaganligiga jiddiy sabablar bor. Bulardan biri – yuqorida uning o'zi aytib o'tgan fikrlari bo'lsa, ikkinchisi – mazkur so'zning barcha his-tuyg'ularga taalluqliligi. *Vaholanki, fanimiz faqat nafosatli his tuyg'ular va ularning ziddini nazarda tutadi.* Ayniqsa, mana shu ikkinchi sababga ko'ra, «estetika» atamasining talabga javob berishi shubhali. *Buning ustiga allaqachon fanimizning tadqiqot doirasi san'at hududidan chiqib, inson hayotining deyarli barcha sohalariga yoyilib ketgan.* Shu bois biz «nafosatshunoslik» atamasini ilmiy muomalaga kiritishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Zero mazkur atamaga asos bo'lgan «nafis», «nafislik», «nafosat» so'zlari o'z qamrovi bilan fanimiz talabiga to'la javob bera oladi. «Nafis» so'zi «O'zbek tilining izohli lug'ati»da - go'zal, nozik, latif, yoqimli, badiiy jihatdan juda yuksak ma'nolarida izohlanadi. Bundan tashqari «estetika» («estetik») so'zi nemislardagi yoki ruslardagi kabi bizda keng yoyilib, xalqimiz nutqiga singishib ketgan emas.

Nafosatshunoslik – falsafiy fanlar tarkibiga kiruvchi maxsus soha. Falsafani esa, o'zingizga ma'lumki, fanlar podshosi deb atashadi. Darhaqiqat, u fanlar podshosi sifatida barcha tabiiy va ijtimoiy ilmlar erishgan yutuqlarni o'z qamroviga olib, ulardan umumiy xulosalar chiqarib, shular asosida insoniyatni haqiqat tomon yetaklaydi. Shu bois tafakkurni falsafaning tadqiqot ob'ekti deb atash maqsadga muvofiq bo'ladi. *Nafosatshunoslik - falsafiy fan sifatida, barcha san'atshunoslik fanlari erishgan yutuqlardan umumiy xulosalar chiqarib, shu xulosalar asosida insonni go'zallik orqali haqiqatga yetishtirishga xizmat qiladi.* Bundan tashqari nafosatshunoslik ishlab chiqqan qonun-qoidalar barcha san'atshunoslik fanlari uchun umumiylik xususiyatiga ega.

Estetik g'oyalar datsavval qadimgi Sharq o'lkalarida, jumladan, Misr, Mesopotamiya, Bobil, Hindiston, Xitoy, Eron va Turon mamlakatlarida vujudga keldi. Qadimgi Sharq estetik qarashlarini o'rganib, ularni umumlashtirib, nazariy jihatdan yanada boyitib bayon etish, boshqa hayot jabhalarida bo'lganidek, estetik qarashlar tarixida ham qadimgi Sharq mamlakatlari erishgan yutuqlar zaminida Yevropa mamlakatlari badiiy madaniyati tarkib topganligi sir emas. Qadimgi Yunon san'atkorlari va faylasuflari qadimgi Sharq badiiy madaniyati merosiga tayangan holda estetik g'oyalar va fikr-mulohazalarni ishlab chiqdilar.

Qadim Yunon ilk afsonalariga asoslangan Gomer eposlari san'atning, adabiyotning tub ma'nosini, obrazli tafakkurning buyuk vazifasini, badiiy so'zning qudrati va o'lmasligini eslatib, ta'kidlab, isbotlab kelmoqda. U davrlarda bu buyuk asarlar axloq, go'zallik va tarbiya muassasalarining ham, dorilfununlarda falsafa va tarix darsliklarining ham o'rnini bosgan va qadim dunyo qomusi deb atalgan. Bu asarning boqiyiligi shundaki, u xalq afsonalari va tarixiy voqealarga asoslangan, dotsonlarda qahramonlik va xiyonat, muhabbat va nafrat, ezgulik va yovuzlik, sadoqat va intiqom, hijron, vafo, taqdir, vijdon, gunoh kabi azaliy insoniy muammolar o'zining yuksak badiiy-epik ifodasini topgan.

Qadimgi yunon estetik ta'limoti mashhur matematik olim va faylasuf Pifagor (m. a. VI-V asrlar) nomi va u yaratgan maktab bilan bog'liq. Pifagor va uning shogirdlari barcha narsalarning mohiyatini raqamlar va ularning o'zaro munosabatlari tashkil etadi, koinot yaxlitligida ham raqam aqidasi yotadi, deb uqtirdilar. Ular mazkur qarashlarini nafosat olamiga ham tatbiq etib, estetik tafakkurni boyitishga o'z hissalarini qo'shdilar. Pifagorchilarning nafosat asoslari, musiqaviy hamohanglik asoslari, ya'ni «xilma-xil ovozli tomonlarning kelishuvi» uinumbashariy hamohanglik (garmoniya) ekanligi haqidagi qarashlar va g'oyalari estetik tafakkur tarixida muhim o'rin tutadi.

Qadimgi estetika tafakkurida moddiyunchilik (materialitsik) yo'nalishni Geraklit (e.a. 540-480-yillar) boshlab bergan edi. U nafosat xossalari moddiy dunyoning o'zidan kelib ehiqqan, nafosat hamohanglikni anglatadi, hamohanglik esa qarama-qarshiliklar birligini tashkil etadi, deb ko'rsatadi va nafosatning nisbiyligi g'oyasini ilgari suradi. Demokrit (e.a. 460-370-yillar) birinchi bo'lib san'atning kelib chiqishini tushuntirishga harakat qilgan. Go'zallikni hamohanglikda, bo'laklarning to'g'ri mutanosibligida, tomonlar mosligi (simmetriya)da deb bildi va uni me'yor tushunchasi bilan bog'laydi, u san'at insonning datslabki ehtiyojlari qondirilgandagina vujudga keladi, deb uqtirdi. Demokrit san'atning mohiyatini voqelikka taqlid qilish (mimesis)da ko'rdi.

Suqrot (e.a. 470-399-yillar) ta'limotida go'zallik koinotdan inson turmushiga, uning ichki kechinmalariga ko'chirilgan bo'lib, go'zallik va ezgulik birligi yoki hozirgi ta'bir bilan aytganda estetika va axloq birligi yetakchi g'oya sifatida bayon qilinadi. Suqrot estetik tasavvurlarning nisbiyligi g'oyasini ilgari surib, estetik va manfaatli belgilar o'rtasidagi yaqin aloqadorlik mavjudligini ko'rsatib berdi.

Aflotun (e.a. 427-347-yillar) qarashlarida estetika ham go'zallik falsafasi, ham san'at falsafasi sifatida ta'riflanadi. Aflotunning fikricha, nafosat manbaini avvalo g'oyalar tashkil etadi. His-tuyg'u beradigan barcha narsalarni abadiy, o'zgarmas g'oya «yoritib turgan»dagina go'zallik kashf etiladi. Uning fikricha go'zallik o'ta hissiyotli bo'lgani tufayli uning mohiyatini his-tuyg'u bilan emas, balki aql-idrok bilan anglash mumkin.

Arastu (m.a. 384-322-yillar) barcha zamonlarning olimlari uchun utsoz hisoblangan buyuk yunon faylasuflaridan biri. Arastu go'zallik yoki ajiblik haqidagi fikrlarida aqliy idrok va hissiy idrok uyg'unligiga e'tibor beradi. Arastuning fikricha, har qanday sezgi, itsak-mayl yoki o'y-xayol biror narsa, hodisaga intilar ekan, o'sha narsadan qandaydir rohat-farog'at oladi, shu ma'noda

o'sha narsa ajib yoki go'zal bo'ladi. Fojeali voqea-hodisalar zaminida Arastu vahima, dahshat, rahm-shafqat, hamdardlik orqali inson ruhini poklantirish (**katarsis**) ta'limotini ilgari suradi. Arastu fikricha, hayot voqeasini ko'rib, tinglab yoki o'qib dahshatga tushish va qayg'urishdan estetik, hissiy lazzat olinadi, undan olisdagi inson taqdiri, qismati uchun qo'rquvga tushish, qayg'urish hislari insonni poklaydi, oliyjanoblashtiradi.

Qadimgi Hindiston Sharq mamlakatlari orasida eng ko'hna va qadimiy madaniyat maskanlaridan biridir. Hindiston mutafakkirlarining estetik qarashlari jamiyat taraqqiyotida alohida o'rin tutadi. Hind xalqi badiiy ijodi taraqqiyoti alohida ta'limotlar asosida rivojlangan. Hind poetikasi **alankara, ras, dxvani** haqidagi ta'limotlar yo'ldan borgan va o'z taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. *Alankara ta'limoti* - poetik nutqni tovush va ma'nodor tasvir vositalari bilan bezash uslublarini ishlab chiqishdan iborat. *Ras ta'limoti* - san'at va adabiyotning insondagi muayyan ruhiy kechinmalarini, kayfiyat va holatlarini tasvirlash va qo'zg'atish qobiliyatini ochib beradi. *Dxvani haqidagi ta'limot* - poyeziyaning kishilarda qo'shimcha obrazlarni paydo qiluvchi ajoyib qobiliyatini tahlil qilishga asoslanadi. Dxvani uslubi hind poetikasida haqli ravishda badiiy mahoratning oliy shakli hisoblanadi. «Alankara, ras, dxvani to'g'risidagi ta'limot hind poetikasi tayangan uch utsundir. Uni poetik ijodning har qanday shakliga tatbiq etsa bo'ladi», - deb yozgan edi rus akademigi A. P. Barannikov.

Hindistonda dunyoga eng ko'p tarqalgan va o'zining hikmatli fikrlari bilan ajralib turadigani «Kalila va Dimna» asari yaratilgan. Bu asardagi hikmatlar hayvonlar tilidan olib borilsada, ijtimoiy hayot, odamlar orasidagi munosabatlar ko'zda tutiladi. Asarda voqelikdagi salbiy hodisalarga qarshi o't ochiladi, adolat, odamgarchilik tarannum etiladi. Unda o'sha jamiyatdagi barcha nuqsonlar, xiyonat va jinoyat, pastkashlik, ig'vo, fisq-fasod, zulm fosh qilinadi.

Hindiston san'at mo'jizalariga boy mamlakatdir. Agra shahridagi Tojmahal hayratomuzligi bilan estetika larixidagi mo'jizalardan biri hisoblanadi. Ijodkor mehnati mahsuli va behad yuksak nafosat obidasi bo'lgan, oq marmarlariga 2 million rang-barang gul o'yib solingan, Tojmahalni bunyod etishda O'rta Osiyolik me'mor va naqqoshlar o'zlarining katta hissalarini qo'shganlar. O'zbekitsonda tug'ilib, Hindistonga borib, yashab qolgan Xisrav Dehlaviy va Abduqodir Bedillar hind xalqining an'analaridan hayratlanib, o'lmas badiiy asarlar yaratganlar. J.Neru Bobur, Akbarshohlarga baho bergan vaqtda hind xalqining badiiy an'analaridan ilhomlanib o'lmas asarlar yaratgan yana bir qator allomalarimizni ham hurmat bilan tilga olib o'tadi.

Germaniya ma'rifatparvarligi estetikasi XIX asrning boshida ijtimoiy va aniq fanlarning taraqqiyoti estetikani yanada yuksak bosqichga ko'tarishga yordam beradi. Ayniqsa, nemis faylasufi Gegelning asarlari estetika, san'atshunoslik va adabiyotshunoslik rivoji uchun xizmat qildi. Uning «Estetikadan ma'ruzalar»ida estetika nazariyasining juda ko'p muhim masalalari chuqur va keng yoritib berildi. Gegel estetikasining ulug' fazilatlaridan biri uning dunyo xalqlari va hamma davrlar san'atining materiallarini qamrab olganligidir.

Gegelning tushunishicha, jahon san'ati uch katta taraqqiyot bosqichini o'tdi:

1. Sharq xalqlari san'ati bilan bog'liq bo'lib, Gegel uni san'atning «simvolik shakli» deb ataydi.

2. Qadim dunyo san'ati birinchi navbatda Yunonistonning san'atidir (klassik shakli)

3. San'atning eng oliy shakli - romantik ruhdagi san'atdir.

Gegel falsafasi va estetikasi o'zidan keyingi hamma estetik qarashlarga katta ta'sir ko'rsatdi.

2.Go'zallik- nafosatshunoslikning asosiy tushunchasi. Zero, go'zallik- nafosat olamining mag'zi, bosh xossasi, mohiyati, asosini tashkil qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, estetika, nafosatshunoslik, go'zallik falsafasi tarzida ham talqin etib kelinadi.

Go'zallik muammosiga murojaat etgan barcha mutafakkirlar go'zallik haqida fikr yuritib va uni tadqiq qilish nihoyat darajada mashaqqatli masala ekanligini doimo ta'kidlaydi. Mazkur qiyinchilik, birinchi navbatda, go'zallik tushunchasining o'zaro hech bir umumiyliigi bo'lmagan turli-tuman hodisalarning keng doirasiga taalluqliligi bilan bog'liqdir.

Go'zal bo'lgan, ya'ni bizda ijobiy tuyg'u qo'zg'atgan narsani ko'rsatib berish nisbatan ancha oson. Lekin nima uchun mazkur narsa go'zal ekanligini tushuntirib berish ancha mushkul. Xuddi shu tarzda go'zallik muammosiga falsafiy yondoshish tarixan shakllangan.

Go'zallik bu voqelik (tabiat, jamiyat, san'at) hodisasi bo'lib, aniq hissiy ta'sir o'tkazish orqali insonda jismoniy va ma'naviy kuchlar oqimining ko'payishiga, shodlik, zavqlanish, to'la ma'naviy qoniqish holati vujudga kelishiga imkon yaratadi. Go'zallik doimo foydalidir, lekin bu foydalilik jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishga mo'ljallangan bo'ladi. Va nihoyat, go'zallik, Shillerning o'rinli iborasi bilan aytganda, inson ozodligining ramzi sifatida ifoda topadi. Respublikamizda erkin ma'naviyatli shaxs tarbiyasi muhim vazifaga aylangan tarixiy bir sharoitda alohida ahamiyat kasb etadi. Go'zallik cheksiz xilma-xillikka ega bo'ladi. Tabiatdagi go'zallik ijtimoiy hayot go'zalligidan, foydali amaliy faoliyatidagi go'zallik badiiy ijoddagi go'zallikdan farq qiladi. Lekin go'zallik qanchalik o'zining rango-rangligi bilan ajralib turmasin, ularning barchasi qandaydir umumiy tub belgilarga ega bo'lib, mana shu umumiy tub belgilar tufayli ularning barchasini maxsus ilmiy-falsafiy istiloh-go'zallik tushunchasi orqali talqin etish imkoniyati mavjud.

Go'zallikni yuksak darajadagi foydalilik tarzida idrok etish tushunarli, albatta. Lekin bunday qarash go'zallikning ko'rinishlaridan faqat bittasini o'z ichiga oladi. Biz yashab turgan asrda insoniyat ulkan vayron qilish qudratiga ega bo'lgan ishlab chiqarish kuchlariga ham ega bo'lib qoldi. Shu narsa aniq-ravshan bo'lib bormoqdaki, tabiatga faqat moddiy manfaatdorlik nuqtai nazaridan munosabatda bo'lish butunlay istiqbolsizdir. Insoniyat hozir tabiatni, atrof-muhitni himoya qilib, undan oqil tarzda foydalanib, ayni vaqtda, tabiiy hamohanglik sirlari ichiga yanada chuqur kirib borib, o'ziga uning yangidan-yangi mo'jizalarini ochmoqda, undan ta'lim-saboqlari olmoqda. Insoniyat tabiat ustidan qozongan g'alabalarini mutlaqlashtirib maqtanish tobora tabiat bilan birga o'zaro aloqadorlikda, ittifoqda bo'lish tomon intilmoqda. Bu holatni Chingiz Aytmatov o'zining mashhur «Kunda» romanida juda ishonchli tarzda badiiy bo'yoqlarda ifodalay olgan.

San'atdagi go'zallik – esa hayotdagi go'zallik in'ikosi bo'lib, uning bitmas-tuganmas manbai – voqelikdir. Go'zallik yaratuvchi ijodkorlardan biri aytganidek, ijodkorning boshqa odamlardan farqi shundaki, u boshqalar fahmlay olmagan go'zallikni hamma yerda ko'ra bilish qobiliyatiga egadir.

Tabiatga, insonga, insoniy munosabatlarga ko'pincha biz san'atning buyuk ijodkorlari ko'zi bilan qarashga o'rganib qolganmiz. Bizni hayratga soladigan, ajoyib tabiat hodisalari bilan to'qnashganimizda beixtiyor: «Qanday go'zal, xuddi Van Gogdagidek-a, Rembranddagidek, Goyyadagidek va h.» deb xitob qilamiz. Bunday hayratli holatga kelish tasodifiy emas, chunki Van Gog, Rembrant, Goyya va b. o'zlari yashab in'ikos etgan tabiatni, uning bag'ridagi odamlar va hayvonlarni umumlashtirilgan, ramziy shakllardagi ob'ektiv go'zalliklarini ochib namoyish qilganlar va ularni idrok etish bilan bog'liq ko'pchilikka xos kechinmalarni ifoda etganlar.

Ulug'vorlik – nafosatli va axloqiy mezonlar bilan bog'lanib, nihoya darajada yaqqol va bevosita amal qidadigan nafosatli mezoniy tushunchani tashkil etadi.

Ulug'vorlik ko'lami go'zallik ko'lamidek cheksiz va benihoyat. Ulug'vorlik tabiatda, jamiyatda, inson ishlarida, uning faoliyat mahsulotlarida jamlangandir. Ulug'vorlik belgisiga ega bo'lgan barcha narsalarning, hodisalarning hammasiga xos bo'lgan umumiylik – ularning me'yoriy barkamolligi shu qadarki, undan tashqarida me'yor qonuni buzilishi mumkin.

Ulug'vorlik kategoriyasi odamlar uchun alohida ahamiyatli hodisalar sirasiga kiradi. Bunday hodisalar mohiyatan shu qadar keng ko'lamliki, ular ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida to'la o'zlashtirilishi mumkin bo'lmaydi, shuning uchun odamlarni faol harakatga, o'zlaridagi ijodiy imkoniyatlarni ishga solishga doimo rag'batlantiradi.

Tabiatda ulug'vorlik baland tog'lar, qudratli sharsharalar, cheksiz okeanlar, moviy mavj urayotgan dengizlar, tubiz osmon va h. k. timsolida namoyon bo'ladi. Bu yerdagi umumiylik – ulardagi keng ko'lam, ulkanlik, buyuklik, tuganmaslikdir. Tabiatdagi ulug'vorlik insonda o'zidagi zaiflik emas, balki tabiat bilan qo'shilib ketishga intilish hissini uyg'otadi.

Ulug'vorlik hissi o'z-o'zidan nafosatli mazmunga ega bo'lmagan quvonch, hayratlanish, ehtirom, tan berish tuyg'ulvrini o'z ichiga qamrab oladi. Bularga ba'zida qo'rquv ham qo'shiladi, lekin u insonni kamsitmaydi. Balki to'siqlarni yengib o'tishga turtki beradi.

Ulug'vorlik hissi umuminsoniy, umumiy belgilari bilan birga ijtimoiy shartlangan, aniq-tarixiy tabiatga ham molik bo'ladi. Ulug'vorlikka, ijtimoiy hayotga tarixiy taraqqiyotga alohida ta'sir o'tkazuvchi hodisalar va jarayonlar ham kiritilishi mumkin. Ijtimoiy hayotda ulug'vorlik bilan qahramonlik, mardlik shu qadar qorishib ketadiki, ularni alohida-alohida mushohada etish ulug'vorlikning asosiy mazmunidan mahrum qilib qo'yish bilan barobar bo'lar edi. Qahramonlikda ulug'vorlikka xos estetik va axloqiy birlik ayniqsa to'la va bevosita namoyon bo'ladi. Xalq fidoiylari, elu-yurt jonkuyarlarining qiyofalari bir vaqtning o'zida ham ulug'vor, ham mardona namoyon bo'ladi.

San'atda ulug'vorlik **fojealilik** bilan ko'pincha yonma-yon turadi va namoyon bo'ladi, sirasini aytganda, bu ikki estetik kategoriya o'rtasida o'ziga xos dialektik

aloqadorlik mavjud bo'lib, unda umumiylik va farqli tomonlari ham bordir. Navoiy va Shekspir asarlari, shoshmaqom, go'zal me'morchilik obidalari bir vaqtning o'zida ham ulug'vorlik, ham fojealilik ruhi bilan sug'orilgandir. Bundan, albatta fojealilik-ulug'vorlik, ulug'vorlik-fojealilikdir degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Masalan, Samarqandning Registon maydonidagi madrasalar, shubhasiz, ulug'vor bo'lishlari bilan birga hech qanday fojeali his qo'zg'atmaydilar.

Shekspirning Makbet xonim qiyofasi fojeali, lekin u hech ham tomoshabinda ulug'vorlik tuyg'usi tug'dirmaydi. San'atdagi ulug'vorlik badiiy mazmun va shakl barcha imkoniyatlari vositasida ifodalanadi, lekin bunda hal qiluvchi rolni g'oya o'ynaydi. Muhim ahamiyatli g'oya yuksak ruhlangan, mukammal shaklning zarurligini yuzaga keltirib, san'at asarining buyuklik darajasini belgilab beradi. Bu holat hayotiy haqiqatni ochishga emas, unga xizmat qilishga da'vat etadi.

Deyarli barcha ulkan ijodkorlar yaratgan asarlarda fojeali ohanglar mavjudligini juda ko'p misollarda ko'rib chiqishimiz mumkin. Masalan, M.Shayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi» va «Mirzo Ulug'bek» asarlarida fojeali ohanglar boshdan oxiriga qadar sezilib (eshitilib) turadi. Mazkur dramalar maxsus fojea asari sifatida yaratilmagan bo'lsa ham, aslida, fojeali ohanglar ularda ustivor darajada ifodalangandir. Shayxzoda kabi ijodkor fojealilik ruhida voqelikni idrok etishga moyildir. Sofokl fojea asarlari, Shekspirnikidan, Shekspir asarlari Rasinnikidan, Rasinniki Vishnevskiynikidan qanchalik farqlanmasin, ular o'rtasida umumiylik bari-bir mavjuddir.

Odatda fojea mazmunida qahramonning mavjud shart-sharoitlarni tubdan o'zgartirishga faol intilishi namoyish etiladi. Fojea qahramoni bu yerda fojeali dramatik harakatning asosiy sub'ekti sifatida amal qiladi. Shuning uchun fojea qahramonning faolligi, o'z orzu-irodasini, hatto o'zini qurbon qilib bo'lsa ham barqaror etishga intilishi uning mohiyatli belgisini tashkil etadi.

3. Estetik tarbiya – jamiyatda ma'naviy muhitni paydo qilishga ko'mak beruvchi muhim unsur bo'lib, u inson didini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda ana shu orqali insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi kuchdir. Hozirda estetik tarbiyaning ko'lamlari tobora kengaymoqda. Shunga ko'ra, u o'z oldiga talaygina muhim vazifalarni qo'ygan. Bular:

- kishilarda san'at asarlari, badiiy ijod namunalarini nafaqat faol o'zlashtirish balki, ularning estetik mohiyatini anglash va baholash qobiliyatini takomillashtirish;

- jamiyat a'zolarining ijodiy imkoniyatlarini namoyon qildirish va ulardan foydalana bilishga ishonch tuyg'usini uyg'otish;

- tabiat hamda jamiyat ijtimoiy jarayonlariga sof tuyg'u bilan munosabatda bo'lishga va ularni ravnaq toptirish yo'lida astoydil faoliyat olib borish ko'nikmalarini hosil qilish;

- o'tmish ma'naviy merosimizga hurmat hissini uyg'otish, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish uchun zamin yaratish;

- ijodning barcha turlarini taraqqiy ettirib jahonga yuz tutish va ularni millat manfaatlari uchun naf keltiradigan tomonlarini targ'ib qilishga undashdir.

Estetik tarbiyaning asosiy vositalari tarkibiga - **san'at, informatsion texnologiyalar, tabiat, mehnat, sport** kabi sohalarini kiritish mumkin. San'at –

estetik tarbiyaning muhim vositasi. Bugungi kunda jamiyatimizda inson faoliyatini boshqarib borishdan ko'ra, ushbu jarayonni insonning o'zi tashkil etishi kerakligi bot-bot uqtirilmoqda. Bu jarayonda san'at mohiyatan shaxsning his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim vosita sifatida insonni doimo o'ziga jalb etib kelgan. San'at insonning ehtiroslar va tuyg'ular olamiga singib borib ularni yig'latadi, kuldiradi, o'ylashga majbur qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak san'at barcha davrlarda insonga hamroh bo'lib kelgan.

San'at o'zining estetik bisotini to'laligicha namoyon qilishi uchun ham tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'lanadi. Chunonchi, inson tafakkurini go'zallashtirish estetikaning tadqiqot ob'ekti hisoblansa, estetik tarbiyaning predmeti esa ma'naviy dunyoni inson tomonidan estetik anglash bilan belgilanadi.

Informatsion texnologiyalar – estetik tarbiyaning global vositasi. Bir paytlar tabiiy va texnika bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari talabalariga “Sizning idealingiz asosan qaysi sohalarda aks etadi?”, degan savolga ularning ko'pchiligi san'at, adabiyot va ma'rifat sohasida ko'proq aks etadi, degan javob berishgani ham fikrlarimizni isbotlaydi. Aytish mumkinki, axborot va kommunikatsiya texnologiyasi bugungi kunda insoniy va iqtisodiy taraqqiyotning muhim vositasiga aylanishi natijasida odamlarning turmush tarzini, o'zaro aloqasini hatto tashqi ko'rinishi ham tubdan o'zgarishiga olib keldi.

Mahalla – estetik tarbiyaning muhim vositasi. Mahallaning shaxs estetik tarbiyasi ta'siri nihoyatda katta. Modomiki, mahalla jamiyat ichidagi kichkina jamiyat bo'lib, u bugun shaxsning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga, uning ijtimoiy-huquqiy madaniyatini shakllantirishga ko'mak beruvchi makon sifatida ham yuksak ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mahalla shaxs nafosatli tarbiyasiga yaqindan ta'sir ko'rsata olishi bilan boshqa omillardan ajralib turadi. Shu jihatdan mahalla o'z navbatida o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadlarni bajarishi bilan zamonaviy insonni nafosatli jihatdan tarbiyalaydi.

Tabiat – estetik tarbiyaning zaruriy vositasi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, zamonaviy inson tarbiyasini estetik jihatdan kamol toptirishda oila qanchalik ustuvor omil bo'lib hisoblansa, bu jarayonda tabiat ham undan kam ahamiyat kasb etmaydi. Chunki tabiat bilan ongli tarzda murosqa qilmaslik shaxsni nafosatli jihatdan mukammal bo'lib yetishishiga monelik ko'rsatadi. Shuning uchun inson va tabiat o'rtasidagi munosabat inqiroz va halokat yoqasiga kelib qolgan hozirgi vaqtda bu muammoni chetlab o'tish maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

Mehnatning estetik tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyati mavjud. Mehnat ham moddiy, ham ma'naviy go'zalliklar yaratish bilan estetik tarbiyaning muhim vositasiga aylanadi. Bu jarayon ijtimoiy-foydali mehnatning badiiylik bilan aloqasi ta'sirida vujudga keladi. Mazkur munosabat pirovardida mehnat vositalarining insonga keltiradigan zararini kamaytiradi. Qolaversa, mehnatga ijodiy yondashuv jamiyat ma'naviy qiyofasini belgilovchi omil hisoblanadi.

Sport – estetik tarbiyaning zamonaviy vositasi hisoblanadi. Sport estetik tarbiya vositasi sifatida zamonaviy insonni kamol toptirishda alohida e'tiborga ega. Hozirda sportni rivojlantirish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad yosh avlodni jismonan baquvvat, sog'lom, vatanning jasur himoyachisi qilib tarbiyalashdir. Hozirda yurtimizda sportni

rivojlantirishga doir ko‘plab dasturlar ishlab chiqilgan va ular jamiyat munosabatlaridan amalda ishtirok qilmoqdalar. Keyingi kunlarda O‘zbekiston ko‘plab sport turlari bo‘yicha jahon musobaqalarni uyushtiruvchi va o‘tkazuvchi mamlakat sifatida jahon hamjamiyatda ko‘zga ko‘rinib bormoqda. Ana shularning barchasi muayyan ma’noda inson nafosatli dunyoqarashini, tafakkurini sog‘lomlashtirishga qaratilgan. Bir so‘z bilan aytganda, sport estetik tarbiyaning muhim vositasi sifatida “Farzandlari sog‘lom yurtning kelajagi porloq bo‘ladi”, - degan maqsadni amalga oshirishga muhim hissa qo‘shadi.

Milliy ma’naviyatga ta’sir o‘tkazuvchi **tashqi tahdidlar** ayni paytda estetik tarbiya jarayoniga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa ijtimoiy-ma’naviy munosabatlar tizimida estetik tarbiyani maqsadli yo‘naltirishni taqozo etmoqda. Ta’kidlash o‘rinliki, estetik niqobi ostida turli xil ko‘rinishdagi “sog‘lom turmush tarzi targ‘ibotchilari”, “ko‘ngilochar” va “musaffo tuyg‘u” baxsh etuvchi saytlar talaygina. Eng dahshatlisi keying paytlarda internet tarmog‘i vampirizm estetikasi va uning targ‘iboti bilan bog‘liq saytlarning ko‘payib borayotganligi tashvishlanarli holdir. Bu targ‘ibot saytlarni oddiygina qidiruv buyrug‘i orqali topish mushkul emas. Bunday tahdidlarga qarshi go‘zal qadriyatlarni dunyoga tanitish, xalqimizning boy va betakror estetik dunyosini aks ettiradigan personajlarni yaratish orqali kurashishni zamon talab etmoqdaki, bu yoshlarni ma’naviy jihatdan yuksaltirishda estetik tarbiyaga zaruriyat mavjudligidan dalolat beradi. Bu estetik tarbiyaga nisbatan tahdidlarning birinchi jihati.

Estetik tarbiyaga tahdidning ikkinchi jihati insonning tashqi va ichki ko‘rinishidagi bog‘liqlikni o‘rganishga bo‘lgan zaruriyat bilan belgilanadi. Bu ilm bugungi kunda biologiya va tibbiyotda fizionomiya nomi bilan mashhur. Vaholangki, o‘tmishda bu sohaga jiddiy e’tibor berilib, qator risolalar yaratilgan. Jumladan, nemis mumtoz faylasufi I.Kant bu ilmga “ichki olamni o‘rganuvchi ilm”deb ta’tif bergan bo‘lsa, sharq allomalari bu borada “Risolai filfarosa” (X asr), “Farosatnoma” (XVI asr) kabi asarlarni yozib qoldirganlar. Odatda, farosat tushunchasi estetik baho bilan belgilanadi. O‘ranjish, nomunosib holat, ko‘ngilga xush yoqmagan ishlar qilganda munosabat bildiramiz. Shuning uchun bo‘lsa kerak, kamdan-kam hollarda “farosatli kishi, farosati bor, farosatli” degan so‘zlarni ishlatamiz. Biroq did, fahm, farosat kabi tushunchalar aynan estetika ilmiga tegishli bo‘lib, fahm-haqiqatga, farosat-ezgulikka, did-go‘zallikka munosabat orqali namoyon bo‘ladi. Har uchchala hodisaning asosida ham qobiliyat yotadi. Shu ma’noda fahm-aqliy, farosat-axloqiy, did-estetik qobiliyatni yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, estetik did va farosat murakkab tarbiya jarayonini taqozo etadi. Chunki u ham aqliy, ham axloqiy, ham hissiy tarbiya uyg‘unlashgan umumiylikdan iborat.

Shuning uchun ham, fiziologik jihatdan yomonlikka moyil shaxs estetik tarbiya ta’sirida xulqini o‘zgartirib, go‘zal axloqli kishiga aylanishi mumkin. Shuning uchun o‘ziga mavjud yomon xislatlarni yaxshi tomonga o‘zgartirgan va ma’naviy kamolotga erishgan kishi haqida faqat yuziga qarab hukm chiqarish adolatdan emas.

Bundan ming yil burun ulug‘ alloma Abu Rayhon Beruniy: «Agar insonlar tabiatga nisbatan zo‘ravonlik qilib, uning qonunlarini qo‘pollik bilan buzsalar, bir kun kelib tabiat ularning boshiga shunday kunlarni solishi mumkin, buni hech

qanday kuch qaytarolmaydi», degan edi. Bugun biz buni Orol fojeasi misolida ko'rib turibmiz. Komil inson tarbiyasi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Ayniqsa, yoshlarda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat va g'amxo'riik hislarini uyg'otish, ularga ekologik tarbiya berish muhim ahamiyatga ega. Ularning ekologik va estetik madaniyatni shakllantirishda oiladagi sog'lom muhit muhim o'rin tutadi.

O'zbek oilalarida, odatga ko'ra, ota-onalar yoshlarga «harom-halol», «uvol», «gunoh-savob» kabi pand-nasihatlar asosida dastlabki ekologik tushunchalar berib borganlar. Bolaning ongi, xulqi, madaniyati, yurish-turishi tabiat bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Ekologik madaniyatni yoshlar ongiga singdirish uchun mamlakatimiz tabiatini hayvon va o'simliklarini muhofaza qilish, suvlarni ifloslantirmaslik, qushlarga ziyon yetkazmaslik, eng muhimi, ona zaminini bezavol asrashning aniq tuzilgan rejasi bo'lishi lozim. Bu ezgu maqsadga erishish har bir insonning ekologik dunyoqarashiga va jamiyatimizning muhim tarbiya o'chog'i bo'lgan oilada ushbu masala qanday hal etilishiga ham bog'liq.

Yoshlarimizdagi estetik did, estetik faoliyat har tomonlama uyg'un shakllana borganagina ekologik qadriyatlar vujudga keladi. Insonlarning tabiat quchog'ida bo'lishi ularni ruhan tetiklashtirib, mehnat qobiliyatini va ijodiy faoliyatini yanada oshiradi.

Vatanni sevish - tabiatni sevishdan boshlanadi, binobarin, yoshlarda go'zallikka nisbatan haqiqiy muhabbat tuyg'usini hosil qilmay turib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin yemas.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Estetika fani nimani o'rganadi?
2. Estetika fani qanday paydo bo'lgan?
3. Nima uchun go'zallik nafosatning asosiy mezoniy tushunchasi deyiladi?
4. Inson go'zalligini qanday tushunasiz?
5. Ulug'vorlik nimalarda namoyon bo'ladi?
6. Qaysi badiiy asarda ulug'vorlik namunalarini kuzatgansiz?
7. Jamiyatdagi ulug'vorlikka qanday misol keltirasiz?
8. Qaysi san'at asarida kulgu namunalarini kuzatgansiz?
9. Estetik tarbiyaning qanday turlarini bilasiz?
10. Estetik tarbiyaning yo'nalishlariga nimalar kiradi?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o'quv qo'llanmasi.

- Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

14-Mavzu: GLOBAL JARAYONLAR VA BARQAROR TARAQQIYOT FALSAFASI

REJA:

1. Globallashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot jarayonlarining mohiyati
2. Global muammolarning tasnifi: urush va tinchlik, demografiya, migratsiya, ta'lim, energetika, ekologiya, oziq-ovqat, urbanizatsiya
3. Global makonda texnika, axborot texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va virtual reallikning mutanosibligi

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR:

Globallashuv, globalaistika, barqaror taraqqiyot, global muammolar, termoyadro urushi, demografik muammo, oziq-ovqat muammosi, ekologik muammo, pandemiya, Covid19, axborot texnologiyalari, internet, sun'iy intellekt, virtual reallik

1. Globallashuv – lotincha “glob” so‘zidan olingan bo‘lib, uni “dumaloqlashuv”, “kurralashuv” deb tarjima qilish mumkin. Ushbu atama Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi. “Global” tushunchasi lug‘aviy ma'nosi nuqtai nazaridan fransuz tilida “umumiy”, lotin tilida esa “globus”-Yer shari” ma'nolarini bildiradi. Demak, globalizm tushunchasi ana shu ikki ma'noda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan katta muammolarni, “sayyoraviy”, “dunyoviy” muammolarni, global taraqqiyot istiqbollarini o‘ziga qamrab oladi. “Globallashuv” atamasi dastlab amerikalik olim T.Levitt tomonidan 1983 yil «Garvard biznes revyu» jurnalida chop qilgan maqolasida qo‘llangan. T.Levitt yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonlarini “globallashuv” deb atagan. Mazkur ta’rifda globallashuv jarayonining iqtisodiy tomonlariga e’tibor berilgan.

Globallashuv deganda hozirgi sharoitda turli mamlakatlar, davlatlar va xalqarning iqtisodiy madaniyati, ma’naviyatining, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’siri va bog‘liqlikning kuchayib borishi tushuniladi. Globallashuvga ta’rif bergan fransuz tadqiqotchisi B.Bandi bu jarayon uch o‘lchovli ekanini ta’kidlaydi:

- globallashuv – muttasil davom etadigan tarixiy jarayon;
- globallashuv – jahonning universallashuv jarayoni;
- globallashuv – milliy chegaralarning “yuvilib ketish” jarayoni deb hisoblaydi.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov *"bugungi kunda globallashuv jarayonidan hech bir xalq chetda turishi mumkin emas, shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi mumkin"* deb ta'kidlaydi.

Globallashuv – butunjahon iqtisodiy siyosiy, madaniy integratsiya va unifikatsiya (bir birga yaqinlashuv) jarayonidir. Asosiy xususiyatlari xalqaro mehnat taqsimoti, kapital, ishchi kuchi va ishlab chiqarish resurlarining erkin harakati, qonunchilik, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shuningdek, turli mamlakatlarning madaniyatini qo'shilish va yaqinlashuvidir. Bu ob'ektiv jarayon bo'lib jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi tizimli xususiyatga ega. Globallashuvga qarshi harakatlar ham mavjud bo'lib, ular globallashuv natijasida yuzaga keladigan va kelayotgan muammolarni oqibati salbiy deb e'tirof etishadi. Bunday tashkilot, uyushma, harakatlarga Green, AntiDaos kabi bir necha antiglobalistlarni kiritish mumkin.

A.Ochildievning ta'kidlashicha, *"...eng umumiy ma'noda, globallashuv, bir tomondan, muayyan hodisa, jarayonning barcha mintaqalar, davlatlar va butun Yer, ikkinchi tomondan, ularning insoniyat taqdiriga daxldor ekanini anglatadi"*. Yana bir rus olimi L.E. Grinning fikricha, *«Globallashuv - mintaqalar va umuman jahonning integratsiyasi va yaqinlashuvining natijasidir»*. U globallashuvga jarayon sifatida qaraydi va unga quyidagi ta'rifni beradi. *«Globallashuv - bu jarayon, uning natijasida dunyo o'zining barcha sub'ektlariga yanada aloqador va yana ham bog'liq bo'ladi»*.

Globallashuv - bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir. Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin haarakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi – tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda.

Globalistika jahon rivojlanishining eng yangi tendensiyalarini anglab yetish borasidagi ko'p sonli sa'y-harakatlar, globallashuv jarayonlarining mohiyati, tendensiyalari va sabablarini, ular ta'sirida yuzaga kelayotgan global muammolarni aniqlash va bu jarayonlarning oqibatlarini anglab yetishga qaratilgan fanlararo ilmiy tadqiqotlar sohasidir. Kengroq ma'noda **«globalistika»** atamasi globallashuvning turli jihatlari va global muammolarga oid ilmiy, falsafiy, madaniy va amaliy tadqiqotlarni, jumladan ularning olingan natijalarini, shuningdek ularni ayrim davlatlar darajasida ham, xalqaro miqyosida ham iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jabhalarda amalga joriy etish borasidagi amaliy faoliyatni ifodalash uchun qo'llaniladi. Globalistika – bu zamonaviy dunyoda sodir bo'layotgan jarayonlar

ta'siri ostida tadqiqot sub'ektlarining tez - tez qaytarib bo'lmaydigan ixtisoslashuvi va bo'linishiga bo'linib, gumanitar inqirozni bartaraf etishga intiladigan, xalqaro munosabatlar va jahon siyosati sohasidagi fanlararo bilimlar shaklidir. Globalistika tahliliy fan vazifasini bajaradi, uning tadqiqot mavzusi hali ham noaniq.

Barqaror taraqqiyot deganda hozirgi avlodlar hayotiy ehtiyojlarini kelgusi avlodlar ehtiyojlarini qondirishga zarar yetkazmasdan amalga oshiriladigan rivojlanish tushuniladi. Barqaror taraqqiyot mazmun bo'yicha ekologik rivojlanish tushunchasiga juda yaqindir. 1968-yil 10 ta davlatdan 30 kishidan iborat fan, madaniyat, maorif, biznes vakillari «Rim klubi» deb nomlangan nodavlat tashkilotini tuzishdi. Klub a'zolari insoniyatning hozirgi va kelajakdagi murakkab ahvolini muhokama qilish va inqirozdan chiqish yo'llarini o'rganishni asosiy maqsad deb belgiladilar. 1972-yil 13-martda «Rim klubi» uchun tayyorlangan «O'sish chegaralari» ma'ruzasi e'lon qilindi. Ma'ruzada sayyoramiz kelgusi ekologik holatini bashorat qilish bo'yicha global model tahlil qilingan. Modelda sayyorada o'sishni va uning chegarasini belgilaydigan 5 asosiy omil:

1. aholi soni;
2. qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi;
3. tabiiy resurslar;
4. sanoat ishlab chiqarishi;
5. atrof muhitning ifloslanishi asos qilib olingan.

1975-yili dunyoda aholi soni 4 milliard, 1987-yili 5 milliarddan oshdi. Dunyoning turli chekkalaridagi ekologik inqiroz vaziyatlari chuqurlashdi. Orol dengizining qurishi, Shimoliy Afrika mamlakatlaridagi qurg'oqchilik, okeanlarning neft mahsulotlari bilan ifloslanishi, ozon tuynuklari muammolari chegara bilmasligi, mintaqaviy va global oqibatlari bilan namoyon bo'ldi.

1992-yilning 3-4-iyun kunlarida Braziliyaning Rio-de Janeyro shahrida BMTning atrof muhit va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi bo'lib oldi. Unda 179 davlatlarning rahbarlari, hukumat vakillari, ekspertlar, nodavlat tashkilotlari, ilmiy va ishbilarmon doiralari vakillari qatnashdilar. *Hozirgi vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi GFR yoki AQSh aholisi hayot darajasiga yetishishi uchun yana bir Yer sayyorasi resurslarini o'zlashtirish lozim bo'ladi.* Yer esa koinotda yagonadir. Tabiat va jamiyatning mutanosib rivojlanishi - **koevolyutsiya** deb yuritiladi. Jamiyatning rivojlanish sur'atlari juda yuqori, tabiat evolyutsiyasi tezligi o'zgarmaydi. Koevolyutsiyaga erishish uchun jamiyat o'zining ayrim ehtiyojlaridan voz kecha olishi lozimdir.

XXI asrga kelib atrof-muhitga ta'sir sur'ati yuqoriligicha qolmoqda. Barqaror rivojlanish yo'lidagi sa'yi-harakatlar ijobiy natijalarini bermoqda. XXI asr boshlariga kelib rivojlangan davlatlarda ekologik inqirozning oldini olish tadbirlariga yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning 1,5-2,5% ulushi sarflanishi lozim. Atrof-muhit ancha ayanchli holga tushib qolgan mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich 4-5%dan kam bo'lmasligi kerakligi ta'kidlanadi. Ekologik ta'lim tarbiyani rivojlantirish, jamoatchilik rolini oshirish, ekologik texnologiyalarni joriy qilish barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir.

2. Odamzod nasli XX asrning ikkinchi yarmida shunday muammolar domiga tortildi-ki, endilikda ularning iskanjasidan qutulib ketish yoki ketmaslik

bugungi kunning eng dolzarb masalasiga aylandi. Agar XX asrning birinchi yarmi oxirlarida insoniyat qarshisida asosan bitta umumbashariy muammo - yadro halokatining oldini olish ko'ndalang bo'lib turgan bo'lsa, II jahon urushidan keyin ahvol o'zgardi. Aholi tabiiy o'sishining yuqori darajasi saqlanib qolishi, fan va texnika yutuqlaridan tor manfaatlar yo'lida foydalanishga ruju qilinishi va bir qator mintaqalarda murakkab ekologik vaziyatning vujudga kelishi masalani chigallashtirib yubordi. Oqibatda insoniyatning kelajagi to'g'risida turli tipdagi bashoratlar kelib chiqdi. Ana shunday sharoitda har bir aql zakovatli odam «Bunday yo'lida qanday muammolar, qiyinchiliklar, sinovlarga duch kelishimiz mumkinligini yetarli darajada aniq tasavvur qilayapmizmi?» - degan savolni o'z oldiga ko'ndalang qo'yishi va unga javob topishi zarur bo'lib qoldi. Bu savollarni butun jahon xalqlarining ishtirokisiz hal etib bo'lmaydi.

Tabiatga kishilarning zug'umi kuchaya borgan sari tabiiy muvozanatning buzilishi oqibatida kishilarning yashash tarzi, sog'lig'i, ijtimoiy muhitga bo'lgan aks ta'siri tobora halokatli tus ola boshladi. Insoniyat bunday tahlikali holatdan faqatgina, har qanday siyosiy, mintaqaviy, irqiy, milliy, diniy va boshqa manfaatlarini keyinga surib, mushtarak umuminsoniy manfaatlar tevaragida jipslashish, zudlik bilan ta'sirli choralar qo'llash orqaligina qutulishi mumkin. «Butun dunyo yagona va o'zaro bog'liqdir. Bizning mushtarak burchimiz yer yuzini bolalarimiz va nabiralalarimizga obod va baxtiyor yashashlari uchun munosib qilib qoldirishdir»³⁵.

Hozirgi paytda insoniyatga xafv solib turgan umumbashariy muammolar deganda butun dunyo, barcha davlatlar va xalqlarning ishtirokisiz yechish mumkin bo'lmagan muammolarga aytiladi.

Bunday muammolar quyidagilardir:

- termoyadro urushi xavfining oldini olish va qurollanishni bartarf etish;
- jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotning o'sishi uchun qulay shart-sharoit yaratish;
- iqtisodiy qoloqlikni tugatish, yer yuzida qashshoqlik va ochlikka barham berish;
- tabiiy boyliklardan oqilona va kompleks yondashgan holda foydalanish;
- insoniyatning baxt-saodati yo'lida fan-texnika yutuqlaridan foydalanish uchun xalqaro hamkorlikni yanada faollashtirish (eng xavfli kasalliklarga qarshi kurash, kosmosni o'zlashtirish, dunyo okean boyliklari va imkoniyatlaridan unumliroq foydalanish, ozon qatlamining yo'qolish xavfini oldini olish va h.k.);
- insoniyat va uning kelajagi to'g'risida o'zaro hamkorlikda jiddiy tadqiqotlar olib borish, kishi organizmining tobora tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan sun'iy va tabiiy muhitga moslashish jarayonini ilmiy tahlil qilish.

Insoniyat oldida ana shu xildagi muammolarning ko'ndalang turib qolishining o'ziyoq kishilik sivilizatsiyasi o'ta murakkab, o'ta qaltis bir jarayonni boshidan kechirayotganligidan darak beradi. Umumbashariy muammolarning ba'zi bir guruhlar mavjudki, ularni hal qilishning o'ziyoq butun sayyoramizdagi ijtimoiy hayotning keyingi ming yillikdagi aniq manzarasini chizib berish uchun hal

³⁵ Каримов И.А. Ёзбекистон XXI аср б'са'асида: хавфсизликка таъдид, бар'арорлик шартлари, тара'иёт кафолотлари. – Т.: «Ёзбекистон» 1997, 4-бет.

qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Bunday muammolar shartli ravishda uch guruhga ajratiladi:

Birinchidan, hozirgi paytdagi mavjud ijtimoiy kuchlar o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar (ijtimoiy-iqtisodiy sistemalar o'rtasidagi, mintaqaviy ziddiyatlar, davlatlar, milliy va diniy nizolar va x.k.) bo'lib, bular shartli ravishda «intersosial» muammolar deb hisoblanadi. Ular urush va tinchlik, mehnat resurslaridan foydalanish darajasi va shu kabilarni ham qamrab oladi.

Ikkinchidan, «Inson va jamiyat» o'rtasidagi munosabat bilan bog'liq muammolar bo'lib, bularga ilmiy-texnika taraqqiyoti (ITT); maorif va madaniyat; aholi ko'payishining tez sur'atlar bilan ildam ketishi («Demografik portlash», kishilar salomatligini saqlash, kishi organizmining nihoyatda tez o'zgarib borayotgan ijtimoiy muxitga moslashishi) shuningdek, insoniyatning kelajagi kabi masalalarni kiritish mumkin.

Uchinchidan, «inson—tabiat» munosabatlariga esa xom-ashyo resurslarini tejash, aholini oziq—ovqat va ichimlik suvi bilan ta'minlash, tabiatni muxofaza qilish kabi muammolar kiradi. Bu guruh muammolar ijtimoiy omillar tasirida vujudga keladi, ularni hal qilishda esa ijtimoiy omillarning o'rnini va ahamiyatini to'g'ri anglagan holdagina masalaning tub mohiyatini tushunish mumkin.

Xuddi shuningdek, sof ijtimoiy global muammolarning yechimida tabiiy omillarning bu jarayonga bevosita ulanib ketishini ham nazardan soqit qilmaslik kerak. Ham ijtimoiy, ham tabiiy omillar asosida yuzaga chiqadigan umumbashariy (global) muammolar bir butunlikni tashkil etib, ularga har tomonlama (kompleks) yondashish kerakligini xayotning o'zi taqozo etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, falsafa fani zimmasiga katta mas'uliyatlar yuklaydi.

Kishilik jamiyatining kelgusi istiqboli to'g'risida jiddiy ilmiy bashoratlar orasida 1968 yilda A. Pechchei tomonidan asos solingan «Rim klubi» a'zolari bo'lgan J. Forrester, D. Medouz, Ya. Tinbergen, A. Ging va boshqalar tomonidan tayyorlangan hisobotlarning ilmiy ahamiyati nihoyatda katta. Ularda insoniyatning kelgusi istiqbolini shubha ostida qoldirayotgan umumbashariy muammolar ko'lamining kengayib borishi, kishilar tomonidan tabiatga qilinayotgan zug'umning mudhish oqibatlari qanday bo'lishi to'g'risida jiddiy mulohazalar yuritiladi. «Rim klubi» a'zolari tomonidan qilingan bashoratlar ilmiy-falsafiy mazmunga ega bo'lib, unda asosan tajriba sinovidan utgan bilimlar va mantiq qonunlari va kategoriyalariga suyangan xolda insoniyatning kelajagi tug'risida muhim ilmiy xulosalar bayon qilingan.

Energiya va yoqilg'i resurslaridan tejamli foydalanish muammosi. Davrimizning yana bir muhim belgilaridan biri jaxon iqtisodiyotining sur'atini belgilaydigan energiyani iste'mol qilish ko'lami muttasil kengayib borayotganligidir. Agar hozirgi sur'atda jaxon iqtisodiyoti davom etadigan bo'lsa, u vaqtda sanoat va xalq xujaligining energiyaga bo'lgan ehtiyoji uchun yaqin yillar ichida yiliga 20 mlrd. tonna yoqilg'i talab qilinadi. Bu ko'rsatgich 2025 yilda 35-40 mlrd., XXI oxiriga borib, 80-85 mlrd. tonnani tashkil etishi taxmin etilmoqda.

Vujudga kelayotgan bu holatdan chiqib ketishning yo'li esa bitta, u ham bo'lsa, yoqilg'ining organik moddalar (neft, ko'mir, gaz va h.k.) dan olinadigan energiya salmog'ini kamaytirib, noorganik yoqilg'i manbalar (GESlar, AES, shamol

elektrostansiyalar, Quyosh energiyasidan foydalanish, vodorod, geliy va x.k.) dan olinadigan energiya miqdorini muttasil oshirib borish. Quyosh energiyasi, GES va shamol elektrostansiyalar 2025 yilda bu ehtiyojning 60%ini qondirishi mumkin.

Yaqin kelajakda rivojlanayotgan mamlakatlarda elektr energiyasi ishlab chiqarishni tez sur'atlar bilan ko'paytirib borish ko'zda tutilmoqda. Butun jaxonda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining qariyb 34% ana shu mamlakatlar xissasiga to'g'ri keladi. Elektr energiyasining shu qadar tez sur'atlar bilan ishlab chiqarilayotganligi yon atrofidagi tabiiy va ijtimoiy muhitga ta'sir etmasdan iloji yo'q. Masalan, gigant GESlarning qurilishi o'z navbatida ana shu regionning, iqlim sharoitiga, yon atrofdagi shahar va qishloqlarda xalq xujaligining ko'pgina tarmoqlariga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin (masalan, ekin maydonlarining qisqarishi, mavjud maydonlarning shurlanishi va ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin). Atom elektrostansiyalarining chiqindilarini bartaraf etishning ekologik xavfsizlik masalalari hozirgi davrning yechilishi murakkab muammolariga aylandi. Ayniqsa, 1986 yil 26 aprel kuni Chernobil AES IV blokining ishdan chiqishi natijasida juda katta miqdordagi radiasiyaning havoga tarqalishi mazkur regionning yashashga mutlaqo yaroqsiz bo'lib qolishiga sababchi bo'ldi.

Xom-ashyo resurslaridan foydalanish va ekologik muvozanatni saqlash muammosi. Jaxon statistig axborot markazlari bergan ma'lumotlarga qaraganda, XX asrning boshidan to hozirgi kungacha ishlab chiqarilgan ko'mirning 45%, temir rudasining 57%, neftning 76%, tabiiy gazning 80% keyingi 25 yilga to'g'ri kelar ekani. Ana shunday xolatni xom-ashyoning boshqa turlari tug'risida ham gapirish mumkin. Tahlillarga qaraganda, 90-yillarda ishlab chiqarilgan xom-ashyo miqdori 60-70-yillardagiga qaraganda 1,5-2 barobar ko'paygan.

Yer yuzida vujudga kelgan bunday holat, bir tomondan, insoniyatni xom-ashyo resurslari bilan ta'minlash imkoniyatlari, hosildor yerlar va ichimlik suvi manbalarining kamayib borishi, shuningdek boshqa xom-ashyo zaxiralarining kamayib ketishi kabi boshqa bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Dunyo okeaning ifloslanishi, jonli tabiatning yo'qotilishi yanada xavfli tus olmoqda. Har yili okenlarga 12-15 mln. tonnaga yaqin neft va neft maxsulotlari to'kilmoqda, shaharlarning kengayishi, sanoat korxonalarini qo'rish uchun ming-minglab gektar yer maydonlari ajratib berilmogda, urmonlar kesilib yashil yerlar kamaymoqda. Bu tendensiya, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda xavfli tus olmoqda. Dunyoda har yili 0,8% tropik o'rmonlar yo'qolib bormoqda, 200 ming km² territoriyadagi tropik o'rmonlar kesilib qayta tiklanmay qolmoqda. Hozirgi paytda yiliga 8,3 mln. gektar, yoki minutiga 16 gektar o'rmon yo'qotilmoqda. Tabiiy muvozanatning dunyo miqiyosida tez o'zgarishining oqibati hozirning o'zidayoq insonning yashashi va faoliyati uchun uta zarur bo'lgan mo'tadil muhitning buzilishiga olib kelmoda.

Davrimizning yana salbiy belgilaridan biri shundagi, inson faoliyati ko'lamining miqyosi tobora biosferani tula egallab, endilikda kosmosga ham ta'sir eta boshladi.

Oziq-ovqat muammosi va biosfera. Nihoyatda tez usib borayotgan dunyo aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash muammosi keyingi paytlarda jaxonning bir qancha mintagalarida ancha keskinlashdi. Mavjud ma'lumotlarga asosan, dunyo

xalqlarining 2/3 qismi doim oziq-ovqat taqchilligi hukm surayotgan mamlakat xalqlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu mintagalarda ekiladigan yer maydonlari aholi jon boshiga nisbatan kamayib, 0,2 ga. ni tashkil etmoqda. Holbuki, 1950 yilda bu ko'rsatg'ich 0,5 ga ni tashkil etgan edi.

Oziq-ovqat zaxiralarining usishini, bir tomondan, ishlanadigan yer maydonlarini kengaytirish hisobiga, ikkinchi tomondan ekilayotgan maydonlarning hosildorligini oshirish hisobiga ta'minlash mumkin. Keyingi paytlarda hosildorlikni ko'paytirish ustida juda ko'p ishlar qilinib, 80 - yillarning oxirlariga kelib dunyo miqyosida yetishtirilgan maxsulot o'sishining 90% hosildorlikni ko'tarish hisobiga to'g'ri keldi. Ammo, bizga ma'lumki, bunday muvaffaqiyatlarga tabiatga haddan ziyod qilingan qattiq zug'um qilish natijasida erishiladi. Juda ko'p yerlar bunday tazyiqqa dosh bera olmasdan ishdan chiga boshladi. Bu yerlarni tabiiy xolatiga qaytarish uchun imkoniyat qolmadi.

Demografik muammolar va uning falsafiy taxlili. XX asr o'zining bir qator belgilari bilan oldingi barcha davrlardan keskin farq qiladi. Xususan, XX asrni «demografik portlash» davridir, degan qarashlar ham keng tarqalgan. Bunda qolgan barcha jaxonshumul muammolarni keltirib chiqaruvchi bosh sabablardan biri ham aynan yer yuzida aholining tez sur'atlar bilan ko'payishi bilan bevosita bog'liq ekaniligi nazarda tutiladi. «Demografik portlash» tushunchasi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning qisga bir davrida, muayyan mintaga yoki mamlakatda va shuningdek, butun yer yuzida tabiiy tug'ilish hisobiga aholi miqdorining nihoyatda tez ko'payishini anglatadi.

Insoniyatning oldida ana shunday xavf borligi to'g'risida dastlab ingliz iqtisodchisi Tomas Robert Maltus (1766-1834 yy.) ogohlantirgan edi. U o'zining «Aholishunoslikning qonuniyati to'g'risida tajribalar» nomli kitobida aholining geometrik progressiya buyicha ko'payishini, uning xayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarning ko'payishi arifmetik progressiya bo'yicha ruy berishini aytgan edi. Maltus bu jarayonning oldi olinmasa, yaqin kelajakda, planetar masshtabda, tabiiy muxit berishi mumkin bo'lgan moddiy ne'matlar miqdori bilan juda tez sur'atlarda ko'payayotgan dunyo aholisi extiyoji o'rtasida ziddiyat vujudga kelishini bashorat qilgan edi.

Darhaqiqat, bundan 6-8 ming yillar oldin yer yuzida 5 mln. atrofida odamlar istiqomat qilishgan, deb taxmin qilinadi. Bu ko'rsatkich eramizning boshlarida 230 mln., 1-ming yillikning oxiri 2-ming yillik boshlarida, ya'ni Beruniy zamonida 305 mln; 1500 yilda 440 mln; 1800 yilda 952 mln; 1900 yilda 1656 millionni tashkil etgan. XVI asr boshidan XIX asr boshigacha, ya'ni uch asr mobaynida bu ko'rsatkich 174 foizga oshganligini; 1900 yildan to 1999 yilgacha esa bu nisbat sal kam 4 barobar oshganligini kuzatamiz.

Respublikamizda «demografik portlash» asosan, XX asrning ikkinchi yarmida ro'y berib, bu jarayon (boshqa biror jiddiy omillar ta'sir etmasa) XXI asrning dastlabki o'n yilliklari oxirigacha davom etishi bashorat qilinmoqda. Respublikada 1980 yilda aholining bir yillik tabiiy o'sishi 421161 kishini tashkil etdi, bu ko'rsatkich 1989 yilda 480621 kishini 1997 yilda 580673 kishini tashkil etdi.

3. Hozir jamiyat hayotida texnika hal qiluvchi rol o'ynaydi. Uning taraqqiyoti inson hayotining deyarli barcha sohalariga taalluqli bo'lib, inson va tabiat

o'rtasidagi o'zaro aloqalarni hal qiluvchi tarzda belgilab beradi, odamlar o'rtasidagi munosabatlarga, insonning o'zligini anglashiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. G'arb falsafasida tadqiqotlarning «texnika falsafasi» deb nom olgan alohida yo'nalishi paydo bo'ldi. Nemis faylasufi Ernest Kapp o'zining 1877 yilda e'lon qilingan «Texnika falsafasi asoslari» kitobida birinchi bo'lib «texnika falsafasi» atamasini ishlatgan.

Texnika nima? Bu tushuncha ilk bor qadimiy yunon faylasuflari Aflotun va Arastu asarlaridayoq qo'llanilgan. Yunoncha «*techne*» bir nechta ma'noni- san'at, mahorat, mohirlik degan ma'nolarni anglatadi. «Nikomax etikasi» asarida Arastu *techne* so'zining *empeireia* (tajribaviy bilim) va *episteme* (nazariy bilim) so'zlaridan farqlanishiga e'tibor qaratdi³⁶. *Empeireia* va *episteme* tabiiy predmetlar to'g'risidasi bilimlardan iborat bo'lsa, *techne* – inson faoliyati va mehnati natijasida yuzaga keladigan va sun'iy mehnat qurollarini yaratish to'g'risidagi bilimlardir.

Texnologik jarayon yoki *texnologiya* - texnikaviy ob'ektning o'zgartirilayotgan predmet bilan o'zaro ta'siri jarayonidir. U mazkur o'zaro ta'sir usullari, texnikaviy ob'ektning ta'sir ko'rsatish izchilligi, predmetning o'zgarish jarayonlaridan iboratdir.

Hozirgi voqelikda inson o'zini axborot texnologiyalarida ramziy ifoda etadi, o'z navbatida raqamli texnika ham ramziy jihatdan insonga o'xshash tizim hisoblanadi. Bugungi kunda kompyuter insonning ikki ming yillikdagi imkoniyatlari ramzidir.

Texnika falsafasi inson va texnika o'rtasidagi munosabatlarning salbiy tomonlariga ham e'tibor qaratadi. Texnikaviy taraqqiyot inson tomonidan tabiatning o'zlashtirishdagi navbatdagi yutuqlardan birigina bo'lib qolmadi. Bu taraqqiyot atrof muhitga halokatli ta'sir ko'rsatadi, inson tomonidan atrof olamni anglash xususiyatini ham o'zgartirib yuboradi. Texnika taraqqiyoti natijasida inson va tabiatni bir-biridan ajratuvchi yangi soha yuzaga keladi. Fransuz sotsiologi J. Ellyulning taxminicha, tabiat endilikda bizning ko'rkam muhitimiz bo'lolmaydi. Texnikaning o'zi yaxlit yashash makoniga aylanadi, inson ana shu makonning ichida yashaydi³⁷. Olimlarning tili bilan aytganda – *texnomakon* shunday makonga aylandiki, inson unda nemis faylasufi M. Xaydeger ta'biri bilan aytganda o'zining asil mavjudligidan voz kechadi.

Texnoetika texnikaning salbiy oqibatlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida insonning texnikaviy faoliyatini tartibga soluvchi etika talablari tizimidan iboratdir. Yangi texnologiyalar: yadroviy, fazoviy, axborot texnologiyalari, biotexnologiyalar rivojlanishi bilan texnikaviy faoliyatni tartibga solish masalasi tobora dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Sanab o'tilganlar orasida ayniqsa axborot texnologiyalari jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda va u o'ziga faylasuflar e'tiborini ko'proq talab etadi.

Axborot ishlab chiqarish, uni saqlash va qayta ishlash jamiyatning texnologik jihatdan rivojlanishini belgilovchi muhim sohaga aylandi. Faylasuflarning

³⁶ Философия. Под ред. В.Д.Губина, Т.Ю.Сидориной, В.П.Филатова. М., 1977. 256-б.

³⁷ Новая технократическая волна на Западе. М., 1986. 147-б.

sivilizatsiya taraqqiyotining axborot bosqichi to'g'risidagi fikrlarida axborot, axborot tizimlari va texnologiyalarining insoniyat hayotidagi roliga katta ahamiyat beriladi.

Birinchi elektron hisoblash mashinalari yaratilgan vaqtdan boshlab o'tgan 70 yil ichida kompyuter texnikasi ulkan elektron-hisoblash markazlaridan tortib to chindan mislsiz imkoniyalarga ega bo'lgan kichik hajmli maxsus kompyuterlargacha bo'lgan salmoqli natijalarni qo'lga kiritdi. Kompyuter inqilobi ishlab chiqarish va ta'lim sifatini o'zgartirib yubordi, maishiy sohani va insonning butun turmush tarzini jadal ravishda o'zgartirib yubormoqda. Kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalaridan foydalanish har qanday davlat tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar darajasining ko'rsatkichiga aylandi. Bu birinchidan, ishlab chiqarish va hisoblash texnikasidan foydalanish bazasining mavjudligi, ikkinchidan, axborotning keng tarqalishini va foydalanuvchilarning ma'lumotlar bazasidan foydalana olishini, tez qaror qabul qilish va bu qarorni amalga oshirishni ta'minlovchi tegishli iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy institutlarning faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq.

Butunjahon axborot tarmog'i *Internetning* yaratilishi va faoliyat ko'rsatishi insoniyatning texnika sohasida erishgan yutuqlari ko'rsatkichidir. Internet kompyuter tarmog'idan iborat. Internet tarixi 35 yildan ziyod davrni qamrab olgan bo'lib, uning tarmog'idagi tarkibiy qismlar va texnologiyalar XX asrning 60-yillaridan ishlab chiqila boshladi. «Internet» atamasining o'zi esa kompyuter tarmoqlari belgilangan texnikaviy andozalar bo'yicha birlashtirilganda – 1982 yilda paydo bo'ldi hamda yangi texnikaviy tizimlarning vujudga kelishidagi zarur bosqichga aylandi. U katta miqdordagi, turli tarmoqlarni birlashtirgan bo'lib, tarmoq markazlarining o'zi bir necha mingtani tashkil etar edi. 1991 yilda elementar zarralar fizikasi Yevropa laboratoriyasi xodimi Tim Berners-Lining World Wide Web (WWW) «Butunjahon o'rgimchak to'ri» loyihasi e'lon qilindi. Shu loyiha tufayli Internet ommalashib ketdi. WWW loyihasining yaratilishi Internetni rivojlantirish sohasidagi yirik yutuqlardan biri hisoblanadi. WWW ning asosini tashkil etuvchi Web tarmoqlari Internetda deyarli har qanday axborotni – matn, grafik tasvirlar, tovush, videotasvirlarni joylashtirish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda Internet o'ta tez harakat qiluvchi yo'ldoshli ma'lumotlar uzatish magistrallaridan tortib to asta-sekin ulanadigan telefon liniyalarigacha bo'lgan turli kanallar yordamida bir-biriga bog'langan millionlab kompyuterlardan iborat.³⁸

Internetni rivojlantirish uchun telekommunikatsiyalarning – axborot uzatiladigan kanallarning ko'p tarmoqli tizimi zarur. Telekommunikatsiya tarmoqlari va tizimlari hozirda texnikaning jo'shqin rivojlanayotgan sohasini tashkil etadi. O'zbekiston telekommunikatsiya texnikasini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish hamda butunjahon axborot tizimidan foydalanishning muhimligini anglab etgan holda telekommunikatsiyalarni rivojlantirish milliy dasturini va Internet imkoniyatlaridan ishlab chiqarish, ta'lim, fan va madaniyatni

³⁸ Фролов А.В. Фролов Г.В. Всемирная паутина. Ваш спутник в Интернете. М., 2000. 2-б.

rivojlantirishda foydalanish samaradorlinini oshirish yuzasidan qator muhim qarorlar qabul qildi va ularni amalga oshirmoqda.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Globallashuv deganda nimani tushunasiz?
2. Globallashuvning ijobiy tomonlari nimalarda ko‘rinadi?
3. Globallashuvning salbiy xususiyatlari bormi?
4. Barqaror taraqqiyot tushunchasi o‘zida nimani aks ettiradi?
5. Global muammolarning paydo bo‘lishiga sabab nima?
6. Global muammolarning qanday turlari bor?
7. O‘zbekiston sharoitida global muammolarning qanday turlari namoyon bo‘lmoqda?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

15-Mavzu: KORRUPSIYANING MOHIYATI, OQIBATLARI VA UNGA QARSHI KURASH MEXANIZMLARI

REJA:

- 1.Korrupsiya tushunchasining mohiyati, tarixiy ildizlari
- 2.Korrupsiyaning sabablari
- 3.Siyosiy, g‘oyaviy va iqtisodiy korrupsiya – xavfsizlikka tahdid. Kadrlar korrupsiyasi va uni bartaraf etish mexanizmlari
- 4.O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning yo‘nalishlari va huquqiy asoslari

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR:

Korrupsiya, poraxo‘rlik, BMTning korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, Istambul harakat dasturi, korrupsiyaning sabablari, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim-tarbiya, korrupsiyaning shakllari, korrupsiyaning turlari, korrupsiyaga qarshi kurashda jahon tajribasi

1. **Korrupsiya** – bu jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur etkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to‘sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag‘al bo‘lishidan qat’iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo‘yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

Korrupsiya (lot. *corrumpere* – *buzmoq*) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab qonunchilik va ahloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi. Ko‘p hollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlatiladi. Korrupsiya haqida hammaning o‘ziga xos tasavvuri, tushunchasi bor, albatta. Qonunda unga shunday ta’rif berilgan: «*korrupsiya* – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish».

Inson nafs ham ushbu illatning kelib chiqishi asosiy sabablaridan biri deb ta’kidlanadi. Albatta, bizning bu ehtimolimiz bejizga emas. CHunki insoniyat paydo bo‘libdiki, uni nafs bor, nafs bo‘lgan joyda suiiste’molchiliklar bo‘ladi.

Korrupsiya ko‘plab davlatlarning jinoyat va ma’muriy qonunchiligi bilan huquqqa qarshi harakat sifatida ta’qib qilinadi. Makroiqtisodiy va siyosiy-iqtisodiy tadqiqotlar, korrupsiya – davlatlarning iqtisodiy o‘sishi va rivojlanishiga ulkan to‘siq ekanligini ko‘rsatdi. Birinchi Prezident I.Karimov o‘zining “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida korrupsiyaning O‘zbekistonning o‘z taraqqiyoti yo‘lida rivojlanishiga ulkan to‘siq bo‘lishi mumkinligini bayon qilgan edi.

Korrupsiyaning tarixiy o‘zaklari juda juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma’lum mavqega ega bo‘lish uchun qabila sardorlariga sovg‘alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O‘sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziylashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to‘siq ekanligini ko‘rsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi SHumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo‘rligi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma’lum. CHunki bu holat davlatning obro‘sig a juda qattiq putur etkazardi. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel “Har qanday davlat tuzumidagi eng muhimi – bu qonunlar va tartib-qoidalar vositasida ishni shunday tashkil etishki, mansabdor shaxslar qing‘ir yo‘l bilan boylik orttira olmasin” – deb o‘rinli ta’kidlagan edi. Pora olish va berish Qadimgi Rimda amal qilgan 12 jadval qonunlarida tilga olingan.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib jamiyat davlat boshqaruv apparatining ish sifatiga toboro ko‘proq ta’sir ko‘rsata boshladi. Bu o‘sha davrda qabul qilingan

bir qator qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Jumladan, 1787 yilda qabul qilingan AQSH Konstitutsiyasida pora olish AQSH prezidentini impechmentga tortish mumkin bo'lgan ikki jinoyatning biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va ularning mamlakat hayotidagi o'rining oshib borishi XIX-XX asrlarda rivojlangan davlatlarda korrupsiyaning dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan ancha kamayishiga olib keldi.

Insoniyat yangi asrda davlat va jamiyatni ichkaridan yemiradigan illat – korrupsiyaga qarshi kurashga bel bog'ladi, uning ildizlarini tahlil qilish orqali unga qarshi kurashning xalqaro-huquqiy mexanizmlarini yaratishga harakat qildi. Natijada korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi eng asosiy xalqaro-huquqiy hujjat sifatida BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga asos solindi. Mazkur konvensiya BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2003 yil 31 oktabrda qabul qilingan. O'zbekiston mazkur Konvensiyaga 2008 yil 7 iyulda qo'shilgan.

Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Korrupsiya biror mansabdor shaxsning qonunchilik va axloqqa zid ravishda o'zining boshqaruv vakolatlari va huquqlaridan shaxsiy manfaatlar maqsadida foyda olishidir. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq qoralanadi. Jumladan, **Injilda** "Sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'a ko'rni ko'radigan qiladi va haqiqatni o'zgartiradi" deyilgan bo'lsa, **Qur'oni Karimda** "Boshqalarning mulkini nohaq yo'l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo'lgan narsalarni olish uchun o'z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar" deyilgan.

2.Iqtisodchi Berdxenning fikriga ko'ra, makroiqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichiga eng katta salbiy to'lqinni olib kiruvchi omil aynan korrupsiya hisoblanadi. Uning ko'rinishlari turlicha bo'lishi mumkin.

Korrupsiya turli shakllarda uchraydi. Faoliyat ko'rsatish darajalariga ko'ra korrupsiya quyi darajadagi, yuqori darajadagi va vertikal darajadagi shakllarga farqlanadi.

Quyi darajadagi korrupsiya hokimiyat va boshqaruv organlarining o'rta va quyi darajalarida ayniqsa keng tarqalgan bo'lib, amaldorlar va fuqarolarning muntazam o'zaro aloqasi bilan bog'liq (ro'yxatdan o'tkazish, jarimalar, litsenziyalash, turli ruxsatnomalar olish va boshqalar).

Yuqori darajadagi korrupsiya hokimiyat organlarida ishlaydigan siyosatchilar, oliy martabali amaldorlarni qamrab oladi va juda katta qimmatga ega bo'lgan qarorlar qabul qilish bilan bog'liq (qonunlarni ilgari surish va qabul qilish, davlat buyurtmalari, mulk shakllarini o'zgartirish va boshqalar). Aksariyat hollarda korrupsiya bitimidan manfaatdor bo'lgan ikkala tomon ayni bir davlat hokimiyati organida ishlaydi. Masalan, quyi turuvchi davlat organing amaldori o'zining yuqori turuvchi boshlig'iga u pora beruvchining korrupsion harakatlariga homiylik qilishi yoki qo'shimcha mablag'lar, resurslar, vakolatlar berishi uchun pora beradi.

Vertikal korrupsiya ikki ma'noda ishlatiladi. Birinchidan, yuridik va jismoniy shaxslardan olingan noqonuniy mukofotning bir qismini yuqori darajadagi mansabdor shaxslarga o'z xavfsizligini ta'minlash va korrupsiya faoliyatini davom ettirish uchun berib borishdir. Ikkinchidan, davlat organida korrupsiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi har ikki tomon ham bir sohaga mansub bo'lib, quyi davlat organining mansabdor shaxsi porani o'z boshlig'iga berib boradi, boshliq esa quyi organ rahbarini korrupsiya faoliyatini himoyalaydi yoki unga qo'shimcha moliyaviy, moddiy va boshqa resurslar, vakolat va boshqa imkoniyatlar berilishini ta'minlaydi. Bu korrupsiyaning eng xavfli turi bo'lib, ushbu turdagi korrupsiya, odatda yuqori va quyi korrupsiya o'rtasida ko'priq vazifasini bajaradi. Natijada korrupsiyaning uyushgan shakllari va korrupsiya tarmoqlarini shakllanishiga sabab bo'ladi.

Qonunchilida davlat organlarining xodimlari ularni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga ko'ndirish maqsadida biror-bir shaxs o'zlariga murojaat etganligiga doir barcha hollar to'g'risida, shuningdek davlat organlarining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan shunga o'xshash huquqbuzarliklarning o'zlariga ma'lum bolib qolgan har qanday faktlari haqida o'z rahbarlarini yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etishi shartlilikini belgilangani mansabdor shaxslarning faoliyatida shaffoflik va xolislikni ta'minlash hamda davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, korrupsiya turli shakllarga ega: poraxo'rlik, tovlamachilik, firibgarlik, mulkni o'zlashtirish, fitna, hokimiyatni suiste'mol qilish, xushomadgo'ylik, sovg'a, qarindoshlik, homiylik va boshqalar. Korrupsiyaning holatiga turli omillar: ijtimoiy va madaniy sharoit, institutsional va tashkiliy tuzilmalar, siyosiy muhit, shuningdek iqtisodiy va tarkibiy o'zgarishlar siyosati ham ta'sir qiladi.

Yirik korrupsiya deganda, amaldagi davlat siyosatini yo'qqa chiqaradigan, hukumat darajasida amalga oshiriladigan siyosiy va hukumat rahbarlariga xalq hisobidan manfaat ko'rishga imkon beradigan harakatlar tushuniladi.

Mayda korrupsiya deganda, odatda kasalxonalar, maktablar, militsiya bo'limlari va boshqa joylarda asosiy xizmatlardan foydalanishga uringan oddiy fuqarolar bilan aloqa qilishda hokimiyatning quyi va o'rta bo'g'inlari mansabdor shaxslarining kundalik ishonchli vakolatlarini suiste'mol qilishlari tushuniladi.

Qonunchilikda **manfaatlar to'qnashuvi** degan tushuncha mavjud. Bu – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolar, tashkilotlar, jamiyat yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatdir.

Korrupsiyaning kelib chiqish ildizini, uning kelib chiqish sabablarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yo'llarini topish bo'yicha mutaxassislar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilgan. O'ziga xos reytinglar tuzilib, har xil ko'rsatkich va raqamlar qayd etilgan jadvallar yaratilgan. Hatto korrupsiyaning xilma-xil

ko‘rinishidagi formulalari ham ishlab chiqilgan. Hanuzgacha, barcha millatlar uchun qo‘l keladigan qarshi kurashda asqotadigan yagona yechim yo‘q.

Tadqiqotchilar korrupsiyaning asosiy sabablari sifatida to‘rtta omilni ko‘rsatadilar.

Birinchisi - **iqtisodiy sabablar**. Bu haqda, Prezident Sh.Mirziyoyev o‘zlarining chiqishlarida ko‘p marotaba so‘z yuritib keladi. Korrupsiyaning bu ko‘rinishi ijtimoiy va iqtisodiy hayotni bevosita ma‘muriy yo‘l bilan boshqarishga intilgan hokimiyat va byurokratiyaning mavqeyi baland bo‘lgan davlat sharoitida rivoj topadi. Iqtisodiy faoliyatga nisbatan o‘rnatilgan turli xildagi cheklashlar, amaldorlarning keng, nazoratdan xoli, cheklanmagan yoki ruxsat berish, yoki taqiqlash vakolati korrupsiyaga zamin yaratadi. SHu bilan bog‘liq holda, yirik mablag‘larga ega bo‘lgan ayrim ishbilarmonlar o‘z daromadlarini ko‘paytirish maqsadida va raqobatda alohida imtiyozlarga ega bo‘lish uchun hukumat amaldorlarini pora evaziga sotib olib, ularni o‘z ixtiyorlariga bo‘ysundirishga intiladilar.

Ikkinchisi - **huquqiy sabablar**. Korrupsiyaning rivoji qonunlarning sifatiga bog‘liqdir. Mukammal bo‘lmagan qonunlar ishlamaydi va ayrim uddaburonlar bundan ustalik bilan foydalanadilar.

Uchinchisi - **institutsional sabablar** bo‘lib, ularga avvalo, davlat boshqaruvi tizimidagi nuqsonlar, demokratik institutlarning kuchsizligi, shuning natijasida, hukumat faoliyatining yopiqligi yoki fuqarolik nazoratidan xoliligi kiradi.

To‘rtinchisi - **ijtimoiy sabablar** yoki jamiyatdagi muhit, aholining huquqiy bilimi, madaniyat darajasi, ma‘naviyati, uyushqoqligi va jamoat faolligi pastligi kabi omillardir.

Ushbu illatni tadqiq qilgan bir qator yirik mutaxassislar quyidagi faktorlarni korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillar sifatida ko‘rsatadi.

Ikki xil ma‘noni anglatuvchi qonunlar – ushbu vaziyat huquqni qo‘llovchi mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo‘llash imkonini yaratadi. SHuningdek, ayrim mutaxassislar jinoyat, ma‘muriy qonunchilikdagi “vilka” sanksiyalarni ham korrupsiyaga qulay sharoit yaratishi mumkinligi haqida fikr yuritishgan. Ya‘ni, sanksiyaning aniq miqdori yo‘qligi sudyada uni o‘z hohishiga qarab qo‘llashga sharoit yaratib beradi.

Aholi huquqiy savodxonligining pastligi – aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o‘zining shaxsiy manfaati yo‘lida qonunlardan foydanishga qulay sharoit yaratadi.

Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning notinchligi – mamlakatdagi notinchlik birinchi navbatda aholi ongida hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog‘liq, degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida korrupsiyaga qulay sharoit yaratadi.

Ijro hokimiyatining birligi tamoyilining buzilishi – aynan bitta faoliyatning turli instansiyalar tomonidan tartibga solinishi.

Shuningdek boshqa omillar:

aholining davlatni nazorat qilishdagi sust ishtiroki;

davlat sektoridagi xizmat qilayotgan xizmatchilar daromadlarining xususiy sektorda topish mumkin bo'lgan daromadlardan kamligi;
iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi;
inflyasiyaning yuqori darajasi;
mamlakat yuqori boshqaruv organlarining aholidan uzilib qolganligi;
mamlakatdagi diniy va axloq qoidalari ham korrupsiyaning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

3. Korrupsiyaning bir qancha turlari mavjud. Ular quyidagilar:

1. Maishiy korrupsiya

2. Ishbilarmonlik korrupsiyasi

3. Oliy hokimiyat organlari korrupsiyasi

Maishiy korrupsiya - asosan mansabdor shaxslar va davlat xizmatchilarining kundalik ish faoliyatida fuqarolar bilan munosabatlarida keng tarqalgan. Bu fuqarolarga davlat va uning organlari, muassasalari yoki davlat nomidan ish yuritadigan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan tibbiy, ma'rifiy va boshqa xizmatlarni ko'rsatishda namoyon bo'ladi. Ishbilarmonlik korrupsiyasi hokimiyat vakillarining tadbirkorlik sub'ektlari bilan munosabatlarida uchraydi. Oliy hokimiyat organlari korrupsiyasi (elitar korrupsiya ham deyiladi) siyosiy hukmron doiralar hamda odil sudlov tizimi faoliyatida uchraydi. Hokimiyat (ijroiya, vakillik va sud) organlaridagi korrupsiya hozirgi vaqtda jahonning deyarli barcha mamlakatlari, shu jumladan, O'zbekistondagi muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bu turdagi korrupsiya jinoyatlarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularni o'zlari qonunga rioya etishlari va uni muhofaza qilishlari lozim bo'lgan kishilar sodir etadi.

Siyosiy sohada korrupsiya demokratik tamoyillarga o'tish jarayonini to'xtatadi, siyosiy maqsadlarni umummilliy rivojlanish maqsadlariga emas ayrim guruhlarining maqsadlariga tobe qiladi, qonun ustuvorligini buzilishiga, siyosiy va sud institutlari faoliyatining samarasi tushishiga, mamlakat obro'sining tushishiga va haqiqiy siyosiy raqobatning yo'qolishiga olib keladi, shu bilan hokimiyatga ishonch susayadi, uni jamiyatdan uzoqlashtiradi.

Iqtisodiy sohada korrupsiya davlat mablag'lari va resurslarining samarasiz taqsimlanishi va sarflanishiga, biznesni yuritishda ko'p vaqt va moddiy xarajatlarga, moliyaviy va tijorat xavflarining o'sishiga, narxlarning o'sishiga, raqobat muhitining yomonlashishiga, xufiyona iqtisodiyotning o'sishiga, soliq tushumlarining kamayishiga, investitsion muhitning yomonlashishiga, investitsiyalarning kamayishi va umuman mamlakat iqtisodiyoti samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Ijtimoiy sohada korrupsiya ijtimoiy tengsizlik va qashshoqlikning kuchayishi, hokimiyatning byudjet sohasiga zarar yetkazuvchi "zarbalar" ("otkat")lar tufayli ijtimoiy muammolarni echishga qodir bo'lmay qolishi, uyushgan jinoyatchilikning kuchayishi va jamoatchilik ko'z o'ngida qonunning obro'sizlanishiga olib keladi. Bu axloqiy me'yorlar mohiyatining yo'qolishiga va ijtimoiy keskinlikning o'sishiga sabab bo'ladi.

Brilliant yoqalilar korrupsiyasi deganda – davlat boshqaruvi, siyosiy va iqtisodiyotning yuqori eshelonidgi mansabdor shaxsning kasbiy faoliyati bilan

bog'liq korrupsiyani, davlat boshqaruvi, iqtisodiy va siyosiy sohadagi jinoyatlarni ortiqcha shov-shuvsiz sodir etishi tushuniladi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, uning sifati hamda samaradorligini oshirish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, oliy o'quv yurtlariga qabul jarayonlarining shaffofligini ta'minlash, ta'limdagi korrupsiya va poraxo'rlikning oldini olishga ham astoydil kirishilgan. Poraxo'rlikka qarshi kurash maqsadida olib borilayotgan kompleks chora-tadbirlarga qaramay, "o'qishga kiritib qo'yaman, testni hal qilib beraman", degan va shu orqali mo'may pul ishlab olish ilinjidagi firibgarlar hali-hanuz uchrab turibdi. Afsuski, "Farzandim diplom olsa bo'ldi, u yog'i bir gap bo'lar" qabilida ish tutadigan, farzandining qobiliyati, bilimi va salohiyati etarlimi yoki yo'q, bunga ikkinchi darajali masala sifatida qaraydigan ota-onalar ham yo'q emas. Ushbu holatlar yillar davomida ta'lim tizimidagi korrupsiyaning eng og'riqli nuqtasi bo'lib keldi.

Sohadagi islohotlar sabab vaziyat tubdan o'zgardi, kimning bilimi, qobiliyati, salohiyati bo'lsa, o'sha odam o'qiydi, degan tamoyilga amal qilina boshlandi. SHu bois endilikda ta'limdagi korrupsiyani tag-tomiri bilan yo'q qilishga astoydil kirishilgan. Bu boradagi dastlabki qadam test imtihonlarini topshirish jarayonini tartibga solish bilan boshlandi. Barcha jarayon nafaqat davlat organlari, balki keng jamoatchilik nazorati ostida shaffof tarzda o'tadigan bo'ldi. Hozirda hujjat qabul qilishdan boshlab, test imtihonlarini o'tkazish jarayonigacha abituriyentlar uchun barcha sharoit va imkoniyat yaratilyapti. Asosiysi, haqqoniylik va ochiqlik tamoyiliga amal qilinayotir.

Lekin korrupsiyaga qarshi kurash tobora qat'iy bo'lib borsa-da, astoydil ta'lim olib, ne-ne orzular bilan o'qishga topshirgan yoshlar manfaatini hatlab o'tib, harom luqma bilan kun kechirishni o'ziga odat qilgan ayrim nopok insonlar hozir ham uchrab turgani jamiyatimizdagi sog'lom muhitga salbiy ta'sir qilmoqda. Bunday holat nafaqat oliy ta'lim dargohlarida, balki litsey, kollej va texnikumlarda, hatto umumta'lim maktablarida ham ko'zga tashlanmoqda.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunda belgilanganidek, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiyani kuchaytirish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. To'g'ri ishlab, to'g'ri yashash saodatini bolalikdan, yoshlikdan o'rgangan odam mard va halol bo'ladi. Adolatsizlik, qonunga hurmatsizlik, kasbu amalga, ishonchga xiyonat qilib bo'lmasligini o'qib-uqqan, poraxo'rlik va korrupsiyaga, suiiste'molchilikka qarshi o'zida immunitet hosil qilgan yoshlar kelajakda jur'atli, vijdonli inson bo'lib etishadi. Qonunga, tartib-qoidalarga hurmat saqlab, el-yurtga sadoqat bilan xizmat qiladi. Halol mehnat bilan topilmagan boylik totli bo'lmasligini, hech kimga buyurmasligini, yaxshilik emas, yomonlik va kulfat keltirishini tushunadi.

Bir yosh kadr mas'uliyatli vazifaga kelsa, amalga ega bo'lsa, bundan ota-ona, qarindosh-urug' qanchalik quvonadi?.. Bu tabiiy va ezgu tuyg'u, albatta. Lekin ba'zi noto'g'ri, zararli illatlar, bilib-bilmay, tushunib-tushunmay yo'l qo'yib beriladigan odatlar ham borki, ularni aslo esdan chiqarmasligimiz kerak. Gohida shunday bo'ladiki, yaqinlar, og'a-inilarning «o'g'lim yoki og'ayni, mana,

ishlayapsanku, opangni uzatilayotgan qiziga durustroq sovg'a bergin, amakingning yetmay turgan mashina puliga yordam qilib yuborgin, qiynalib yuribdi...» qabilidagi istak va xohishlar yosh kadrlarni buzadi, boshini aylantirib qo'yadi. Yaqinlariga hurmat yuzasidan bechora o'zini o'qqa-cho'qqa urishga, noqonuniy ish qilishga, oson pul topishga harakat qiladi. Istab-istamay, boshi berk ko'chaga kirib qoladi, korrupsiya tuzog'iga ilinadi.

Qarindosh-urug'chilik, tanish-bilishchilikdan davlat va jamiyat manfaatlariga ziyon yetmasligi, qonunlarga, insonning qadr-qimmatiga raxna solinmasligi kerak. Qandaydir manfaat ortidan bog'langan rishta, do'stlik, aka-ukachilik uzoqqa cho'zilmaydi, hech kimga hurmat olib bermaydi. Bunga hayotdan ko'plab misollar topish mumkin. Demak, yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki kadrlar, ta'lim va fan sohasidagi korrupsiya bu mamlakat taraqqiyotiga jiddiy to'siq bo'ladi, xalq ishonchining yo'qolishiga olib keladi. Bu esa davlat va jamiyatning tanazzul tomon borishiga yo'l ochadi.

4. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurishning umumiy strategiyasini amalga oshirish doirasida qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sud-huquq tizimini isloh qilish yuzasidan qator chora-tadbirlar izchil amalga oshirib kelinmoqda.

Tarixan qisqa davr ichida mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlashning institutsional va huquqiy asoslari shakllantirildi, *korrupsiyaga qarshi kurashishning* samarali tizimi yaratildi. Mazkur yo'nalishdagi islohotlarni amalga oshirish davomida milliy qonunlarga xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarini singdirish masalasiga alohida e'tibor berildi. Bu munosabat 2008 yil 28 avgustda qabul qilingan «Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida»gi Qonunda o'z aksini topdi.

2010 yilda O'zbekiston Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog'ining Istanbul harakat dasturiga qo'shildi.

So'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan Byudjet va Bojxona kodekslari (yangi tahrirda), «*Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida*»gi, «*Ijtimoiy sheriklik to'g'risida*»gi, «*Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida*»gi, «*Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida*»gi, «*Elektron hukumat to'g'risida*»gi, «*Ichki ishlar organlari to'g'risida*»gi qonunlar qabul qilindi.

2019 yil 27 mayda "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni e'lon qilindi. Ushbu farmonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari belgilab berildi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishchanlik muhitini yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar yaratish, ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish,

davlat xaridlari mexanizmlarini takomillashtirish, davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini tasdiqlashga doir bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda **«Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni** qabul qilindi.

Milliy parlamentimiz tomonidan qabul qilinib, 2017 yil 3 yanvarda Prezidentimiz tomonidan imzolangan «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonun tarixiy ahamiyatga ega hujjatlardan biridir.

6 bob, 34 moddadan iborat ushbu qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar va me'yorlar belgilangan.

Qonunning 4-moddasig ko'ra korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: qonuniylik; fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi; ochiqlik va shaffoflik; tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi; korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi; javobgarlikning muqarrarliligi.

Qonunning 5-moddasiga ko'ra korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarliligi prinsipini ta'minlash.

Qonunning 7-moddasiga ko'ra korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

O'zbekiston Respublikasi Milliy (hozirda Davlat) xavfsizlik xizmati;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish (hozirda Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish) departamenti.

8-moddaga ko'ra korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoralararo komissiyalar haqida bo'lib korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etiladi. Idoralararo komissiyani shakllantirish va uning faoliyati tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

Qonunning 14-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar:

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi;

korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi;

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

Qonunning 18-moddasiga ko'ra ta'lim muassasalarida korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya belgilangan davlat ta'lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladi. Davlat ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim va tarbiyaga, mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning sifatini oshirishga, ta'lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi.

Davlat boshqaruvi sohasida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

davlat organlari faoliyatining ochiqligini va ularning hisobdorligini ta'minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining va boshqa xodimlarining o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas'uliyatini kuchaytirish;

korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlarining faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

davlat organlarining va ular xodimlarining faoliyatida korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik;

davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarining samarali ijtimoiy himoya qilinishini, moddiy ta'minot olishini va rag'batlantirilishini ta'minlash.

Davlat organlarining va o'zga tashkilotlarning mansabdor shaxslari hamda boshqa xodimlari qonun hujjatlariga rioya etishi, o'z mansab yoki xizmat majburiyatlarini beg'arazlik bilan, xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korruptsiyaga oid biror-bir huquqbuzarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o'zini tiyishi shart.

Qonunning 27-moddasiga ko'ra korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etganlik qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar sudning qaroriga ko'ra muayyan huquqlardan, shu jumladan muayyan lavozimlarni egallash huquqidan qonunga muvofiq mahrum etilishi mumkin.

Yuridik shaxslar korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

28-modda korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslar davlat himoyasida bo'ladi, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslarni ta'qib etish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning qoidalarini korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida bila turib yolg'on axborot bergan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi, ular qonunga muvofiq javobgar bo'ladi.

Qonun asosida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 2 fevraldagi *«Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»*gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatlar o'z mazmun mohiyati, maqsadi bilan mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashning yangi bosqichini boshlab berdi.

Prezidentimizning 2017 yil 7 fevraldagi *«O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»*gi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida ham korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha tadbirlar belgilanganligi alohida qayd etildi. Qonun normalarini hayotga tatbiq etish maqsadida yuqorida ko'rsatilgan Prezidentimiz qarori bilan 2017-2018 yillarga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturi, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tarkibi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyunda "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-sonli yana bir Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon asosida shu kuni **O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini** tashkil qilish to'g'risidagi Prezident Qarorining qabul qilinishi respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurash borasida qo'yilgan yana bir muhim qadam bo'ldi.

Hammamiz yaxshi bilamiz, qonun huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Vakolatlar, huquq va majburiyatlarni, amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilab beradi. Agar qonun hayotda ishlamas, uning bir necha varaq oddiy qog'ozdan farqi qolmaydi. Shunday ekan, *«korrupsiya haqida qonun qabul qilindi, endi hammasi iziga tushib ketadi»*, deb o'ylash, xotirjamlikka berilish katta xato bo'ladi. Korrupsiya balosidan qutulish, islohotlarni uning changalidan ozod etish haqida hammamiz o'ylashimiz, buning zaruratini har birimiz yuragimizdan o'tkazishimiz, unga qarshi qat'iy kurashishimiz kerak.

Bu kurash kundalik hayotimizdagi oddiy holatlardan boshlanadi. *Shifokordan yaxshiroq maslahat olish, navbatni tezlashtirish, reyting daftarchasiga tuzukroq baho qo'ydirish va hokazo vaziyatlarda o'zimizni munosib tutishimiz lozim bo'ladi.*

Odamlarning tabiatiga o'xshab rahbaru mas'ullar ham har xil bo'ladi. «Jamoada hamma qulaylik o'zim uchun, bu tashkilot menga bir paytlardagi xizmatlarim, farog'atda yashamog'im uchun berilgan, marhamat, qolganlar aravasini o'zi amallab tortaversin» qabilida tor va eskicha o'ylaydigan, «oldi-

berdi»ni faoliyatining bir qismi deb tushunadigan, demokratik qonun-qoidalarini yetarlicha idrok eta olmaydigan rahbarlar ham yo‘q emas. Shuning uchun qonunda aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, xususan, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish choralari ko‘zda tutilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda, davlat hokimiyati organlari faoliyatida ochiqlik va oshkoralikni ta‘minlashda, fuqarolarga tezkor va xolis axborot yetkazishda ommaviy axborot vositalariga erkinlik berish, demokratik islohotlar jarayonida ularning nufuzi va mavqeini oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi kurashishda ommaviy axborot vositalarining ishtirok etishi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida axborot berayotgan shaxslarni himoya qilish masalalari qonunda alohida belgilab qo‘yilgan.

Ommaviy axborot vositalarining erkin va dadil faoliyatisiz jamiyat hayotini demokratlashtirish, odamlarni mustaqil fikrlab yashashga undash, hozirgi kunda suv va havodek zarur bo‘lgan jamoatchilik nazoratini izchil yo‘lga qo‘yish mumkin emas. Butun dunyoda davlatning demokratiyani hurmat qilishiga, xalqning salohiyati va madaniyatiga matbuot erkinligi, odilligiga qarab ham baho beriladi. Albatta, bugun bu haqiqatni ko‘pchiligimiz yaxshi tushunamiz va tan olamiz.

Shu o‘rinda korrupsiyaga qarshi kurashish masalasining yana bir tomoniga e‘tibor qaratsak. Nobop, «muomala qilish», «kelishish»ga moyil rahbar yoki boshqa bir mas‘ul nafaqat tashkilotga, jamiyatga, ishchi-xodimlarga ziyon yetkazadi, balki bunday odam bilan tashkilotning, jamoaning, ayniqsa, yosh kadrlarning vaqti, umri behuda o‘tadi. Rahbar hammaga o‘rnak bo‘lib, halol ishlab, fidoyilik ko‘rsatish o‘rniga, yig‘ilishlarda bir gapni gapirib, o‘zi butunlay teskarisini qilsa, undan yosh kadrlar nimani o‘rganadi? Qanday o‘rnak oladi?.. Korrupsiyaga qarshi kurashish yana shunisi bilan muhimki, mazkur jarayonlarda ishchi-xodimlar, yoshlar halol ishlash, ishonch va vakolatga munosib xizmat bilan javob qaytarish zarur, degan tushunchaga tayanib faoliyat yuritishni o‘rganadi. *Har qanday vaziyatda mard odam, baribir, halol bo‘ladi, degan e‘tiqodda sobit turadi.*

Shu sababli ham so‘nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlar, kichik biznes sub’ektlariga «yagona darcha» tamoyili orqali xizmat ko‘rsatilyapti, yagona portal orqali davlat xizmatlari elektron shaklda taqdim etilayapti. Qonun hujjatlariga, davlat tashkilotlarining ish faoliyatiga ochiqlik, oshkoralikni ta‘minlash nuqtai nazaridan o‘zgartirishlar kiritilayapti va boshqa ko‘plab yangiliklar joriy qilinayapti. Bularning barchasi korrupsiya balosini bartaraf etishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Fuqarolar bunday yondashuvni jon-dili bilan qo‘llab-quvvatlamoqda.

So‘nggi vaqtlarda jamiyatimiz hayoti, mamlakatimiz iqtisodiyotining turli sohalarini yanada jadal rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan qonunlar, Prezident qaror va farmonlari ana shu ezgu maqsadga qaratilganini anglash qiyin emas. Turizmni rivojlantirish, dunyoning ko‘plab davlatlaridan yurtimizga tashrif buyuradigan sayyohlar uchun viza rejimini bekor qilish yoki sud-huquq tizimini takomillashtirish, sudlarning haqiqiy mustaqilligini ta‘minlash yoxud tadbirkorlikka keng erkinlik berish, turli byurokratik to‘siq va g‘ovlarni yo‘q qilish

haqidagi hamda boshqa bir qancha qaror va farmonlar odamlarning yo'lini ochishga, O'zbekistonimizning jozibasini oshirishga xizmat qilmoqda.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonun bu boradagi islohotlar yanada izchil tus olishiga sharoit yaratmoqda, xalqimizda katta umid uyg'otmoqda.

Qolaversa, korrupsiya fuqarolar, ayniqsa, yosh avlodda ijtimoiy adolatga, haqiqatga, davlat organlari va mansabdor shaxslarga bo'lgan ishonchini susaytiradi. Shu nuqtai nazardan o'sib kelayotgan yosh avlodni, ayniqsa, kollej va oliy ta'lim muassalarini bitirib, kasbiy faoliyat boshlash ostonasida turgan yoshlarga korrupsiyaning nechog'li xavfli illat ekani haqida ma'lumotlar berish foydadan xoli bo'lmaydi. Negaki, bugungi kun bitiruvchisi ertangi mutaxassis, jamiyat va davlat boshqaruvining ishtirokchisidir.

Bugungi kunda dunyoda korrupsiya darajasini o'lchashning beshta asosiy usuli qo'llaniladi. Ularning barchasining afzalliklari ham, kamchiliklari ham mavjud. Zero, korrupsiya to'g'risida aniq ma'lumot olish juda qiyin, ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi barcha shaxslar ko'p hollarda kimligi ochiqqlanishini xohlamaydilar.

O'zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashda uzoq muddatli ijobiy dinamikani namoyish etuvchi 16 ta davlat qatoriga kiradi.

Transparency International xalqaro tashkilotining korrupsiyani idrok etish indeksi bo'yicha, 2010 yildan beri O'zbekiston har yili o'z mavqeyini yaxshilab kelmoqda. 2024 yilda O'zbekiston 33 ball bilan 180 davlat ichida 121-o'rinni egalladi. 2019 yilda O'zbekiston 25 ball bilan 180 davlat ichida 153-o'rinni egallagan, 2010 yilda esa u 16 ball bilan 172-o'rinda turgan edi.

Transparency International xalqaro korrupsiyaga qarshi barometrlarining 2016 yildagi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistondagi respondentlarning atigi 18 foizi pora bergani haqida xabar bergan va ularning atigi 23 foizi korrupsiyani mamlakatdagi uchta eng jiddiy muammolardan biri sifatida qayd etgan. Aholi so'rovlariga ko'ra, eng korrupsiyalashgan soha vakillari – yo'l-patrul xodimlari (respondentlarning 17 foizi ularga pora berganligini tan olgan), ta'lim va tibbiyot xodimlari (respondentlarning 16 foizi buni tan olgan). Respondentlarning korrupsiya to'g'risida xabar berishiga nima to'sqinlik qiladi degan savolga, 39% ular bu savolga javobni bilmasliklarini aytishgan va ikkinchi eng keng tarqalgan javob “Salbiy oqibatlardan qo'rqish tufayli” bo'lgan (17%).

Jahon banki korxonalar o'rtasida o'tkazgan so'rovida firmalarga oltita turli bitimlar, jumladan soliqlarni to'lash, ruxsatnomalar yoki litsenziyalar olish va davlat xizmatlariga ulanish bo'yicha pora berish taklif qilingan vaziyatni baholashga urinadi. Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistondagi vaziyat dunyo va Yevropa hamda Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'rtacha ko'rsatkichlarga qaraganda yaxshiroq. Masalan, O'zbekistonda so'rovda qatnashgan barcha firmalarning atigi 6 foizi o'z amaliyotida pora talab qilinishi bilan duch kelganligini ta'kidlagan, dunyoda bu ko'rsatkich 17 foizni, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida esa 11 foizni tashkil etadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishchanlik muhitini yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar yaratish, ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish,

davlat xaridlari mexanizmlarini takomillashtirish, davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini tasdiqlashga doir bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Ijtimoiy-tarixiy vaziyat, fuqarolarning huquqiy dunyoqarashi, davlat tuzilishi, iqtisodiy rivojlanish omillaridan kelib chiqib, har bir davlat korrupsiyaga qarshi o'ziga xos usullarda kurashmoqda. Bu borada eng samarali yo'l hali topilgan emas. Chunki korrupsiya bir qarashda oddiy jinoyat bo'lib ko'ringani bilan aslida uning kelib chiqishi va yashovchanlik sabablari juda chigal va murakkabdir.

Bir davlatda natija bergan usul boshqa davlatda u qadar samara ko'rsatmasligi mumkin. Shuning uchun har bir davlat va jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashish yo'lini o'zi tanlaydi, aniqrog'i, qanday yo'l to'g'ri ekanini hayot ko'rsatadi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Korrupsiya deganda nimani tushunasiz?
2. Islom dinida korrupsiyaga qanday munosabatda bo'ladi?
3. Korrupsiyaga nima uchun global darajadagi muammo sifatida yondoshiladi?
4. Korrupsiya kelib chiqishining qanday sabablari bor?
5. Qonunda korrupsiyaga qanday tarif berilgan?
6. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha qanday huquqiy normativ hujjatlar qabul qilingan?
7. "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi" Qonunda ta'lim muassasalariga qanday vazifalar yuklatilgan?
8. Transparency International xalqaro tashkilotining faoliyati haqida nimalarni bilasiz?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni / O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, №1. 2017
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-sonli Farmoni. Lex.uz
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.

3.2. AMALIY MASHG‘ULOTLAR UCHUN O‘QUV MATERIALLARI

1-seminar mashg'uloti: **FALSAFANING MOHIYATI VA JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI ROLI**

1. Falsafaning fan va dunyoqarashga doir mohiyati
2. Falsafaning predmeti va asosiy masalalari
3. Dunyoqarashning tarixiy shakllari

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

Falsafa, faylasuf, donishmandlik, falsafiy muammolar, ontologiya, gnoseologiya, dialektika, dunyoqarash, mifologik dunyoqarash, diniy dunyoqarash, falsafiy dunyoqarash, fan, fanning rivojlanish bosqichlari

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. «Falsafa» tushunchasining mohiyatini siz qanday tushunasiz?
2. Falsafaning bahs mavzusi nima?
3. Dunyoqarash nima?
4. Falsafiy dunyoqarashning mohiyati nimada?
5. Falsafa milliy bo'lishi mumkinmi?
6. Falsafaning umuminsoniyligi deganda nimani tushunasiz?
7. Fan va falsafaning umumiyligi va farqini ayting.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

2-seminar mashg'uloti: **SHARQ FALSAFASINING MOHIYATI VA IJTIMOIY TARAQQIYOTDAGI ROLI**

1. Qadimgi janubiy Sharq (Hindiston) va Shimoliy sharq (Xitoy) falsafasining mohiyati. “Avesto” muqaddas manbasida olamning tuzilishi, shaxs tarbiyasiga oid g'oyalarning hozirgi davrdagi ahamiyati
2. Al-Forobiy, Ibn Sinoning inson tarbiyasiga oid g'oyalari va ularning hozirgi davrdagi ahamiyati.

3. Sharq mutafakkirlari J.Rumi, G‘azzoliy, Nizomulmuluk, A.Navoiy, Mashrab, A.Donish axloqiy qarashlarining yangi O‘zbekiston yoshlari tarbiyasidagi o‘rni. Tasavvuf falsafasida olam va odam haqidagi qarashlarning mohiyati.
4. XIX-XX asrda jadidizmning rivojlanishidagi tarixiy sharoitlar. XX-XXI asr o‘zbek falsafasining barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi ahamiyati

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR:

Diniy-falsafiy bilimlar, Avesto, zardushtiylik, astika, nastika, konfutsiychilik, daosizm, vojibul vujud, mumkinul vujud, tasavvuf, sufizm, Kalom, moturudiya, ma‘rifatparvarlik, jadidchilik, o‘zbek falsafasi

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Yurtimizdagi qadimgi falsafiy qarashlarda umumiylik jihatlari nimada?
2. Mutakallimlar kimlar?
3. Forobiyning falsafiy va jamiyatshunoslikka doir qarashlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Tasavvufning yirik namoyondalaridan kimlarni bilasiz?
5. «Dil ba yoru, dast ba kor» shiorining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering
6. Ahmad Donishning qarashlari haqida ninalarni bilasiz?
7. Jadidlar qanday g‘oyalarni ilgari surdilar?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

3-seminar mashg‘uloti: G‘ARB FALSAFASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI VA ULARNING FAN TARAQQIYOTIGA TA’SIRI

1. Qadimgi Yunon falsafa maktablarining fan taraqqiyotiga ta’siri
2. Ilk o‘rta asrlarda Yevropa falsafiy tafakkuri
3. Yangi davr G‘arb falsafasi
4. XIX-XX asr G‘arb falsafasining mohiyati

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR:

Atomizm, naturfalsafa, stixiyali dialektika, sxolastika, ilohiyot, ratsionalizm, marifatparvarlar, nemis klassik falsafasi, neotomizm, pragmatizm, ekzistensializm, pozitivizm, sivilizatsion yondoshuv

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Aristotel jahon fan va madaniyatiga qanday hissa qo'shgan?
2. Platon falsafasining asosiy mohiyati nimada?
3. Uyg'onish davri falsafasining asosiy g'oyalari nimalarda ko'rinadi?
4. Yangi davr falsafasidagi bahs mavzulari qaysilar?
5. Nemis milliy (mumtoz) falsafasining vakillari kimlar?
6. Ekzistensial falsafaning mohiyati nimadan iborat?
7. Neopozitivizmning asosiy xususiyatlari nimada?
8. Germenevtika qanday ta'limot?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

4-seminar mashg'uloti: BORLIQ FALSAFASI

REJA:

1. Borliq tushunchasining mohiyati
2. Borliq shakllarining tasnifi
3. Borliqda substansiya va materiyaning o'zaro aloqasi. Harakatning mohiyati. Makon va vaqt.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

Borliq, tabiat borlig'i, ijtimoiy borliq, inson borlig'i, reallik, harakat, fazo, vaqt, substansiya, materiya, makon, substrat, "Yashil makon" umummilliy dasturi

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Borliq tushunchasi nimani bildiradi?
2. Borliq shakllarini sanab bering?

3. Falsafada harakat deganda nimani tushunasiz?
4. Harkatning asosiy shakllarini sanab bering?
5. Fazo va vaqt tushunchalarini tushuntiring.
6. Materiyaning mavjudlik shakllariga nimalar kiradi?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

6. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
7. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
8. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
9. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent: 2019
10. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

5-seminar mashg‘uloti: **RIVOJLANISH FALSAFASI**

REJA:

1. Borliqda narsa va hodisalarning paydo bo‘lishi, shakllanishi, o‘zgarishi, rivojlanishi va taraqqiyotining o‘zaro aloqadorligi
2. Rivojlanish qonunlarining mohiyati, ularning tabiiy va ijtimoiy jarayonlardagi o‘rni
3. Falsafa kategoriyalarining tasnifi va ularning rivojlanish jarayonlaridagi roli

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR:

Rivojlanish, taraqqiyot, qonun, miqdor va sifat, sakrash, qarama-qarshilik, kurash, ziddiyat, inkorni inkor, yakkalik, alohidalik, umumiylik, sabab va oqibat, sistema va element, butun va qism, mohiyat va hodisa, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Rivojlanish deganda nimani tushunasiz?
2. Hozirgi davrda taraqqiyot va o‘zaro bog‘liqlik tamoyillari qanday namoyon bo‘lmoqda?
3. Qonun tushunchasini qanday izohlaysiz?
4. Qonunlardagi ichki birlikning asosi nimada?
5. Falsafa kategoriyalarining fan kategoriyalaridan farqi nimada?
6. Falsafa qonunlari qaysilar?
7. Falsafa qonunlarining boshqa qonunlardan farqi nimada?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

6-seminar mashg‘uloti: BILISH FALSAFASI

REJA:

- 1.Bilish jarayonining mohiyati va asosiy mezonlari
- 2.Bilimning asosiy turlari va shakllari
- 3.Haqiqat bilishning mezoni. Metod, metodika metodologiyaning o‘zaro aloqasi va farqi

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR:

Gnoseologiya, epistemologiya, bilish nazariyasi, falsafiy bilim, mifologik bilim, diniy bilim, ob‘ekt, sub‘ekt, agnostitsizm, skeptitsizm, sezish, idrok etish, xotira, tasavvur qilish, empirik bilim, kuzatish, eksperiment, haqiqat, haqiqat mezonlari

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

- 1.Gnoseologiya nimani o‘rganadi?
- 2.Bilish nima?
- 3.Hissiy va ratsional bilishning o‘ziga xosligi nimada?
- 4.Bilish ob‘ekti, sub‘ekti, predmeti tushunchalarini izohlang.
- 5.Ilmiy bilishning asosiy usul (metod) larini ko‘rsating.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.

4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

7-seminar mashg‘uloti mavzusi: **MANTIQ**

REJA:

1. Mantiqning mohiyati. Tafakkur qonunlari
2. Tushuncha tafakkur shakli
3. Hukmning mohiyati va qoidalari
4. Deduktiv xulosa chiqarishning fikr ravonligini ta’minlashdagi roli. Induktiv xulosa.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Formal mantiq deganda nimani tushunasiz?
2. Mantiq qonunlari nimani o‘rgatadi?
3. Tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
4. Yetarli asos qonunini tushuntirib bering.
5. Tushnchaning qanday turlari bor?
6. Hukmning qanday turlari bor?
7. Xulosa chiqarish deganda nimani tushunasiz?
8. Analogiya nima?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

8-seminar mashg‘uloti: **JAMIYAT FALSAFASI**

REJA:

1. Jamiyat tushunchasining mohiyati va uning rivojlanish bosqichlari
2. Jamiyat rivojlanishining iqtisodiy asoslari. Jamiyat rivojining siyosiy asoslari. Fuqarolik jamiyati, davlat boshqaruvi va demokratiya
3. Jamiyat rivojining ma’naviy asoslari. Jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy asoslari. Ijtimoiy birliklar va guruhlar

4. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va yangilangan konstitutsiyaning ijtimoiy ong transformatsiyasiga ta'siri

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

Jamiyat, jamiyat sohalari, iqtisodiy soha, xususiy tadbirkorlik, siyosiy soha, fuqarolik jamiyati, jamoat birlashmalari, ma'naviy kamolot, ishlab chiqarish kuchlari, ijtimoiy guruhlar, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi, Yangi tahrirdagi Konstitutsiya

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Jamiyat deganda nimani tushunasiz?
2. Jamiyatning qanday sohalari farqlanadi?
3. Falsafa tarixida jamiyat to'g'risida qanday falsafiy ta'limotlar yaratilgan?
4. Fuqarolik jamiyati deganda nimani tushunasiz, uning qanday belgilari mavjud?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

9-seminar mashg'uloti: TARIX FALSAFASI, SIVILIZATSIYA VA MADANIYAT

REJA:

1. Tarix falsafasining tuzilishi, funksiyalari va tarixiy jarayon mazmunini belgilashga oid yondashuvlar
2. Sivilizatsiya tushunchasi va uning tiplari
3. Madaniyat tushunchasi, uning tuzilishi va ijtimoiy funksiyalari

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

Tarix falsafasi, tarixiy jarayon, sivilizatsiya, madaniyat, formatsion yondoshuv, sivilizatsion yondoshuv, moddiy madaniyat, ma'naviy madaniyat, lokal sivilizatsiya, madaniyatning vazifalari

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Tarix falsafasi deganda nimani tushunasiz?
2. Sivilizatsiya tushunchasi o'zida nimani aks etiradi?
3. Lokal sivilizatsiyalar tushunchasining mazmun-mohiyati nimadan iborat?
4. Sivilizatsiya va madaniyat tushunchalarining o'zaro nisbati qanday?
5. Madaniyatning qanday turlari bor?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

10-seminar mashg'uloti: INSON FALSAFASI (FALSAFIY ANTROPOLOGIYASI)

REJA:

- 1.Falsafa tarixida inson mohiyatiga oid qarashlar tasnifi
- 2.Insonni tushunishga dualizm, monizm va fan nuqtai-nazaridan yondashuv
- 3.Ijtimoiy ongning strukturasi va funksiyalari
- 4.Hayotning ma'nosi va unda insonning vazifasi

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

Inson, shaxs, inson borlig'i, ong, tafakkur, til, miya, ijtimoiy ong, individual ong, inson hayotining ma'nosi, o'lim, manguilik

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Insonning mohiyati to'g'risida qanday ta'limotlar vujudga kelgan?
2. Insonni ta'riflashda G'arb va Sharq mamlakatlarida qanday yondoshuvlar mavjud?
3. Insonni falsafiy tushunish nimani ko'zda tutadi?
4. Ong nima, ongning hosil bo'lishi haqida qanday qarashlar mavjud?
5. Ong va til o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
6. Inson hayotining ma'nosi nimada?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021. 667-b.
2. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b.
3. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.
4. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent: 2019
5. Чумаков А.Н. Философия, учебник. – М.:INFRA. 2018. – 320 с.

11-seminar mashg‘uloti: QADRIYATLAR FALSAFASI

REJA:

- 1.Qadriyat tushunchasining ma’nosi va uning umumiy tavsifi
- 2.Qadriyatlarning turlari: moddiy va ma’naviy, umuminsoniy, milliy, shaxsiy, axloqiy qadriyatlar.
- 3.Qadriyatlarning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati va yoshlar tarbiyasidagi o‘rni

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR:

Qadriyat, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, shaxsiy qadriyatlar, oila, gender tengligi, mahalla, oila-ta’lim-mahalla tizimi, qadriyatlarni baholash, qadriyatlarning transformasiyasi, jamiyatning devalvatsiyasi, sog‘liq, sog‘lom turmush tarzi

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Aksiologiya qanday fan?
2. Qadriyatlarning qanday turlari bor?
3. Oilaning qadriyatga doir jihatlari nimada deb o‘ylaysiz?
4. Davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni nimada?
5. Gender tenglik to‘g‘risida nimalarni bilasiz?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

 - B. Platon;
 - D. Aristotel;
 - E. Suqrot.
75. Qanday yo'nalish vakillari go'zallikning ma'naviylik bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlashgan?
- A. Klassitsizm;
 - B. Uyg'onish;
 - D. Ma'rifatchilik;
 - E. Madaniyatlik.
76. Faylasuflardan qaysi biri go'zallikni idrok etishda sub'ektivlik, shaxsiylikning omilini, shuningdek, estetik his-tuyg'uning utilitar manfaatdor emasligini ko'rsatgan?
- A. Gegel;
 - B. Kant;
 - D. Feyrbax;
 - E. Baumgarten.

77. Hech narsa bilan siqilmagan, uyg'un tarzda rivojlangan, eng katta miqyosdagi va universal qiziqishlarga ega tadbirkor-tashabbuskor shaxs san'atdagi qanday bosqichning ideali hisoblanadi?

- A. Uyg'onish;
- B. Ma'rifatchilik;
- D. Antik;
- E. Renessans.

78. Kim klassitsizm estetikasining taniqli nazariyotchisi hisoblanadi?

- A. Bualo;
- B. Baumgarten;
- D. Bergson;
- E. Gegel.

79. Madaniyat tarixida qanday bosqich vakillari fanga katta ahamiyat ajratishgan va uni san'at bilan bog'lamoqchi bo'lgan?

- A. Ma'rifatchilik;
- B. Renessans;
- D. Klassitsizm;
- E. Antik

80. Estetika kategoriyalaridan qaysi biri odamning azob-uqubatlar chekishi, o'limi va uning hayoti uchun muhim qadriyatlarning barham topishiga olib keladigan keskin hayotiy ziddiyatlarni aks ettiradi?

- A. xunuklik;
- B. qahramonlik;
- D. fojiaviylik;
- E. kulgulilik

81. Estetikada san'at asarida mujassam bo'lgan muayyan dunyo va odam konsepsiyasini aks ettiradigan estetik umumlashtirilgan fikr, qanday atama bilan ifodalanadi?

- A. g'oya;
- B. syujet;
- D. fabula;
- E. madaniyat

82. Estetik idealning obrazli ifodalanishi, ya'ni odamlar, his-tuyg'ularning ular qanday bo'lishi mumkinligi yoki lozimligi holatida tasfirlanishi birinchi o'ringa qo'yiladigan badiiy umumlashtirish uslubi nima deb ataladi?

- A. tipiklashtirish;
- B. tendensiyaviylik;
- D. ideallashtirish;
- E. umumlashtirish.

83. XVII-XVIII asrlardagi G'arbiy Yevropa san'atidagi dinamik kompozitsiyalarning murakkab muvozanatligi, ortiqcha ekspressivlik, badiiy echimning ko'p planliligi, voqelik bilan xomxayollarni qo'shishga intilish bilan tavsiflanadigan uslub qanday ataladi?

- A. rokoko;
- B. barokko;

D. ampir;

E. abstransiya.

84. Qanday uslubdagi me'morchilikda murakkab karkasli konstruksiyali, katta kesmali derazalar-vitrajlar shahar soborining etakchi tipi bo'lgan?

A. gotikada;

B. roman uslubida;

D. klassitsizmida;

E. barokko

85. Qanday uslubdagi cherkov san'atida Bibi Maryam shaxsi mistik ekzaltatsiya bilan quvonchli hayotga xos dunyoviy mavzularning xarakterli ziddiyati bilan yaqqol aks ettirilgan?

A. klassitsizmida;

B. gotikada;

D. roman uslubida;

E. badiiylik uslubida.

86. Estetikaning qaysi kategoriyasi tabiatdagi, ijtimoiy hayotdagi, odamdagi nouyg'unlikning konsentratsiyalashgan ifodasini aks ettiradi?

A. xunuklik;

B. fojiaviylik;

D. o'zgarmaslik;

E. yaxshilik

87. Estetikada xatti-harakatlarning buyukligi, qiliqlarning fidoko-ronaligi, hodisalarning yoki voqealarning ulkanligi oldidagi hayratlanish, qoyil qolish qanday kategoriya orqali ifodalanadi?

A. qahramonlik;

B. go'zallik;

D. yuksaklik;

E. ulug'vorlik.

88. Qaysi tarixiy davrdagi estetika ulug'likni ilohiylikka tenglashtirgan?

A. Uyg'onish;

B. Klassitsizm;

D. O'rta asrlar;

E. Antik.

89. Qanday kategoriyalar har xil tipdagi hayotiy ziddiyatlarning estetik ifodasi bo'ladi va o'z ta'sirini faqat ijtimoiy hodisalarga tegishli deb biladi?

A. fojiaviylik va komiklik;

B. fojiaviylik va go'zallik;

D. fojiaviylik va yuksaklik;

E. yaxshilik va yomonlik.

90. Ayni bir vaqtning o'zida ikkita san'atga: teatr va adabiyotga taaluqli adabiyot turi qanday ataladi?

A. tragediya;

B. komediya;

D. drama;

E. lirik.

91. Shaffof materialning har ikki tomonida bajariladigan tasvirli rang tasvir turi qanday ataladi?
- A. panorama;
 - B. vitraj;
 - D. diorama;
 - E. palatno.
92. Toshdagi ganchkorlik san'ati qanday ataladi?
- A. gliptika;
 - B. kameya;
 - D. intaliya;
 - E. lituriya.
93. Suratning bosmadagi tasviri hisoblanadigan grafika san'ati qanday ataladi?
- A. grafyura;
 - B. ofort;
 - D. estamp;
 - E. naqsh.
94. Nam suvoqdagi rangtasvir qanday ataladi?
- A. tempera;
 - B. panno;
 - D. freska;
 - E. relief.
95. Rassom bo'yoqlarni aralashtirish uchun ishlatadigan taxta (plastina) qanday ataladi?
- A. palitra;
 - B. pastel;
 - D. panno;
 - E. gliptika.
96. Yorug'ni o'tkazadigan shaffof shisha yoki boshqa materialdan ishlangan kompozitsiya qanday ataladi?
- A. naqsh;
 - B. vitraj;
 - D. mozaika;
 - E. panel.
97. Badiiy asarning g'oyaviy-estetik yo'nalishi; asar g'oyasining qimmatli jihati qanday ataladi?
- A. ideallashtirish;
 - B. tipiklashtirish;
 - D. tendensiyaviylik;
 - E. atoritaritatsiya.
98. Estetikada voqelikni san'atda aks ettirish tamoyillarining majmui qanday atama bilan ifodalanadi?
- A. oqim;
 - B. maktab;
 - D. uslub;
 - E. yo'nalish.

99. Nafaqat ijodning g‘oyaviy-estetik tamoyillarining, shu bilan birga ushbu san‘at turi doirasida hal qilinadigan aniq badiiy vazifalar umumiyligiga ko‘ra yaqin rassomlar guruhi qanday ataladi?

- A. oqim;
- B. maktab;
- D. yo‘nalish;
- E. uslub.

100. Hikoyachi tomonidan ob‘ektivlashtirilgan hodisalar haqidagi bog‘lama hikoyani so‘zlab berish shaklida beradigan adabiyot turi qanday ataladi?

- A. epos;
- B. afsona;
- D. roman;
- E. lirika.

101. Adabiyotning qaysi turi individual his-tuyg‘ular va kechinmalarning bevosita ifodasi hisoblanadi?

- A. roman;
- B. lirika;
- D. epos;
- E. afsona.

102. Go‘zallik mohiyatini “hamma narsaning mezoni - inson” degan qarash orqali izohlagan Qadimgi Yunon faylasufi?

- A. Pifagor;
- B. Protagor;
- D. Aflotun;
- E. Arastu

103. Forobiyning bevosita estetik qarashlari bayon qilingan asarlarini aniqlang?

- A. «Musiqqa haqida so‘z»;
- B.«Musiqqa haqida katta kitob»;
- D. «Ritmlar turkumlari haqida kitob»;
- E. Barcha javoblar to‘g‘ri.

104. A.Navoiyning adabiy-estetik qarashlari bayon qilingan asarlarini aniqlang.

- A. “Mezon-ul-avzon”;
- B.“Mufradot”;
- D. ”Majolis-un-nafois”;
- E. hammasida bayon qilingan.

105. Olmon (nemi) mumtoz estetikasi vakillarini aniqlang:

- A. Didro, Lametri, Golbax;
- B. B.Kant, SHiller, SHelling, Gegel;
- D. Dekart, Bekon, Lokk;
- E.Xaydegger, Yaspers, Freyd.

106. O‘rta asrlar musulmon SHarqi sanati taraqqiyotining oltin davri –

- A. eftalitlar davri;
- B.saljuqiylar davri;
- D. A.Temur va temuriylar davri;
- E. tohiriylar davri

107. “SHarq Rafaeli” deb nom olgan o‘rta asr musavviri kim?

- A. Ali Tabriziy;
- B. Husayn Voiz Koshifiy;
- D. Sulton Ali Mahshadiy;
- E. Kamoliddin Behzod

108. Estetik ehtiyoj, estetik munosabat, estetik tuyg‘u, estetik did, estetik baho, estetik ideal, estetik qarashlar, estetik nazariyalar –

- A. estetik ongning unsurlari;
- B. diniy ongning unsurlari;
- D. axloqiy ongning unsurlari;
- E. huquqiy ongning unsurlari

109. Insonning narsa va hodisalardagi go‘zallikni, nafosatlikni his etish, anglash, ularni ana shu mezonda baholash, idrok etishga bo‘lgan intilishi, qiziqishi – bu:

- A. estetik ideal;
- B. estetik did;
- D. estetik ehtiyoj;
- E. estetik lazzatlanish

110. Estetik qadriyatlarning orzu qilingan, talab darajasidagi obraz, tasavvurlarni ifodalovchi ong unsuri – bu:

- A. estetik did;
- B. estetik ehtiyoj;
- D. estetik ideal;
- E. san’at.

111. Estetik faoliyat turlarini aniqlang:

- A. sanat, dizayn, texnika estetikasi;
- B. odob, xulq, axloq;
- D. tushuncha, hukm, xulosa;
- E. nafrat, rashk, burch.

112. Estetikaning mezoniy tushunchalari (kategoriyalari)ni aniqlang:

- A. nomus, adolat, burch, vijdon;
- B. tushuncha, hukm, xulosa, idrok;
- D. go‘zallik, ulug‘vorlik, fojeaviylik, qulgililik;
- E. borliq, harakat, fazo, vaqt.

113. Narsa, hodisalarning yuksak daraja, mezonda baholanuvchi, estetik qimmatini ifodalovchi kategoriya – bu:

- A. go‘zallik;
- B. ulug‘vorlik;
- D. fojeaviylik;
- E. kulgililik.

114. Jamiyat va shaxs hayotidagi o‘ta ziddiyatli, murakkab hodisalarni ifodalovchi estetik mezoniy tushuncha (kategoriya) ...

- A. fojeaviylik;
- B. ulug‘vorlik;
- D. go‘zallik;
- E. kulgililik

115. Estetikaning qaysi mezoniy tushunchasi (kategoriyasi)da ijtimoiy ahamiyatga molik ziddiyatlarga estetik ideal nuqtai nazardan bo'lgan tanqidiy munosabat ifodalanadi?

A. ulug'vorlik;

B. fojeaviylik;

D. kulgililik;

E. go'zallik.

116. Inson ichki ma'naviy-ruhiy dunyosini, uning tashqi xatti-harakati (husni chiroyi) bilan uyg'unligini aks ettiruvchi tushuncha:

A. jamiyat go'zalligi;

B. insondagi fojiaviylik;

D. inson faoliyatidagi kulgililik;

E. shaxs go'zalligi.

117. «Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida»gi Qonun qachon qabul qilingan?

A. 2007 yilda

B. 2008 yilda

D. 2009 yilda

E. 2010 yilda

118. 2010 yilda O'zbekiston Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog'ining qaysi harakat dasturiga qo'shildi?

A. Istanbul harakat dasturiga

B. Nyu-York harakat dasturiga

D. Xalqaro harakat dasturiga

E. Bryussel harakat dasturiga

119. Qonunda shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishiga nima deyiladi?

A. jinoyat

B. huquqbuzarlik

D. mansab vakolatidan o'zi uchun foydalanish

E. korrupsiya

120. Korrupsiyaning kelib chiqishini aniqlash va unga qarshi kurash borasida dunyo miqyosida nimalarga e'tibor berilmoqda?

A. korrupsiyaga qarshi kurashda ijtimoiy-tarixiy vaziyat, fuqarolarning huquqiy dunyoqarashi, davlat tuzilishi, iqtisodiy rivojlanish omillaridan kelib chiqiladi

B. korrupsiyaning kelib chiqish sabablarini ochish, unga qarshi kurashishning samarali yo'llarini topish bo'yicha olimlar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilgan, korrupsiyaning xilma-xil formulalari ishlab chiqilgan

D. turli ko'rsatkich va raqamlar aks etgan jadvallar yaratilgan, o'ziga xos reytinglar tuzilgan

E. barcha javoblar to'g'ri

121. Korrupsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari nimalarda ko‘rinadi?
- A. ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazishi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib kelishi sababli unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan
 - B. har bir davlat korrupsiyaga qarshi o‘ziga xos usullarda kurashmoqda
 - D. korrupsiya bir qarashda oddiy jinoyat bo‘lib ko‘ringani bilan aslida uning kelib chiqishi va yashovchanlik sabablari juda chigal va murakkabdir
 - E. barcha javoblar to‘g‘ri
122. Korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmishga nima deyiladi?
- A. «sotish», «sotilish»
 - B. mansab qidalarini buzish
 - D. korrupsion jinoyat
 - E. korrupsiyaga oid huquqbuzarlik
123. So‘nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan qanday muhim normativ-huquqiy hujjatlarqabul qilindi?
- A. Byudjet va Bojxona kodekslari (yangi tahrirda)
 - B. «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi, «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida»gi Qonunlar
 - D. «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida»gi, «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi, «Elektron hukumat to‘g‘risida»gi, «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»gi Qonunlar
 - E. barcha javoblar to‘g‘ri
124. “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qachon e‘lon qilindi?
- A. 2017 yil 3 yanvarda
 - B. 2019 yil 27 mayda
 - D. 2017 yil 2 fevralda
 - E. 2018 yil 12 aprel
125. Milliy parlamentimiz tomonidan qabul qilinib, 2017 yil 3 yanvarda Prezidentimiz tomonidan imzolangan 6 bob, 34 moddadan iborat Qonunni aniqlang?
- A. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni
 - B. “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni
 - D. “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni
 - E. “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni
126. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunining 4-moddasida qaysi masalalar yoritib berilgan?
- A. korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari

- B. korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari
- D. korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari
- E. korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha idoralararo komissiyalar
127. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplarini aniqlang?
- A. qonuniylik; fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi
- B. ochiqlik va shaffoflik; tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi
- D. korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi; javobgarlikning muqarrarliligi
- E. barcha javoblar toʻgʻri
128. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlarini aniqlang.
- A. aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish
- B. davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish
- D. korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oʻz vaqtida aniqlash, ularga chek qoʻyish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarliligi prinsipini taʼminlash
- E. barcha javoblar toʻgʻri
129. “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasining Qonunning 7-moddasiga koʻra quyidagi qaysi organ korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha faoliyatni bevosita amalga oshirmaydi?
- A. Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
- B. Oʻzbekiston Respublikasi Milliy (hozirda Davlat) xavfsizlik xizmati
- D. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasi
- E. Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
130. “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasining Qonunning qaysi moddasida taʼlim muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati belgilab berilgan?
- A. 16-moddasida
- B. 17-moddasida
- D. 18-moddasida
- E. 19-moddasida
131. “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasining Qonunning 18-moddasiga koʻra ...
- A. korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy taʼlim va tarbiya belgilangan davlat taʼlim standartlariga muvofiq amalga oshiriladi
- B. Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi korrupsiyaga qarshi kurashadi
- D. Idoralararo komissiyani shakllantirish va uning faoliyati tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi
- E. barcha javoblar toʻgʻri

132. Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?

A. davlat organlari faoliyatining ochiqligini va ularning hisobdorligini ta'minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining va boshqa xodimlarining o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas'uliyatini kuchaytirish

B. korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlarining faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish

D. aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etish

E. davlat organlarining va ular xodimlarining faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik

133. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning 28-moddasiga ko'ra...

A. korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlarining faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshiriladi

B. korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslar davlat himoyasida bo'ladi, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno

D. korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin

E. davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarining samarali ijtimoiy himoya qilinishi, moddiy ta'minot olishi va rag'batlantirilishi ta'minlanadi

134. 2017 yil 2 fevralda korrupsiyaga oid qaysi normativ huquqiy hujjat qabul qilindi?

A. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmon

B. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaror

D. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni

E. "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

135. Quyidagi qaysi hujjatda korrupsiyaga oid holatlar yoritilmagan?

A. "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonda

B. 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmonda

D. "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida

E. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida

136. Korrupsiya balosidan qutulish, islohotlarni uning changalidan ozod etish harakatlariga quyidagilardan qaysi biri to'g'ri kelmaydi?

A. bu kurashni kundalik hayotimizdagi oddiy holatdan boshlash

B. korrupsiya balosidan qutulish, islohotlarni uning changalidan ozod etish haqida hammamiz o'ylashimiz, buning zaruratini har birimiz yuragimizdan o'tkazishimiz lozim

D. "Korrupsiya haqida qonun qabul qilindi, endi hammasi iziga tushib ketadi", deb o'ylash, xotirjam bo'lishlikka berilish

E. korrupsiyaga qarshi barchamiz qat'iy kurashishimiz kerak

137. Qanday rahbarlar islohotlarga to'siq bo'lib, korrupsiya holatining ko'payishiga sabab bo'lishi mumkin?

A. «Jamoda hamma qulaylik o'zim uchun, bu tashkilot menga bir paytlardagi xizmatlarim, farog'atda yashamog'im uchun berilgan, marhamat, qolganlar aravasini o'zi amallab tortaversin» qabilida tor va eskicha o'ylaydigan rahbarlar

B. «oldi-berdi»ni faoliyatining bir qismi deb tushunadigan, demokratik qonun-qoidalarni yetarlicha idrok eta olmaydigan rahbarlar

D. nobop, «muomala qilish», «kelishish»ga moyil rahbarlar

E. barcha javoblar to'g'ri

138. Korrupsiyaga qarshi murosasiz kayfiyat shakllanishi uchun nimalarga e'tibor berish katta ahamiyatga ega?

A. ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiyani kuchaytirish, to'g'ri ishlab, to'g'ri yashash saodatini bolalikdan, yoshlikdan o'rgatish

B. yoshlarni adolatsizlik, qonunga hurmatsizlik, kasbu amalga, ishonchga xiyonat qilib bo'lmaslikka o'rgatish, ularda poraxo'rlik va korrupsiyaga, suiiste'molchilikka qarshi immunitet hosil qilish

D. halol mehnat bilan topilmagan boylik totli bo'lmasligini, hech kimga buyurmasligini, yaxshilik emas, yomonlik va kulfat keltirishini tushunish

E. barcha javoblar to'g'ri

139. Korrupsiyaga qarshi kurashishdagi muhim jihatlarga quyidagilardan qaysi biri taalluqli emas?

A. davlat hokimiyati organlari faoliyatida ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash

B. "Korrupsiya haqida qonun qabul qilindi, endi hammasi iziga tushib ketadi", deb o'ylash, xotirjam bo'lishlikka berilish

D. fuqarolarga tezkor va xolis axborot yetkazishda ommaviy axborot vositalariga erkinlik berish

E. demokratik islohotlar jarayonida ommaviy axborot vositalarining nufuzi va mavqeini oshirish

140. Respublikamizda korrupsiani oldini olish maqsadida amalga oshirilayotgan tadbirlarga quyidagilaran qaysi biri kirmaydi?

A. nobop, «muomala qilish», «kelishish»ga moyil rahbarlarni davlat hokimiyati tomonidan qo'llab-quvvatlash

B. so'nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlar, kichik biznes sub'ektlariga «yagona darcha» tamoyili orqali xizmat ko'rsatilyapti, yagona portal orqali davlat xizmatlari elektron shaklda taqdim etilayapti

D. qonun hujjatlariga, davlat tashkilotlarining ish faoliyatiga ochiqlik, oshkoralikni ta'minlash nuqtai nazaridan o'zgartirishlar kiritilayapti va boshqa ko'plab yangiliklar joriy qilinayapti

- E. turli byurokratik to'siq va g'ovlarni yo'q qilishga harakat qilinayapti
141. Quyidagilardan qaysi biri korrupsiyaning salbiy oqibatlariga kirmaydi?
- A. turli byurokratik to'siq va g'ovlarni yo'q qilinishi
- B. mansabdor shaxslarning jinoyatchilar bilan til biriktirishi natijasida jamiyat siyosiy va iqtisodiy inqiroziga yuz tutishi mumkinligi
- D. korrupsiya oxir-oqibat uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullab-yashnashi uchun sharoit yaratib beradi
- E. korrupsiya fuqarolar, ayniqsa, yosh avlodda ijtimoiy adolatga, haqiqatga, davlat organlari va mansabdor shaxslarga bo'lgan ishonchini susaytiradi
142. Fan va falsafa kategoriyalarining farki nimada?
- A. Falsafiy kategoriyalar uta keng tushunchalardir
- B. Fan kategoriyalari uta ma'noli
- D. Falsafa kategoriyalari juda oz
- E. Fan kategoriyalari irratsionalikni tan olmaydi.
143. "Metafizika" so'zining lugaviy ma'nosi ?
- A. Yunon.Fizikadan keyin
- B. Inglizch Matematikadan keyin
- D. Lotinch Fizikadan keyin
- E. Uzbekcha texnologiyadan keyin
144. Falsafiy metodlar to'g'ri kursatilgan javobni toping ?
- A. Dialektika,Metafizika,sofistika,eklektika
- B. Dialektika,kuzatish,ekspremint,takkoslash
- D. Metafizika,eklektika,analitika,sofistika
- E. Metafizika,sofistika,ekspremint,kuzatish
145. Narsalar,xodisalarning bir xolatdan boshqa xolatga utishi bu-...
- A. Konun
- B. Rivojlanish
- D. O'zgarish
- E. Sabab
146. Dialektikani tarixan birinchi shakli qanday nomlanadi?
- A. Stixiyali dialektika
- B. Antik dialektika
- D. Qadimiy dialektika
- E. Barcha javob to'g'ri
147. Metodning asosiy vazifasi nima?
- A. Faoliyatni bilish va boshqa shakllarni boshqaruvi
- B. Tushunchalarni borliqda anglab yetish
- D. Shart- sharoitni nazorat qilish va ko'zatish
- E. Tushuncha, mulohaza fikrni o'rganishdan iborat
148. Ikki yoki bir necha suxbat-...?
- A. "Diolog"
- B. " Roman"
- D. "Qissa"
- E. "Diolog va roman"

149. Orqaga qaytmaslik va muayyan yunalishga egalik xos bo'lgan harakat tipi nima deb ataladi?

A. Progress

B. Turg'unlik

D. Regress

E. To'g'ri javob yuq

150. Metodika nima?

A. Daliliy materiallarni yigish va saralash vositasi, anik faoliyat turi

B. Dalilar uchun asos bo'lib xizmat qiladi

D. Fanning kashfiyotlari bilan shugullanmaydi

E. Hech qanday faoliyat bilan shugullanmaydi

4.9. YaB uchun test savollari-300 ta
(auditoriya darslari bo'yicha -150 ta, mustaqil ta'lim bo'yicha-150 ta)

I-auditoriya vaqtlari bo'yicha

1. Falsafa fani nimani o'rgatadi?
 - A. Kishilarda tafakkur qonunlari va talablari asosida dunyoning yaxlit idrok etilishini
 - B. Kishilarda tajribadan o'tgan bilimlar asosida olam haqida izchil tasavvurlarni shakllantirishni
 - D. Jamiyatning o'tmishini umumlashtirish orqali kelajakni oldin tasavvur etishni
 - E. Insonning murakkab ijtimoiy hayotdagi o'rnini belgilab berishga xizmat qiluvchi qarashlar, fikrlar, ta'limotlarning yig'indisini
2. Quyidagi javoblardan qaysi birida dunyoqarashning nisbatan muhim funksiyasi ko'rsatilgan?
 - A. Bilish funksiyasi
 - B. Qadriyatlarga munosabati
 - D. Xulq atvorni belgilash
 - E. Barcha javoblar to'g'ri
3. „Falsafa” atamasini birinchi bo'lib qaysi faylasuf qo'llagan?
 - A. Aristotel
 - B. Suqrot
 - D. Pifagor
 - E. Platon
4. Tarixan dunyoqarashning shakllari bular - ...
 - A. Din, sa'nat, mexnat
 - B. Mif, fan, ov
 - D. Fan, falsafa, ov
 - E. Mif, din, falsafa
5. Pifagor ta'limoti bo'yicha «tabiatdan oldin ...»
 - A. moddiy substansiya mavjud deb tushunilgan;
 - B. geometrik shakllar va matematik sonlar mavjud bo'lgan
 - D. vaqt va fazo mavjud edi deb tushuniladi
 - E. har qanday miqdorni inkor etuvchi sonlar mavjudligi e'tirof etiladi
6. Falsafiy tafakkur Qadimgi Sharq va G'arbda ijtimoiy ongning dastlabki shakli sifatida qanday ko'rinishda vujudga kelgan?
 - A. Mifologik
 - B. Gnoseologik
 - D. Ontologik
 - E. Dialektik
7. Miflar nimalar orqali ifodalanadi?
 - A. Rivoyat, ertaklar
 - B. Mehnat, ov
 - D. Ertaklar, qo'shiqlar
 - E. Qo'shiq, kuy

8. Falsafiy dunyoqarash dunyoni nimalarga tayangan holda tushuntiradi?
- A. Aql va bilimlarga
 - B. Tuyg‘ularga
 - D. E’tiqodga
 - E. Sezgilariga
9. Falsafaning qaysi funksiyasida “Haqiqat nima”, “Uning mezonlari qanday” degan savollar beriladi?
- A. Mifologik funksiyasida
 - B. Gnoseologik funksiyasida
 - D. Dunyokarash funksiyasida
 - E. Integrativ funksiyasida
10. Falsafada tabiat «g‘oyalar dunyosining» hosilasi degan ta’limot dastlab kim tomonidan asoslangan?
- A. Zardusht
 - B. Demokrit
 - D. Aristotel
 - E. Platon
11. Falsafaning nazariy asoslarini nima tashkil etadi?
- A. mantiq
 - B. gnoseologiya
 - D. aksiologiya
 - E. ontologiya
12. Qadimgi hind falsafiy maktablarining ikki guruhi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
- A. Yoga va Vaysheshka
 - B. Astika va Nastika
 - D. Vedanta, Sankhya
 - E. Nyaya va mimansa
13. Konfutsiyning qaysi ta’limoti uning muhim ta’limotiga aylangan?
- A. Osmon qonuni
 - B. Tabiat – inson oshyoni
 - D. Jamiyatda davlatning o‘rni
 - E. Ijtimoiy tabaqalanish
14. Tasavvuf falsafasida Allohni bilishning birdan-bir to‘g‘ri usuli bu ...?
- A. O‘zini o‘zi bilish, ya’ni o‘zlikni anglash
 - B. Nochorlarga ko‘mak berishda
 - D. Mehr muruvvatli bo‘lishda
 - E. Kuchli e’tiqod
15. Bahouddin Naqshband hayotning mazmunini nimaga erishishga intilishda ko‘rgan?
- A. Axloqiy yetuklikka
 - B. Adolatga
 - D. Erkinlikka
 - E. Haqiqat (Alloh)ga

16. Turkistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar XIX-XX asrlarda qaysi harakat asosida shakllandi?
- A. Jadidchilik
 - B. Milliy ozodlik
 - D. Mustamlakachilik
 - E. Erkin fikrlilik
17. Materialistlar deb qaysi toifidagi kishilarga aytish mumkin?
- A. Olamning asosida hamma vaqt ong va materiya yotadi deb ta'kidlovchilar
 - B. Ongni birinchi o'ringa qo'yuvchilar
 - D. Olamning markaziga g'oyalarni qo'yuvchilar
 - E. Olamni azaldan moddiy deb, ong bu materiyaning mahsuli deyuvchilar
18. Forobiy bilishning qanday shakllarini farklaydi?
- A. Hissiy va oqilona
 - B. Oqilona va ilohiy
 - D. Intuitiv va mantiqiy
 - E. A va B javoblar to'g'ri
19. Sufizm da tabiat va Alloh qanday talqin qilinadi?
- A. Tabiat Alloh dan ajralgan deb qaraydi
 - B. Allohning tabiatga befarqligini yoqlaydi
 - D. Alloh va tabiatni uzviy deb qaraydi
 - E. Tabiatni Alloh yaratgan bo'lsada, tabiatdagi o'zgarishlar ob'ektiv deb qaraydi
20. O'rta asrlar falsafasiga xos xususiyatini belgilang:
- A. Antropotsentrizm
 - B. Teotsentrizm
 - D. Kosmosentrizm
 - E. Metodologizm
21. Ibn Sinoning fanlar klassifikatsiyasida barcha fanlarni qanday turkumlarga ajratilgan?
- A. Mantiq va matematika fanlari
 - B. Samo fanlari va Yer fanlari
 - D. Amaliyot fanlari va nazariy fanlar
 - E. Falsafa va matematika fanlari
22. Yangi davrda fanlarning rivojlanishi jarayonida falsafada qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
- A. Sxolastika va din
 - B. Sxolastika va tabiat
 - D. Tabiat va din
 - E. Falsafada ajralishlar bo'lmadi
23. Ijtimoiy fanlarda tabiiy huquq nazariyasi Angliyada kim tomonidan ishlab chiqildi?
- A. G. Grotsiy
 - B. G. Leybnits
 - D. R. Dekart
 - E. T. Gobbs
24. Yangi davr falsafasida faylasuflarni qiziqtirgan asosiy masala nima edi?

- A. Substansiya va uning xossalari
 - B. Borlik masalasi
 - D. Inson masalasi
 - E. Makon va zamon
25. Pozitivizmning asoschisi kim?
- A. R.Karnap
 - B. G.Spenser
 - D. O.Kont
 - E. F.Nitsshe
26. Strukturalizm soʻzining lugʻaviy maʼnosi nima?
- A. Tuzilish, joylashish, tartib
 - B. Tartib, birikish
 - D. Qoʻshilish, birikish
 - E. Izohlash, tushuntirish, bilish
27. Qaysi falsafiy taʼlimot soxta bilimdan haqiqiy bilimni ajratishga harakat qiluvchi ijobiy bilimning falsafiy doktrinasini ilgari surdi?
- A. Pragmatizm
 - B. Ekzistensializm
 - D. Pozitivizm
 - E. Fenomenologiya
28. Sxolastlar Pifagor va Aristotel gʻoyalariga tayanib, uch oʻlchovlikni qanday tushuntirganlar ?
- A. Tabiat kuchlarini oʻziga xos xususiyati
 - B. Dunyoning mukammaligi nuqtai-nazaridan
 - D. Gʻoyalar yordamida
 - E. Din yordamida
29. “Men fikrlayapman, demak men mavjudman” iborasi muallifi kim?
- A. I.Kant
 - B. F.Nitsshe
 - D. R.Dekart
 - E. B.Spinoza
30. Tushunish va tushuntirish muammolarini oʻrganuvchi falsafiy taʼlimot, bu - ...?
- A. Dialektika
 - B. Pragmatizm
 - D. Germenevtika
 - E. Epistemologiya
31. Globallistika mustaqil ilmiy yoʻnalish va ijtimoiy amaliyot jabxasi sifatida nechanchi yillarda shakllana boshladi?
- A. 1950-yillarning oxirlaridan
 - B. 1960-yillarning oxirlaridan
 - D. 1970-yillarning oxirlaridan
 - E. 1980 –yillarning oxirlaridan
32. Hozirgi zamonda falsafaning qaysi oqimlarida ong muammosiga nisbatan yangi yondoshuvlar mavjud?
- A. Ratsionalizm

- B. Irratsionalizm
 - D. Sinergetikada
 - E. Emprizm
33. Globalistika zamirida qanday jarayonlar yotadi?
- A. Ilmiy bilishning tabaqalashuvi
 - B. Qarama-qarshi jaryonlar va integratsiya
 - D. Turdosh fanlarning tutashishi
 - E. Dunyo davlatlarining qarama-qarshiligi
34. Globallashuv jarayonlarining ilk nishonalari nechanchi asrlardan boshlab kuzatilgan?
- A. 18 asrda
 - B. 19 asrda
 - D. 15 asrda
 - E. 20 asrda
35. Falsafaning fandan ustunligi nimada?
- A. Muayyan dalillarga tayanishda
 - B. E'tborni ishni mohiyatiga qaratishda
 - D. Xulosalarni tafsilotlarga qaratishda
 - E. Falsafa jamiyat muammolarini o'rganadi
36. Globallashuvning vujudga kelishga asos bo'lgan yirik sabablarni toping?
- A. Hayotning barcha sohasida integratsiyalashuvi
 - B. Fan va texnika kashfiyotlari
 - D. Falsafada yangi ta'limotlarning vujudga kelishi
 - E. Odamlar sonining keskin o'sishi
37. Eng qadimgi ilk dunyoqarash shakli?
- A. siyosiy va huquqiy
 - B. diniy va falsafiy
 - D. axloqiy va badiiy
 - E. diniy-mifologik
38. "Falsafa - mustaqil ijtimoiy ong shaklidir" deganda nimani anglashimiz kerak?
- A. Dunyoni abstrakt obrazlar orqali in'ikos etganligini
 - B. Insoniyat tomonidan to'plangan ilmiy bilimlar asosida dunyoni idrok etilganligini
 - D. Dunyoni mantiq qonunlari va kategoriyalari asosida aks ettiruvchi alohida bilish bosqichi bo'lganligini
 - E. Har qanday falsafiy dunyoqarash muayyan manfaatlarga mos kelganligini
39. Aristotel falsafasining "o'ziga xosligi" nimada ko'rinadi?
- A. Uning dualizmida
 - B. Metafizik metodida
 - D. Uning materializmida
 - E. Uning ob'ektiv idealizmida
40. Dunyoqarashning qanday turlari bor?
- A. Afsonaviy, diniy, ilmiy
 - B. Diniy, dunyoviy, axloqiy
 - D. Estetik, etik, diniy

- E. Milliy, falsafiy, demokratik
41. Ikkinchi muallim kim?
- A. Al Xorazmiy
 - B. Beruniy
 - D. Ibn Sino
 - E. Forobiy
42. Atomistika asoschilari kimlar?
- A. Epikur va Lukretsiy Kar
 - B. Lukretsiy Kar va Levkippp
 - D. Demokrit va Epikur
 - E. Levkippp va Demokrit
43. Qadimgi davrdagi falsafiy qarashlar bu?
- A. Yunon falsafasi deb yuritiladi
 - B. Antik davr falsafasi deb yuritiladi
 - D. O'rta asr falsafasi deb yuritiladi
 - E. Ilk falsafa deb yuritiladi
44. Milet maktabining asoschisi kim?
- A. Pifagor
 - B. Suqrot
 - D. Fales
 - E. Gegel
45. Aflotun falsafasiy talimotiga ko'ra narsalarning dastlabki asosini nima tashkil qiladi?
- A. Olov tashkil qiladi
 - B. G'oya tashkil qiladi
 - D. Havo tashkil qiladi
 - E. Suv tashkil qiladi
46. Pifagor qanday jamiyat tarafdori bo'lgan?
- A. Demokratiyani
 - B. Aristokratiyani
 - D. Totalitarizmni
 - E. Tiraniyani
47. "Apologetika" so'zining lug'aviy ma'nosi nima?
- A. Taqlid qilish
 - B. Himoya qilish
 - D. Inkori qilish
 - E. Tanqid qilish
48. "Patristika" so'zi ...
- A. "Ota" ("patre") so'zidan kelib chiqqan
 - B. "Himoya qilish" so'zidan kelib chiqqan
 - D. "Aniq" so'zidan kelib chiqqan
 - E. "Dalillar" so'zidan kelib chiqqan
49. Ilk o'rta asrlarda falsafiy tafakkur rivojlanishining asosiy shakllari nimalar bo'lgan?
- A. Apologetika va patristika bo'lgan

- B. Patristika bo'lgan
- D. Apologetika bo'lgan
- E. Ilk o'rta asrlarda falsafiy tafakkur rivojlanish bosqichida o'zgarish bo'lmagan
- 50. «Avesto»da axloqiy uchlikni ko'rsating:
 - A. Yaxshilik, ezgulik, yorug'lik
 - B. Yorug'lik, issiqlik, ziyolik
 - D. Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal
 - E. Yomonlik, yovuzlik, zulmat
- 51. Forobiy bilishning qanday shakllarini farqlaydi?
 - A. Kundalik va hissiy
 - B. Hissiy va oqilona
 - D. Kuzatish va eksperiment
 - E. Aqliy va kuzatish
- 52. Falsafaning rivojlanib borishi jarayonida undan dastlab qaysi fanlar ajralib chiqdi?
 - A. Matematika, geometriya, astronomiya
 - B. Kimyo, biologiya
 - D. Fizika, kimyo
 - E. Fizika, kimyo, biologiya
- 53. Ibn Sinoning fanlar klassifikatsiyasida barcha fanlarni qanday turkumlarga ajratilgan?
 - A. Amaliyot fanlari va nazariy fanlar
 - B. Siyosiy va ijodiy fanlar
 - D. Tibbiyot fanlari va axloq fanlari
 - E. Siyosat fanlari va axloq fanlari
- 54. Qadimgi hind jamiyati hayot haqidagi ilk manba bu ...?
 - A. Ramayana
 - B. Upanishadlar
 - D. Maxabxarata
 - E. Vedalar
- 55. Upanishadlar falsafasining mohiyati nimada?
 - A. jonni ruh bilan tenglashtiradi
 - B. jon birlamchi deb qaraydi
 - D. ruhni birlamchi deb qaraydi
 - E. jonni ruhdan ajratadi
- 56. Chorvaka so'zining lug'aviy ma'nosi?
 - A. to'rt unsur
 - B. muqaddas ruh
 - D. birlamchi unsur
 - E. ilk ibtido
- 57. Chorvaka-lokayata ta'limotiga ko'ra bilishning qaysi shakli muhim ahamiyat kasb etadi?
 - A. aqliy bilish
 - B. kundalik bilish
 - D. g'oyibona bilish

E. hissiy bilish

58. «Al jome' as-sahih» asarinig muallifini aniqlang.

A. Abulays Samarqandiy

B. Imom at Termiziy

D. Abu Mansur Moturudiy

E. Imom al Buxoriy

59. Forobiy fozil shahar boshlig'i, o'zida nechta ijobiy fazilatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak deb ta'kidlaydi?

A. 15 ta ijobiy fazilatlarni

B. 13 ta ijobiy fazilatlarni

D. 12 ta ijobiy fazilatlarni

E. 10 ta ijobiy fazilatlarni

60. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Minerologiya" asarlari muallifini aniqlang.

A. Abu Rayxon Beruniy

B. Forobiy

D. Ibn Sino

E. Ahmad al Farg'oniy

61. Ibn Sino borliqni necha qismga bo'ladi?

A. Uchga bo'ladi

B. Ikkiga bo'ladi

D. To'rtga bo'ladi

E. Oltiga bo'ladi

62. Borliqni 1. Zaruriy vujud, ya'ni xudo. 2. Imkoniy vujud, ya'ni xudodan kelib chiquvchi narsalarga bo'lgan faylasufni aniqlang.

A. Abu Rayhon Beruniy

B. Ibn Sino

D. Alisher Navoiy

E. Axmad al Farg'oniy

63. Forobiy fanlar tizimida insonga haqiqiy bilimni soxta bilimdan farqlash imkonini beruvchi qaysi fanni birinchi o'ringa qo'ygan?

A. Etikani

B. Mantiqni

D. Estetikani

E. Metafizikani

64. Sharqning mashhur tasavvufchi olimini aniqlang.

A. Imom al Buxoriy

B. Ahmad Yassaviy

D. Imom at Termiziy

E. Abu Lays Samarqandiy

65. Insonlarni vatanparvar bo'lishga chorlagan tasavvufchini ko'rsating.

A. Bahoviddin Naqshbandiy

B. Axmad Yassaviy

D. Imom G'azzoliy

E. Najmiddin Kubro

66. Tasavvufning muhim ideallarini soʻz sanʼati orqali ifodalashga harakat qilgan shoirni aniqlang.
- A. Boborahm Mashrab
 - B. Alisher Navoiy
 - D. Zaxriddin Muxammad Bobur
 - E. Abduraxmon Jomiy
67. Gʻarb faylasuflaridan kimlar moddiy va ideal hodisalarni farqlagan?
- A. Suqrot va Protagor
 - B. Platon va Protagor
 - D. Geraklit va Suqrot
 - E. Suqrot va Platon
68. Zardushtiylikda borliqni substansional asosi nima?
- A. Suv
 - B. Olov
 - D. Tuproq
 - E. Havo
69. Falsafa tarixida mashhur “Ayni bir daryoga ikki marta tushib boʻlmaydi” ibroasi muallifi kim?
- A. Platon
 - B. Fales
 - D. Zenon
 - E. Geraklit
70. Globallashuv hodisasi nimani oʻrgatadi?
- A. Global muammolarni yechishni oʻrgatadi
 - B. Hozirgi davr haqida aniqroq tasavvur hosil qilishni oʻrgatadi
 - D. Barcha muammolarni ilmiy oʻrgatadi
 - E. Hozirgi davr haqida noaniqroq tasavvur hosil qilishni oʻrgatadi
71. Global muammolar bu ... ?
- A. Global muammolar butun yer kurrasini, uning nafaqat odamlar bevosita yashaydigan qismini, balki Yerning qolgan yuzasi, yer osti boʻshliqlari, atmosfera, gidrosfera va hatto inson faoliyati doirasiga kiruvchi kosmik fazoni qamrab olishi bilan izohlanadi
 - B. Global muammolar butun jamiyatni, uning nafaqat odamlar bevosita yashaydigan qismini, balki Yerning qolgan yuzasi, yer osti boʻshliqlari, atmosfera, gidrosfera va hatto inson faoliyati doirasiga kiruvchi kosmik fazoni qamrab olishi bilan izohlanadi
 - D. Global muammolar butun davlatni, uning nafaqat odamlar bevosita yashaydigan qismini, balki Yerning qolgan yuzasi, yer osti boʻshliqlari, atmosfera, gidrosfera va hatto inson faoliyati doirasiga kiruvchi kosmik fazoni qamrab olishi bilan izohlanadi
 - E. Barcha javoblar toʻgʻri
72. Asosiy global muammolar tizimini aniqlang.
- A. Demografik, taʼlim sogʻliqni saqlash
 - B. Sogʻliqni saqlash, oziq-ovqat muammosi
 - D. Iqtisodiy rivojlanishning notekisligi, urush va tinchlik muammosi

- E. Barcha javoblar to'g'ri
73. Dunyoqarashning faqat insonga xos xususiyatni aniqlang?
- A. Dunyoni tushunish
- B. Harakat qilish
- D. Dunyoni sezish (qisman)
- E. Barcha javoblar noto'g'ri
74. Quyida keltirilgan ta'limotlardan qaysi birida tabiatga oqilona munosabatda bo'lish, atrof-muhitning ekologik tozaligiga rioya qilish g'oyasi o'z aksini topgan?
- A. Mazdakiylik
- B. Zardushtiylik
- D. Braxmanizm
- E. Buddaviylik
75. Germinivtikada asosiy tadqiqot ob'ekti sifatida nima e'tirof etiladi?
- A. So'z
- B. Faoliyat
- D. Matn
- E. Ijtimoiy hodisalar
76. Haqiqatni tushunishda intuitivizmga asos solgan faylasuf kim?
- A. Shopengaur
- B. Kant
- D. Fixte
- E. Nitsshe
77. Hozirgi zamonda o'zini jahon fuqarosi deb hisoblovchi odamlarning paydo bo'lishiga nima sabab bo'ldi?
- A. Ekologik globallashuv
- B. Siyosiy globallashuv
- D. Serqirra globallashuv
- E. Madaniy globallashuv
78. Falsafaning inson faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan bo'limi nima deyiladi?
- A. Aksiologiya
- B. Tanatologiya
- D. Praksiologiya
- E. Gnoseologiya
79. Qadriyatlar to'g'risidagi fan bu ...?
- A. Aksiologiya
- B. Praksiologiya
- D. Tanatologiya
- E. Teologiya
80. Yangi davrda qaysi olimlar falsafaning amaliyotga bog'liqligini o'rgandi?
- A. Bekon, Gobbs
- B. Nyuton, Eynshteyn
- D. Russo, Volter
- E. Drayzer, Gomer
81. Falsafada "narsa o'zida" g'oyasi kimga tegishli?
- A. Gegelga

- B. Kantga
- D. Shellingga
- E. Fixtega

82. Rene Dekartning substansiya haqidagi dualistik ta'limotiga zid o'laroq, gollandiyalik faylasuf Benedikt (Barux) Spinoza dunyo haqida qanday ta'limotni yaratdi?

- A. Emperik ta'limotni
- B. Dualistik ta'limotni
- D. Monistik ta'limotni
- E. Barcha javoblar to'g'ri

83. "Geliotsentrizm" nazariyasining asoschisi kim?

- A. N.Kuzaniskiy
- B. G.Galiley
- D. J.Brunno
- E. N.Kopernik

84. "Koinot markazga ega emas va cheksizdir". Ushbu fikr muallifi kim?

- A. I.Kant
- B. G.Galiley
- D. J.Bruno
- E. N.Kopernik

85. XVIII asr skeptitsizmining eng yirik vakillaridan birini aniqlang?

- A. Shelling
- B. Yum
- D. Gegel
- E. Fixte

86. Fan yutuqlarini tan oladigan va ijobiy baholaydigan ta'limotni aniqlang.

- A. Antissentizm
- B. Gnostizm
- D. Pragmatizm
- E. Ssentizm

87. Pragmatizmning asoschisi kim?

- A. B.Rassel
- B. I.Kant
- D. M.Avenarus
- E. Ch.Pirs

88. Formal mantiq nimani o'rganadi?

- A. tafakkurning vujudga kelishini;
- B. tafakkur taraqqiyotini;
- D. to'g'ri tafakkur shakllari va qonunlarini
- E. fikrning konkret mazmuni;

89. Tafakkur shakli nima?

- A. fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog'lanish usuli
- B. fikrning yaqqol iqdalanishi
- D. fikrning tilda gavdalanishi
- E. til va tafakkurning bir - biriga to'la mos kelishi

90. Fikr qachon to‘g‘ri qurilgan deb hisoblanadi?
- A. aniq ma’nosiga ega bo‘lsa;
 - B. izchil bo‘lsa;
 - D. yetarli asosga ega bo‘lsa;
 - E. A, B, D hollari mavjud bo‘lsa
91. Tafakkur qonuni nima?
- A. fikr yuritish qoidalarini yig‘indisi;
 - B. fikr yuritish usuli;
 - D. fikrlash elementlari o‘rtasidagi ichki zaruriy aloqadorlik
 - E. fikrlash shakli;
92. Sinonim va omonimlardan noto‘g‘ri foydalanish, masalan, “Vatan”, “o‘lka” so‘zlari ifoda qiluvchi tushunchalarning mazmunini barcha hollarda bir - biriga tenglashtirish yoki “xukm” so‘zi ifoda qiluvchi tushunchalarning (xukm - sud chiqargan qaror, hukm - tafakkur shakli) mazmunini farq qilmaslik muhokama yuritishda fikrning aniq ifoda qilinmasligiga olib keladi. Bunday hollarda tafakkurning qaysi qonuni talablari buzilgan bo‘ladi?
- A. ayniyat qonunining talabi buzilgan;
 - B. ziddiyat qonunining talabi buzilgan;
 - D. uchinchi mustasno qonunining talabi buzilgan;
 - E. yetarli asos qonunining talabi buzilgan;
93. Amaliy mashg‘ulotlarda talaba o‘qituvchidan, - “Qilmagan ish uchun jazolab bo‘ladimi?”, - deb so‘radi. O‘qituvchi, - “Yo‘q, jazolab bo‘lmaydi”, deb javob beradi. Talaba, - “Unday bo‘lsa meni jazolamang, uyga vazifani qilmadim”, - deydi. Yuritilgan muhokamada tafakkurning qaysi qonun talablari buziladi?
- A. ayniyat qonunining;
 - B. ziddiyat qonunining;
 - D. uchinchi mustasno qonunining;
 - E. yetarli asos qonunining;
94. Afandi xotiniga “Qattiq keltir! Yozning issig‘ida oshqozon uchun qattiqdan foydaliroq narsa yo‘q!”, - dedi. Xotini - “Uyda qattiq yo‘q edi”, - deb javob beradi. SHunda Afandi, - “Bo‘lmagani ham yaxshi; aslida u zararli”, - debdi. Afandining xotini shunda, - “Qiziq odam ekansiz, qattiq dam foydali, dam foydasiz deysiz. Qaysi biriga ishonsa bo‘ladi?” - deb so‘radi. Afandi, - “Agar uyda qattiq bo‘lsa birinchisi, bo‘lmasa ikkinchisi to‘g‘ri”, - deb javob beribdi. Mazkur latifada tafakkurning qaysi qonuni talabi buzilgan?
- A. ayniyat qonunining talabi;
 - B. ziddiyat qonunining talabi
 - D. uchinchi mustasno qonunining talabi;
 - E. yetarli asos qonunining talabi;
95. “Yoki - yoki” formulasi tafakkurning qaysi qonunini ifodalaydi?
- A. ayniyat qonunini
 - B. ziddiyat qonunini
 - D. uchinchi istisno qonunini
 - E. yetarli asos qonunini

96. “Talaba qizarib ketdi, demak u aybdor”. Bu muhokamada yetarli asos qonunining talabi buzilganmi?
A. buzilgan
B. buzilmagan
D. noma'lum
E. qisman buzilgan
97. Savol: “Mutaxassisligingiz kim?”. Javob: “O‘rindoshlik asosida ishlayapman”. Savolga berilgan javobda ayniyat qonuni talabiga rioya qilinganmi?
A. rioya qilingan
B. qisman rioya qilingan
D. rioya qilinmagan
E. noma'lum
98. Tushunchalarda nimalar aks ettirilgan?
A. faqat predmetning umumiy belgilari;
B. faqat predmetning individual belgilari;
D. predmetning umumiy va muhim belgilari
E. predmetning barcha belgilari;
99. Tushunchada predmet qanday hollarda aks ettiriladi?
A. predmetning yaqqol obrazli shaklida
B. abstraktlashgan holda
D. tasavvur shaklida
E. sezgi yoki idrok qilish shaklida
100. Tushuncha miyada bevosita hosil bo‘lishi mumkinmi?
A. mumkin;
B. ba’zida mumkin
D. mumkin emas
g) ba’zida mumkin emas
101. Tushunchaning mazmunini nimalar tashkil etadi?
A. predmetning muhim va umumiy belgilari haqidagi axborotlar
B. predmetning muhim va nomuhim belgilari haqidagi axborotlar
D. predmetning mavjud belgilari haqidagi axborotlar
E. faqat predmetning bevosita namoyon bo‘lgan belgilari haqidagi axborotlar
102. Tushunchaning hajmida nima ifoda qilinadi?
A. predmetning egallab turgan joyi
B. tushunchada aks ettirilgan predmetlar yig‘indisi
D. miqdor jihatdan aniq bo‘lgan predmetlar
E. tushuncha aks ettirilgan predmetlar mohiyati
103. Quyidagilarning qaysi biri yakka tushuncha?
A. so‘z turkumi
B. qit’a
D. adabiy janr
E. quyosh sistemasi
104. “Laganbardor” tushunchasi qaysi turga mansub?
A. yakka tushuncha
B. to‘plovchi tushugcha

D. nisbatdosh tushuncha

E. konkret tushuncha

105. Quyidagilardan qaysi biri birga bo'ysunish munosabatidagi tushunchalar hisoblanadi?

A. badiiy asar - roman - she'riy roman

B. asar personajlari - bosh qaxramon - salbiy qaxramon

D. o'quv adabiyoti - darslik - o'quv qo'llanmasi

E. O'zbekfilm - ssenariy - rijessyor

106. Quyidagilarni qaysi biri bo'ysunish munosabatidagi tushunchalar?

A. institut - fakultet;

B. respublika - viloyat;

D. o'qituvchi - o'quvchi;

E. universitet - O'zMU

107. Zidlik munosabatida bo'lgan tushunchalar, qarama - qarshilik munosabatida bo'lgan tushunchalardan nimasi bilan farq qiladi?

A. farq qilmaydi

B. berilgan sinfga mansub predmetlarni to'liq qamrab ololmaydi

D. berilgan sinfga mansub predmetlarni to'liq qamrab oladi

E. ba'zi hollarda qamrab olish mumkin

108. Quyidagilarni qaysi birida tushunchalarni chegaralash amali to'g'ri bajarilgan?

A. Oliy o'quv yurti - Institut - Fakultet;

B. Siyosiy tashkilot - Partiya - "Adolat" partiyasi;

D. Tinch okeani - Orol dengizi - Amudaryo;

E. Kitob - o'quv qo'llanmasi - darslik;

109. Quyidagi bo'lish amallaridan qaysi biri to'g'ri bajarilgan?

A. Tafakkur shakli: tushuncha, hukm;

B. Fe'l zamon: o'tgan zamon, kelasi zamon;

D. Gap: sodda gap, qo'shma gap, bog'langan qo'shma gap;

E. Ot: atoqli ot, turdosh ot;

110. "So'zlar vositasi bilan anglatilgan fikrga gap deyiladi" degan ta'rif qanday ta'rif hisoblanadi?

A. Real ta'rif;

B. mavjud ta'rif;

D. nominal ta'rif;

E. mavhum ta'rif;

111. "Iqtisodchi - iqtisodiyotni o'rganuvchi kishi" ta'rifida qanday xatoga yo'l qo'yiladi?

A. ta'rif aniq, ravshan emas;

B. ta'rifda aylana hosil bo'lib qolgan;

D. ta'rif teng xajmli emas;

E. ta'rif ziddiyatli mazmunga ega;

112. "Kitoblar - aql farzandlaridir" (J.Svift), degan ta'rifda qanday xatoga yo'l qo'yilgan?

A. ta'rif aniq, ravshan emas

- B. ta'rifda aylana hosil bo'lib qolgan
- D. ta'rif teng hajmli emas
- E. ta'rif o'ta mavhum bo'lib, real mazmunga ega emas
- 113. "Elementlar zarracha - bu, masalan, elektron" qanday ta'rif?
- A. real ta'rif
- B. nominal ta'rif
- D. ta'rifga o'xshash usul
- E. konkret mazmunga ega bo'lmagan o'ta mavhum ta'rif
- 114. Falsafa qonunlar qanday qonunlar sirasiga (jumlasiga) kiradi?
- A. Eng umumiy qonunlar
- B. Maxsus qonunlar
- D. Faqat falsafada asos qilingan qonunlar
- E. Inson taffakurida amal qilingan qonunlar
- 115. Qanday bog'lanishlar tarqqiyotiga sabab bo'ladi?
- A. Muhim bog'lanishlar
- B. Tasodifiy bog'lanishlar
- D. Asosiy bog'lanishlar
- E. Ob'ektiv bog'lanishlar
- 116. Olamdagi har qanday o'zgarish bu ...?
- A. Sababiyatdir
- B. Qonuniyatdir
- D. Harakatdir
- E. Oqibatdir
- 117. Abadiy takrorlaniuvchi o'zgarishlar bu ...?
- A. Abadiydir
- B. O'zgarishdir
- D. Tasodifdir
- E. Qonundir
- 118. Qonunlarning ko'plab kashf qilinish nimaga sabab bo'ladi?
- A. Taraqqiyotining tezlashishiga
- B. Qonunlarni ko'payishiga
- D. Eng maqbullarini tanlashga
- E. Barcha javoblar to'g'ri
- 119. Qaysi javobda falsafiy qonun to'g'ri ko'rsatilgan?
- A. Imkoniyat va voqelik
- B. Zarurat va tasodif
- D. Miqdor va sifat o'zgarishlari
- E. Sabab va oqibat
- 120. Qaysi javobda falsafiy qonun to'g'ri ko'rsatilgan?
- A. Imkoniyat va voqelik
- B. Zarurat va tasodif
- D. Sabab va oqibat
- E. Inkorni inkor
- 121. Qarama-qarshi tomonlar birligi nimada ifodalanadi?
- A. Ayniyat, ziddiyat

- B. Imkoniyat va boqiylikda
 - D. Murosa va kelishuvda
 - E. Sabr va bardoshda
122. Qarama-qarshilik o'rtasidagi munosabatini falsafada qanday tushuncha ifodalaydi?
- A. Aloqa
 - B. Munosabat
 - D. Ziddiyat
 - E. Qarama-qarshilik
123. Qaysi javobda "ziddiyatlarni" o'rganuvchi falsafiy yo'nalish to'g'ri ko'rsatilgan?
- A. Konfliktologiya
 - B. Praksologiya
 - D. Ziddiyatologiya
 - E. Epistemologiya
124. "Miqdor, me'yor, sakrash, sifat" falsafaning qaysi qonuniga tegishli tushunchalar hisoblanadi?
- A. Xususiy, umumiy va eng umumiy qonuniga
 - B. Qarama-qarshiliklar birligi qonuniga
 - D. Inkorni – inkor qonuniga
 - E. Miqdor va sifatning birligi qonuniga
125. "Sakrash" falsafiy manoda nimani anglatadi?
- A. Uzliksizlikning uzilishi
 - B. Miqdorning me'yor
 - D. Me'yorning miqdorini
 - E. Sababning oqibatini
126. Falsafada "eskini inkor yanigining shakillanishi" nimda ifodalanadi?
- A. Urf-odatlarda
 - B. An'analarda
 - D. Vorisiylikda
 - E. Qadriyatlarda
127. Taraqqiyot qanday shaklda amalga oshadi?
- A. Ikki marotaba olidinga, bir marotaba orqaga
 - B. Doira va spiral shakilda
 - D. Asosan to'g'ri va qisaman egri shaklida
 - E. Vaziyatdan kelib chiqqan holda
128. Falsafaning "qonun" va kategoriyalarini kim birinchi bo'lib sistemalashtirgan?
- A. Arastu (Aristotel)
 - B. Platon (Aflotun)
 - D. Hegel
 - E. Kant
129. "Xaos" nima?
- A. Tartibsizlik
 - B. Bo'shliq

- D. Tartiblilik
- E. Ketma-ketlik
- 130. Quyidagi qaysi qatorda harakat shakllari to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
 - A. Astronomik, geologik, biologik
 - B. Ximik, astronomik, geologik, mexanik
 - D. Ijtimoiy, biologik, geografik, fizik
 - E. Kimyoviy, mexanik, fizik, biologik, ijtimoiy
- 131. Gegel dialektikani qanday ta’riflagan?
 - A. Dunyoni quyidan oliyga qarab boruvchi umumiy rivojlanish jarayoni sifatida ta’riflagan
 - B. Odamlar ongiga diniy dunyoqarashni singdirishni tasvirlagan
 - D. Materializmni dialektik mantiq bilan bog‘lashga harakat qilgan
 - E. Tabiiy va ijtimoiy hodisalarni o‘zaro aloqasi va rivojlanishi deb ta’riflagan
- 132. Dialektikaning tarixiy shakllari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
 - A. Materialistik, idealistik, stixiyali dialektika
 - B. Idealistik, dualistik, mistik
 - D. Stixiyali, mistik, materialistik
 - E. Barcha javoblar to‘g‘ri
- 133. Fan va falsafa kategoriyalarining farki nimada?
 - A. Falsafiy kategoriyalar o‘ta keng tushunchalardir
 - B. Fan kategoriyalari o‘ta ma’noli
 - D. Falsafa kategoriyalari juda oz
 - E. Fan kategoriyalari irratsionalikni tan olmaydi
- 134. “Metafizika” so‘zining lugaviy ma’nosi nima?
 - A. Yunoncha Fizikadan keyin
 - B. Inglizcha Matematikadan keyin
 - D. Lotincha Fizikadan keyin
 - E. O‘zbekcha Texnologiyadan keyin
- 135. Falsafiy metodlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping?
 - A. Dialektika, metafizika, sofistika, eklektika
 - B. Dialektika, kuzatish, eksperiment, taqqoslash
 - D. Metafizika, eklektika, analitika, sofistika
 - E. Metafizika, sofistika, eksperiment, kuzatish
- 136. Narsalar, hodisalarning bir holatdan boshqa holatga o‘tishi bu ...?
 - A. Qonun
 - B. Rivojlanish
 - D. O‘zgarish
 - E. Sabab
- 137. Dialektikani tarixan birinchi shakli qanday nomlanadi?
 - A. Stixiyali dialektika
 - B. Antik dialektika
 - D. Qadimiy dialektika
 - E. Barcha javob to‘g‘ri
- 138. Metodning asosiy vazifasi nima?
 - A. Faoliyatni bilish va boshqa shakllarni boshqaruvi

- B. Tushunchalarni borliqda anglab yetish
- D. Shart-sharoitni nazorat qilish va kuzatish
- E. Tushuncha, mulohaza fikrni o'rganishdan iborat
- 139. Ikki yoki bir necha suhbat - ...?
- A. "Dialog"
- B. "Roman"
- D. "Qissa"
- E. "Dialog va roman"
- 140. Orqaga qaytmaslik va muayyan yo'nalishga egalik xos bo'lgan harakat tipi nima deb ataladi?
- A. Progress
- B. Turg'unlik
- D. Regress
- E. To'g'ri javob yo'q
- 141. Metodika nima?
- A. Daliliy materiallarni yigish va saralash vositasi, aniq faoliyat turi
- B. Dalillar uchun asos bo'lib xizmat qiladi
- D. Fanning kashfiyotlari bilan shug'ullanmaydi
- E. Hech qanday faoliyat bilan shug'ullanmaydi
- 142. Stixiyali dialektika asoschisi kim?
- A. Demokrit
- B. Levkipp
- D. Geraklit
- E. Platon
- 143. Idealistik dialektikaning asoschisi kim?
- A. Lomonosov
- B. Sukrot
- D. Hegel
- E. Platon
- 144. Dialektikani eng yaxlit konsepsiyasini qaysi faylasuf ta'riflagan??
- A. I.Kant
- B. Fixte
- D. Hegel
- E. Aristotel
- 145. Mohiyat kategoriyasi ...?
- A. Ob'ektlarning chuqur, ichki aloqadorligi va munosabatlari yig'indisi
- B. Mavjud hodisalar
- D. Ob'ektlarning ichki va tashqi aloqadorligi
- E. Hodisalarning tashqi tomoni
- 146. Harakat falsafiy kategoriya sifatida quyidagilarni bildiradi ...
- A. tirik va notirik materiyadagi har qanday o'zgarish
- B. atomlar va bo'shliq
- D. jamiyat taraqqiyotida zaruriy hodisa hisoblangan ijtimoiy unsurlar
- E. molekulalarning birikuvi va ajralishi
- 147. Dialektikaning nominal ta'rifi:

- A. Dialektika – yunon tilidagi «dialektos» soʻzidan olingan boʻlib, «suhbat, bahs, munozara» natijasida «haqiqatning ruyobga chiqishi» maʼnolarini anglatadi;
- B. Dialektika – obʼektiv borliq, jamiyat, inson va uning tafakkuri taraqqiyotini oʻzaro qaramaqarshilik va umumiy aloqadorlik asosida oʻrganadigan falsafa fanining tarixiy – ilmiy metodidir.
- D. Dialektika – metafizika metodiga qarama-qarshi qoʻyilgan ilmiy-tarixiy metoddir.
- E. Dialektika – obʼektiv borliqdagi narsa va hodisalarning paydo boʻlishi sabablari, tadrijiy oʻzgarishi, rivojlanishi, bir holatdan boshqa holatga oʻtishi kabi xususiyatlarini oʻrganadi.
148. Dialektika metodining asoschisi:
- A. Suqrot.
- B. Gegel.
- D. Aflotun.
- E. Geraklit.
149. “Gnoseologiya” soʻzining lugʻaviy maʼnosi nima?
- A. «bilish haqidagi taʼlimot (fan)»
- B. «ong haqidagi taʼlimot (fan)»
- D. «bilish nazariyasi»
- E. barcha javoblar toʻgʻri
150. Bilishni falsafaning qaysi boʻlimi oʻrganadi?
- A. Ontologiya
- B. Gneseologiya
- D. Aksiologiya
- E. Praksiologiya

II-Mustaqil taʼlim boʻyicha

151. Gnoseologiya muammolari doirasiga nimalar kiradi?
- A. insonning dunyoni bilish imkoniyati
- B. insonning oʻzlikni anglash jarayoni
- D. bilishning bilmaslikdan bilim sari yuksalishi
- E. barcha javoblar toʻgʻri
152. Bilimga chanqoq boʻlgan, bilishga harakat qilayotgan odam ...?
- A. Agnostik
- B. Optimist
- D. Bilishni xohlamaydigan odam
- E. Toʻgʻri javob yoʻq
153. “Refleksiya” soʻzining lugʻaviy maʼnosi qanday?
- A. chegaraga sigʻmaydigan
- B. narsa oʻzida
- D. orqaga qaytish
- E. idrok etish
154. Gnoseologiyaning asosiy muommosi nima?
- A. Bizning barcha bilimimiz asosiy qonun

- B. Bizning barcha bilimlarimiz tajribada sinalganmi
 D. Bizning barcha bilimlarimiz ontologik bilim
 E. Bizning barcha bilimlarimiz aksiologik bilim
155. Bilishning eng oliy shakli nima?
 A. Texnika
 B. Axborot
 D. Fan
 E. Sezgilarimiz
156. Tabiat haqida, shuningdek odamlarning o‘zlari, ularning yashash sharoiti, ijtimoiy aloqalari va hokazolar to‘g‘risida elementar bilimlar beruvchi bilim bu?
 A. kundalik amaliy bilim
 B. o‘yin vositasidagi bilim
 D. mifologik bilim
 E. badiiy bilim
157. Ilmiy bilim boshqa bilim turlaridan o‘zining nimasi bilan ajralib turadi?
 A. G‘oyalari
 B. Tafakkuri
 D. Aniqligi
 E. Predmeti
158. Inson ong yordamida oladigan dunyo haqidagi ma’lumotlarning eng oliy darajasi bu?
 A. e’tiqod
 B. bilim
 D. din
 E falsafa
159. Subyekt so‘ziga falsafiy nuqtai nazardan qaysi ta’rif to‘g‘ri keladi?
 A. bilish faolligining manbai
 B. bilish qobiliyatiga ega bo‘lgan individ
 D. mikroguruh, ijtimoiy guruh sinf, jamiyat
 E. barcha javoblar to‘g‘ri
160. Tafakkurning shakllarini belgilang?
 A. Ayniyat, ziddiyat, istisno, yetarli asos
 B. Tushuncha, hukm, xulosa
 D. Indektiv, deduktiv
 E. Analogiya, gipoteza
161. Ratsionalizm ta’limotining tub mohiyati nima?
 A. dunyoni bilish mumkin deb hisoblaydigan ta’limot;
 B. bilishda sezgi a’zolarini xal qiluvchi axamiyatini e’tirof etuvchi ta’limot;
 D. bilishda aqlning roli xal qiluvchi axamiyatga ega deb hisoblovchi ta’limot;
 E. umuminsoniy manfaatlarining ustuvorligini tan oluvchi ta’limot.
162. Hissiy bilim deb nimaga aytiladi?
 A. sezgi a’zolari orqali olingan bilim
 B. sezgi a’zolari yoki narsalarning xossalarini sezgi a’zolari sezish va idrok etishi natijasida olingan bilim
 D. barcha javoblar to‘g‘ri

- E. aql va sezgilar yordamida bilimlarni o'zlashtirish
163. Muammolarni qo'yish va ularni yechishga qaratilgan faol jarayon qanday nomlanadi?
- A. Tafakkur
 - B. Izlanish
 - D. Tasdiqlash
 - E. Isbotlash
164. Fikr yuritish orqali empirik faktlardan, ularni tushuntiruvchi gipotezaga yuksalishni nazarda tutuvchi tushuncha bu ...?
- A. Abduksiya
 - B. Induksiya
 - D. Implikatsiya
 - E. Intuitsiya
165. "O'zingni bilsang olamni bilasan" degan ibora qaysi faylasuf qalamiga mansub?
- A. Suqrot
 - B. Aflotun
 - D. Aristotel
 - E. Demokrit
166. Bevosita bilim va sezgi a'zolari orqali bilishni rad etgan va sezgilarni soxta deb e'lon qilgan Levkipp va Demokrit qaysi maktab vakillari bo'lgan?
- A. Eley maktabi
 - B. Kinik maktabi
 - D. Pifagor maktabi
 - E. Kiren maktabi
167. Ob'ekt xossalarning rivojlanish darajasini tavsiflovchi kattalikni aniqlash jarayoni bu ...?
- A. O'lchash
 - B. Eshitish
 - D. Tushunish
 - E. Belgilash
168. Amaliyotning asosiy shakli qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
- A. Mehnat
 - B. Mulohaza
 - D. Tafakkur
 - E. Kuzatish
169. Bilish nazariyasida yagona bilish jarayoning ikki qarama-qarshi, lekin bir-biri bilan uzviy bog'liq asosiy kategoriyalarni ko'rsating?
- A. Haqiqat va yanglishish
 - B. Haqiqat va yolg'on
 - D. Yaxshilik va yomonlik
 - E. Ishonch va shubha
170. Qanday haqiqatni bilish taraqqiyot jarayonida rivojlanib,uz chegarasi bo'lgan mutlaq haqiqatga yaqinlashadi?
- A. Nisbiy haqiqat

- B. Obktiv haqiqat
 - D. Sub'ektiv haqiqat
 - E. Yolg'on haqiqat
171. Hodisalar va holatlar ahamiyatini bevosita his etish qanday nomlanadi?
- A. Asos
 - B. Emotsiya
 - D. Ishonch
 - E. Shubha
172. Ilmiy bilishdagi to'g'ri metodni Bekon nimaga qiyoslaydi?
- A. Yo'lovchini yo'lini yoritadigan chiroqqa
 - B. Yo'ldan adashtiruvchiga
 - D. Botqoqqa botirishga
 - E. Insonga yordam beruvchi kuchga
173. Ong va ong osti hodisalarni ilk bor mufassal urgangan faylasuf-psixanalitik kim?
- A. Z. Freyd
 - B. E. Fromm
 - D. K. Yung
 - E. N. Vernadskiy
174. Fan yutuqlarini tan oladigan va ijobiy baholaydigan ta'limotning nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
- A. Ssentizm
 - B. Gnostizm
 - D. Pragmatizm
 - E. Antissentizm
175. Umumiy nisbiylik nazariyasining asoschisi kim?
- A. Eynshteyn
 - B. R. Dekart
 - D. N. Bor
 - E. R. Ernest
176. Falsafada "narsa o'zida" goyasi kimga tegishli?
- A. Kant
 - B. Hegel
 - D. Shelling
 - E. Fixte
177. Yangi davr falsafasida empirik bilish usulining asoschisi:
- A. Dekart
 - B. Didro
 - D. F. Bekon
 - E. Leybnits
178. Bilish bu ...?
- A. ob'ektiv dunyoning inson miyasida faol, maksadga muvofik in'ikos qilinishi
 - B. odam ko'rganni o'z miyasida in'ikos qilishi
 - D. sezgilar asosida kelib chiqqan bilim
 - E. insonning oynadagi aksi

179. Fanning o'ziga xos xususiyatlari nimada?
- A. Tabiat to'g'risidagi bilimlar yig'indisi
 - B. Jamiyat to'g'risidagi bilimlar
 - D. Ong to'g'risidagi bilimlar yig'indisi
 - E. Borliqni ilmiy tushunchalar va qonunlar orqali ifodalash
180. "Nazariya" tushunchasining ta'rifi
- A. Xulosalar yig'indisi
 - B. Tushunchalar yig'indisi
 - D. Sistemalashtirilgan va amaliy jixatdan asoslangan bilimlar yig'indisi
 - E. Taxminlarga asoslangan bilim
181. Sezgi tushunchasi...?
- A. voqelikni in'ikos ettirishning oliy shakli
 - B. materiya harakati
 - D. xotirlash jarayoni
 - E. ob'ektiv dunyoning sub'ektiv obrazi
182. Ilmiy bashorat bu ...?
- A. oldindan ko'ra bilish, empirik va nazariy jixatdan asoslangan taxmin
 - B. rad qilib bo'lmaydigan aniq bilim
 - D. kelgusida to'ldiriladigan aniq bo'lmagan bilimlar
 - E. EHMning xossasi
183. Ong:
- A. voqelik in'ikosining oliy shakli, miyaning xususiyati
 - B. imkoniyat va voqelikning o'zaro munosabati
 - D. bazis va ustqurmaning o'zaro munosabati
 - E. tabiat va jamiyat qonunlarini bilish
184. Falsafaning borliqni o'rganadigan qismi qanday ataladi?
- A. Ontologiya
 - B. Gnoseologiya
 - D. Aksiologiya
 - E. Metodologiya
185. «Mavjudlik haqidagi ta'limot» ma'nosini bildiradigan so'zni toping.
- A. Ontologiya
 - B. Gnoseologiya
 - D. Aksiologiya
 - E. Metodologiya
186. Qaysi olimlar ontologiyani «haqiqiy borliqni nohaqiqiy borliqdan ajratib oluvchi borliq haqidagi ta'limotdir» deb tushunishgan?
- A. Yangi davr ingliz faylasuflari
 - B. O'rta asr g'arbiy yevropa faylasuflari
 - D. Qadimgi yunon faylasuflari
 - E. Markaziy Osiyo faylasuflari
187. Eley maktabi vakillari ontologiyani qanday tushunishgan?
- A. Dastlabki borliqning sifatiy talqini
 - B. Haqiqiy borliqni nohaqiqiy borliqdan ajratib oluvchi borliq haqidagi ta'limotdir
 - D. Yagona borliqning mohiyatini ochib beruvchi ta'limot

- E. Mangu, o'zgarmas, yagona, sof borliq haqidagi ta'limot
188. Forobiy ontologiyani qanday izohlaydi?
- A. Dastlabki borliqning sifatiy talqini
 - B. Haqiqiy borliqni nohaqiqiy borliqdan ajratib oluvchi borliq haqidagi ta'limotdir
 - D. Yagona borliqning mohiyatini ochib beruvchi ta'limot
 - E. Mangu, o'zgarmas, yagona, sof borliq haqidagi ta'limot
189. Falsafaning boshlang'ich kategoriyasi qaysi?
- A. Ong
 - B. Borliq
 - D. Jamiyat
 - E. Inson
190. Dunyo, tabiat, inson, jamiyat, inson ongi, uning individuallashtirgan va moddylashtirgan ko'rinishlarining shunchaki mavjudligini emas, balki ulardagi umumiy xarakterga ega bo'lgan reallikka xos eng umumiy aloqadorlikni ifodalaydigan tushuncha bu...
- A. Ong
 - B. Mavjudlik
 - D. Borliq
 - E. Materiya
191. Borliq tushunchasi falsafiy kategoriya sifatida bilishning yuqori bosqichi - ... tafakkurgagina xosdir.
- A. Sub'ektiv
 - B. Intuitiv
 - D. Abstrakt
 - E. Ob'ektiv
192. Falsafada qaysi oqim o'z e'tiborini moddiy borliqqa qaratib, uni birlamchi, belgilovchi, deb hisoblaydi?
- A. Sensualizm
 - B. Idealizm
 - D. Dualizm
 - E. Materializm
193. Falsafada qaysi oqim borliqning ma'naviy shakllariga alohida e'tibor beradi, u ma'naviy borliq shakllarini birlamchi, belgilovchi, deb e'tirof etadi?
- A. Sensualizm
 - B. Idealizm
 - D. Dualizm
 - E. Materializm
194. Borliqning qanday shakllari mavjud?
- A. Tabiiy, ijtimoiy, inson, ma'naviy
 - B. Moddiy, tabiiy, inson, ijtimoiy
 - D. Ma'naviy, inson, ijtimoiy
 - E. Ijtimoiy, inson, moddiy
195. Moddiy borliqni qaysi konkret turlarga ajratish mumkin?
- A. Ob'ektivlashtirgan, individuallashtirgan
 - B. Tabiiy, inson, ijtimoiy

- D. Moddiy va ma'naviy
- E. Birlamchi tabiat, ikkilamchi tabiat
196. Individuallashgan va ob'ektivlashgan borliq borliqning qaysi turiga mansub?
- A. Ijtimoiy borliqqa
- B. Moddiy borliqqa
- D. Ma'naviy borliqqa
- E. Tabiiy borliqqa
197. «Birlamchi» tabiat deganda nima tushuniladi?
- A. Insondan, uning ongidan tashqarida ob'ektiv reallik sifatida mavjud bo'lgan narsalar, hodisalar, jarayonlar borlig'i
- B. Insongacha, insondan va uning ongidan tashqarida, unga bog'liq, bo'lmagan holda mavjud bo'lgan narsa va hodisalar, jarayon va holatlarni o'z ichiga olgan tabiat
- D. Tabiatdagi narsa va hodisalar asosida inson tomonidan yaratilgan narsalarning tabiiy borlig'i
- E. Inson, uning ongi bilan bog'liq sub'ektiv reallik sifatida mavjud bo'lgan fikrlar, g'oyalar, qarashlar
198. «Ikkilamchi» tabiat deganda nima tushuniladi?
- A. Insondan, uning ongidan tashqarida ob'ektiv reallik sifatida mavjud bo'lgan narsalar, hodisalar, jarayonlar borlig'i
- B. Insongacha, insondan va uning ongidan tashqarida, unga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan narsa va hodisalar, jarayon va holatlarni o'z ichiga olgan tabiat
- D. Tabiatdagi narsa va hodisalar asosida inson tomonidan yaratilgan narsalarning tabiiy borlig'i
- E. Inson, uning ongi bilan bog'liq sub'ektiv reallik sifatida mavjud bo'lgan fikrlar, g'oyalar, qarashlar
199. Borliqning alohida o'ziga xos real shakli sifatida, avvalo, u insongacha, undan tashqarida, unga bog'liq bo'lmagan holda mavjud, deb ta'riflanadigan borliq shaklini aniqlang?
- A. Moddiy borliq
- B. Inson borlig'i
- D. Ijtimoiy borliq
- E. Ma'naviy borliq
200. O'zining vujudga kelishi, yashashida inson mehnati va bilimi bilan bog'liqligi jihatdan "birlamchi tabiat"dan farq qiladigan mavjudlik – bu...
- A. Materiya
- B. Jamiyat
- D. Sub'ektiv reallik
- E. "Ikkilamchi tabiat"
201. Axloq deganda nimani tushunamiz?
- A. Axloq xudoning insonga bergan in'omi;
- B. Axloq kishining turli xil kayfiyatlari;
- D. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri, insonning yurishturish qoidalari va hulq-atvori normalari;

- E. Axloq yaxshilik va yomonlikning o'ldchov mezon.
202. Axloq ko'proq qaysi fanlar bilan bog'liq?
- A. Tarix va siyosatshunoslik fanlari bilan;
 - B. Pedagogika va huquqshunoslik fanlari bilan;
 - D. Sotsial - psixologiya va iqtisodiyot fanlari bilan;
 - E. San'at va adabiyot fanlari bilan.
203. Axloqning ijtimoiy hayotdagi roli nimadan iborat?
- A. Odamga omad va baxt-saodat keltiradi;
 - B. Kishini hato qilmaslikka undaydi;
 - D. Insonni ma'naviy kamolatga etkazadi, jamiyatni ma'lum muvozanatda saqlab turishga imkon beradi;
 - E. Kishining o'z nafsini tiya bilishini va insofli bo'lishini ta'minlaydi.
204. Axloqning tarkibiy tuzilishini izohlang?
- A. Kishining kechinmalari, his-tuyg'ularning yig'indisi;
 - B. Axloqiy amaliyot va psixologik xususiyatlarni o'z ichiga oladi;
 - D. Axloqiy ong, axloqiy normalar, axloqiy faoliyat va axloqiy munosabatlar;
 - E. Axloqiy baho va axloqiy mezon.
205. Axloqning tabiiy manbaalari nimalardan iborat?
- A. Axloq tug'ma xarakterga ega, inson tug'ilishi bilan unga in'om etiladi;
 - B. Axloqning negizida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar yotadi;
 - D. Axloq kishining aql-zakovatiga bog'liq;
 - E. Axloq ota-onadan o'tadigan genetik meros.
206. Axloqning ijtimoiy manbalari nimalardan iborat?
- A. Axloq siyosiy ustqurmaning mahsuli;
 - B. Axloq jamiyatning tuzumi orqali belgilanadi;
 - D. Axloq sotsial muhit va jamoatchilik fikri orqali shakllanadi;
 - E. Axloq tarbiya xarakteriga bog'liq holda namoyon bo'ladi.
207. Axloqning ma'naviy manbalari nimadan iborat?
- A. Axloq xudoning irodasiga bog'liq;
 - B. Axloq hayotiy tajribalar davomida takomillashadi;
 - D. Axloq ilm-ma'rifat orqali shakllanadi, kishining hayot mazmuni va hayot maqsadini qanday tushunishiga bog'liq;
 - E. Axloq kishining ijtimoiy faolligi, intilishlari va epchilligining mahsulidir.
208. Axloqiy norma -qoidalar qachon paydo bo'lgan?
- A. Odamzod urug'ining paydo bo'lishi bilan;
 - B. Inson jamiyati yuzaga kelishi bilan;
 - D. Iqtisodiy tuzum inqirozi davrida;
 - E. Quldorlik tuzumi shakllangandan keyin.
209. Eng qadimgi axloqiy ta'limotlar qaerda yuzaga kelgan?
- A. Misrda, Hindiston va Xitoy mamlakatlarida;
 - B. Qadimgi YUnonistonda va Rimda;
 - D. Yevropa mamlakatlaridan Angliya va Fransiyada;
 - E. Amerika Qo'shma Shtatlarida.
210. Eng qadimgi taniqli axloqshunos mutafakkirlarni aniqlang.
- A. Fales, Anaksimandr, Geraklit

- B. Aristotel, Suqrot, Epikur
 D. Demokrit, Anaksimenes, Lukretsiy
 E. Gelvetsiy, Spinoza, Kant
211. Axloqshunoslik bo'yicha birinchi darslikni kim yozgan?
 A. Geraklit
 B. Aristotel
 D. Demokrit
 E. Epikur
212. «Axloq - bu baxt-saodatga erishish yo'llarini o'rgatuvchi fandır» degan fikrning muallifini aniqlang?
 A. Geraklit;
 B. Demokrit;
 D. Aristotel;
 E. Epikur.
213. Axloqning asosida shaxsiy manfaat yotadi - degan fikrni kim birinchi bor ilgari surgan?
 A. Golbax, Gelvetsiy;
 B. Alisher Navoiy, Farobiy;
 D. Platon, Gegel;
 E. Kant, Feyerbax.
214. Axloqiy taraqqiyot g'oyasiga kim asos solgan?
 A. Gegel;
 B. Kant;
 D. Ibn Sino;
 E. Jomiy.
215. Burch kategoriyasi ustida kim ko'proq ish olib borgan?
 A. Kant;
 B. Spinoza;
 D. Feyerbax;
 E. Marks.
216. Axloqning asosida sevgi va muhabbat yotadi - degan fikrning muallifini aniqlang.
 A. Feyerbax;
 B. Suqrot;
 D. Platon;
 E. Sa'diy SHeroziy.
217. Eng qadimgi axloqiy ta'limotlar qanday yozma manbada ifoda etilgan?
 A. Qur'onda;
 B. Avestoda;
 D. O'rxun-Enisey yozuvlarida;
 E. Forobiy risolalarida.
218. Eng qadimgi xalqlarning o'z Vatani va o'z xalqiga muhabbat fazilatlarini ifodalaydigan og'zaki ijodiyot namunalarini aniqlang.
 A. Go'ro'g'li dostoni;
 B. Alpomish dostoni;

- D. To‘maris va SHiroq afsonalari;
 E. Qirq qiz dostoni.
219. «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodtaga erishuv yo‘llari haqida» risolalarining muallifini aniqlang.
 A. Al Kindiy;
 B. Al Roziy;
 D. Al Farobiy;
 E. Al Beruniy.
221. «Qutadg‘u bilik» axloqiy-didaktik risolasini kim yozgan?
 A. A.Donish
 B. A.Jomiy
 D. Yusuf Xos Xojib
 E. Lutfiy
222. «Hibatul haqoyiq» axloqiy-didaktik risolaning muallifini aniqlang.
 A. A.Navoiy.
 B. B.Mashrab.
 D. A.Jomiy.
 E. A.Yugnakiy.
223. «Turkiy guliston yoxud axloq» asarining muallifini aniqlang.
 A. Beruniy.
 B. Lutfiy.
 D. Navoiy.
 E. Abdulla Avloniy.
224. «Qobusnoma» didaktik risolasini kim yozgan?
 A. Lutfiy.
 B. Sakkokiy.
 D. Kaykovus.
 E. Turdi Farog‘iy.
225. «Mahbub ul qulub» axloqiy risolaning muallifini aniqlang.
 A. Bobur.
 B. Mashrab.
 D. Navoiy.
 E. Maxmur.
226. «Axloqiy - Muxsiniy» axloqiy-didaktik asarning muallifini aniqlang.
 A. Muqimiy
 B. Furqat
 D. Koshifiy
 E. Gulxaniy.
227. Inson barkamolligi va insonparvarlik g‘oyalarini o‘z dunyoqara-shining asosi qilib olgan buyuk alloma kim?
 A. Bobur
 B. Mashrab
 D. Navoiy
 E. Ibn Sino

228. Sufiylik oqimining yirik namoyondalaridan qaysi birining xizmati bizning bebaho ma'naviy qadriyatimiz?
- A. A.Yassaviy, S.Boqirg'oniy.
 - B. G'azzoliy, Kindiy.
 - D. Yugnakiy, YUsuf Xos Xojib.
 - E. Lutfiy, Xorazmiy.
229. Axloqiy erkinlik deganda nimani tushunasiz?
- A. Axloqiy qonun-qoidalarga buyruqsiz, ichki ehtiyoj bilan rioya qilishni.
 - B. Nimani xohlasang shuni qilishni.
 - D. Davlat qonunlariga rioya qilmaslikni.
 - E. Anglashilgan zaruriyatni.
230. Axloqiy ma'suliyat nima?
- A. Insonning o'z xatti-harakatiga javobgarligi.
 - B. Inson faoliyatining taqdirga bog'liqligi.
 - D. Inson xarakterining vaziyatga bog'liqligi, shunga ko'ra vaziyatni ham insoniy qilish zarurligi.
 - E. SHaxsiy va ijtimoiy manfaatlar uyg'unlashganda insonning axloqiy jihatdan ma'suliyatligi.
231. Axloqiy normalar va axloqiy munosabatlar nimalardan iborat?
- A. Kishining mehnatga, o'z vatani va xalqiga, o'z kasbi-kori va oilasiga munosabatlari.
 - B. Qaysi yo'l bilan bo'lmasin hayotda yutib chiqish.
 - D. O'z do'sti va sevgilisiga sadoqatligi.
 - E. Tavakkalga tan berishligi, omadning kulib boqishi.
232. Axloqiy barkamollik negizida nima yotadi?
- A. Taqdirning taqozosiga amal qilish.
 - B. O'qish, o'rganish va yangilikka intilish.
 - D. Mehnat qilish, yangiliklar yaratish va undan mamnuniyat hosil qilish.
 - E. Boylik orttirish, amaldor bo'lish va shohona hayot kechirish.
233. Oddiy axloq normalarini aniqlang.
- A. O'z burchiga sadoqatligi.
 - B. Hayot mazmunini to'g'ri tushunishni bilish.
 - D. Halollik, haqiqatgo'ylik, sahiylik, mehmondo'stlik, xushmuomalalik, kamtarlik va h.k.
 - E. O'z hayotida adashmaslik, hayot maqsadini to'g'ri tanlash.
234. Axloq qanday kuchga tayanadi.
- A. Muayyan siyosiy tuzum tomonidan himoya qilinadi.
 - B. Jamoatchilik fikriga.
 - D. Zo'rlik kuchiga tayanadi.
 - E. Tarbiyalash, o'qitish va o'rgatishga.
235. Axloqiy normalarni buzgan shaxslarga qarshi qanday chora va tadbirlar ko'riladi?
- A. Jismoniy qiynash zarur, tayoq tarbiyasini qo'llash ma'qul.
 - B. Jismoniy javobgarlikka tortmoq lozim.
 - D. Jamoatchilik hukmi asosiy vosita bo'lmog'i lozim.

- E. Ota-ona tegishli tanbeh bermog'i lozim.
236. Axloqiy ongning o'ziga xosligi, betakrorligi nimada?
- A. Bevosita insonga bog'liqligida, uning mohiyatini belgilashligida.
 - B. Uning doimiyligida, kishining kundalik hayoti bilan chambarchas bog'liqligida.
 - D. Uning tarixiy jihatdan eng qadimiyligida.
 - E. Uning ijtimoiy ongning boshqa shakllari bilan uzviy bog'liqligida.
237. Siyosiy va axloqiy ongning bir-biriga ta'sirini aniqlang.
- A. Siyosiy mafkura axloqqa kuchli ta'sir qilmaydi.
 - B. Siyosat axloqqa ham, ijtimoiy ongning boshqa shakllariga ham bevosita ta'sir qiladi.
 - D. Siyosiy ong va siyosiy qarashlar yuksak axloqiy normalarni o'zida mujassamlashtirmog'i lozim.
 - E. Yuksak insonparvarlik g'oyalariga asoslangan siyosat yuksak taraqqiyotga olib boradi.
238. Axloq va fanning bir-biriga munosabatini aniqlang.
- A. Ilm-fan axloqiy barkamollik negizidir.
 - B. Yuksak axloqiy normalarni o'zida mujassamlashtira olgan odamgina ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladi.
 - D. Fanning axloqqa hech qanaqa aloqasi yo'q.
 - E. Axloq ham fanga deyarlik ta'sir qilmaydi.
239. Axloq va san'atning bir-biriga ta'sirini aniqlang.
- A. San'at odamni yuksak axloqiy ruxda tarbiyalaydi.
 - B. Yuksak axloqiy g'oyalarini o'zida mujassamlashtirmagan san'at asarlari hech qanaqa qiymatga ega emas.
 - D. San'at uchun xizmat qilmog'i lozim.
 - E. Axloqning san'atga ta'siri yo'q.
240. Axloq va dinning bir-biriga ta'sirini aniqlang.
- A. Diniy qarashlar to'la-to'kis o'zida axloqiy ta'limotlarni mujassamlashtiradi.
 - B. Har ikkalasini maqsadi ham insonning ma'naviy yangilanishini ta'minlaydi, uni to'g'ri yo'lga yo'naltiradi.
 - D. Diniy mafkura axloqqa kuchli ta'sir ko'rsatadi.
 - E. Diniy axloq boshqa, umuminsoniy axloq boshqa, ularning bir-biriga ta'siri yo'q.
241. Axloq bilan tarbiyaning bir-biriga munosabatlarini aniqlang.
- A. Axloq tarbiyaning nazariy asosi.
 - B. Tarbiya esa axloqiy normalarning amaliy ifodasi.
 - D. Axloq va tarbiya bir butun yagona jarayon bo'lmog'i lozim.
 - E. Axloq tarbiyaga deyarli ta'sir qilmaydi.
242. Vatanparvarlik tuyg'usini qanday tushunasiz?
- A. Tug'ilib o'sgan yerni sevish va e'zozlash.
 - B. O'z xalqi va millatini sevish, ardoqlash.
 - D. Bunday tuyg'u nisbiy xarakterga ega, kishining tug'ilib o'sgan joyi emas, uning to'q-farovon yashagan joyi uning vatani.
 - E. Kishining o'z ona tiliga, tarixiga va madaniyatiga, xalqi va millatiga bo'lgan sevgisi, ularni e'zozlashi.
243. Insonparvarlik tuyg'usini qanday tushunasiz?

- A. Kishining o‘zi uchun, o‘z urug‘-aymog‘i uchun qayg‘urishi.
- B. Nogiron va ojiz kishilarga qilgan g‘amxo‘rligi.
- D. Insonlarni sevish, yordamga muxtoj kishiga mehr-shavqat qilib yordam bera olishi, rostgo‘y, adolatparvar, axloqan barkamol insonparvar degan nomga sazovor bo‘la olishi.
- E. Insonparvar bo‘lish qiyin, chunki bunday tushuncha chiroyli ibora xolos, odamlar bir-birlarini ko‘ra olmaydi, bir-biriga dushman.
244. So‘z va ish birligi axloqiy qoidasini qanday tushunasiz?
- A. O‘z so‘zining ustidan chiqishlikda, berilgan va‘daning so‘zsiz bajarilishiga erishishda.
- B. Aytilgan so‘zning ro‘yobga chiqishi murakkab bir hodisa, u sharoitga bog‘liq holda yuzaga chiqishi ehtimol.
- D. So‘z bilan ishning birligini ta‘minlash mumkin emas.
- E. So‘z bilan ishning birligiga erishish aql-zakovati yuksak ishbilarmonligi, boy va serqirra ma‘naviyatining oqibatidir.
245. Yaxshilik va yomonlik kategoriyalarini qanday izohlay olasiz?
- A. Yaxshilik har bir insonga berilgan buyuk fazilat, axloqan barkamollik negizidir.
- B. Yaxshilik bor joyda yomonlik chekinadi.
- D. Yaxshilik bor joyda yomonlik ham bo‘ladi, gul tikansiz bo‘lmaydi-ku.
- E. Yaxshilik ham yo‘q, yomonlik ham yo‘q, bular faqat kishining u yoki bu xatti-harakatiga berilgan baho.
246. Vijdon kategoriyasini o‘ziga xos xususiyati nima?
- A. Vijdon - bu o‘z-o‘zini nazorat qilish.
- B. Vijdon - bu o‘zgalar manfaatini o‘ylash.
- D. Vijdon - bu o‘z-o‘zidan uyalish.
- E. Vijdon - bu o‘zgalar oldida tarbiyali ko‘rinish.
247. Baxt nima?
- A. Baxt - bu shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni qondirilishi.
- B. Baxt - bu kurash.
- D. Baxt - bu bir-birini tushunish.
- E. Baxt - o‘zligiga ega bo‘lish.
248. Or-nomus nima?
- A. Or-nomus - bu o‘z mehnati hisobiga yashash.
- B. Or-nomus - bu o‘z va o‘zgalar qadr-qimmatini bilish.
- D. Or-nomus - bu o‘zgalar haqiga xiyonat qilmaslik.
- E. Or-nomus - bu axloqiy hatti-xarakatlar, his-tuyg‘ular, munosabatlar.
249. Adolat nima?
- A. Adolat - o‘zgalarga yomonlik qilmaslik.
- B. Adolat - qonunlarga rioya qilish.
- D. Adolat - axloqiy norma va qoidalar asosida hayot kechirish.
- E. Adolat - bu inson tabiiy huquqlarining mezonidir.
250. Kasb-hunar axloqiy madaniyatini qanday tushunasiz?
- A. Har bir kishi kasbini sevishi, uni e‘zozlashi va muayyan kasb egasi sifatida faxrlanib yurmog‘i lozim.

B. O'z kasbiga xiyonat qilmasligi, unga bir umr sadoqatli bo'lishi zarur. Bu narsa uning yuksak ishbilarmonligida, yuqori sifatli mahsulot yaratishida namoyon bo'ladi.

D. Kasb insonga berilgan qobiliyat, uni istagan vaqtda o'zgartirishi, yoqmasa boshqa kasb bilan shug'ullanishi mumkin.

E. Kasb hech qanday axloqiy xarakterga ega emas, u kun ko'rish vositasi.

251. Muomala madaniyati deganda nimani tushunasiz?

A. Hamma bilan xushmuomalada bo'lish va o'z fikr-mulohazalarini boshqalarga o'tkaza olish.

B. Doimo haqiqatni gapirish.

D. Axloqiy etiketga rioya qilish.

E. Muomala maqsadga erishish vositasi bo'lmog'i lozim.

252. Axloqiy tarbiya qayerdan boshlanadi?

A. Eng avvalo oiladan, so'ngra bog'cha va maktabda davom qilmog'i lozim.

B. Hayotning o'zi katta tarbiya maktabidir, uni tarbiyalab o'tirish kerak emas.

D. Ota-ona xulq-atvori farzand uchun katta tarbiya maktabidir.

E. Ishlab chiqarish jamoasi muhim tarbiya rolini o'ynashi mumkin.

253. Farzandlik burchi nima?

A. Ota-onani, xalqini, Vatanni sevish, hurmat qilish va ular uchun samimiy xizmat qilish.

B. Oldiga qo'yilgan maqsadi yo'lida mehnat qilish.

D. Do'stlariga sodiq bo'lish.

E. Butun dunyo xalqlariga mehr-muhabbat bilan qarash.

254. Halollik, poklik nima?

A. O'z mehnati bilan yashash.

B. Vijdonan sof, aqlan etuk, so'z bilan ishi bir bo'lish.

D. Halollik - e'tiqod xolos.

E. Bir vaqtning o'zida odam ham halol, ham epchil, ishbilarmon, uddaburon bo'lishi mumkin emas.

255. Tarixda «estetika» atamasini kim tatbiq qilgan?

A. Baumgarten

B. Bualo

D. Bergson

E. Suqrot

256. Estetika – ...

A. Go'zallik va voqelikni estetik o'zlashtirish qonuniyatlari haqidagi fan;

B. Voqelikdagi estetiklikning mohiyati, estetik faoliyatning umumiy qonunlari va estetik ongning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi fan;

D. go'zallik qonunlari va estetik ong qonunlariga doir ijod to'g'risidagi fan;

E. nafosatshunoslik.

257. Estetika tarixida kim estetik tarbiya nazariyasining dastlabki loyihasini yaratgan?

A. Geraklit

B. Platon

D. Pifagor

E. Arastu

258. Faylasuflardan qaysi biri go‘zallikni maqsadga muvofiqlik bilan bir xil narsa deb hisoblagan?

A. Platon

B. Aristotel

D. Sokrat

E. Fales.

259. Faylasuflardan qaysi biri san‘at bilishga oid qimmatga ega emas, u yolg‘on va chinakamiga haqiqiy dunyoni bilishga to‘sqinlik qiladi, deb hisoblagan?

A. Platon

B. Demokrit

D. Geraklit

E. Aristotel

260. Estetiklikning mohiyati, uni voqelikda va san‘atda bilishning asosiy tamoyillari, odamlarning estetik va badiiy faoliyatining tabiati va muhim roli haqidagi tushunchalar tizimi nima deb ataladi?

A. estetik qarashlar

B. estetik nazariya

D. estetik ideallar

E. estetik tushuncha

261. Tabiat, jamiyat hodisalari, inson mehnati mahsullari, san‘at asarlarining mukammalligi haqidagi o‘ziga xos hukm qanday ataladi?

A. estetik did

B. estetik baho

D. estetik his

E. estetik ideal

262. Antik dunyo estetikasining qanday atamasi san‘atning odamga qiladigan poklovchi ta‘sirini ifodalash uchun xizmat qiladi?

A. kvantifikatsiya

B. kalokagatiya

D. katarsis

E. teatr

263. Estetikada odamzod jamiyatining dunyoni go‘zallik qonunlari bo‘yicha o‘zlashtirishi tarixini aks ettiradigan fundamental tushunchalar nimalar?

A. estetik ideallar

B. estetik baholar

D. estetik kategoriyalar

E. estetik hislar

264. Qanday yo‘nalish vakillari go‘zallikning ma‘naviylik bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlashgan?

A. Klassitsizm

B. Uyg‘onish

D. Ma‘rifatchilik

E. Madaniyatlik

265. Faylasuflardan qaysi biri go‘zallikni idrok etishda sub’ektivlik, shaxsiylikning omilini, shuningdek, estetik his-tuyg‘uning utilitar manfaatdor emasligini ko‘rsatgan?

- A. Hegel
- B. Kant
- D. Feyrbax
- E. Baumgarten

266. Kim klassitsizm estetikasining taniqli nazariyotchisi hisoblanadi?

- A. Bualo
- B. Baumgarten
- D. Bergson
- E. Hegel

267. Madaniyat tarixida qanday bosqich vakillari fanga katta ahamiyat ajratishgan va uni san’at bilan bog‘lamoqchi bo‘lgan?

- A. Ma’rifatchilik
- B. Renessans
- D. Klassitsizm
- E. Antik

268. Estetika kategoriyalaridan qaysi biri odamning azob-uqubatlar chekishi, o‘limi va uning hayoti uchun muhim qadriyatlarning barham topishiga olib keladigan keskin hayotiy ziddiyatlarni aks ettiradi?

- A. xunuklik
- B. qahramonlik
- D. fojaviylik
- E. kulgulilik

269. Estetikada san’at asarida mujassam bo‘lgan muayyan dunyo va odam konsepsiyasini aks ettiradigan estetik umumlashtirilgan fikr, qanday atama bilan ifodalanadi?

- A. g‘oya
- B. syujet
- D. fabula
- E. madaniyat

270. Estetikaning qaysi kategoriyasi tabiatdagi, ijtimoiy hayotdagi, odamdagi nouyg‘unlikning konsentratsiyalashgan ifodasini aks ettiradi?

- A. xunuklik
- B. fojaviylik
- D. o‘zgarmaslik
- E. yaxshilik

271. Estetikada xatti-harakatlarning buyukligi, qiliqlarning fidokoronaligi, hodisalarning yoki voqealarning ulkanligi oldidagi hayratlanish, qoyil qolish qanday kategoriya orqali ifodalanadi?

- A. qahramonlik
- B. go‘zallik
- D. yuksaklik
- E. ulug‘vorlik

272. Qaysi tarixiy davrdagi estetika ulugʻlikni ilohiylikka tenglashtirgan?
- A. Uygʻonish
 - B. Klassitsizm
 - D. Oʻrta asrlar
 - E. Antik
273. Qanday kategoriyalar har xil tipdagi hayotiy ziddiyatlarning estetik ifodasi boʻladi va oʻz taʼsirini faqat ijtimoiy hodisalarga tegishli deb biladi?
- A. fojiaviylik va komiklik
 - B. fojiaviylik va goʻzallik
 - D. fojiaviylik va yuksaklik
 - E. yaxshilik va yomonlik
274. Ayni bir vaqtning oʻzida ikkita sanʼatga: teatr va adabiyotga taaluqli adabiyot turi qanday ataladi?
- A. tragediya
 - B. komediya
 - D. drama
 - E. lirik
275. Badiiy asarning gʻoyaviy-estetik yoʻnalishi; asar gʻoyasining qimmatli jihati qanday ataladi?
- A. ideallashtirish
 - B. tipiklashtirish
 - D. tendensiyaviylik
 - E. atoritaritatsiya
276. Estetikada voqelikni sanʼatda aks ettirish tamoyillarining majmui qanday atama bilan ifodalanadi?
- A. oqim
 - B. maktab
 - D. uslub
 - E. yoʻnalish
277. Nafaqat ijodning gʻoyaviy-estetik tamoyillarining, shu bilan birga ushbu sanʼat turi doirasida hal qilinadigan aniq badiiy vazifalar umumiylikiga koʻra yaqin rassomlar guruhi qanday ataladi?
- A. oqim
 - B. maktab
 - D. yoʻnalish
 - E. uslub
278. Goʻzallik mohiyatini “hamma narsaning mezoni - inson” degan qarash orqali izohlagan Qadimgi Yunon faylasufi?
- A. Pifagor
 - B. Protagor
 - D. Aflotun
 - E. Arastu
279. Forobiyning bevosita estetik qarashlari bayon qilingan asarlarini aniqlang?
- A. «Musiqqa haqida soʻz»
 - B. «Musiqqa haqida katta kitob»

- D. «Ritmlar turkumlari haqida kitob»
 E. Barcha javoblar to'g'ri
280. A.Navoiyning adabiy-estetik qarashlari bayon qilingan asarlarini aniqlang.
 A. "Mezon-ul-avzon"
 B. "Mufradot"
 D. "Majolis-un-nafois"
 E. hammasida bayon qilingan
281. Olmon (nemi) mumtoz estetikasi vakillarini aniqlang:
 A. Didro, Lametri, Golbax
 B. B.Kant, Shiller, Shelling, Gegel
 D. Dekart, Bekon, Lokk
 E. Xaydegger, Yaspers, Freyd
282. O'rta asrlar musulmon SHarqi sanati taraqqiyotining oltin davri –
 A. eftalitlar davri
 B. saljuqiylar davri
 D. A.Temur va temuriylar davri
 E. tohiriylar davri
283. Estetik qadriyatlarning orzu qilingan, talab darajasidagi obraz, tasavvurlarni ifodalovchi ong unsuri – bu:
 A. estetik did
 B. estetik extiyoj
 D. estetik ideal
 E. san'at
284. Estetik faoliyat turlarini aniqlang:
 A. sanat, dizayn, texnika estetikasi
 B. odob, xulq, axloq
 D. tushuncha, hukm, xulosa
 E. nafrat, rashk, burch
285. Estetikaning mezoniy tushunchalari (kategoriyalari)ni aniqlang:
 A. nomus, adolat, burch, vijdon
 B. tushuncha, xukm, xulosa, idrok
 D. go'zallik, ulug'vorlik, fojiaviylik, qulgililik;
 E. borliq, harakat, fazo, vaqt
286. Jamiyat va shaxs hayotidagi o'ta ziddiyatli, murakkab hodisalarni ifodalovchi estetik mezoniy tushuncha (kategoriya) ...?
 A. fojeaviylik
 B. ulug'vorlik
 D. go'zallik
 E. kulgililik
287. Estetikaning qaysi mezoniy tushunchasi (kategoriyasi)da ijtimoiy ahamiyatga molik ziddiyatlarga estetik ideal nuqtai nazardan bo'lgan tanqidiy munosabat ifodalanadi?
 A. ulug'vorlik
 B. fojeaviylik
 D. kulgililik

E. go‘zallik

288. Inson ichki ma’naviy-ruhiy dunyosini, uning tashqi xatti-harakati (husni chiroyi) bilan uyg‘unligini aks ettiruvchi tushuncha:

A. jamiyat go‘zalligi

B. insondagi fojiaiviylik

D. inson faoliyatidagi kulgililik

E. shaxs go‘zalligi

289. «Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida»gi Qonun qachon qabul qilingan?

A. 2007 yilda

B. 2008 yilda

D. 2009 yilda

E. 2010 yilda

290. 2010 yilda O‘zbekiston Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog‘ining qaysi harakat dasturiga qo‘shildi?

A. Istanbul harakat dasturiga

B. Nyu-York harakat dasturiga

D. Xalqaro harakat dasturiga

E. Bryussel harakat dasturiga

291. Qonunda shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishiga nima deyiladi?

A. jinoyat

B. huquqbuzarlik

D. mansab vakolatidan o‘zi uchun foydalanish

E. korrupsiya

292. Korrupsiyaning kelib chiqishini aniqlash va unga qarshi kurash borasida dunyo miqyosida nimalarga e’tibor berilmoqda?

A. korrupsiyaga qarshi kurashda ijtimoiy-tarixiy vaziyat, fuqarolarning huquqiy dunyoqarashi, davlat tuzilishi, iqtisodiy rivojlanish omillaridan kelib chiqiladi

B. korrupsiyaning kelib chiqish sabablarini ochish, unga qarshi kurashishning samarali yo‘llarini topish bo‘yicha olimlar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o‘tkazilgan, korrupsiyaning xilma-xil formulalari ishlab chiqilgan

D. turli ko‘rsatkich va raqamlar aks etgan jadvallar yaratilgan, o‘ziga xos reytinglar tuzilgan

E. barcha javoblar to‘g‘ri

293. Korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmishga nima deyiladi?

A. «sotish», «sotilish»

B. mansab qidalarini buzish

D. korrupsion jinoyat

E. korrupsiyaga oid huquqbuzarlik

294. Milliy parlamentimiz tomonidan qabul qilinib, 2017 yil 3 yanvarda Prezidentimiz tomonidan imzolangan 6 bob, 34 moddadan iborat Qonunni aniqlang?

A. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni

B. "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni

D. "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni

E. "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni

295. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunining 4-moddasida qaysi masalalar yoritib berilgan?

A. korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari

B. korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

D. korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari

E. korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoralararo komissiyalar

296. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunning 7-moddasiga ko'ra quyidagi qaysi organ korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshirmaydi?

A. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi

B. O'zbekiston Respublikasi Milliy (hozirda Davlat) xavfsizlik xizmati

D. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi

E. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

297. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunning 18-moddasiga ko'ra ...

A. korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya belgilangan davlat ta'lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladi

B. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi korrupsiyaga qarshi kurashadi

D. Idoralararo komissiyani shakllantirish va uning faoliyati tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi

E. barcha javoblar to'g'ri

298. Qanday rahbarlar islohotlarga to'siq bo'lib, korrupsiya holatining ko'payishiga sabab bo'lishi mumkin?

A. «Jamoadi hamma qulaylik o'zim uchun, bu tashkilot menga bir paytlardagi xizmatlarim, farog'atda yashamog'im uchun berilgan, marhamat, qolganlar aravasini o'zi amallab tortaversin» qabilida tor va eskicha o'ylaydigan rahbarlar

B. «oldi-berdi»ni faoliyatining bir qismi deb tushunadigan, demokratik qonun-qoidalarni yetarlicha idrok eta olmaydigan rahbarlar

D. nobop, «muomala qilish», «kelishish»ga moyil rahbarlar

E. barcha javoblar to'g'ri

299. Korrupsiyaga qarshi kurashishdagi muhim jihatlarga quyidagilardan qaysi biri taalluqli emas?

A. davlat hokimiyati organlari faoliyatida ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash

B. “Korrupsiya haqida qonun qabul qilindi, endi hammasi iziga tushib ketadi”, deb o‘ylash, xotirjam bo‘lishlikka berilish

D.fuqarolarga tezkor va xolis axborot yetkazishda ommaviy axborot vositalariga erkinlik berish

E. demokratik islohotlar jarayonida ommaviy axborot vositalarining nufuzi va mavqeini oshirish

300. Quyidagilardan qaysi biri korrupsiyaning salbiy oqibatlariga kirmaydi?

A. turli byurokratik to‘siq va g‘ovlarni yo‘q qilinishi

B. mansabdor shaxslarning jinoyatchilar bilan til biriktirishi natijasida jamiyat siyosiy va iqtisodiy inqiroziga yuz tutishi mumkinligi

D. korrupsiya oxir-oqibat uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullab-yashnashi uchun sharoit yaratib beradi

E. korrupsiya fuqarolar, ayniqsa, yosh avlodda ijtimoiy adolatga, haqiqatga, davlat organlari va mansabdor shaxslarga bo‘lgan ishonchini susaytiradi

V. FAN BO‘YICHA BAHOLASH MEZONLARI

Talabalarning fanlarni o‘zlashtirishi 5 ballik tizimda baholanadi

5 (a’lo) baho:

Xulosa va qaror qabul qilish;
Ijodiy fikrlar olish;
Mustaqil mushohada yurita olish;
Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish;
Mohiyatini tushunish;
Bilish, aytib berish;
Tasavvurga ega bo‘lish;

4 (yaxshi) baho:

Mustaqil mushohada yurita olish;
Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish;
Mohiyatini tushunish;
Bilish, aytib berish;
Tasavvurga ega bo‘lish;

3 (qoniqarli) baho;


Mohiyatini tushunish;
Bilish, aytib berish;
Tasavvurga ega bo‘lish;

2 (qoniqarsiz) baho:


Dasturni o‘zlashtirmaganlik;
Fanning mohiyatini bilmaslik;
Aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik;
Mustaqil fikrlay olmaslik.

VI. FAN BO‘YICHA TARQATMA MATERIALLAR

FALSAFA – FAN SIFATIDA



DUNYOQARASHNING TARIXIY TIPLARI



DUNYONI FALSAFIY ANGLASHNING TURLI SOHALARI (FALSAFA MADANIYAT TIZIMIDA)

Tabiat falsafasi	Tarix falsafasi	Jamiyat falsafasi	Siyosat falsafasi
Inson falsafasi	Yadro <u>Ontologi</u> <u>ya</u> <u>Gnoseolo</u> <u>giya</u> <u>Metodol</u> <u>ogiya</u> <u>Logika</u> Falsafa Dunvodorash		Huquq falsafasi
Texnika falsafasi			Axloq falsafasi
Fan falsafasi	Ijtimoiy boshqaruv falsafasi	San’at falsafasi	Din falsafasi


Ontologiya-(yunonchaontos-borliqlogos-ta'limot) falsafaning borliq to'g'risidagi fundamental tamoyillarini o'rganuvchi sohasi

Logika-(yunoncha logos-fikr, so'z qonun) fikrning tuzilishi, uning konkret shakllari, chin bilimga erishishning shart-sharoitlari va qonun qoidalarini o'rganuvchi falsafiy fan

Gnoseologiya-(yunoncha gnosis-bilim, ilm logos-talimot) falsafaning tarkibiy qismi, bilish nazariyasi, bilishning umumiy qonuniyatlari, usullari to'g'risidagi falsafa sohasi

Metodologiya-1)biror fanda tatbiq etiladigan tadqiqot usullarining majmui; 2)ilmiy bilim va dunyoni o'zgartirish metodi haqidagi ta'limot

FALSAFANING ASOSIY YO‘NALISHLARI




Gnostitsizm (yunoncha gnosis-bilish) fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan insongina borliqdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilishi mumkinligi to‘g‘risidagi falsafiy talimot.


Agnostitsizm (yunoncha agnostos-bilishni inkor etish) tabiat va jamiyat qonuniyatlari mohiyatini bilishni inkor etib, bilimni voqelikka muvofiq emas deb hisoblovchi falsafiy talimot.

Dualizm (lotincha dua - ikki yoqlama) monizmga qarama-qarshi o‘laroq, moddiy va ruhiy substansiyaning teng huquqli asoslar deb hisoblaydigan falsafiy ta’limot.

QADIMGI XITOIY FALSAFASI YO'NALISHLARI (m. a. VII-III asrlar)




QADIMGI HIND FALSAFASI



PLATON (AFLOTUN) FALSAFASI


(m.a. 428/427 – 347 yillar)

Platon – idealizm asoschisi: «Platon chizig‘i»



ARISTOTEL (ARASTU) FALSAFASI


(m.a. 384 – 322 yillar)




O'quv topshiriq:

“Baliq skeleti” texnikasi asosida katta muammolarinig yechiminin topishga qaratilgan. Yuqori qismida muammolar turi yozilsa, pastki qismida esa muammolarini tasdiqlovchi dalillar yoziladi


Nima uchun
noan'anaviy
falsafa
shakllandi



MARKAZIY OSIYODA QADIMGI FALSAFIY QARASHLAR



ZARDO'SHTIYLIK



YANGI DAVR FALSAFASI


Yangi davr falsafasiga avvalo tabiatshunoslikdan kelib chiqadigan kuchli materialistik tendyensiya xos. XVII asrda Yevropaning yirik faylasuflari qatoriga **F.Bekon**, **T.Gobbs** va **J.Lokk** (Angliya), **R.Dekart** (Fransiya), **B.Spinoza** (Gollandiya), **G.Lyebnits** (Germaniya) kiradi.

Klassik falsafa vakillari


Immanuil Kant. Kant konsepsiyasi: «Sof aql tanqidi» (1781), «Amaliy aqlning tanqidi» (1788), «Mulohaza yuritish qobiliyatining tanqidi» (1790) da, shuningdek faylasuf ijodining o'ziga xos sarhisobi sanaluvchi asar – «Sof aql chegaralarida din» (1793) kabi kitoblarida bayon etilgan.

Fridrix Shelling. Bosh asari: «Transsendent idealizm tizimi». «Transsendent idealizm tizimi» ning gnoseologik va metodologik ahamiyati shundaki, bu asar bilish nazariyasiga tarixiylik tamoyillarini ilk bor izchil ko'rishda kiritdi.

Georg Hegel. Hegel falsafiy tizimi nemis klassik idealizmining tadrijiy yakuni hisoblanadi. Buyuk faylasufning barcha mashhur asarlari: «Ruh fenomenologiyasi» (1807), «Mantiq fani» (1812-1816), «Falsafa fanlari qomusi» (1817) ayni shu tizimni ishlab chiqishga bag'ishlangan. «Ruh fenomenologiyasi» asari Hegel falsafiy tizimiga o'ziga xos debochadir. Bu asarda Hegel inson ongi turli darajalari rivojlanishining izchil qatorini tahlil qiladi.



HOZIRGI ZAMON FALSAFASI UMUMIY XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI



(F)-fikringiz bayon eting


(S)-fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

(M)-ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring


(U)-Fikringizni umumlashtiring

(F)-
(S)-
(M)-
(U)-

«Nima uchun» texnikasidan foydalanib organayzerni to'ldirish




DUNYONI FALSAFIY TUSHUNISH




MATERIYA




Materiya – bu tushuncha, abstaksiya, fikrning mahsulidir, chunki, olamda «umuman materiya» uchramaydi, balki materiyaning konkret ko'rinishlari uchraydi. Umuman, hamma vaqt materiya konkret ob'ektlar ko'riishida uchraydi. Shunday qilib, faylasuflar barcha moddiy ob'ektlarga xos xususiyatlarni umumiy tarzda ifodalash uchun qo'llaydigan tushuncha bu «materiya»dir.




Materiya atributlari



ONTOLOGIYA




BORLIQNING MAVJUDLIK USULLARI VA SHAKLLARI



QARAMA-QARSHILIK VA ZIDDIYAT QONUNI

Qarama-qarshilik va ziddiyat qonuni borliqda o'z tabiatiga ko'ra aynan bir xil va shu paytning o'zidayoq bir-birini inkor etuvchi ibtidoning abadiy kurashi qonuniyatidir. Qarama-qarshi ibtidoning mangu kurashi va birligi borliqda harakatda bo'lgan jamiki unsurlarga xosdir.



MIQDOR O'ZGARISHLARI VA SIFAT O'ZGARISHLARI DIALEKTIKASI

Miqdor ozgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni

O'ziga xos xususiyatlari

✓ **Sifat** – borliqqa teng belgi, predmetga xos muayyan xususiyatlar tizimi

✓ **Miqdor** – muayyan predmetning yoki hodisaning sanoq hajmi


✓ **Me'yor** – sifat va miqdor mutanosibligi

✓ Miqdor o'zgarishi bilan sifat ham muqarrar o'zgaradi


✓ Sifat cheksiz o'zgara olmaydi. Shunday on keladiki, sifat o'zgarishi me'yor o'zgarishiga – ya'ni muayyan borliq mohiyatining tub o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bu kabi holatlar falsafada «tugun», predmetning mutlaqo boshqa holatga o'tishi esa «sakrash» deyiladi. Misol uchun, suv qaynaganda bug'ga aylanadi va tarkibiy o'zgarishlarga uchraydi. Ayni holatda haroratning 100 gradusga ko'tarilishi «tugun» va suvning bug'ga aylanishi «sakrash» hisoblanadi.

✓ Tabiatda har doim ham bu singari holatlarni aniqlab bo'lmaydi. Miqdorning sifatga o'zgarishi muntazam amalga oshadi. Bu o'rinda antik yunon hikmati yaqqol misol bo'lishi mumkin: “Qancha don bir uyum bo'ladi”.


IJTIMOIIY ONG SHAKLLARI




BILISH NAZARIYASI




BILISH NAZARIYASI



MADANIYAT va SIVILIZATSIYA







Mantiqlarning asosiy qonunlari

№	Asosiy qonunning nomlanishi	Asosiy qonunning nomlanishi	Asosiy qonunni ifodalovchi formulalar	Misollar
1.	Ayniyat qonuni	Har qanday fikr o'z miqdori va sifatiga ko'ra tafakkur jarayonida o'ziga tengdir	$A \text{ — } A$ $A \leftrightarrow A$ $A \rightarrow A$ $A = A$	...
2.	Ziddiyat qonuni	Bir narsa yoki hodisa to'g'risida ayni bir vaqtda aytilgan ikki qarama-qarshi hukmning ikkalasi ham chin bo'lishi mumkin emas, ulardan hech bo'lmaganda biri yolg'ondir	Barcha S-P dir Birorta S-P emas $A - A \text{ emas}$	Barcha jinoyatchilar jazolanadilar. Birorta ham jinoyatchi jazolanmaydi. Mazkur fikrlarning hech bo'lmaganda biri yolg'ondir. (Ikkalasi ham yolg'on bo'lishi mumkin)
3.	Uchinchisi istisno qonuni	Bir-biriga zid bo'lgan ikkita fikr (hukm) bir paytda yolg'on emas va aalbatta ulardan biri chindir	«A» yo «B» yoki «B» emas Barcha S-P dir Ba'zi S - P emas	Barcha sud qarorlari qonuniydir. Ba'zi sud qarorlari noqonuniy. Ushbu fikrlardan faqat bittasi chin, ikkinchisi esa yolg'ondir.
4.	Yetarli asos	Har qanday to'g'ri fikr yetarlicha asosga ega	Agar «B» mavjud bo'lsa, uning asosi «A» ham mavjuddir	Agar jinoyat sodir bo'lgan bo'lsa, jinoyatshi ham mavjuddir

XULOSA CHIQARISH

Xulosa - tafakkur shakli bo'lib, bir yoki bir necha hukmlardan muqarrar ravishda yangi boshqa bir hukm keltirib chiqarishdan iborat





VII. O‘UMNING ELEKTRON VARIANTI